



**Mexriniso ABUZALOVA,**

BuxDU professori, filologiya fanlari doktori

**Shahnoza ISLOMOVA,**

BuxDU O'zbek tilshunosligiga jurnalistikka kafedrasini tayanch doktoranti

E-mail: @Abuzalova;islomovas98@gmail.com

Buxoro davlat pedagogika instituti dotsenti, f. f. d. N.I. G'aybullayeva taqrizi asosida

## PSYCHOLINGUISTIC CHARACTERISTICS OF MEDICAL LANGUAGE AND MEDICAL TEXTS

### Annotation

The article discusses the active integration of linguistics with medicine, the disclosure of the linguistic features of medical units, the identification of medical linguistic units from literary texts, and the study of textual linguistic features.

**Key words:** Linguistics, medical text, medical units, doctor's speech, medical language, medical terminology, medical paremas.

## ПСИХОЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА МЕДИЦИНСКОГО ЯЗЫКА И МЕДИЦИНСКИХ ТЕКСТОВ

### Аннотация

В статье говорится об обеспечении активной интеграции языкоznания с медициной, выявлении языковых особенностей медицинских единиц, вопросах их влияния на психологию человека, выявлении медицинских языковых единиц из художественных текстов, исследовании текстолингвистических особенностей.

**Ключевые слова:** Языкоznание, медицинский текст, медицинские единицы, врачебная речь, медицинский язык, медицинская терминология, медицинские термины.

## TIBBIYOT TILI VA TIBBIY MATNLARNING PSIXOLINGVISTIK XUSUSIYATLARI

### Annotatsiya

Maqolada tilshunoslikning tibbiyot bilan faol integratsiyalashuvini ta'minlash, tibbiy birliklarning lingvistik xususiyatlarini olib berish, ularning inson psixologiyasiga ta'siri masalalari, tibbiy lingvistik birliklarni badiiy matnlardan aniqlash hamda matniy lingvistik xususiyatlarini tadqiq etish xususida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Tilshunoslik, tibbiy matn, tibbiy birliklar, shifokor nutqi, tibbiyot tili, tibbiyot terminologiyasi, tibbiy paremalar.

**Kirish.** Muayyan xalqning o'zligi, dunyoqarashi, tafakkuri, turmush tarzi, o'tmishi va kelajagini aks ettirishda ona tilining o'rni beqiyos. Tilning lisoniy imkoniyatlaridan amaliy foydalanish, tilshunoslikning qator fanlar bilan aloqasini o'rganish natijasida nutqning serqirraligi yaqqol namoyon bo'ldi. Tilning bunyodkorlik vazifasi, amaliy ahamiyati tilshunoslikning qator fanlar bilan integratsiyalashuvi natijasida olib berildi. Natijada, qator soha lingvistikalari shakllandi: psixolingvistika, sotsiolingvistika, neyrolingvistika, lingvokulturologiya, tibbiy lingvistika va boshqalar.

"Globallashuv sharoitida milliy tilimizning softilgini saqlash, uning lug'at boyligini oshirish, turli sohalarda zamonaviy atamalarining o'zbekcha muqobilini yaratish, ularning bir xil qo'llanishini ta'minlash dolzarb vazifa bo'lib turibdi... Yana bir muhim vazifa fundamental tadqiqotlar, sanoat, bank-moliya tizimi, yurisprudensiya, diplomatiya, tibbiyot va boshqa tarmoqlarda davlat tilini to'laqonli qo'llash bilan bog'liq"<sup>[1]</sup> ekan, tibbiy birliklarning ma'noviy, vazifaviy, uslubiy xususiyatlarini aniqlash ham muhim ahamiyatga ega.

Bugungi kunda tibbiyot tilshunosligi, tibbiy lingvistika deb ataladigan yangi fan tarmog'i rivojlanib bormoqda. Tibbiyot tili tibbiyot tarixchilar uchun ham, tilshunoslar uchun ham dolzarb masalalarni hal etmoqda. Klassik olimlar eng qadimgi tibbiy yozuvlarning mazmuni va tilini batafsil tahlil qildilar, bugungi kunda esa tibbiy lingvistikating, tibbiy terminologiyaning keyingi rivojlanishi tilshunosligimizning yutug'idir.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Zamonaviy tibbiyotning kelib chiqishi va taraqqiyot bosqichi qadim

tarixning turli davrlaridagi dunyoqarashlarni qamrab oladi. Ayonki, turli kasalliklar, ularni davolash va oldini olish haqidagi bilimlar asosi qadimdan kishilarning tajriba va kuzatishlariga bog'liq bo'lган. Tibbiyotning xalq tabobatidan mustaqil fan darajasiga ko'tarilishida qadimgi Misr, Bobil tibbiyoti, Gippokrat va Galenning muhim o'rni bor. Gippokrat kasalliklarni aniqlash, bemorning hayoti va faoliyatiga tashqi muhitning ta'sirini o'rganish, xastalikning kelib chiqish sabablarini topish va davolashda bemor organizmining o'ziga xos xususiyatlarini bilish kabi masalalar bilan shug'ullanigan. Galen esa birinchi bo'lib organizmdagi a'zo va sistemalarning tuzilishi hamda funksiyalarini, asosan, hayvonlar (maymunlar) organizmida tajriba qilib o'rgangan. Uning anatomiya va fiziologiyaga doir asarlari to XVI asrgacha tibbiyotning asosi bo'lib xizmat qildi.

O'rta asrda Abu Ali ibn Sino tibbiyotning rivojlanishiga katta hissa qo'shdi. Uning "Al-Qonun fit-tib" ("Tib qonunları") asari ko'p asrlardan beri dunyo tibbiyotda asosiy qo'llanma bo'lib kelmoqda.

Hozirgi kunda zamonaviy tilshunoslik muammolarini odatda inson omili orqali ko'rib chiqiladi. Deyarli barcha kasblar ixtisoslashgan jargonlarga ega. Tibbiyot o'z noyob tili bilan bundan istisno emas. Tibbiyot tarixidan ma'lumki, bundan 2400 yil muqaddam Suqrotning shogirdi Aflatun shunday degan: "Juda katta xatolik sodir bo'lyapti: vujud va ruhiyat kasalliklarini alohida-alohida hakimlar davolayapti. Axir, vujud va ruh bir-biridan ajralgan holda emas-ku?!"

Haqiqatdan ham hakimlar yaqin kunlarga qadar bemorni "taqsimlab" davoladilar. Natijada, kasallar katta kuch va vaqt sarf etgan holda davo topdi. Antroposentrik tilshunoslik yo'nalishi hisoblangan tibbiy lingvistika tibbiyot

va psixologiya, tibbiyot va falsafa, tibbiyot va mantiq, tibbiyot va lingvistika uyg'unligida juda ko'plab muammolarga yakun yasamoqda.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tibbiyotda mavjud bo'lgan va bemorlar uchun ishlatalidigan dori-darmonlar xususiyatlari, ta'siri, kasalliklar nomlari, shifokorlar nutqida uchraydigan ko'plab so'zlar bemorlar va ularning yaqinlari uchun tushunarsizdir. Chunki, tibbiyot atamalarning deyarli ko'pchiligi lotin yoki ingliz tilidadir. Bugungi kunda tilshunosligimiz oldidagi dolzarb masalardan biri milliy tibbiyot tilini yaratish masalasidir. Tibbiyot terminologiyasi dunyoda eng qadimgi maxsus atamalardan biri hisoblanadi. Bu leksikaning ixtisoslashgan sohasi tilshunoslik fanidir, u o'rganadi, tahlil qiladi va tavsiplaydi.

Dunyo tilshunosligida tibbiyot tili shakllanib bo'lgan, ularning maxsus terminologiyasi, tibbiyot birlklar korpusi yaratilgan. Tibbiyot terminologiyasining asosini yunon-lotin tili tashkil etadi, tibbiyot tili ham yunon-lotin yadrosining natijasidir[2].

Tilimizdagagi ayrim iboralarining etimologiyasi tibbiyotga borib taqaladi. Masalan, "sherdek yuragi bor" iborasi — eng qo'rroq jonivor hisoblangan quyonning buyrakosti bezlari asosan, adrenalinal ishlab chiqaradi, vahshiy hayvonlarniki esa noradrenalin ishlab chiqaradi. Bunaqa alomatlar odamlarda ham uchraydi. Masalan, yili sher bo'lgan odamda hissiyotli, asabiy taranglik vaqtida ko'p miqdorda noradrenalin ishlab chiqariladi. Bunaqa odamlar asabiy taranglik vaqtida o'zlarini bardam tutadilar. Ularda ichki imkoniyat zaxirasi kuchli bo'ladi. Bunaqa odamlarni "Sherdek yuragi bor" deyishadi[3].

**Tahhil va natijalar.** Tibbiyot va tilshunoslik integratsiyaga kirishuvni ko'plab kasalliklarga oson davo usullarini topishga imkon yaratdi. Har qanday shifokor, tabib, muolajakor faqat bemor uchun ishlamasligi kerak va buni bemorga to'g'ri yetkazib bilishi lozim. Ibn Sino aytganidek: Biz uchtamiz: men, sen va kasallik. Agarda men bilan sen birlashsak, albatta, kasallikni yengamiz, agarda sen kasallik yoniga tushadigan bo'lsang, unda men ojizman[4]! Bu axborotli yondashuvdir. Axborotni to'g'ri yetkazib berish va uni qabul qilish juda muhimdir. Ibn Sino tabib, muolajakor, nafaqat, davokor bo'lmog'i, balki mohir notiq, kuchli pedagog bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi.

Bugungi kunda tibbiyot birlklar leksikasining asosini yunon-lotin birlklari tashkil etadi. Ammo, yunon-lotin tilidagi tibbiyot birlklarning milliy (o'zbekcha) varianti ham bor.

Tibbiyotda ishlatalidigan terminlarning ko'pchiligi bemorlar va ularning yaqinlari uchun tushunarsizdir. Bugungi kunda tilshunoslari oldidagi vazifalardan biri yo'qolib borayotgan noyob tibbiyot birlklarni to'plash, Ibn Sino qalamiga mansub "Tib qonunlari" asaridagi ayrim tibbiyot birlklarni lingvistik jihatdan o'rganib shifokorlar va xalqqa lug'atlar, qo'llannalar shaklida taqdim etishdir. Masalan, hozirgi kun tibbiyot termini hisoblangan "diabet", "qand" kasalligini olaylik. Bu kasallik "Tib qonunlari"da "shakar" kasalligi deb berilgan va izohi quydagicha keltirilgan:

...tez-tez va ko'p siyish, doimiy chanqash, tutoqish, bemorning darmonsizligi va ba'zan bemorning gangrena kasalligiga mutbalbo'lishi; bu kasallikda siyidik tiniq, og'ir va mo'l bo'ladi. Bug'ga aylangandan keyin qolgan quyqasi asaldan shirin ta'mga ega bo'ladi, tanada shakar miqdori oshib ketadi[5].

Diabet—[yun.diabino-o'taman, o'tib ketaman]. Tibbiyotda kasalliklarning ko'p siydiradigan turlarining umumiy nomi[6].

"Har yili dam olishga borganimda onamga gilam paypoq olib kelaman. Kavkaz tomonda ko'p bo'ladi. Juba deyishadi, jurabi deyishadi. Oyim xuddi noyob narsaga ega bo'lgandek, uzundan-uzoq duo qiladi. Shundoq mehribon o'g'li borligini aytib qo'shnilariga maqtanadi. Uning oyog'i

kasal. Salqin tushishi bilan shishib ketadi, og'riydi. Qo'nishqanlar ahvol so'rasa, ularniyam, o'ziniyam yupatadi. — Ha, endi keksalik-da, o'rgilay. Lekin onamning oyoq og'rig'i faqat keksalikdan emas. Buni boshqalar bilmasa ham, men bilaman. Yaxshi bilaman. Bolaligimda ko'p kasal bo'lardim: qizamiq, ko'kyo'tal, bezgak... Shuning uchun oshxonadagi mixda ko'k qarg'aning patidan tortib, gultojixo'rozgacha ilig'lik turardi... Ayniqsa, tomoq og'rig'i yomon qiyaydi. Oyog'im zaxga tegishi bilan tomos'im og'rishga tushadi. Oyoq bilan tomoqning nima aloqasi borligini haliyam tushunolmayman. O'shanda necha yoshligim esimda yo'q. Biroq juda kichkina edim. Bir kuni akalarim bilan yaxmalak o'ynab terlab ketdim. Terlab turib muz yedim. Kechqurun isitma ko'tarildi. Quv-quv yo'talaman. Oyim tomos'imni achchiqtosh bilan chayib ko'rdi, bo'lmadi, turshak qaynatib suvini ichirdi, bo'lmadi... Oxiri tomos'im xippa bo'g'ilib qoldi. Og'riqni sezmayman-u nafas olishga qiynalaman. Hushimdan keta boshlaganimni es-es bilaman. Qulog'im ostida onamning chirqillab yig'lagani, hadeb bir gapni qaytarayotgani eshitiladi:

— Voy, endi nima qilaman! Voy, bolam o'lib qoladi!

Keyin meni shosha-pisha ko'rpachaga o'radi. Bir mahal onamning qo'lida ketayotganim esimda bor. Gupillatib qor yog'ayotganim his etib turardim-u, biroq yuzimga qor tushmas edi. Onamning issiq nafasi urilib turar, u sirg'anbisrig'anib borar, og'ir hansirar edi. Xira chiroq miltirab turgan allaqanday uuga kirdik. Ko'z o'ngim yana qorong'ilashib ketdi. Oyim hamon chirqillaydi.

— O'lib qoladi! Bolaginam o'lib qoladi!

— Vahima qilmang, poshsha, dardni bergan Xudo, davosiniyam beradi.

Bu Hoji buving ovozi ekanini g'ira-shira idrok etdim. Hoji buvi boshimni tizzasiga qo'yib chalqancha qilib yotqizdi. Doka o'ralgan barmog'ini og'zimga tiqdi. Ko'nglim ag'darilib, tipirchilagancha yig'lardim, ammo Hoji buving qo'lidan chiqib ketolmasdim. U tomos'imga nimadir qildi. Dod solib qo'lini tishlab oldim. Qiziq, birpasdan keyin ahvolim yengillashdi. Ko'zimni ochsam, Hoji buvi jilmayib turibdi.

— Nega tishlaysan, kuchukvoy? — dedi boshimni silab. Keyin tepamga oyim engashdi. U hamon hansirar, sochlari to'zg'ib ketgan, yuzi jiqla ho'l edi. Birpasdan keyin qaddimni rostlab, tanchaga oyog'imni tiqib o'tirdim. Hoji buvi allaqanday taxir suyuqlik ichirdi. Keyin oyimga qaradi-yu, birdan xitob qildi.

— Vay poshsha-a-a! Nima qilib qo'ydingiz, tamom bo'psiz-ku! Oyim talmovsirab, goh menga, goh Hoji buviga qarar edi.

— Oyog'ingizdan ayrilibsiz-ku! — dedi Hoji buvi boshini chayqab. — Shu ahvolda qandoq keldingiz? Kavshandozda turgan oyimning kalishini endi ko'rdim. Kalishning ichi qorga to'la edi.

— Sarpochan kelaverdingizmi?! — dedi Hoji buvi hamon o'sha vahimali ohangda. — Endi nima qilasiz? Qarg'aning miyasini chaqib surmasangiz, cho'loq bo'lib qolasiz. Oyim tanchadan oyog'ini chiqardi. Ikkala oyog'i qip-qizil go'sht bo'lib ketgan edi.

— Sovuq yegani yo'q, — dedi sekin. — Qaytaga isib ketdi. Qorda o'zi isib ketarkan. Hoji buvi uning oyog'ini uqalab ko'rdi.

— Sezyapsizmi?

— Nimani? — dedi oyim oyog'iga emas, menga qarab.

— Qo'limni sezyapsizmi?

Oyim indamay bosh chayqadi-da, piqillab yig'lab yubordi. Ertasiga u yotib qoldi. Uzoq yotdi. Dadam bir joydan qarg'a otib keldi. Hoji buvi qo'lidan kelgancha dori-darmon qildi... Keyin oyim tuzaldi. Biroq salqin tushishi bilan oyoqlari shishib, azob beradigan bo'lib qoldi... Har yili dam olishga borganimda onamga gilam paypoq olib kelardim. U

xuddi noyob narsaga ega bo'lgandek, uzoq duo qiladi, birpasda hamma qo'shnilariga ko'z-ko'z qilib chiqadi, shundoq "mehribon" o'g'li borligini aytib maqtanadi. Shunda qor gupillab yog'ib turgan mudhish kecha, onamming qip-qizil go'shtga aylanib ketgan oyoqlari ko'z o'ngimga kela-di-yu, indamay chiqib ketaman" [7].

O'tkir Hoshimov qalamiga mansub ushbu "Gilam paypoq" hikoyasi tibbiy mazmundagi badiiy asar bo'lib, asarda qator tibbiy metaforalar (og'ir hansirash), tibbiy paremiologik birlıklar, tibbiy frazeologik birlıklar (hushidan ketmoq), (dardni bergan Xudo davosiniyam beradi) obrazli qilib berilgan. Hikoyada kasalliklarning o'zbekona nomlari, momolarimizning davo sirlari bilan bog'liq xalqona tabobat usullari (Bolaligimda ko'p kasal bo'lardim: qizamiq, ko'kyo'tal, bezgak... Shuning uchun oshxonadagi mixda ko'k qarg'aning patidan tortib, gultojixo'rozgacha ilig'lik turardi; Quv-quv yo'talamani. Oyim tomog'imni achchiqtosh bilan chayib ko'rdi, bo'lindi, turshak qaynatib suvini ichirdi; doka o'ralsan barmog'ini og'zimga tiqdi(tomoq og'rigiga davo); Qarg'aning miyasini chaqib surmasangiz(oyoq og'rig'iga davo), cho'loq bo'lib qolasiz) bayon etilgan. Badiiy asardagi ko'plab tibbiy birlıklar moslashuvli so'z birkmalaridir, qaratqich qaralmish munosabatidagi tibbiy birlıklar ifodalanayotgan mazmunni aniq ochib beradi: oyoq og'rig'i, tomoq og'rig'i, shifokor maslahati, kasallik varaqasi.....

Mohir so'z ustasi, so'zdan sariyog'dek foydalana oladigan Abdulla Qahhor "Bemor" hikoyasida ham tilshunoslik va tibbiyot mushtarakligini ko'rsatib berdi. Asar nomining o'zi tibbiyotga oid lug'aviy birlik bilan ifodalangan "Bemor" hikoyasi ham badiyati, ham til xususiyatlari bilan anglatayotgan mazmun kitobxonning ich-ichiga kirib boradi. Hikoyada bola nutqi (Xudoyo ayamdi daydiga davo beygin), gadoy nutqi (Hey do'st, shaydullo banomi ollo, sadaqa raddi balo, baqavli rasuli xudo...), bemor nutqi (Xudo qizimming saharlari qilgan duosini dargohiga qabul qildi. Dadasi, endi tuzukman, qizimni saharlari uyg'otmang), bemorga qaragan shaxs nutqi, tabib nutqi keltirilgan bo'lib, har bir shaxs nutqida qo'llanilgan o'ziga xos leksik birlıklar asar tilining ravonligini taminlagan. Hikoyani o'qish davomida o'zbek lisoni naqadar boy ekanligining guvohi bo'lismiz mumkin. Matn boshida ijodkor tobi yoq insonga nisbatan-og'rib qoldi (Sotiboldining xotini og'rib qoldi) iborasini ishlatgan bo'lsa, asar davomida bemorlik holati graduonimik darajalanib boradi: kasal (Sotiboldi kasalni o'qitdi), betob (betobning ko'zi tinib, boshi aylanadigan bo'ldi), bemor (bemor og'irlashdi) va asar oxirida o'sal (bemor kundan-kun battar, oxiri o'sal bo'ldi) leksemasidan foydalaniib, bu leksema orqali kishining endi tuzalmas dardga chalinganini ko'rsatib beradi. Matnda bemorlik holatini ifodalovchi so'zlar quyidagi birlıklar bilan ifodalangan: Bemor og'irlashdi, bemor inqillaydi, bemor juda azob tortdi, bemor har ingraganda Sotiboldi chakkasiga burov solingen kishiday talvasaga tushar edi. Ushbu badiiy matnda xalqona davo usullaridan bemorga "Chilyosin"[8] o'qitish ham keltirilgan bo'lib, bu marosim o'ziga xos qadim tarix va an'anaga ega.

So'z – buyuk qudrat, bir so'z bilan kasalni oyoqqa turg'izishingiz va bir so'z bilan uning hayotiga zomin bo'lishingiz mumkin, degan hikmatlar xalq orasida uchraydi. Bemor kishining huzuriga borganingizda chehrangizni yorug', tilingizni shirin qilib kiringki, u sizni ko'rib, sizdan madad olsin. "Masnaviyi ma'naviy" da bemorni ko'rgani kirgan odamning kulgili holatini tasvirlaydigan shunday hikoya uchraydi:

Qulog'i eshitmaydigan bir odam qo'shnisining anchadan beri betob yotganini bilib qolibdi va uni ko'rib chiqsam savob bo'ladi degan fikrga kelibdi. Yo'l-yo'lakay o'zicha bemor bilan qanday suhbat qilishini o'ylab olibdi, men bemor qo'shnimdan "tuzalib qoldingmi" deb so'rayman, bemor "Ha, biroz durustman deydi", men "Xudoga shukr

yaxshi bo'libdi deyman", yana "Qanday taomlar yeyapsan deyman", u qaysidir taomni aytса, men "Bu taom senga yoqadi deyman", so'ng "Seni qaysi tabib davolayapti" deb so'rayman, u kimnidir aytadi, yana men "U o'z ishining mohir ustasi, unga ishonaver, u o'z ishini nihoyasiga yetkazadi deyman" degan fikrlar bilan, bemorni xafa qilmasdan uning ahvoli yaxshiliginu unga aytaman deb fikr qilib, ammo uning gapini eshitmayman-ku deb, faqat bemorga sog'ayotgani haqida gapiraman degan o'ylov bilan qo'shnisi oldiga kiribdi. Ochiq chehra bilan kirgan "gulquloq" qo'shni bemor qo'shnisidan:

Tuzalay deb qoldingmi qo'shnijon?

Bemorning ahvoli og'irlashib turgan ekan:

O'lay deb qoldim, ahvolim yomon, – debdi u.

Qulog'i gullagan qo'shni:

Xudoga shukr yaxshi bo'libdi, debdi.

Qanday taomlar yeyapsan?

Yeganimning hammasi zaharday, og'zim ta'm bilmaydi, - debdi bemor.

Ha, senga shu yoqadi, debdi qulog'i og'ir do'sti.

Senga qaysi tabib qarayapti? - so'radi qulog'ini gul bosgan qo'shni.

Azroil qarayapti, - debdi bemor jahl bilan.

Kar qo'shni esa, bemor qo'shning ko'nglini ko'taraman deb:

Ha, u o'z ishiga mohir, ishini oxirigacha yetkazadi, bunga ishonchim komil, - debdi va chiqib ketibdi. U chiqib ketgach, bemorning ahvoli og'irlashibdi.

Yuqoridagi matnda qulog'i eshitmaydigan, kar kasalliginig gulquloq, qulog'i gullagan, qulog'i og'ir, qulog'ini gul bosgan kabi variantlari ishlatilganki, bu o'zbek tili lug'at tarkibining boyligini, ayrim kasallik nomlarining yumshatilgan variantlari ko'pligidan dalolat beradi. Qissadan hissa shuki, bemor insonga gapirganda tilga ehtiyyot bo'lib, unga dalda bo'ladigan so'zlarni aytish lozim bo'ladi. Bu haqda payg'ambarimiz Muhammad s.a.v. ham bemor bilan gaplashayotganda shirin so'zli bo'ling, deb aytganlar.

Darhaqqat, tibbiyot terminologiyasi - bu turli mutaxassislikdagi shifokorlar gapiradigan til. Tibbiy tushunchalar o'quvchi va tinglovchiga tushunarli bo'lishi kerak. Tibbiy terminologiyasida mavjud bo'lgan eng maqbul so'zlarni mutaxassislar ko'pchiligi tomonidan qabul qilingan, hamma uchun tushunarli bo'lgan, hodisa yoki obyektning mohiyatini aks ettiruvchi va tibbiy adabiyotlar, ma'lumotnomalarida mustahkamlangan so'zlar deb hisoblash kerak.

Dunyo tilshunosligida tibbiyot leksikasining turli qirralari, xususan, shifokor nutqi, sohaga oid terminlar bo'yicha qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Hozirda olimlar tibbiy atamalarni tarjima qilish muammosi bilan jiddiy shug'ullanmoqdalar. Ko'plab maxsus lug'atlar ishlab chiqilayotgan bo'lsa-da, ba'zida tibbiy atamani tarjima qilish qiyinchilik tug'diradi va tibbiyot sohasida yetarlichila bilimlarni talab qiladi. Tibbiy matnlarni tarjima qilishda tilning aniqligini hisobga olish, shu bilan birga, tushunchalar va atamalarni noto'g'ri talqin qilishga yo'l qo'ymaslik shart. Zero, tibbiy atamalar nafaqat tibbiyot xodimlariga, balki boshqa soha vakillariga ham alohida qiziqish uyg'otadi.

Yangi davr tilshunosligida qator soha lingvistikalar, jumladan, tibbiy lingvistika tarmog'i shakllanib rivojlanib bormoqda. Jamiyat a'zolari orasida qo'llaniladigan, ayniqsa, shifokor va bemor muloqotidagi tibbiy birliklarga zamonaviy tilshunoslik nuqtayi nazaridan yondashish, yangi ilmiy-nazariy xulosalarga kelish, ularning leksik-semantic, uslubiy-funksional, lingvopragmatik, gender xususiyatlari ochib berish muhimdir. Tibbiy birlıklar leksik-grammatik shaklining xilma-xilligi, ulardagi hissiy bo'yoqdarlik/bo'yoqsizlik, variantlilik xususiyatlari va shu kabi jihatlarga e'tibor berib

tadqiq etish bugungi kunda tilshunoslikning dolzarb vazifalaridandir.

#### **ADABIYOTLAR**

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг “Ўзбек тилига давлат тили мақоми берилганининг ўттиз йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутки”// 2019-йил, 21-октябрь// <http://uza.uz/oz/politics/>
2. Doncu, Andronache. Medical language. Medicine. -2014. -B-348 .
3. Mahmud Hasaniy, Karimova Surayyo. Navoiy davri tabobati. —T.: Ibn Sino,1991.—B. 178.
4. Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari. —T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi,1993. Elektron kitob. 3jildli saylanma. 1-jild.
5. Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari. —T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi,1993. Elektron kitob. 3jildli saylanma. 1-jild.-B.198
6. Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari. —T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi,1993. Elektron kitob. 3jildli saylanma. 1-jild.-B.9
7. Hoshimov O'tkir. Dunyoning ishlari.-T.: Qissa va hikoyalar / O'tkir Hoshi- mov. T.: Yangi asr avlod, 2015. ISBN 978-9943-27-532-4.-336-b.
8. Xalq og'zaki ijodi bilan bog'liq. "Chilyosin" qilish – Qur'onning yuragi bo'lgan "Yasin" surasini bemor kishi huzurida 40 marta o'qish(erak kishi tomonidan). Bu bilan bemor yo tuzalib ketadi, yoki boqiy hayotga ketishi osonlashadi.



Jamshid ALIMOV,

Termiz davlat universiteti o'qituvchisi

QarDU v.b dotsenti, f.f.b.f.d. (PhD) Z.O. Amirova taqrizi asosida

## TIL IXTISOSLIGI BO'L MAGAN TALABALARGA INGLIZ TILI NUTQINI SHAKLLANTIRISHDA SO'ZLARNI BIRIKTIRISHGA O'RGA TISH TEXNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya

Ushbu maqolada talabalarga, xususan, nofilologik yo'nalishdagi ya'ni til ixtisosligi bo'l magan talabalarga ingliz tilini o'qitishda hamda ingliz tili nutqini shakllantirishda so'zlarni biriktirishga o'rガtish texnologiyasini takomillashtirish bo'yicha ta'lim imkoniyatlari va ularda kasbiy axborot kompetensiyasini shakllantirish masalalarini ilmiy asosda tadqiq etishga bag'ishlangan. Taraqqiyotning tarkibiy qismi bo'lgan madaniyatlararo munosabatlarning asosi hisoblanayotgan aloqalar samaradorligini oshirish va ko'p madaniyatli shaxsning chet tilini bilish ko'nikmalarni shakllantirish asoslarini yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** So'zlar, so'zlarni biriktirish texnologiyasini, kasbiy axborot kompetensiyasi, chet tili kompetensiyasi, ijtimoiy tarmoqlar, til grammatikasi, ingliz tilini o'qitish metodikasi, nofilologik yo'nalishlarida ingliz tilini o'qitish, ingliz tilini o'qitishning samarali usullari.

## IMPROVING THE TECHNOLOGY OF TEACHING STUDENTS WITH NO LANGUAGE MAJORITY TO COMBINE WORDS IN THE FORMATION OF ENGLISH SPEECH

Annotation

In this article, the educational opportunities for improving the technology of teaching English to students, especially non-philological students, i.e. students who do not have language majors, in teaching English and forming English speech, and their professional information competence devoted to the research of formation issues on a scientific basis. The fundamentals of improving the effectiveness of communication and the formation of foreign language skills of a multicultural person, which are considered the basis of intercultural relations, which are a component of development, are highlighted.

**Key words:** Words, word linking technology, professional information competence, foreign language competence, social networks, language grammar, English language teaching methodology, English language teaching in non-philological directions, English language teaching effective teaching methods.

## СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИИ ОБУЧЕНИЯ СТУДЕНТОВ НЕЯЗЫКОВОГО БОЛЬШИНСТВА ОБЪЕДИНЕНИЮ СЛОВ ПРИ ФОРМИРОВАНИИ АНГЛИЙСКОЙ РЕЧИ

Аннотация

В данной статье раскрываются образовательные возможности совершенствования технологии обучения английскому языку студентов, особенно студентов нефилологических специальностей, т.е. вопросы формирования на научной основе. Выделены основы повышения эффективности общения и формирования иноязычных навыков поликультурной личности, которые считаются основой межкультурных отношений, являющихся компонентом развития.

**Ключевые слова:** слова, технология связывания слов, профессиональная информационная компетентность, иноязычная компетенция, социальные сети, грамматика языка, методика преподавания английского языка, преподавание английского языка по нефилологическим направлениям, эффективные методы преподавания английского языка.

**Kirish.** Yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lida jamiyatni rivojlantirishning ko'plab sohalarida, shu jumladan, oliv ta'lim sohasida katta o'zgarishlar yuz bermoqda. Jamiyatni axborotlashtirish va globallashuv sharoitida uni o'rganishga yangicha talablar qo'yilmoqda, bilim olish uchun yangi imkoniyatlar paydo bo'lmoqda, ayniqsa xorij tillarini xususan ingliz tilini o'qitishda yangicha yondashuvlar paydo bo'lmoqda. Shu ma'noda, talabalarga ingliz tilini nofilologik yo'nalishdagi ya'ni til ixtisosligi bo'l magan talabalarga ingliz tilini o'qitishda hamda ingliz tili nutqini shakllantirishda so'zlarni biriktirishga o'rガtish texnologiyasini takomillashtirish bo'yicha ta'lim imkoniyatlari va ularda kasbiy axborot kompetensiyasini shakllantirib o'qitish uchun foydalanish imkoniyatlari cheksizdir. Yosh avlodni chet tillarida o'qitish hamda shu tillarda erkin so'zlasha oladigan mutaxxislarni tayyorlashni takomillashtirish negizida, yoshlarning jahon sivilizatsiyasi yutuqlari, shuningdek, butun dunyo axborot resurslaridan foydalanishlari, xalqaro hamkorlik va muloqotni rivojlantirish uchun shart - sharoitlar

yaratish asosiy maqsad qilib qo'yiladi. Shu sababdan ham chet tillarini o'rganish bugungi kunning asosiy talabi bo'lib qoldi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Chet tili va madaniyat yaxlit (integratsiyalashgan) holda o'rГatiladi. Madaniyat, bu o'rinda inson fikri va faoliyati hosisasi tushunchasini ifodalaydi. Chet tilida o'rganiladigan lisoniy (leksik, grammatic, talaffuzdagi) birlikda lingvomadaniy xususiyatlar tajassum topgan va nutqiy jarayon (diskurs)da ularga o'quvchi e'tibori qaratiladi. Mazkur metodik qoida doirasida chet til o'qitish maqsadi va mazmuni belgilanadi. O'qitish mazmuni jahonda e'tirof etilgan didaktik ta'limotga binoan bilim, ko'nikma va malakalarini o'z ichiga oladi. Chet tilini amaliy o'rganishda lingvistik nazariy bilimlar umuman bayon etilmaydi. Bilim til materialini bilish (ko'nikma) va uni o'zlashtirishda yuz beradigan qiyingchiliklarni oddiy so'zlar bilan sodda tilda tushuntirish, ya'ni xatolarning oldini olishga qaratilgan ko'rsatma ma'nosini bildiradi. Ko'nikma tarkibiga kiradigan amaliy qoida ona tili va chet tilda farqlanadigan yoki til ichki interferensiyasini keltirib chiqaradishn chet til

hodisalari bo'yicha beriladi (masalan: artikl (ona tilida yo'q), otning ko'plik shakli (birlik shakli leksik birlilik hisoblanadi) yoki fransuz tilidagi otning ko'plik shakli, qaratqich kelishigi, fe'lning sodda hozirgi zamondagi uchinchi shaxs birlik shakli (har uchlasasi [z], [s], [iz] qabilida talaffuz etiladi va til ichki interferensiyasiga sabab bo'ladi). Jahon tilshunosligida V.V.Vinogradov, V.Ya. Zadornova, A.A.Ligpart kabi tadqiqotchilarining lingvopoetik yondashuvlari; V.N.Teliya, V.V.Vorobyev, S.V.Ivonova, V.V.Krasnix, V.A.Maslovalarning doirasidagi ishlari ilmiy qimmatga ega.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Zamonaviy jamiyatning muhim tarkibiy qismi bu madaniyatlararo aloqa samaradorligini va ko'p madaniyatli shaxsni shakllantirishni ta'minlaydigan chet tilini bilishdir. Ushbu maqolada ijtimoiy media ingiliz tilini o'qitishning qo'shimcha vositasi sifatida qaraldi. Olyi ta'limning nofilologik yo'naliishi bo'yicha tahlil olayotgan talabalariga ingliz tilini o'rgatish jarayonida ularning kasbiy faoliyati uchun asos bo'lgan ixtisosligi bo'lmagan talabalarga ingliz tilini o'qitishda hamda ingliz tili nutqini shakllantirishda so'zlarni biriktirishga o'rgatish texnologiyasini takomillashtirish ham ingliz tilida bilim olish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Biroq, ingliz tilini o'qitishning qo'shimcha vositasi sifatida ixtisosligi bo'lmagan talabalarga ingliz tilini o'qitishda hamda ingliz tili nutqini shakllantirishda so'zlarni biriktirishga o'rgatishdan metodikasi ilmiy va uslubiy adabiyotlarda yetarjada darajada yoritib berilmagan. Va ushbu maqolaning mavzusi ham o'quv mashg'ulotlarini OTMning nofilologik yo'naliishlarida tahlil olayotgan talabalarning tilni o'qitishda hamda ingliz tili nutqini shakllantirishda so'zlarni biriktirishga o'rgatishdan foydalangan holda ingliz tilini o'rgatishda ta'limgan imkoniyatlari va ularda kasbiy axborot kompetensiyasini shakllantirish masalasini amalga oshirish uchun xizmat qiladi.

Mamlakatimizda ta'limgan mavzusidagi istiqbol strategiya 2030 yillarga mo'ljallangan bo'lib, uning asosiy maqsadi xorijiy tillarni o'qitish, ingliz tilini nofilologik yo'naliishlarda o'rgatishga bo'lgan o'zgaruvchan ehtiyojlar va yangi O'zbekiston jamiyatni va iqtisodiyotini rivojlantirishning uzoq muddatli maqsadlariga muvofiq oliv kasbiy ta'luming yuqori sifatini ta'minlashdir. Ushbu tadbirlar doirasida nofilologik yo'naliishlardagi oliv o'quv yurti bitiruvchisi uchun chet tillarini bilish sohasidagi zaruriy vakolatlarni belgilaydigan oliv ta'luming yangi davlat standartlari qabul qilindi. Binobarin, ingliz tilini o'qitish jarayonida yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishni nazarda tutadigan o'quv jarayonini tashkil etishning an'anaviy yondashuvlarini qayta ko'rib chiqish dolzarbdir. Yoshlarda ham ingliz tilida bilim olish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Biroq, ingliz tilini o'qitishning qo'shimcha vositasi sifatida ixtisosligi bo'lmagan talabalarga ingliz tilini o'qitishda hamda ingliz tili nutqini shakllantirishda so'zlarni biriktirishga o'rgatish texnologiyasini ortib borayotgani, ta'limgan imkoniyatlari tarmoqlardan foydalilanayotganligi va zamonaviy jamiyatning chet tilini yaxshi bilish talablarini ingliz tilini o'qitish jarayonini tashkil etishda, ayniqsa, kelajakdagagi kasb sohasidagi bilimlar kasbiy va umumiy madaniy vakolatlarni shakllantirish uchun yangi bilimlarni olish vositasi bo'lgan o'qitishning nofilologik yo'naliishlari talabalarini uchun muhim o'rinn tutadi. Biroq, ushbu jarayonning uslubiy rivojlanishi zamonaviy ilmiy adabiyotlarda yetarjada o'rganilmaganligi ushbu maqolada ko'tarilgan masalalarning yanada dolzarbligini oshiradi. Ijtimoiy media tarmoqlari ijtimoiy hayotning barcha sohalariga, shu jumladan chet tillarini o'qitish jarayoniga ham kirib bordi. Ijtimoiy tarmoqlarning mohiyati E. Dyurkgeym va F. Tyonnis yozganidek, odamlar o'rtaida aloqalarni izlash va o'rnatishdir. Ilmiy jihatdan ushbu olimlarning tadqiqoti ijtimoiy guruhlar shaxsiy va to'g'ridan-to'g'ri ijtimoiy aloqalar shaklida mavjud bo'lishi mumkin degan fikrni

rivojlantirdi. Xuddi shu atama 1954 yilda ingliz sotsiolog Jeyms Barns tomonidan joriy qilingan. Shunday qilib, olim ijtimoiy obyektlar (jamoja, ijtimoiy guruhi, individual) bo'lgan guruhlarning tasnifini ishlab chiqdi.

O'qitish mazmuni komponentlaridan til materiali o'rganilmish chet til sistemasidan minimum sifatida tanlanadi (o'quvchi uchun u lisoniy maksimum hisoblanadi). Minimum til o'rgatish uchun zarur va yetarli bo'lmog'i kerak. Tanlangan minimumdagi lisoniy birlıklarini o'zlashtirishda qiyinchilik tug'diradigan qismigina til materialining o'rgatish mazmuni tashkil etadi va o'quv dasturidan o'rinn oladi.

Chet til o'qitish mazmuni uch tarkibli ta'limiyo hodisadir:

- 1) nutq mavzulari;
- 2) ko'nikma va malakalarga qo'yiladigan talablar;
- 3) til materiali. O'qitish mazmuni mavjud sharoitga ko'ra, jumladan, o'quv predmetiga ajratilgan vaqtga qarab tanlanadi.

**Tahsil va natijalar.** Chet tilini o'rgatish jarayonida yangi zamonaviy pedagogik texnologiyalar joriy etish va amaliyotga tadbiq etishni taqozo etmoqda. Ayni paytda amaliyotda o'llanilayotgan va ijobjiy natijalar berayotgan bir qancha zamonaviy pedagogik texnologiyalar mavjud-ki, ulardan chet tilini o'qitish bo'yicha o'quv jarayonida o'llash bir necha omillarni talab etadi. Shularidan eng muhim ta'limgan tizimiga pedagogik innovatsiyalarni kiritish, ulardan unumli foydalanan holda ingliz tilini o'rgatishda ta'limgan imkoniyatlari va ularda kasbiy axborot kompetensiyasini shakllantirish masalasini amalga oshirish uchun xizmat qiladi.

Shu bilan birga ingliz tilidagi so'zlarni biriktirishga o'rgatish texnologiyasini shakllanishi, o'quv jarayonida so'zlarni biriktirishga o'rgatish texnologiyasini tarmoqlaridan foydalanan o'ziga xos xususiyatlari orqali talabalar o'rtaida ommalashishiga e'tibor qaratilgan. Bu borada oliv ta'limgan imkoniyatlari ingliz tilini o'qitish va chet tili kasbiy kompetensiyasini shakllantirishning faoliyat mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha jahon ilm-fan taraqqiyoti tendensiyalarini hisobga olgan holda ilmiy-amaliy tavsiyalar berilgan. Shu o'rinda yana bir muhim jihatni ta'kidlash joizki, talabalarga ingliz tilini o'qitishda ijtimoiy mediadan foydalanan masalasi bilan ta'limgan imkoniyatlari ijtimoiy media tarmoqlaridan foydalanan asosida chet tili kasbiy axborot-kommunikatsiya kompetensiyasini shakllantirish bir biriga chambarchas bog'liq bo'lgan hodisa hisoblanadi. Mazkur ilmiy-metodik muammoga oid ilmiy adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish uning izlanishlarining turli yo'naliishlari mavjudligini ko'rsatadi. Bu tilni aloqa vositasi sifatida ochib beradigan kommunikativ yondashuv; tanqidiy fikrlashni, professional va ishbilarmonlik aloqalari holatlarida o'z nuqtai nazarini aniq bayon qilish qobiliyatini shakllantirishga qaratilgan kognitiv yondashuv; ta'limgan imkoniyatlari bilan bog'liq bo'lgan malakaga asoslangan yondashuvlardir. Qo'shimcha mablag' jalb qilmasdan va turli xil uslubiy maqsadga muvofiq texnikalar, usullar va ish shakllarini ishlab chiqmasdan faqat mavjud qo'llanmalar

asosida ingliz tili kasbiy malakasini shakllantirish, bizning fikrimizcha, oqilona va samarali emas. Shu munosabat bilan o‘quv jarayoniga innovatsion axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini, ya’ni ijtimoiy media tarmoqlarini, shuningdek, o‘qitishning eng yangi uslublarini ishlab chiqish va joriy etish orqali tilni o‘rganish ko‘nikmasini shakllantirish samaradorligini oshirish zarurati mavjud. Mamlakatimizda ta’lim tizimini zamonaviy modernizatsiya qilish, o‘qitishning nofilologik yo‘nalishlari talabalariga ingliz tilini o‘rgatish tamoyillari va yondashuvlarda so‘zlarni biriktirishga o‘rgatish texnologiyasini ingliz tilini o‘qitishning sezilarli o‘zgarishlarni nazarda tutadi. Oliy o‘quv yurti talabalari oldida so‘zlarni biriktirishga o‘rgatish texnologiyasini ingliz tilida ishlash uslublariga ega bo‘lgan va o‘z intellektual, ijodiy salohiyatini

saqlash hamda rivojlantirish uchun axborot texnologiyalaridan yetarli darajada foydalana oladigan mutaxassisni tayyorlash vazifasi turibdi. Ingliz tilini o‘qitishga kelsak, bu vazifa nofilologik yo‘nalishdagi talabalarning chet tili kasbiy malakalari bilan birqalikda axborot-kommunikatsiya qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirishning muhimligini anglatadi. Til ta’limi bilan bog‘liq ijtimoiy talab bir necha o‘n yillar davomida o‘zgardi, ammo uning asosiy ma’nosini doimo chet tilini o‘zlashtirishga qisqartirildi. Chet tillarni o‘qitish metodikasi rivojlanib borishi bilan “chet tilini amaliy o‘zlashtirish” tushunchasining o‘zi takomillashtirildi va til ixtisosligi bo‘lmagan talabalarga ingliz tili nutqini shakllantirishda so‘zlarni biriktirishga o‘rgatish texnologiyasini takomillashtirish samarasini beradi.

### ADABIYOTLAR

- Бехтерева Н.П. Нейрофизиологические аспекты психической деятельности. Изд-во "Медицина", М., 1974. - 126 с.
- Бычева А.Н. Интерференция родного языка и внутриязыковая интерференция при формировании грамматического навыка с помощью переводных упражнений // Проблемы обучения грамматическому и лексическому аспектам иноязычной речи. - Владимир, 1960. - С.122-141.
- Городилова Г.Г. К вопросу об оптимальном пути развития речевых навыков и речевых умений на начальном этапе обучения. - //Психологические и психолингвистические проблемы владения и овладения языком. - М.: Изд-во МГУ, 1969.
- Горчев А.Ю. О путях реализации принципа противопоставления при обучении грамматической стороне речи. - Иностранные языки в школе, 1979. - №6. - С.
- Горчев А.Ю. О системном подходе к организации грамматического материала для обучения устной речи // Отбор и организация языкового материала для обучения говорению на иностранном языке в средней школе. - М., 1982. - С.37-42.
- Григорян С.Т. Проблема мотивации в психологии научения иностранному языку. // Проблемы обучения иностранному языку. Том 5, ч.1. - Владимир, 1970. - С.15-24.
- Гурвич П.Б. Положительное и отрицательное в концепции сторонников структурального подхода к методике преподавания иностранных языков. ИЯВН. - Вып. I. - 1965. - 27-41 с.
- Gilpin D. R. Working the Twittersphere: Microblogging as professional identity construction. A networked self: Identity, community, and culture on social network sites. New York, 2011, Chapter11, pp. 232–250.
- Barnes J.A. Class and Committees in Norwegian Island Parish // Human Relations. Hafner Press. — NY., 1975. — P. 39–58.
- Nizomova M. B. (2022). Problems of systematization of pedagogical terms and concepts in the scientific and pedagogical theory of comparable languages. American Journal Of Philological Sciences, 2(03), 1-6.
- Baratboyevna, N. M. Features of the Formation and Development of Ecological Terms in Languages. Journalnx, 6(06), 55-57
- Nizomova M. B. Ingliz va o‘zbek tillaridagi pedagogikaga oid terminlarning tarjima qilish tamoyillari, muammolari va o‘ziga xos texnologiyalari. // 2022-6/4 Вестник Хорезмской академии Маймуна. Хива – 2022. 55-59 betlar. (10.00.00 № 21)



**Mahbuba ANORBOEVA,**  
Andijon davlat chet tillari instituti o'qituvchisi  
E-mail:anorboyeva72@gmail.com.

ADU professori, f.f.d D.Nabiyeva taqrizi asosida

## TURLI TIZIMLI TILLARDA QADAH SO'ZI NUTQIY JANRINING MILLIY MADANIY XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Mazkur maqola turli tizimli tillarda qadah so'zi nutqiy janrining milliy madaniy xususiyatlari tadqiqiga bag'ishlangan. Qadah so'zi nutqiy janri o'ziga xos milliy madaniy xususiyatlarga egaligi bilan xarakterlanadi. Turli xalqlar madaniyatiga mansub nutqiy janrlarga oddiy suhbatlar, qadah ko'tarishlar, qo'shiqlar aytish, taomga taklif qilish, salomlashish, yoqimli ishtaha tilash kabilarni kiritish mumkin. Qaysi madaniyatga mansub bo'lisdan qathiy nazar, qadah so'zi nutqiy janrida marosimiylik, tantanavorlik, rasmiylik mavjud bo'ladi.

**Kalit so'zlar:** Qadah so'zi, nutqiy janr, milliy xususiyatlari, madaniy xususiyatlar, oddiy suhbatlar, qadah ko'tarishlar, qo'shiqlar aytish, taomga taklif qilish, salomlashish, yoqimli ishtaha tilash, marosimiylik, tantanavorlik, rasmiylik.

## НАЦИОНАЛЬНО-КУЛЬТУРНЫЕ ОСОБЕННОСТИ РЕЧЕВОГО ЖАНРА “ТОСТ” В РАЗНОСИСТЕМНЫХ ЯЗЫКАХ

Аннотация

Данная статья посвящена изучению национально-культурных особенностей речевого жанра “тост” в разносистемных языках. Речевой жанр “тост” характеризуется тем, что имеет национально-культурные особенности. Речевые жанры, принадлежащие культуре разных народов, могут включать в себя простые разговоры, тосты, пение, приглашения к еде, приветствия, пожелания приятного аппетита. Независимо от того, к какой культуре оно принадлежит, речевой жанр “тост” содержит обрядность, торжественность, официальность.

**Ключевые слова:** Тост, речевой жанр, национальные особенности, культурные особенности, простые разговоры, поднятие бокала, пение, приглашение к еде, приветствие, пожелание приятного аппетита, обрядность, торжественность, формальность.

## NATIONAL AND CULTURAL FEATURES OF THE SPEECH GENRE “TOAST” IN DIFFERENT SYSTEMS OF LANGUAGES

Annotation

This article is devoted to the study of national and cultural features of the speech genre “toast” in different systems of languages. The speech genre “toast” is characterized by the fact that it has national and cultural characteristics. Speech genres belonging to the culture of different peoples may include simple conversations, toasts, singing, invitations to food, greetings, wishes for a pleasant appetite. Regardless of what culture it belongs to, the speech genre “toast” contains ritual, solemnity, and formality.

**Key words:** Toast, speech genre, national characteristics, cultural characteristics, simple conversations, raising a glass, singing, invitation to food, greeting, wishing for a pleasant appetite, ritual, solemnity, formality.

**Kirish.** Bugungi kunga kelib, tilshunoslikda tilning kommunikativ funktsiyasini tadqiq etishga qaratilgan lingvistik tadqiqotlar nutqiy hodisalar va ularning tabiatini o'rganishga bo'lgan qiziqishni kuchaytirdi. Negaki, nutqiy hodisalar tilning kommunikativ funktsiyasi asosini tashkil qiladi. Shu sababli ham tilshunoslар ehtibori tilning kommunikativ funktsiyasini o'rganish bilan nutqiy hodisalarни, xusan, nutqiy janrlarни o'rganishga qaratildi.

Nutqiy janrlar ichida dasturxon bilan bog'liq nutqiy janrlar alohida o'rın egalalaydi. Dasturxon ustida so'zlanadigan nutqlar haqida gap ketganda ushbu vaziyatda yuzaga keladigan turli xalqlar madaniyatiga mansub nutqiy janrlarning xilma-xilligini alohida ta'kidlash zarur. Ushbu janrlar, masalan, oddiy suhbatlar, qadah ko'tarishlar, qo'shiqlar aytish, taomga taklif qilish, salomlashish, yoqimli ishtaha tilash kabilarni kiritish mumkin. Dasturxonga ovqatlanishga o'tirar ekan, musulmon xalqlarining ovqatlanish jarayonini diniy kalimlar bilan boshlashlari dasturxon janrida ehtiadiy ko'rsatkichlar bilan birga uning o'ziga xos kompozitsions qurilishi ham mavjudligidan darak beradi.

Dasturxon janrining boshlanish, asosiy va yakuniy qismalarining o'ziga xos janrlari mavjuddir. Masalan, o'zbek xalqida duoni olaylik. O'zbek xalqida mehmon keladimi yoki

yo'qmi ko'proq dasturxon janri duo bilan boshlanib, duo bilan yakunlanishi kuzatiladi. Mahlumki, har bir xalqda mehmon kutishning o'ziga xos anhanalari mavjud. Evropa xalqlarining esa o'ziga xosligi sifatida qadah ko'tarish marosimini alohida aytish mumkin. Ayniqsa, bu odad mehmonning hurmati va izzatini qadah ko'tarish bilan bog'liq shakllangan maqol va matallarda ham o'z ifodasini topadi. Masalan, mehmonlar bilan stol tostsiz to'liq bo'lmaydi kabi.

Kitoy tilshunosi Ma Yang'li qadah so'zini etiketli nutqiy janr sifatida baholab, ritorik qurilishli janr deb hisoblaydi. U qadah so'zining insonning muayyan obrazini shakllantirish orqali uni maqtash, qaysidir voqeani muhimligini ko'rsatishdir, deydi. Agar inson qadah so'zi aytish sanhatini to'liq egallagan bo'lsa, so'z aytish paytida bemalol so'z aytishi hamda nutqiy mazmunni o'zgartirgan holda o'zining shaxsiy fikrlarini erkin krita olishi mumkin bo'ladi.

Shuni aytish kerakki, qadah ko'tarish marosimi ham dasturxon janrining o'ziga xos kichik janrlaridan biri bo'lib, bu ko'proq yevropa mamlakati xalqlari orasida keng tarqalgan. Qadah so'zi nutqiy janriga oid olib borgan tadqiqotlarimiz shuni ko'rsatadiki, qadah so'zi xristian dini odatlari bilan bog'langan bo'lib, qadah ko'tarish asnosida

kishiga yaxshi niyat tilanadi, ushbu yaxshi niyat qadahni ko'tarib ichish bilan mustahkamlanadi. Qadah ko'tarish marosimi o'ziga xos bo'lib, ushbu odatga ko'ra so'zlovchilar o'ziga xos nutq so'zlashlari talab qilinadi. Ushbu nutqni biz o'z tadqiqotlarimizda qadah so'zi deb nomlashni lozim topdik. Bu so'z bilan nomlashimizning asosiy sababi ushbu nutq faqatgina qadah ko'tarilgandagina so'zlashga mo'ljallanganligidadir. SHuni aytish kerakki, qadah so'zining tashkili va matniy kompozitsion tuzilishi mavjud.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Qadah so'ziga oid ilmiy izlanishlar rus tilshunoslari tadqiqotlarda birmuncha o'rganilgan. Uning rituallik[1], birlamchi kichik janr[2], etiket[3], pragmalingistik, lingvomadaniy va antropotsentrik [4] xususiyatlari qayd etilgan. Biz esa o'z tadqiqotlarimizda qadah so'zi nutqiy janrinining tashkiliy kompozitsion va matniy kompozitsion tuzilishidagi milliy-madaniy xususiyatlarni o'rganishni maqsad qilganuz.

Qadah so'zining tashkiliy kompozitsion tuzilishi haqida gap ketganda barcha xalqlarda bu odatning bir qator o'ziga xosliklari kuzatiladi. Qadah so'zi har qanday madaniyatda namoyon bo'lishidan qathiy nazar biror muhim voqeani nishonlash va bunda o'ziga xos do'st, birodar, yaqinlari kabilarni mehmonga chaqirish yohud mehmonlarning ushbu muhim voqeani bayram sifatida uyshtirish, muhim voqeaga sababchilar sharafiga qadah ko'tarish uchun tashkillashtiriladi. Umuman olganda, qadah so'zi nutqiy janri tashkiliy kompozitsion tuzilishida marosimiylik, tantanavorlilik, rasmiylik mayjud bo'ladi. Garchi bahzan maishiy hayotda ushbu marosim ixcham shakkantirilishi ham tantanavor ohangda nutq so'zlanishi bilan boshqa nutqlardan farqlanadi.

G'arbdan tantanali dasturxonada tilak aytish ifodasi sifatida shakklangan ushbu janr o'z ichiga turli xil tilak aytishlar va bu tilaklarni amalga oshirish uchun vino ichishni va shu orqali niyatlarini mustahkamlashni nazarda tutadi. Qadah so'zi deyarli yevropa xalqlari madaniyatida dasturxon janrinining bir qismi sifatida shakklangan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ilmiy adabiyotlarda qadah so'ziga oid o'ziga xos milliy xususiyatlар qayd etiladi. Xususan, ingliz xalqida qadah so'zi aytish 17 - asrda paydo bo'lib, bu davrda non ta'mli vinoni ichishdan avval nutq so'zlash kerak bo'lgan. Bu odat deyarli hozir mayjud bo'imasada, tildagi so'zlar qolib ketgan. Uning avvalgi mahnosи bilan hozirgi mahnosи o'rtasida deyarli bog'liqlik mayjud emas. Xitoy madaniyatida esa dasturxon so'zlar matnlari mayjud bo'imasada, ovqatlanish belgilariiga oid semiotik sistemada mavqe va shaxsiy munosabatlarni ifodalaydigan axborot tashuvchi hatti-harakatlar mayjud. Rus madaniyatiga oid lug'atlarda qadah so'zi tushunchasi 19 - asrda qayd etilgan, lingvistlarning fikricha, ushbu so'z gruzin tilidan kirib kelgan. Shu sababli ham rus tilidagi tost so'zi kavkaz madaniyatini bilan bog'lanadi. Asosiy e'tibor rus tostlarida farovon hayotga, oila yaxlitligi va baxtiga, boylikka, muvaffaqiyatli martaba, abadiy sevgi, do'stlikka qaratiladi.

**Tahlil va natijalar.** Ilmiy manbalar shuni ko'rsatadi, ushbu janr hayotdagи muayyan voqealar bilan bog'liq tabriklar, minnatdorchilik, ayrılıq so'zlar kabilarni ham anglatishi mumkin. "Любовь на два полюса" filmidagi "У меня родился тест. За проваливал операцию. За ней состоящегося подполковника юстиции. За любовь". Ayrılıq va kesatiq, kinoya mahnosida aytilgan ushbu qadah so'zi rus xalqining o'ziga xosligi, milliy-madaniy qarashlari mayjud ekanligidan darak beradi. Chunki bu holat o'zbek xalqi madaniyatida hech qachon yuz bermaydi. Chunki er va xotin munosabatlarda o'zga shaxsni kiritish va bu uchun ayoliga qarata qadah so'zi aytish umuman mumkin emas. Oilada er va xotin munosabatlari bu kabi rivojlantirilmaydi. Bu esa qadah so'zining adresatlarda ham milliy tanlanish mavjudligidan darak beradi. Rus madaniyatining yana bir

o'ziga xosligi shundaki, ayol go'zalligi va sevgisi sharafiga qadah ko'tarishlari ham mumkin.

O'zbek xalqida qadah so'zi nutqiy janrining rivojlanishi tarixan o'zbek xalqining rus xalqi bilan aralashuviga bog'lanadi. Ayniqsa, hozirgi globallashuv sharoitida Yevropa mamlakatlarining ayrim odatlarini o'zbek xalqining maishiy hayotiga aralashib ketganligini to'y va tantanali bazmlarning yevropalashgan ko'rinishda o'tkazilishida ko'rish mumkin. Shu sababli ham o'zbek xalqida inson hayotining yohud butun jamiyat hayotining muhim voqealarida, bayramlarda, to'ylerda, farzand tug'ilganda kabi yaxshilik kunlarda bahzan qadah ko'tarish odati tez-tez uchrab turadi. E'tibor berilsa, qadah so'zining umumiy xususiyati to'y, bayram, tantanalarda nishonlanishi bilan xarakterlanadi, shu o'rinda aytish o'rinniki, o'lim marosimlarida qadah so'zi aytish mumkin emasligi qadah so'zining o'ziga xosligi hamdir.

Yevropa xalqlarida qadah so'zi nutqiy janriga diniy tarafdan yondoshilganda Xudodan tilak tilash mazmunida qabul qilinadi. Qadah so'zi aytish sam'ati nafaqat so'zni aytish, balki dasturxon nutqini boshqarish va yo'naltirish hamdir. Yevropada qadah ko'tarish marosimining zaminida kishilarda yuqori madaniyatga ega bo'lisch hissini uyg'otish yotadi, desak yanglish bo'lmaydi. Bunda nutq so'zlovchi tinglovchiga yaxshi va yomon kunlarni eslatuvchi turli mahnodor tarixiy voqealar, afgonalar, axborotlarni yoqimli qilib aytish mashhulyatini oladi. Ko'pgina maishiy, harbiy, astronomik va boshqa bilimlar nutqni go'zallashtiradi, shuning uchun ham ushbu suhbatdan inson tarbiya oladi. Qadah so'zi nutqiy janrida kimnidir yoki nimanidir qadrash hissi mayjud bo'lib, bu bahzan oiladagi, do'star orasidagi yaxshi munosabatlar, yuqori hosil, yaxshi martaba, qarilarni xurmat qilish, munosib farzand tarbiyasi kabilarga qaratiladi. Qadah so'zlarida odatda insonda bo'lib o'tgan va ayni paytda bo'layotgan voqealardagi bahosi berilib, kelajakda uning rivojlanishiga urg'u beriladi.

Yevropa mamlakatlarida vino qadah so'zi nutqiy janrida asosiy atribut sanaladi. Uning belgilari sistemasiда o'ziga xos o'rni bor. Ilmiy adabiyotlarda qadah ko'tarishni oddiygina xarakat sifatida qabul qilmay, sharobni yuqori, yahni osmonga ko'tarishda g'ayritabiyy kuchga qaratilgan marhamat so'rovi sifatida tushunilishi lozimligi qayd etilgan. Bu jihatlariga ko'ra ushbu janrdan diniylik ruhi bor deya qayd eta olamiz.

Qadah so'zining marosimiy, ritual xususiyatlari mayjud bo'lib, qadah ko'tarilganda so'zlovchi tomonidan so'zlar aniq, lo'nda va qattiq talaffuz qilinib, tantanali va yuksak ohang bilan jaranglab aytildi. Marosim sifatida shakklanganda boshlovchi, so'zlovchi, tinglovchi kabi o'ziga xos roller mavjud bo'ladi. Dastavval boshlovchi tomonidan kimningdir yoki nimanidir sharafiga qadah ko'tarish ehlon qilinadi. Bu yerda ehlon nutqiy akti yuzaga keladi. Har bir xalqning o'z milliy rasmiy qadah so'zlarimayjud bo'lib, ularning shakli va qoidalari ham o'ziga xosdir. Frantsuz odatida so'z aytish va birma-bir stakanlarini urishtirib chiqishi odatdir. Angliya va AQSHda bokal urishtirish marosimi mavjud emas. Oddiygina bokalni ko'tarib, "Cheers!" («Ваше здоровье!») deb aytishning o'zi kifoya qiladi. Spirtsiz ichimlik quylgan bokalni urishtirish mumkin emas. Skandinaviya mamlakatlarida qadah so'zi aytish har bir ishtirokchiga maxsus so'z "Skoal" orqali bayram egasining murojaati bilan boshlanib, qatnashuvchilar ko'zlarini bir-biriga qaratmagunlaricha bokalni stolga qo'yish tahqiqlanadi. Xitoyda stakanni ko'tarar ekanu, lekin bir-biriga urishtirmsa ekanlar. Agar urishtirsalar, eski udum asosida harakatlanishlariga to'g'ri kelar ekanlar. Eski udumga ko'ra, yoshi yoki mavqeい jihatdan pastda turuvchi shaxslarning bokallarining yuqori qismi yoshi va mavqeい jihatdan yuqorida

turuvchilarning bokallarining oyoq qismlariga urishirish talab qilinadi.

Ichimlik quyilayotganda bokalning chegara chizig‘igacha quyilish shart, aks holda bu hurmatsizlik sanaladi. Xitoya ichimlik ichilayotganda “oxirigacha ich” iborasi ishlataladi.

Barcha xalqlar uchun umumiy bo‘lgan holatlar ham mavjud. Masalan, qadah nutqini aytayotganda va qadahni ichayotganda gaplashish mumkin emas. Ayniqsa, tantanali nutq aytayotganda qo‘llarida ryumka bilan o‘rnidan turishlari qathiylabdir. So‘z aytayotgan odam esa o‘rnidan turib gapirishi shart. Qadah so‘zi yo‘naltirilgan inson esa agar u prezident yoki mashhur shaxs bo‘lmasa odatda javob qaytarishi kerak bo‘ladi. Prezidentga, rahbariyatga, yangi turmush qurbanlarga yo‘naltirilgan qadah o‘sha payting o‘zidayoq oxirigacha ichiladi. Bahzan ayrim yevropa mamlakatlarda tantanali nishonlanganda qadah idishlari yoki kaminga tashlanadi yoki polga urib parchalanadi.

Qadah so‘zi nutqiy janrining pragmatik xususiyatlaridan biri bu kimmingdir sharafiga ko‘tarilgan tostni ichmaslikdir, chunki inson bu hatti harakati bilan ushbu odamga o‘z hurmatsizligini ko‘rsatish demakdir.

Ko‘pgina lингвистлар musulmon dunyosida spirlti ichimliklar ichish mumkin emasligi tufayli qadah so‘zi aytish unchalik ham ko‘p uchramaydi, deb hisoblaydilar. Lekin shunga qaramay yevropa ruhi kirib borgan musulmon diniga ehtiyoq qiluvchi ayrim mammakatlarda, jumladan, o‘zbek madaniyatida qadah so‘zi nutqiy janrining rasmiy tantanali shakllari uchraydi. Ko‘rinadiki, qadah so‘zi nutqiy janrini tahlil qilish o‘sha xalq madaniyat dominant qadriyatlari va tarixini tushunishga yaqindan yordam beradi.

Qadah so‘zi insonlar o‘rtasidagi munosabatlarda o‘z aksini topar ekan, xabarni yetkazuvchisi va xabarni qabul

qiluvchisi mavjuddir. Shu sababli ham qadah so‘zi nutqiy janrida adresat aniq ko‘rsatilishi shart. Bu o‘rinda qadah so‘zi nutqiy janrini so‘zlovchi va tinglovchining bir-biriga tahsir etish xatti -xarakati deya baholash mumkin bo‘ladi. Qadah so‘zi individual shaklda namoyon bo‘lsa-da, umumqabul qilgan formula asosida shakllantiriladi. Qadah so‘zi mazmuniy mundarija, struktura, uslub va boshqa til vositalari kabi bir qator omillarga tayanadi, tilning badiiy vositalari metafora, ironiya, oksymoron, allergoriya, giperbolizatsiya, qiyoslash, epitet va boshqalardan foydalilanildi, bu esa qadah so‘zi nutqining go‘zal chiqishiga yordam beradi.

Qadah so‘zi ko‘proq so‘zlovchining adresat bilan konflikt chiqarishdan ko‘ra aloqa o‘rnatish munosabatlarini yuzaga keltiradi. Bu munosabatiga ko‘ra unda fatik funktsiyasi mavjudligini ko‘rish mumkin, adresatga tahsir o‘tkazishga va o‘ziga qaratishga yo‘naltirilishi esa uning pragmatik funktsiyasi yuzaga keltiradi.

**Xulosa va takliflar.** Hozirgi madaniyatlararo kommunikatsiya shart sharoitida xorijliklar nutqini tushunish dolzarblik kasb etmoqda. Xorijliklar bilan o‘tkaziladigan tantanalarda ular nutqini to‘g‘ri tushunishda qadah so‘zi nutqiy janrini o‘rganish ham asosiy o‘rinni egallaydi. Yuqorida fikrlardan ko‘rinadiki, qadah so‘zi matnida so‘zlovchi nutqidagi xalqning mentaliteti va milliy an’anasini, ommaviy tafakkuri, udumlari bilan bog‘liq nutqiy etiket xulqi namoyon bo‘ladi. Zero, rus qadah so‘zlari mazmuni orqali rus xalqining mehmondo‘slik, saxiylik, shodlik, quvnoqlik, birodarlik, mahnaviyat, hamdardlik, diniylik kabi mental xususiyatlariga oid ko‘pgina mahlumotlarni anglash mumkin. Bu esa qadah so‘zi nutqiy janrini turli tizimli tillarda sotsiolingvistik, lingvomadaniy madaniy xususiyatlarini tadqiq etishga undaydi.

#### ADABIYOTLAR

- Бейнинсон Елена Григорьевна. Лингвокультурные характеристики теста как фольклорного жанра и компонента ритуального дискурса. // Проблемы лингвистики и коммуникации. Научный вестник ЮИМ №4’ 2014, с 37-39.
- Nadezhda M. Loktionova, Svetlana A. Kruglova, Olesya A. Drozdova, Irina A. Zhyvotkova, and Olga Y. Potanina Category Features of Toast as Small Speech Genre// SHS Web of Conferences 50, 01019 (2018) [https://doi.org/10.1051/shsconf/20185001019 CILDIAH-2018](https://doi.org/10.1051/shsconf/20185001019).
- Ма Яныли. Застольный ритуал и концепт “застолье” в китайской и русской лингвокультурах: Дис. ... канд. филол. наук. М., 2005. 165 с. С. 39.
- Архипова Е.М. Тост как первичный речевой жанр в современной концепции научного знания. Научная мысль Кавказа 2010 № 3, с 151-155.



**Isroiljon ATABOYEV,**

Toshkent davlat transport universiteti assistenti

E-mail:isroilataboyev2@gmail.com

Ilmiy rahbar taqrizi. dots. I.T.Rustamov

## REPRIMAND AS A SPEECH ACT AND A PRAGMATIC ACT

### Annotation

This article aims to consider the specifics of constructing an oral reprimand and the specifics of constructing a pragmatic reprimand. In particular, one of the important tasks of our article is the need to identify linguistic structures inherent in the expression of reprimands.

**Key words:** Speech act, etiquette, context, allocative force, allocative function, reference, communicative intention, implications, linguistic means.

## ВЫГОВОР КАК РЕЧЕВОЙ АКТ И ПРАГМАТИЧЕСКИЙ АКТ

### Аннотация

Целью данной статьи является рассмотрение специфики построения устного выговора и специфики построения pragmaticheskogo выговора. В частности, одной из важных задач нашей статьи является необходимость выявления лингвистических структур, присущих выражению выговоров.

**Ключевые слова:** Речевой акт, этикет, контекст, выделяющая сила, выделяющая функция, ссылка, коммуникативное намерение, импликации, языковые средства.

## TA'NA-DASHNOM NUTQ HARAKATI VA PRAGMATIK HARAKAT SIFATIDA

### Annotatsiya

Ushbu maqolamizda vazifasi og'zaki Ta'na-dashnom aktini qurishning o'ziga xos xususiyatlarini va pragmatik Ta'na-dashnom aktini qurishning o'ziga xos xususiyatlarini ko'rib chiqiladi. Maqolamizning muhim vazifalardan biri, xususan, Ta'na-dashnomni ifodalashga xos bo'lgan lingvistik tuzilmalarni aniqlash zaruratidir.

**Kalit so'zlar:** Nutq harakati, odob-axloq qoidalar, kontekst, illokatsion kuch, illokatsion funktsiya, ta'na-dashnom, kommunikativ niyat, implikatorlar, lingvistik vositalar.

**Kirish.** Lingvopravmatik tahlil uchun umumiy nazariyu muammo kommunikativ niyatni amalga oshirish usullarida pragmatik farqlarni aniqlashdir. Ushbu muammo J. Searlning ishlardan «To'g'ridan-to'g'ri» va «Bilvosita» nutq harakatlari muammosi sifatida tahlil qilish demakdir[1]. Umuman olganda, bu yo'analishda turli xil yondashuvlar mavjud. Ushbu hodisada yana bir talqin mavjud bo'lib, unga ko'ra bilvosita nutq harakatlariga faqat an'anaviy nutq harakatlarining nutq odob-axloq qoidalariga kiritilgan. J. Searlning izohiga ko'ra, ularni boshqa ma'no ifoda etish sifatida talqin qilish uchun ixtirochi bo'lish kerak [1] yoki faqat ma'lum bir nutq aktining ma'nosiga ega bo'lmagan va faqat ma'lum bir konteksta bunday harakat sifatida ishlataladigan fikrlarni misol qilishimiz mumkin harakatni qo'zg'atish uchun ishlataladigan «It's late» kabi [2].

J. Ostin va J. R. Searlning nutq aktlari nazariyasi bilvosita fikrlarni o'rganish uchun sezilarli misollar beradi. Ular «Illokatsion kuch» tushunchasidan foydalanib, ular fikr turi va nutq aktining turi hech qachon bir xil shaxslar emasligini va bir xil nutq aktini bir necha xil turdag'i fikrlar orqali amalga oshirish mumkinligini ko'rsatishga erishishdi. J. Searle o'z asarlarida bilvosita nutq harakatlarini ko'rib chiqadi, ular mohiyatan ikkita illokatsion funktsiyani bajaradi. Masalan, nutq harakati *Can you pass me the salt?* ikkita illokatsion funktsiyaga ega-savol va motiv bo'ladi [1]. Ammo zamonaviy pragmalingvistikada J.R. Searlning talqinidan tashqari boshqa fikrlarning leksik-sintaktik tuzilishi ma'ruzachining ma'lum bir kommunikativ niyatini amalga oshirish vositosi sifatida qaraladigan yondashuvlar keng tarqalgan. Quyidagi misol: *Can you pass me the salt?* savol shaklida ifodalangan turtki sifatida qaraladi. Ushbu g'oyaga

asoslanib, nutq aktining o'zi bilvosita ifodalanmaydi. Bilvosita faqat uni amalga oshirish usuli bo'lishi mumkin [3].

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Bundan tashqari, kengroq talqina misol qiladigan bo'lsak, I. V. Arnold, N. D. Arutyunova, V.K. Gaklarning fikriga ko'ra bilvosita harakatlarda kommunikativ niyat uning rasmiy grammatik tuzilishiga nisbatan o'zgaradi, ya'ni umumiy shaklda bilvosita fikrlar shaklning nomuvofiqligi bilan tavsiflanadi. Shu bilan birga, bilvosita nutq tushunchasi shakl va funktsiya o'rtasidagi tafovutning barcha holatlarini, shu fikrdan an'anaviy va noan'anaviy bilvosita nutq harakatlarini qamrab oladi.

Bilvosita nutq tushunchasini keng tushunishga misol sifatida G. P. Grisning implikatur nazariyasi misol qilishimiz mumkin. Hamkorlik tamoyilining maksimallarida mustahkamlangan aloqa qoidalar fikrning ma'nosini aniq belgilay olmaydi. Unga ko'ra rioya qilmaslik, aytilgan gapda ma'no, ya'ni qo'shimcha yashirin ma'no borligini ko'rsatadi. Undan chekinish bilan tavsiflangan fikrlardan kelib chiqadigan bunday implikatsiyalarni G.P. Gris **Implikatorlar** deb nomlangan [4]. Ma'nosni yoki illokatsion kuchi implikatsiya qoidalariga muvofiq adresat tomonidan ko'rsatiladigan nutq aktlari bilvosita nutq aktlari deyiladi.

G.P. Grisning fikriga ko'ra, fikrning yashirin shakli ba'zi sabablarga ko'ra aniq ifodalab bo'lmaydigan narsalarni ifodalash uchun ishlataladi. Yashirin tarkibga ega bo'lgan fikrlar ma'lum darajada to'liq emas va idrok etish uchun murakkabdir, chunki yashirin komponent tinglovchi tomonidan mustaqil ravishda aniqlanishi kerak. Yashirin shaklda ma'ruzachi nafaqat to'g'ridan-to'g'ri gapirishni istamagan narsani, balki umuman to'liq va aniq ifoda etilmaydigan narsalarni ham ifodalashi mumkin. Printsipial

jihatdan har qanday shaxs o'zi xohlagan narsani aniq ifoda eta olish muhim emas. Biroq, aniq ifodalashga imkon bermaydigan ba'zi his-tuyg'ular va fikrlar mayjud. Fikrning yashirin mazmuni fikr mazmuni singari, deyarli hech qanday chegaraga ega emas va hech narsa bilan cheklanmaydi.

G.P.Gris implikaturalarni ta'kidlab, ularni an'anaviy implikaturalar (*conventional implicatures*) va nutq implikaturalar (*conversational implicatures*) ga ajratadi. An'anaviy implikatsiyalar-bu nutq formulalari bo'lib, ular ma'lum bir niyatning aniq ifodasi bo'lmasdan, uni nutqda shunchalik tez-tez ifodalaydiki, ular boshqa yo'l bilan talqin qilish qobiliyatini yo'qtodilar [4]. Nutqning taassurotlari vaqtigaqt bilan sodir bo'ladi. Ularning dekodlanishi kommunikativ kompetentsiyani talab qiladi.

Ma'ruzachi o'z fikrlarini aniq ifoda etib, tinglovchiga o'zi bilan muloqot qilish imkoniyatini beradi. Ba'zan faqat bunday muloqot natijasida tinglovchi ma'ruzachi nimani anglatishini to'liq tushunishi mumkin [5]. Fikrning yashirin mazmunini qidirishda har bir tinglovchi ushbu ichki dialogni boshqalardan farqli ravishda, har doim aniq mazmun, kontekst va kommunikativ vaziyatni hisobga olgan holda amalgaga oshirishi mumkin. Yashirin ravishda ifodalangan semantik tarkib turli toifadagi tinglovchilarining talablariga va ushbu fikrni talaffuz qilishning turli holatlariga javob berishi mumkin.

Fikrlarda yashirin komponentning mayjudligi aqliy faoliyat natijasida noma'lum narsa ma'lum bo'lishi mumkinligi bilan bog'liq. Fikrlarda ma'lum bo'lgan narsa tabiatian bir hil bo'lmaydi. To'g'ridan-to'g'ri ifodalananadigan va aniq tarkibiy qismning mazmunini tashkil etadig ammo bundan tashqari, aniq ifoda etilмаган va ifodaga muhtoj bo'lмаган ma'lum bir fikrlar mayjud: bu mayjud bo'lgan gapning presuppozitsiyalari tilda tejash qonunining namoyon bo'lishidir. Presuppozitsiyalar axbarot xabari maqomiga ega emas va shuning uchun fikrning yashirin mazmuniga tenglashtirilmaydi. Presuppozitsiyalarning asosini til, dunyo, kontekst va kommunikativ vaziyatlarning xususiyatlari to'g'risida matndan oldingi bilimlar tashkil etadi. Muayyan nutq faoliyatida ushbu bilimlarning bir qismi aktuallashtiriladi va fikrning presuppozitsiyasiga aylanadi.

J. Mei bilvosita toifani keng ma'noda tushunadi. Keling tuzni uzatishni so'rash variantlarida pragmatik ravshanlik va bilvosita toifaning namoyon bo'lishining klassik misolini ko'rib chiqaylik (*Pass the salt / Can you pass me the salt?*), J. Mei bunday so'rov sifatida fikrlardan foydalanish imkoniyatini quyidagicha qayd etadi. «*I'd like some salt*» va «*Isn't the soup rather bland?*» [6].

So'nggi so'zlar, shuningdek, kimdir tuzni uzatishga urinish sifatida qaralishi mumkin, ammo ularning hech biri rasmiy talabga javob bermaydi. Aksincha, bu suhabdoshning taxmin qilingan ta'siriga ishora qiluvchi so'rovdan oldingi fikrlar deyaolamiz. Bunday fikrlar rekvestiv niyatlarni tushuntirmsandan natijani berishi mumkin.

Bunday fikrning talqini kommunikatorlarning umumiy maqsadlarni anglashiga asoslanadi. Maslahatlar va ko'satmalar (*hints and prompts*) informatsion so'zlar sifatida talqin qilinmaydi (*A: I'd like some salt'; B: Thank you for sharing this with me*'), va so'rovdan oldingi fikr sifatida, odatda o'zaro ta'sirning muvaffaqiyati uchun ma'lum bir formulani talab qilmaydi [6].

Shunday qilib, J. Mei nazariyasi bilvosita harakatlar toifasiga nafaqat o'tmishdoshlari tomonidan tasvirlangan an'anaviy holatlarni, balki ma'ruzachining kommunikativ niyatini amalga oshirish uchun ishlatalidigan har qanday fikrlarni ham keng tushunishni namoyish etadi.

Bilvosita ma'noni olish muammosiga kelsak, J. Mey V.F. Xunksning fikriga ko'ra: «Ma'no tilning o'zida emas, balki til va vaziyat o'rtasidagi o'zaro ta'sirdan kelib chiqadi» [6]. Uning fikriga ko'ra, tinglovchi bilvosita harakatni

aniqlashda qiyinchiliklarga duch kelmaydi, chunki u ma'lum bir vaziyatga, ya'ni pragmatizmga bo'lgan vaziyatga bog'liqligi haqida tasavvurga ega bo'ladi. Har qanday pragmatik harakatni saralash uchun tadqiqotchi ushbu nutq hodisasining haqiqiy muloqotda qanday ta'sir ko'rsatishini tasavvur qilishi kerak.

J. May pragmatik harakatlariga misol sifatida reklama shiorlarini keltiradi. Fikrning yo'nalishi darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, ta'sir shunchalik samarali bo'ladi. Reklama ishontirish texnikasi asosan «Aytilganlarga emas, balki aytilmaganlarga» asoslangan [6]. Masalan, bar uchun reklama «Sweet Alice» «*I brought some sushi home and cooked it; it wasn't bad*» taklifnomaning pragmatik aktini ifodalaydi, garchi u aniq yoki bilvosita shaklda taklifnomaning klassik nutq aktini o'z ichiga olmasa ham. Bundan tashqari, semantika nuqtai nazaridan bunday fikr ma'nosiz. Shunga qaramay, potentsial tashrif buyuruvchilarning e'tiborini jalb qilish uchun bar egasi o'z niyatlarini ifoda etishning aynan shu usulini tanladi. Uning vazifasi sizni o'sha barda yaxshi vaqt o'tkazish uchun joy sifatida taqdim etishdir, bu yerga siz albatta kelishingiz kerak. Ammo «Mening barimga keling» degan to'g'ridan-to'g'ri fikr o'rniga, reklama shiorida hazildan foydalanadi, uning ma'nosini birinchi juft misoldan keyin paydo bo'ladigan yoqimli va beparvo holatga ishora qiladi. Shunday qilib, bu so'z «Sweet Alice» ga qo'shilish uchun taklifdir.

Ta'na-dashnom berish nutqining lingvistik dizaynining turli usullarini tahlil qilib, ularni pragmatik ravshanlik bilvosita kategoriya nuqtai nazaridan ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Garchi ushbu toifadagi harakatlar an'anaviy ravishda xushmuomalalik printsipini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lsa-da, ba'zi tilshunoslar aniq yoki bilvosita ifoda shaklini tanlashni belgilaydigan turli xil omillarni ajratib ko'rsatishadi va bu omillar har doim ham xushmuomalalikning pragmatik fenomeni doirasiga kirmaydi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, nutq harakatlarining to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita bo'linishi hali to'liq va yakuniy yechim topmagan muammodir. Bilvosita nutq harakatlari muammosi shakl va funktsiya o'rtasidagi munosabatni tahlil qilish uchun nazariy ahamiyatga ega. Buning uchun ma'ruzachi lingvistik va lingvistik bo'lмаган (interaktiv, entsiklopedik, fon) bilimlarning sifat jihatidan har xil turlaridan, shuningdek, fikrlash qobiliyatidan foydalanishi kerak [7].

Gapni aytayotganda, ma'ruzachi har doim ham aynan shu qadar ko'p va so'zma-so'z aytganlarini anglatmaydi. Semantik soddalik va noaniqlik barcha fikrlarga xos emas: ko'pincha fikrning so'zma-so'z ma'nosini va ma'lum bir aloqa vaziyatida ma'lum bir shaxs tomonidan nazarda tutilgan ma'no bilan ajralib turadi. Bunday tafovutlarning muhimi bu ma'ruzachi so'zning bevosita ma'nosini ham, boshqa narsani ham nazarda tutadigan holatlar va so'zning o'zi ikkita illokatsion funktsiyaga ega bo'ladi [7].

Fikrning o'zi mazmunidan kelib chiqadigan o'z ma'nosidan (birlamchi yoki asosiy illokatsiya) tashqari, fikrlar ma'lum bir qo'shimcha ma'noga ega bo'ladi (ikkilamchi yoki haqiqiy illokatsiya). Bilvosita keng tushunilganda, ikkala illokatsion funktsiya ham birgalikda mayjud deb hisoblanadi. Ushbu hodisani tor talqin qilish bilan, asosiy illokatsiya haqiqiy tomonidan «Bostirilgan» deb ishoniladi va nutq harakati to'g'ridan-to'g'ri bayon semantikasidan kelib chiqmaydigan ta'sir ko'rsatish qobiliyatini oladi.

**Tahlil va natijalar.** Nutq aktlari bilan shug'ullanadigan tadqiqotchilar odatda bilvosita keng talqin qilish nazariyasini ishlab chiqadilar. To'g'ridan-to'g'ri nutq aktlari toifasiga til tuzilishi kommunikativ maqsadga mos keladigan fikrlar kiradi, ya'ni nutq aktlari, ularning illokativ maqsadi aniq ifodalangan va tinglovchi tomonidan izohli harakatlarni talab qilmaydi. Bilvosita nutq aktlari guruhiiga

shakl va funktsiyaning nomuvofiqligi kuzatiladigan barcha fikrlar kiradi.

Aksariyat tadqiqotchilar niyatni ifodalashning to'g'ridan-to'g'ri yoki aniq usuli nutq harakatining illokatsion funktsiyasiga mos keladigan ma'lum bir sintaktik shaklni tanlash yoki ijro etuvchi fe'ldan foydalanish bilan tavsiflanadi, deb hisoblashadi (buyurtma uchun majburiy kayfiyat, «*Men maslahat beraman ...*», «*Va'da beraman ...*» maslahat, va'dalar va boshqalar uchun).

Ammo shuni ta'kidlash kerakki, ushbu asarlarning aksariyati ijobji yoki neytral kommunikativ yo'nalihsidagi nutq harakatlari tegishli. Savol tug'iladi: Ho'sh bilvosita hodisaning keng talqinini tinglayotgan odamning ijobji tomoniga tahdid soladigan nutq aktlarini tahlil qilishda qanday qo'llash mumkin? Bilvosita keng tushuncha asosan til tizimida sodir bo'layotgan voqealarni tasvirlashga, ya'ni tilning imkoniyatlarini tavsiflashga qaratilgan. Shu nuqtai nazardan, fikr «*Can you pass me the salt?*» bu bilvosita so'rov, chunki uni odatiy motivatsion shaklga semantik jihatdan teng bo'lmagan idioma deb hisoblash mumkin emas. Biroq, nutq harakatlari tahlil qilishda an'anaviylikning sifat jihatidan xilma-xilligini hisobga olish kerak. Shu munosabat bilan M.L.Makarov va J.Morganning til konventsiyalari va foydalanish konventsiyalari o'rtaсидаги farq haqidagi dalillarini keltiradi.

Bilvosita hodisa odatda turli xil illokatsion kuchlarning birmalikdagi hayoti sifatida ifodalaniadi [8]. Asarlardan birida Ta'na-dashnom aktini o'rganayotganda shu asosda barcha ta'na-dashnom aktlari bilvosita degan xulosaga kelishadi. T. A. Davydova, ta'na-dashnom aktining nutqiy harakatlari ko'p hollarda bir nechta illokatsiya ega va ularni bir yoki boshqa illokatsion funktsiyada ishlatalish imkoniyati mavjud deb hisoblaydi.

Bizning materialimiz shuni ko'rsatadiki, ma'ruzachining fikrida asosiy illokatsiya rolini o'ynaydigan

ta'na-dashnom niyati ifodalangan holatlar mavjud. Bunday fikrlarda ishlataladigan leksik va grammatik tuzilmalar ta'na-dashnomga xosdir. Bu boshqa nutq harakatlarda bunday tuzilmalardan foydalanish imkoniyatini istisno etmaydi, ammo bunday foydalanish holatlari kamdan kam uchraydi. Bunday holda, ta'na-dashnom to'g'ridan-to'g'ri nutq harakati sifatida belgilanishi mumkin va bu fikri kontekstdan ajratilgan holda ko'rib chiqish orqali sinovdan o'tkazilishi mumkin.

Agar fikr bir nechta illokatsion kuchga ega bo'lsa va shu bilan birga boshqa nutq aktining intetsiyasi asosiy illokatsiya vazifasini bajarsa va ta'na-dashnom maqsadi haqiqiy bo'lsa, biz uni bilvosita nutq aktlari toifasiga kiritamiz. Agar bitta nutq aktida ikkita illokatsion kuchlar birmalikda mavjud bo'lsa, ulardan biri ikkinchisini o'rnini bosadi. Agar to'liq bostirish kuzatilmasa va nutq aktini talqin qilish ikki tomonlama talqin qilish imkoniyatini qoldirsa, bunday nutq aktlarini shartli bo'lmagan bilvosita deb tasniflash mumkin.

**Xulosa va takliflar.** Ushbu ishdagi ta'na-dashnom aktining pragmalingvistik tasnifining mezonlari-bu so'zda ta'na-dashnom aktining asosiy illokutsiyasining mavjudligi yoki yo'qligi va bilvosita nutq harakatlarda odatiylik va noan'anaviyligidir. To'g'ridan-to'g'ri ta'na-dashnom aktlari bu ma'no qasddan qilingan nutq harakatlari bo'lib, unda ta'na-dashnomning maqsadi birlamchi illat hisoblanadi; bilvosita ta'na-dashnom aktlari bir nechta niyatlarining mavjudligi bilan tavsiflanadi. Agar bilvosita haqoratni ifodalash uchun ma'lum bir shakldan foydalanish odatiy bo'lsa va odatda kundalik nutqda foydalanish uchun har doim ma'lum darajada ritualizatsiya bilan tavsiflansa, unda bunday ta'na-dashnom oddiy bilvosita nutq harakatidir. Noaniq nutq harakatlari an'anaviy bo'lmagan bilvosita nutq harakatlariga ishora qiladi.

#### ADABIYOTLAR

1. Searle J. 'Indirect Speech Acts' / Searle J. II Cole P., Morgan G. (eds).Syntax and Semantics. Vol. 3: Speech acts. - New York: Academic Press, 1975. - P. 59-82.
2. Фомина Л.М. Реализация модальности необходимости в тексте (на материале английского языка): Автореф. дис. ... канд. филол. наук / Фомина Л.М. -М., 1985. - 20 с.
3. Егорова М.А. Контрастивно-прагматический анализ способов реализации просьбы (британская, американская, русская традиции): Дис. ... канд. филол. наук / Егорова М.А. - Воронеж, 1995. - 181 с.
4. Грайс Г.П. Логика и речевое общение / Грайс Г.П. // Новое в зарубежной лингвистике. -М., 1985. -Вып. 16: Лингвистическая прагматика - С. 217- 237.
5. Фэ Х. Семантика высказывания / Фэ Х. // Новое в зарубежной лингвистике. -М., 1985. -Вып. 16. Лингвистическая прагматика. - С. 399-405.
6. Mey J.L. Pragmatics. An Introduction / Mey J.L. - USA, UK: Blackwell Publishers, 2001, 2<sup>nd</sup> ed. -500 p.
7. Серль Дж. Р. Косвенные речевые акты / Серль Дж. Р. // Новое в зарубежной лингвистике. - М., 1986. - Вып. 17: Теория речевых актов. - С. 195-222.
8. Thomas J. Meaning in Interaction. An Introduction to Pragmatics / Thomas J. -Longman, 1995.-430 p.



Dildora BARATOVA,

O'zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti

E-mail: dildorabaratova93@gmail.com

O'zDJTU katta o'qituvchisi (PhD) F.X. Ibragimova taqrizi asosida

### APHORISMS AND OTHER PAREMIOLOGICAL UNITS

Annotation

In this article, a few paremiological units are analyzed with examples of different writers such as English, Uzbek and Russian. The article focusses the peculiarities of aphorisms functioning in linguistic research and the usage of them in different contexts. A primary aim of this article is to differentiate aphorisms in linguistic branch or literary branch.

**Key words:** Aphorisms, paradox, proverb, paremiology, phraseological units, text, words, paremiography.

### АФОРИЗМЫ И ДРУГИЕ ПАРЕМИОЛОГИЧЕСКИЕ ЕДИНИЦЫ

Annotation

В данной статье анализируются несколько паремиологических единиц на примерах разных писателей, таких как английский, узбекский и русский. Статья посвящена особенностям функционирования афоризмов в лингвистических исследованиях и их употреблению в различных контекстах. Основная цель этой статьи - дифференцировать афоризмы в лингвистической отрасли или литературной отрасли.

**Ключевые слова:** Афоризмы, парадокс, пословица, паремиология, фразеологизмы, текст, слова, паремиография.

### AFORIZMALAR VA BOSHQA PAREMIOLOGIK BIRLIKLER

Annotation

Ushbu maqolada bir nechta paremiologik birliklar ingliz, o'zbek va rus kabi turli yozuvchilar misollari bilan tahlil qilinadi. Maqolada lingvistik tadqiqotlarda aforizmlarning o'ziga xos xususiyatlari va ularning turli kontekstlarda qo'llanilishiga e'tibor qaratilgan. Ushbu maqolaning asosiy maqsadi aforizmlarni til yoki adabiy sohada farqlashdir.

**Kalit so'zlar:** Aforizmlar, paradoks, maqol, paremiologiya, frazeologik birliklar, matn, so'zlar, paremiografiya.

**Kirish.** Dunyoda tillar ko'p va ular ayni bir voqelikni ifodalash uchun ishlatalidi. Til jamiyatda eng muhim vositalardan biri bo'lib, o'zarlo fikr almashish, o'r ganilgan bilimni aynan hozirgi avlod uchun emas balki kelajak avlodga ham yetkazib beruvchi eng muhim vositalardan biri sanaladi. Til jamiyatda paydo bo'lguniga qadar bir qancha insoniyat talaygina qiyin vaziyatlarni boshdan kechirishgan. Dastlab kishilar so'zlar bilan emas, balki har xil imo ishoralar orqali bir birlari bilan muloqatga kirishganlar. Albatta shu usslubda muloqat qilish kishilar uchun birmuncha noqulayliklar tug'dirishga sabab bo'lgan. Masalan insonlar har doim ham muloqat jarayonida tinglovchini diqqatini turli xil hatti harakatlar orqali jalb etish biroz mushkul. So'zlar orqali ifodalangan nutq esa chiroyliroq, tushunarliroq hamda tasirliroq bo'lib, fikrni aniq qilib yetqazishga xizmat qiladi. Vaqtlar o'tib inson tafakkuri rivojlanib, asta sekin imo ishoralar orqali emas, har xil tovushlar orqali axborot yetqizib berishgan. Til kishilar o'rtasida aloqa vositasi hisoblanadi va yillar o'tib rivojlanib, sayqallanib boradi. Tilning asosi bu

nutqimizda ishlatiladigan so'zlar hisoblanadi. So'zlar qancha ko'p bo'lsa, o'sha tilning lug'at boyligi shuncha keng bo'ladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Demak, har bir tilning o'z lug'at boyligi mavjud hamda bunga undagi jamiki so'zlar kiradi. Kishilar so'zlar orqali fikrni yetqizib bera olishadi. So'z inson tafakkuridagi har qanday holatni tinglovchiga ham og'zaki ham yozma ravishda yetqazib beruvchi vositadir. Shundan kelib chiqadigan bo'lsak tilimizdagagi so'zlearning lug'at tarkibini o'rganuvchi tilshunoslikning bo'limi leksikologiya hisoblanadi. Tildagi barcha so'zlearning yig'indisi uning lug'at tarkibi yoki leksikasi hisoblanadi (lexis – "so'z"). Tilshunoslik fanining tilning leksikasini o'rganuvchi bo'limi leksikologiya (grekcha lexis – "so'z" va logos "ta'limat") deyiladi[1]. Leksikologiya faqat birgina so'zni emas balki so'z birikmalar, frazeologiya, idiomalarini ham o'rganuvchi bo'limdir. So'zlearning bir biriga qo'shib ishlatish jarayonida butun bir katta hajmdagi yoki kichik hajmdagi matn paydo bo'ladi. Masalan quyidagi diagrammaga e'tibor qaratadigan bo'lsak matn qanday hosil bo'lish jarayoniga guvohi bo'lishimiz mumkin.



Yuqorida keltirilgan chizmada matn faqatgina so'zlardan emas turli til birliklardan ham tashkil topadi.

Chizmada keltirilgan birliklarga e'tiborimizni qaratamiz. Hamda ularni tahlil qilamiz.

So'z – tilning narsa-hodisalar, jarayonlar va xususiyatlarni nomlash uchun xizmat qiladigan eng muhim struktur ma'noviy birligi, o'z tovush qobig'iga ega bo'lgan, borliqdag'i narsa haqidagi tushunchani, ular o'rtasidagi aloqani yoki ularga munosabatni ifodalay oladigan turli grammatic ma'no va vazifalarda qo'llanadigan eng kichik nutq birligi. Boshqa birliklar bilan so'zni solishtirilganda so'zda ham ifoda, ham mazmun tushunchalari mujassamlashgan bo'ladi. Har bir fikrni ifoda etmoqchi bo'lganimizda albatta so'zlardan foydalanamiz. So'zlar aloqa jarayoning eng muhim quroli hisoblanadi va uni tinglovchi yetqazib beradi. So'zlarining ma'nolari esa uni matnda yoki kontekstda ishlatalishiga ko'r biridan farqlanadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Kishilar muloqat jarayonida turli xil birliliklardan nutqda foydalananilar, bularga maqol, matal, aforizm, topishmoq va boshqa til birliliklarini misol qilib keltirishimiz mumkin. Bunday birliliklarni o'rganuvchi fan paremiologiya hisoblanadi. "Paremiologiya" so'zi grekcha paroimia (hikmat) va logos (fan) degan ma'noga ega[2] maqol, matal, aforizm kabi hikmatli iboralarini o'rganadigan fan bo'lib, uning "paremiografiya" bo'limi maqol va hikmatli iboralarini to'plash va ularning lug'atlarini tuzish bilan shug'ullanadi. Paremiologiyaning o'rganish obyektlari "paremalar" deb ataladi[3]. Paremiologiyaning yana bir birligi bo'lgan aforizm haqida so'z yuritilganda, aforizmlar ma'lum bir shaxs tomonidan hayotiy tajribalar asosida umumiy haqiqatlar so'zlar orqali ifodalash desak mubolag'a bo'lmaydi. Aforizmlar haqida juda ko'plab chet el olimlari hamda o'zbek olimlari izlanishlar olib borishgan, xususan XX asrning 90-yillarda professor B.Sarimsoqov aforizmlarni, maqol, matal, topishmoq, qanotli so'z va iboralar, paradoxlar, epigrammalar, xokkular, gnomalar, fard va muammolar qatorida – to'rtinchchi adabiy turga mansub, deb ko'rsatadi. Muallif bu adabiy turni paremiya deb nomlanadi[4] deya ta'rif bergan. Muallif tomonidan keltirilgan har bir adabiy janrlar o'zining qanday ma'no anglatganligiga qarab bir biridan farqlanadi.

Maqollar - grammatic jihatdan tugallangan fikrni bildiruvchi, kichik, ixcham, o'tkir mazmunli, ko'chma ma'noda yoki ham ko'chma ma'noda, ham o'z ma'nosida qo'llanadigan hikmatli xalq iboralaridir: Bilagi zo'r birni yiqar, bilimi zo'r – mingni. Avrasang oqil bo'lar, bovrasang botir bo'lar. Aytishsang so'z chiqadi, turtishsang - ko'z.

Matallar – muayyan hayotiy hodisani aniq va to'g'ri belgilab beradigan obrazli ifoda, ibora. Matalda o'xshatish, taqqoslash, kinoya, qochiriq so'z kabi badiiy vositalardan foydalaniladi[5]. Masalan: Tomdan tarasha tushgandek. Popugi pasayib qoldi. Oyog'ingni qo'linga olib yugur kabi misollarni keltirishimiz mumkin.

**Tahhil va natijalar.** Topishmoqlar – bu narsaning nima ekanligini bilishni tinglovchi yoki o'quvchining ixtiyoriga qoldiradigan o'yin bo'lib, uning xususiyatlarini ismini tilga olmay, bilvosita aytib beradi[6]. Po'lat qushim uchdi-ketti. Bir zum o'tymay oyga yetdi. (raketa). Bir uy bor: ko'r bo'lib kirasan, ko'zli bo'lib chiqasan. (muktab). Ko'kda qilich yarqiraydi, suvda aksi yaltiraydi. (oy). Misollarda ko'rinib turibdiki, topishmoqda ko'pgina holatlarda o'xshatish, qiyoslash, bo'rttirish holatlari guvohi bo'lishimiz mumkin. Topishmoqlar bir nechta so'zlardan tashkil topgan bo'lishi, she'r shaklida ham namoyon bo'lishi mumkin.

Gregeriya – juda qisqa adabiy matn bo'lib ham aforizmiga, ham majoziy ta'rifga o'xshaydi lekin gregeriyaning ajralmas qismi hazil va metafora hisoblanadi[7].

Мёд всегда краденый.

Рамон Гомес де ла Серна

Quyidagi berilgan misolimizda har doim asalning o'g'irlanishi haqida gap ketmay balki har narsaning eng

yaxshisi, mukamalli va qiymati a'losi olinadi va undan foydalilaniladi degan ma'noda ishlataladigan ibora hisoblanadi.

Paradoks - bu ma'lum bir jumlaning (yoki uning tasdig'i va inkorining) haqiqatini ham, yolg'onligini ham isbotlaydigan, rasmiy mantiqiy vositalar bilan ifodalangan, ochiq-oydin qabul qilinadigan (mantiqiy jihatdan to'g'ri) ko'rindigan, ammo shunga olib keladigan bayonet yoki mulohazadir[8].

Yuqorida berilgan fikrlarni inobatga oladigan bo'lsak aforizm termini nafaqat tilshunoslikda balki adabiyotshunoslikda ham keng qo'llanilar ekan. Aforizm qisman boshqa terminlar bilan ma'nolari bir biriga o'xshasada aslida ularning o'rtasida juda katta farqni sezish mumkin. Ko'pgina manbalarda kishilar maqol hamda aforizmlarni bir biridan farqlay olish qiyin deb tushunishadi, to'g'ri ular aslida ko'rinishi jihatdan bir biriga yaqin bo'lgan birliklar bo'lsada, lekin maqolni xalq yaratса, aforizmlar esa muayyan bir shaxs tomonidan yaratiladi.

Aforizm mustaqil adabiy janrga egami yoki badiiy adabiyotda keng tarqalgan bo'lsada, mustaqil janr darajasiga ko'tarila olmagan muvaqqat adabiy hodisami – bu haqida ilmiy adabiyotlarda har xil qarashlar mavjud. Aforizm bo'yicha u yoki bu darajada shug'ullangan olimlar uni mustaqil janr sifatida e'tirof etsalar, ayrim tadqiqotchilar uni dono so'z, qanotli so'z yoki iboralar, gregeriya, paradoks kabi kabi janrlar bilan qorishtir yuboradilar[9].

Demak, dastlab aforizm tushunchasi ko'pchilik tadqiqotchilar uchun uni aynan bir to'xtamga kelib, qaysi janrga xosligi va uni boshqa tushunchalar bilan qanday farqlarga egaligini aniqlashda qiyinchilik tug'dirgan, bu ustida bir qancha jahon olimlari ko'pgina izlanishlar olib borishgan va haligacha bu ishlar davom etib kelmoqda.

Aforizm atamasining kelib chiqish tarixi qadimgi yunon faylasufi va fizigi Gippokratiga borib taqaladi va bu miloddan avvalgi V- IV asrlarni o'z ichiga oladi[10]. Bundan ko'rinish turibdiki aforizmlar avval o'tmishda ham mavjud bo'lgan, hozir ham mavjud kelajakda ham kelgisi avlodlarga yetib boradi. Aforizmlarni inson tafakkuring omili desak mubolag'a bo'lmaydi chunki unda xalqning, millatning ichki kechinmalari, moddiy hamda ma'naviy qadriyatları aks ettiriladi. Aforizmlar bir so'zdan iborat bo'lishi yoki butun bir matn shaklida ham namoyon bo'lishi mumkin. Ko'pgina olimlar aforizmlar ustida tadqiqotlari natijasida turli xil ta'riflashgan, ba'zi olimlarning fikriga ko'ra so'zlar soni qanchalik kam qo'llansa ma'no shunchalik kuchli bo'lishini ta'kidlashsa ayrim olimlar boshqacha fikr bildirishgan. Tadqiqotchilar uzoq izlanishlari natijasida quyidagi umumiy xulosaga kelishdi ya'ni ular quyidagi umumiy xususiyatga ega bo'ladi[11]:

Axborotning qisqaligi;

Fikrni umumlashtirish;

Didaktik;

Ekspressivlik;

Aniqlik;

Kommunikativlik;

To'liqlik.

Xiyonatkor qayerga qo'l ursa,

Dengizni simiradi, yerni quritadi. (Yusuf Xos Hojib)

Alloma Yusuf Hos Hojib tomonidan keltirilgan quyidagi aforizm ko'proq salbiy obrazga qaratilgan bo'lib, unda xiyonatkor inson qanday ish boshlasa ham albatta u inson boshlagan ish yaxshilik ila tugamasligini ikki frazeologik birliklar orqali ya'ni qo'l urmoq hamda dengizni simirmoq iborasi bilan yanada tasirli qilib ifoda etganlar. Mutafakkir ushbu aforizmda xiyonatkor insonni shunday tasvirlaydiki hattoki cheksiz darajada tuyuladigan dengizni ham tamom qilish va ulkan yer sharini ham quritib yuborish darajasiga olib chiqib nihoyatda ajoyib tasvirlagan.

Aforizmlarning xususiyatlaridan kelib chiqib ularning har biriga to'xtaladigan bo'lsak, albatta ular shaklning qisqaligi va mazmunning kengligi bilan boshqa til birliklaridan ajralib turishi lozim. Bundan tashqari unda ifodalanayotgan fikr butun bir katta hajmdagi matnni emas, balki undagi umumiy g'oyani tasvirlashi, fikrning salbiy yoki ijobjiy tarzda namoyon qilishi, so'zning ifodalanayotgan voqelikka nisbatan munosib ifodalanishi, mantiqiylik kabi xususiyatlari orqali ifodalanishi maqsadga muvofiq. Quyida rus, inglez hamda o'zbek tilida keltirilgan aforizmlarga e'tibor qaratamiz:

"Genius is one of inspiration, and ninety nine percent of perspiration"

Thomas Edison

Mashhur ixtirochi tomonidan keltirilgan quyidagi aforizmda daho bo'lish ya'ni mukammal biror sohada kuchli bo'lib muvaffaqiyatga erishishda albatta 1 foizni ilhomlanish tashkil etsa, 99 foiz mehnat qilishni talab etidi deya ta'kidlagan. Albatta mehnat evaziga erishilgan har bir narsaning qadri baland bo'libgina qolmay balki yanada o'z ustida ishlashga, o'zini rivojlantirishga undaydi.

Yoki quyida keltirilgan rus yozuvchisi Fyodr Mixaylovich Dostoyevskiy tomonidan keltirilgan fikrlarni tahsil qilamiz:

"Перестать читать книги – значит перестать мыслить"

Ф.М. Достоевский

Kitob o'qishdan to'xtadimi fikrlashdan ham to'xtaydi degan fikrni beruvchi ushbu aforizm haqiqatdan ham odamzot umri davomida nimanidir o'rganish, o'z ustida ishlash eng bo'Imaganda kundalik uy yushmanlari bilan band bo'ladi lekin har bir hayotdagi faoliyatni amalga oshirish uchun esa bilim kerak, bilim albatta o'z o'zidan oshib qolmay balki yillar davomida kitob mutolaa qilish orqaligina o'sib rivojlanish mumkin. Biz uchun juda oddiy tuyuladigan har bir ishni

amalga oshirishimiz uchun ham eng avvalo bilim hamda ko'nikmalar kerak bo'ladi bu esa insonga o'z o'zidan emas balki o'qish, o'rganish orqaligina yetib kelishi mumkin.

"Ilmi fursat bo'lganda o'rganaverish kerak. Chunki ilm zarur bo'lgan paytda fursat topilmaydi"

Abdulloh ibn Mas'ud

Azal azaldan ota bobolarimiz tomonidan ilm olishlikning afzalliklari haqida bir necha bor aytilgan hatto ilm olishning foydasi hadisi shariflarda ham keltirib o'tilgan. Ilm nafaqat hayotning nuri balki qalblarning nuri hamdir. Ilm bilan insonlar o'z yo'llarini yoritmasalar albatta hayoti zimistonga aylanishi tabiiy. Ilm olishning erta va kech mahali mavjud emas, uni hoh yosh bo'lsin hoh keksalik paytda ham o'rganish doim foydali. Ilm olishdan maqsad albatta ezgu ishlarni amalga oshirish joiz bo'lsa bu ilmni kelajak avlodga yetqizish lozim.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib shuni aytish joizki, nutqda tejamkorlikni ta'minlash uchun kishilarni ham ma'naviy, ham axloqiy tarbiyaga chorlaydigan aforizmlar jamiyatda eng muhim bo'lgan til birliklaridan biri desak mubolag'a bo'lmaydi. Ularni o'qib tahlil qilar ekanmiz har bir berilgan aforizmning o'ziga xos ekanligini tushunamiz va undan juda yaxshi xulosa chiqarishimiz mumkin. Lekin har bir kitobxon aforizmni har xil usulda tahlil qilib uni tushunadi sababi aforizmlardagi qanchalik so'zlar soni kamayaversa undagi ma'no ham uning qay usulda tushunilishiga to'siq bo'lishi mumkin. Bazan aforizmlarni o'qib unga amal qilish ham insoniyatga yaxshi ta'sir ko'rsatishi tabiiy chunki ko'pgina aforizmlar insonlarni ham tushkun ham baxtli onlarini aks ettira oladigan jumlalar desak mutlaqo to'g'ri. Unda aks ettiriladigan har qanday holatlар hayotiy tajribalar asosiga tayangan holda hosil bo'ladi bu esa o'z o'zidan har bir inson uchun qandaydir hayotga bo'lgan qiziqishni yoki ortirradi yoki kamaytirishi mumkin.

## ADABIYOTLAR

1. Abduaizov A. Tilshunoslikka kirish II-qism Leksikologiya va semasiologiya, Grammatika, b-3, 1999.
2. <http://en.m.wikipedia.org/wiki/paremiology>.
3. Abdullayeva N.E. Ingliz va o'zbek xalq maqollaridagi graduonomik munosabatlarning lingvopragmatik xususiyatlari, Toshkent, Nurafshon business, b-56, 2021.
4. Sarimsoqov B. Adabiy tur haqida mulohazalar, O'zbek tili va adabiyoti, 5-son, b-3-13, 1993.
5. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Matal>.
6. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Topishmoq>.
7. <https://poiskslv.ru/anagram>.
8. Ильчёв Л.Ф., Федосеев П.Н., Ковалёв С.М., Пановю В.Г., Философский энциклопедический словарь/Гл.редакция.-М.:Советская энциклопедия,1983.-840 с.-150000 экз.
9. Федоренка Н.Г., Сокольская А.И. Афористика. -М.: Наука, 1990.
10. В переводе на русский язык см.: Афорисмы Иппократа / пер. П. Шюца. Санктъ Петербургъ, 1.
11. Tashpulatova D.X., Research of aphorisms in world linguistics//Texas Journal of Multidisciplinary Studies. – 2022. b - 2. 5.
12. Nurmanov A. O'zbek tilshunosligi tarixi, Toshkent - O'zbekiston, 2002.
13. Норман Б.Ю., Павленко Н.А. Введение в языкознание, Минск Вышэйшая школа, 1984.
14. Хидикель С.С, Гинзбург Р.З, Князева Г.К, Санкин А.А. Английская лексикология в выдержках и извлечениях, Ленинград, 1969.
15. Yo'ldoshev I ., Sharipova O'. Tilshunoslik asoslari, Toshkent Iqtisod – Moliya, 2007.



Gulruh BAHODIROVA,

Shahrisabz davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi

E-mail:bahodirova86@bk.ru

TDO 'TAU professori B.Mengliyev taqrizi asosida

## LEXICAL-SEMANTIC ANALYSIS OF THE NAMES OF EMBROIDERED CLOTHING IN UPPER KASHKADARYA DIALECTS

### Annotation

In this article, the naming, meaning, linguistic development, historical development, differences and similarities in the names of the main embroidery terms in the dialects of some regions of our country, in particular, Shahrisabz, Kitab district, are highlighted based on various historical and modern dictionaries. Instead, the meeting of these terms in folklore and artistic works was discussed.

**Key words:** Embroidery, headdress, cap, bride, wedding, groom, sarpo.

## ЛЕКСИКО-СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ НАЗВАНИЙ ВЫШИТОЙ ОДЕЖДЫ В ВЕРХНЕКАШКАДАРЬИНСКИХ ГОВОРАХ

### Аннотация

В данной статье на основе различных исторических и современных словарей выделены номинация, значение, языковое развитие, историческое развитие, различия и сходства в названиях основных терминов вышивки некоторых регионов нашей страны, в частности, Шахрисабз, Китабский район. Вместо этого обсуждалась встреча этих терминов в фольклорных и художественных произведениях.

**Ключевые слова:** Вышивка, головной убор, чепец, невеста, свадьба, жених, сарпо.

## YUQORI QASHQADARYO SHEVALARIDA KASHTALI KIYIM NOMLARINING LEKSIK-SEMANTIK TAHLILI

### Annotatsiya

Ushbu maqolada buyum nomlariga mansub asosiy kashtachilik terminlarining mamlakatimizning ayrim hududlari, xususan, Shahrisabz, Kitob tumani shevalarida nomlanishi, anglatgan ma'nosi, lisoniy rivoji, tarixiy taraqqiyoti, nomlardagi tafovut va o'xshashliklarni turli tarixiy va zamonaviy lug'atlar asosida yoritilgan. O'rni bilan ushbu terminlarning xalq og'zaki ijodi va badiiy asarlarda uchrashi haqida to'xtalgan.

**Kalit so'z:** Kashtachilik, bosh kiyim, qalpoq, kelin, to'y, kuyov, sarpo.

**Kirish.** O'zbek kashtachilik terminlarining semantik tahlili, avvalo, ularning asosiy leksik-semantik guruuhlarini aniqlab olishni taqozo etadi. Bu jarayon birmuncha murakkab bo'lib, *birinchidan*, soha leksikasining areal xoslanishi, hudud aholisining urf-odatlari, etnomadaniy jihatlari bilan bog'lansa, *ikkinchidan*, yondosh sohalar – *do'ppido'zlik, gilamdo'zlik, zardo'zlik, tikuvchilik, to'quvchilik, naqqoshlik* leksikasi bilan o'ta aralashib ketgani bilan bog'lanadi. Bu esa kashtachilik terminlarining semantik tasnifi va tavsifiga bir paytda bir necha aspektlarda – etnolingvistik (antropologik lingvistika), etnografik, etnomadaniy, lingvomadaniy, areallingvistik nuqtai nazarlardan yondashishni talab etadi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** O'zbek tilida ilk marta kasb-hunar terminlari S.Ibrohimov tomonidan tadqiq etiladi. U 1950-yilda "Farg'ona ipakchilik leksikasini tekshirishdan bir tajriba" mavzusida nomzodlik ishini, 1961-yilda "O'zbek tilining kasb-hunar leksikasi" mavzusida doktorlik ishini himoya qiladi. Bu boradagi ilk amaliy ishlar – kasb-hunar, shevaga xos so'zlar lug'atlarini tuzish tajribasi ham S.Ibrohimov nomi bilan bog'lanadi. Uning 1934-yilda "Paxtachilik terminlaridan qisqacha izohli lug'at (xalq terminlari asosida)" [1], 1937-yilda "Aravasozlik va abzalsozlik xalq terminlari" [2] lug'atlari nashr etiladi. Shuningdek, 1956-59-yillarda olimming 3 qismli "Farg'ona shevalarining kasb-hunar leksikasi" [3] nomli mashhur lug'ati nashrdan chiqadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Kashtachilik leksikasining asosini kashtali buyum – kiyim-kechak, maishiy jihozlar tashkil qiladi. Ba'zan kiyim to'liq kashtali bo'lsa (masalan,

*qalpoq, katta ko'ylik (kelin ko'ylik), nimcha, etik, kulo'ta kabi), ba'zan uning muayyan qismi kashtali bo'lishi kuzatiladi. Ya'ni ko'ylik yoki to'ning yoka, etak, yeng qismi va hk. Bu xalq qo'shiqlarida ham aks etgan:*

*Aka to'ning beqasam,*

*Yoqasiga gul solsam.*(Xalq qo'shig'i)

**Tahlil va natijalar.** Ular orasida kashtali bosh kiyim hamda ust kiyim nomlari asosiy o'rinni egallaydi. Bosh kiyimning deyarli barcha ko'rinishlari – kundalik bosh kiyimlarda ham, to'y-bazmlarda kiyiladigan bosh kiyimlarda ham, yoshga qarab kiyiladigan bosh kiyimlarda ham kashta elementlarini uchratish mumkin.

**Qalpoq.** Kashtachilik leksikasidagi asosiy kashtali qadimiylar bosh kiyim nomi. O'zbekistonning turli hududlarda turlicha leksik va fonetik variantlarda uchraydi. Farg'ona shevalarida *do'ppi* (*to'ppi*), tojik tilli aholi yashaydigan hududlar, xususan, Buxoro, Samarcand, Shahrisabz, Kitob shevalarida *qalpoq* (*qalpog'*), *kallapo'sh* (*kalapo'sh*) deb yuritiladi. Hozirgi o'zbek adabiy tilida garchi *do'ppi* keng iste'molda bo'lsa-da, "O'zbek tilining izohli lug'ati"da forscha *kalapo'sh* bilan birga *qalpoq* leksemasining dialektal varianti sifatida keltiriladi va shv. (sheva) pometasi bilan beriladi:



**Qalpoq** 1 Yupqa namatdan qilingan bosh kiyimi. Baxmal jiyakli oq qalpoq. *U.. egniga brezent chakmon, boshiga oq namat qalpoq kiygan.* H. Nazir, So'nmaschaqmoqlar. 4 shv. Do'ppi, kallapo'sh [4].

Qalpoq amaliy san'at buyumlari paydo bo'lмаган davrda ham insonning boshiga yopinchiq bo'lish bilan birga bezak, hashamni ham bildiruvchi vosita hisoblangan. Dastlab *qoploq* keyinchalik fonetik o'zgarishga uchrab qalpoq holiga kelgan. "Devonu lug'otit turk"da *börk* nomi bilan keltirilgan. Unga berilgan izoh va keltirilgan illyustratsiyada bo'rknинг shunchaki bosh kiyim emas, inson uchun ziynat vositasi ham ekanligi aks etgan: *börk* – qalpoq, bosh kiyim. *Tatsiz turk bolmas, boshsiz börk bolmas – boshsiz bo'rк bo'lмаганидек, totsiz turk ham bo'lmaydi* [5].

Hozirgi o'zbek adabiy tilida *qalpoq* leksemasi do'ppiga nisbatan keng ma'noga ega bo'lib, har qanday bosh kiyim nomiga nisbatan ishlataladi. Masalan, *Anqaqal'a xarobalarining birida eramizning 3-asriga oid bo'lган, boshiga burgutsimon temir qalpoq kiygan shohning rasmi soligan Xorazm mis tangalaridan ikkitasi topilgan.* I. Jabborov, Ko'hna xarobalar siri. *Shu vaqt otliqning savat qalpog'i tagidan bilakday yo'g'on ikki o'rim sochi tushib ketib, yelkasida osilganicha qoldi.* S.Anorboev, Oqsoy. *U uzoq Farg'ona qishlog'ining serqiliq tabiatini bolaligidan bilgani uchunmi, buyuqda golganday, egniga brezent chakmon, boshiga oq namat qalpoq kiygan.* H.Nazir, So'nmaschaqmoqlar. Eshik zinapoyasida sur *qalpoq* kiyib, qizil astarli chakmonining barini kumush kamariga qistirib olgan kishi ko'rindi. «Sharq yulduzi». *Yupqa oq kigizdan qalpoq kiygan xushqomat qizni avval tanimabman.* P. Qodirov, Qadrim. *Tibbiy hamshira bo'lsa kerak, oq xalat, oq qalpoqli juvon kelib, Murodovani shifoxonaga taklif etdi.* I.Rahim, Ixlos. *Issiq va yangi palto, oyog'ida ichi jun botinka, qorako'l qalpoq, qorni to'q.* Mirmuhsin, Umid. *Shunday bo'lgach, sehrli qalpoqchaning yordamiga muhtojman.* X.To'xtaboyev, Shirin qovunlar mamlakati.

Qolaversa, *qalpoq* leksemasining polisemantik tabiatga egaligi (*qalpoqchali zamburug'*, *gugurting qalpoq'i*, *qalpoqli mix (gulmix)*, *temir qalpoq (dubulg'a)* hamda xalq og'zaki ijodi namunalarini, etnonimlar tarkibida (*qoraqalpoq*) uchrashi ham uning tarixiy-etimologik qatlamlari uzoq davrlarga borib taqalishidan darak beradi. Masalan, "Ravshan" dostonida Zulxumorning qalpoq tikib, har bozor kuni kanizlari bilan sotisha olib chiqishi va Ravshan uni qalpoq bozoridan izlashi epizodi bor:

*Bedor mingan boyvachchalar,  
Boyvachchalar, bekvachchalar,  
Qalpoq bozori qaysidi(r)? ("Ravshan")*

Shuningdek, do'ppi ham *qalpoq* kabi sof turkiy kashtali bosh kiyim nomi bo'lib, kelib chiqishi "tepa" so'zi bilan bog'lanadi. O'zbekistonning ayrim hududlari, xususan, Toshkent shevalarida to'ppi ham deb yuritiladi. U O'TILDA quyidagiya izohlanadi:

**Kallapo'sh** [f. – boshni o'rovchi; do'ppi] 1 shv. Bosh kiyimi; do'ppi.

2 Do'ppining bir turi (odatda, tojiklar kiyadigan turi). Zum o'tmay, qora *kallapo'sh* kiygan, zanjiday badbashara barzangini yetaklab kirdi. S.Siyoyev, Yorug'lik [6].

Qalpoqning kashta naqshi, nusxalarning joylashuvi, ip rangi, tikish usuli bilan farqlanadigan erkaklar va ayollar, jumladan, o'g'il va qiz bolalar uchun mo'ljallangan naqsh turlari mavjud. Qalpoq turi, unga ishlataladigan taglik mato, kashta tikish asboblari, do'ppi qismi nomi, masalan, *erkak qalpoq, qizqalpoq, kuyovqalpoq, shabpo'sh (tungi qalpoq)*, iroqi, sherozi kabi umumiy turlari nomi; *kanya (to'r), surp, bo'z, shoyi, satin, avra, astar* singari taglik mato nomlari; *ip, igna, angusht* kabi xom-ashyo, asbob nomlari; *tepa, kizak, qur, gardish, jiyak* kabi do'ppi qismi nomlari do'ppido'zlikka ham, zardo'zlikka ham, kashtado'zlikka ham

yo bevosita, yoki bilvosita aloqador. Do'ppiga solingen kashta nusxalarining nomi, naqsh elementlari, tikish usuli bilan bog'liq terminlarni bevosita kashtachilik leksikasi sifatida qayd etish mumkin. Masalan, mazkur hudud shevalarida qizjuvonlar uchun tikiladigan iroqi nusxa do'ppining kashta naqshi, guli, nusxalarning joylashuvi, ip rangi jihatidan farqlanuvchi 50ga yaqin turi va nomi mavjud. Masalan, "Bahor", "Bulbul", "Gulnoz", "Janon", "Bodom nusxa", "Atirgul", "Chinnigul", "Lola", "Gulsafsar", "Gullola", "Gultojixo'roz", "Olma gul", "Shabnam", "Bashorat", "Samargand nusxa", "Qalampir nusxa" va b.q.

O'zbekistonda Chust, Namangan, Andijon, Farg'ona, Toshkent, Samarqand, Shahrisabz, Kitob, Buxoro, Boysun do'ppilar mashhur. Ularning har biri shakli, tayyorlanish uslubi, naqsh bezaklari, ranglarning tanlanishi va boshqa jihatlariga ko'ra bir-biridan ajralib turadi. Masalan, Kitob, Shahrisabzda qizil-qora ranglar bilan oq fonda sanama yoki chizma usulida tikilgan ayollar uchun iroqi nusxa va gilam do'ppi, erkaklar uchun shirozi do'ppilarni tayyorlash an'anaga aylangan.



Yuqori Qashqadaryo kashtachiligidagi, ayollar qalpog'i, odatda to'rtburchak (to'garak) shaklida tayyorlanib, uch qism – *tepa, kizak* va *qur* (jiyak) dan tashkil topadi. Tepa va kizak qismi kashtali bo'lib, qur qismi ko'p hollarda kashtasiz qora baxmal yoki ipak matodan tayyorlanadi. Kitob, Shahrisabzda hozirgi paytda ham yuz ko'rsatar marosimida kelin tomoni kuyovnning har bir erkak qarindoshiga kiyimlikka (sarro) *tikma qalpoq* sovg'a qiladi. Kuyovnning erkak qarindoshlari soniga qarab 10tadan 100tagacha ham qalpoq tarqatishga to'g'ri keladi. Bu esa ancha murakkab mehnatni talab qilib, ko'pincha kelinlar sherozi jiyakli qalpoq tayyorlaydilar. Bugungi kunda ham aynan sarpo uchun tayyorlanadigan qalpoqlar *sherozi qalpoq* deb yuritiladi. Shahrisabzda kizak va jiyak qismi to'liq dastgohda to'qilgan qalpoq turi – gilam qalpoq ham tayyorlanadi [7]. S.Bulatovning "Amaliy san'at qisqacha lug'ati"da ham sherozi qalpoqning matosi emas, balki uning qismi jiyagiga nisbatan ishlataladi: "To'n, chopon – tik yoqali, oldi ochiq, uzun ustki kiyim; avra-astarli, ichiga paxta solib qaviladi. Beqasam, kimxob, baxmal, shoyi, qora las, satin, chit va b. matolardan tikiladi. Yoqasi, etagi va yeng uchlari sherozi jiyak tikilib, uning uchidan popukchalar chiqariladi" [8].

Umuman olganda, sherozi bo'z yigitlar kiyadigan kashtali bosh bosh kiyimi nomi bo'lib, ushbu ma'nosi ham metonimiya asosida (jiyagining Sherozga xos uslubda tayyorlanishi, sherozliliklarga aloqadar) yuzaga kelgan. Ayni paytda ushbu ma'nosi bilan ham xalq qo'shiqlarida uchraydi:

*Suv keladi Oqtoshdan,  
Shirozi tushdi boshdan.*

*Shirozi tushsa-tushsin*

*Qayrilma qalam qoshdan. (Xalq qo'shig'i)*

**Peshanavat** (peshonaband). Yosh ayollarning kundalik yoki to'y marosimlarda peshonasiga tang'ib bog'laydigan qadimiy bosh kiyimi. "Devonu lug'otit turk"da burunchuk tarzida keladi:

**býrýnchýk** – peshonabog', xotinlar ro'moli, dakana (1, 467); urag'ut býrýnchýk orundi – xotin peshonabog' (dakana) o'radi (1, 209).

Kundalik o'raladigan peshonaband paxtali matoga kamkashta-sodda, siyrak bezakli qilib tikilgan. To'y, bazmlarda kiyishga mo'ljallangan peshonaband *qasava* ham deb yuritilib, duxoba, shoyi, adres kabi matolarga serkashta qilib tikilgan va turli yaltiroq toshlar, mildiroq, munchoqlar bilan bezalgan. Zardo'zlikda ham nashqlari zar, kumushrang iplar bilan tikilgan kashtali buyum qasava yoki peshonaband deb yuritiladi.

**Kulo'ta.** Keksa va o'rta yoshdagi ayollarning sochini yig'ib turadigan, ro'mol ostidan kiyadigan gardishi jiyakli qadimiy bosh kiyimi. Xalq tilida *kulta*, *kulo'ta*, *kultapechak*, *kultapo'shak*, *kulutapo'shak*, *kultapushak*, ayrim joylarda *lachak* kabi turli fonetik va leksik variantlar bilan yuritilgan. *Kulta* turkiy so'z bo'lib, *qiyqim*, *qiyiq* ma'nolarini anglatadi. Hozirgi o'zbek adabiy tilida mustaqil qo'llanmaydi, ammo *kalta-kulta* juft so'zi tarkibida uchraydi. Shuningdek, ayni paytda *nimcha* nomi bilan yuritiluvchi kiyim ayrim shevalarda *kultacha* deb ham aytildi.

*Kulo'ta* ikki qism – yumshoq qalpoqcha va unga biriktirib tikilgan xaltachasimon kokilustidan tarkib topgan. Har ikki qism ham kashta, o'rta yoshli ayollar uchun zarli ip bilan bezatilgan. Ustidan peshonaband va ro'mol o'rashgan.

Odatda, keksa ayollar kashtali do'ppi kiyishmagan, ammo boshni issiq va sovuqdan himoya qilish, ustidan o'raladigan ro'molni ushlab turish uchun avra-astarli, qattiq jiyakli bosh kiyimi tayyorlashgan. Hozirgi paytda ham Kitob, Shahrisabz tumanlarida keksa yoshli ayollar bu buyumdan foydalananadi. Xalq orasida *kulo'ta* kiyish bilan bog'liq marosim ayni paytda ham saqlanib qolgan. O'g'li sunnat to'yi qilish yoshiga yetgan ayol to'y kuni ramziy ma'noda kashtali, bezakli *kulo'ta* kiyadi. Bu sunnat to'yi tarkibidagi alohida marosim hisoblanib *kulo'ta* kiyish deb yuritiladi. Uzoq umr ko'rib, sochlariqa oq tushib yursin degan ma'noda ayolning sochiga oq paxta qo'shib o'rishadi va *kulo'taning* orqa tomonidan chiqarib qo'yishadi. To'yga kelganlar uy bekasiga hadyalar berib, yaxshi tilaklar bildirishadi.

**Ro'yparto (ro'yipartof).** Yangi kelinning yuz ko'rsatar marosimida marosim boshlangunga qadar yuzini yopib turadigan kashtali to'rburchak shaklidagi ro'molcha. Fors-tojikcha *ro'y* – yuz, *pattoh* (*partoftan*) – tashlamoq, yopmoq; yuzni yopmoq, berkitmoq. Ushbu badiiy buyum nomi mavjud lug'atlarda uchramaydi.

**Nimcha, nimtana.** Ayollarning ko'ylak ustidan yopishtirib kiyadigan yengsiz, yoqasiz uzunligi belgacha bo'lgan kashtali kiyimi. *Nim* – fors-tojikcha, yarim, *tana* – turkiy so'z. Tananing yarmini qoplab turadigan ust kiyim. Ushbu kiyim turi qadimiy bo'lib, "Devonu lug'otit turk"da *artig* ('xotinlar kiyadigan nimcha, ko'ylak ustidan kiyiladigan yengsiz va yoqasiz, kalta va ixcham ayollar kiyimi) va *tärinchäk* (xotinlarning yengi yo'q ust kiyimi (o'g'uzcha) nomlari, boshqa manbalarda kashtali kamzul, kaltacha nomlari bilan uchraydi. Nimcha bir paytda zardo'zlik leksikasining ham, kiyim-kechak leksikasining ham birligi hisoblanadi.

**Qars.** Odatda, erkaklar, ba'zan ayollar (aza marosimida) ham kiyim ustidan beliga bog'laydigan to'rburchak shaklidagi kashtali kiyim turi. Garchi kashtali buyumga ishora qilmasa-da, u haqidá "Devonu lug'otit turk"da ma'lumot kelishi ushbu kashtachilik buyumi asosining qadimiyligidan darak beradi:

**qars** – tuya yoki qo'y yungidan qilingan kiyim (1, 333).

O'zbek tilida mavjud izohli lug'atlarda uchramasa-da, qars kashtachilik buyumlari xususida so'z borgan manbalarda, xalq og'zaki ijodi namunalarida, badiiy asarlarda uchraydi. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da ham *qars* leksemasiga izoh berilmaydi, odatda, shu ma'noda ishlatiluvchi *belbog'* so'zining talqini keltiriladi: "Belga bog'lanadigan, to'rburchak ro'mol shaklidagi gulli yoki gulsiz, chetlari tikilgan mato parchasi; qiyiq, qiyiqcha" [9]. "Amaliy san'at

qisqacha lug'ati"da ham *belbog'* *qiyiq*, *chorsi*, *ro'mol* so'zlarining ma'nodoshi sifatida keltiriladi: "Belga bog'laydigan chorsi ro'mol; odatda erkaklar ustki kiyim (to'n, yaktak) ustidan bog'laydi. Belbog', asosan, bezakdor-kashtali bo'ladi [8].

Kashtachilik leksikasida *qars* faol ishlatiladigan so'z bo'lib, u yordamida tikilish uslubi, kashta naqshlari va vazifasiga ko'ra farqlanuvchi *belqars*, *boshqars*, *kuyovqars*, *to'ygars*, *xatnaqars*, *itqars* kabi kashtachilik buyumlari nomi yasalgan.

**Belqas (belqars).** O'zbek millatida erkaklar beliga bog'laydigan, to'rburchak shakldagi kashtali yoki kashtasiz matodan tayyorlanadigan badiiy buyum. Xalq tilida *belbog'*, *belqas*, *qiyiqcha*, *qiyiq* ham deb yuritiladi. *Belqars*, asosan, kashtachilik mahsulotiga nisbatan ishlatilsa, *belbog'* kashtali va kashtasiz buyumni ham nomi sifatida kengroq qo'llanadi. Milliy tafakkurda *belqars*, *berbog'* erkaklik g'ururi, or-nomus ramzi ma'nosini ham ifodalaydi. Masalan, *Belingda belbog'ing* bormi? Yigitmisan? Yigitlik g'ururing bormi? Odamlarni hasharga ayтиб qo'ydim. Belida *belbog'i* bori kelaveradi. (O'.Hoshimov, Ikki eshil orasi) *To'n egnida, belda belqars tang'ib olarQomat kerib,topib do'ppi kiyib olar.Yosh bo'lsa-da o'z millatlin tanib olar... O'zbeginning aqlu-dono o'g'loni!*

Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlarida ko'proq *belqars* deb yuritiladi. Masalan, *Qozog'iston delegatsiyasi a'zolariga qimmatbaho esdalik sovg'alarli sifatida milliy to'n, qalpoq, belqars va "Qashqadaryo" nomli kitob sovg'a qilindi*. Yoki: Bahorning ilk kunlari. Quyoshning nurlari tanga rohat baxsh etadi. Hovlidagi mevali daraxtlarning gullari atrofida asalarilar aylanib, shira so'rmoqqa chog'lanadi. Buvijonim esa ayvonda quyosh nurlariga kiftini tutgancha kashta tikishga kirishadilar. Yoshi saksonga yaqinlashib borayotganiga qaramasdan, ko'zynaksiz naqshinkor gullar soladi. Men ulardan "buvijon sizga bu hunar shu yoshingizda qiyinchilik tug'dirmaydimi?" deb so'rayman. Buvim esa "qizim bekor o'tirgin kelmaydi, bo'sh o'tirsam kasal bo'lamon, shu sababdan uni ermak qilib tikib o'tiraman" deya javob beradi. Buvijonimning tikkani so'zana, kashtalar, *belbog'* (*belqars*)lari judayam chirolyi, har bir nabiralariga bittadan sovg'a qilgan. (Ch.Xushvaqtova) *Qo'shchi belqarsdan bilak o'tkazdi. Belqars tutamladi. Yo'q qorinni tag'in-da olg'a surdi. Keti tag'in-da ichkari kirib yo'oldi*. (Tog'ay Murod. Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi)

**To'ygas (to'ygars).** Belqars qarsning, umumiy, kundalik foydalilanadigan ko'rinishi bo'lsa, to'ygars to'y, marosimda kiyish uchun maxsus kashtali, bezakli qilib tayyorlanadi. To'ygarsning ikki turi – *xatnaqars* va *kuyovqars* farqlanadi. **Xatnaqars** sunnat to'yi bo'ladigan kichik yoshdagi bolalar uchun turli rangli ipak matodan tikiladi. Kashta bezaklari, asosan, turli geometrik shakllar, o'simlik shoxlari tarzida bo'ladi.

Qarsning ushbu turi mayjud lug'atlarda uchramaydi.

**Kuyovqars** yangi kuyov uchun maxsus tikiladi va turli tosh, mildiroq, tanga, munchoqlar bilan bezaladi. Unga ko'pincha gal va bulbul, yurak tasvirlari tikiladi. Kuyovning o'rtoqlari va yaqin qarindoshlariga sarpo sifatida sodda naqshli belqarslar ham tayyorlanadi. Masalan, *Kuyov belqars o'ray-o'ray eshik sari yurdi. Eshik baldog'ini ushladi. Serrayib qoldi. Yelkasi osha chimildiqqa qaradi. Qayliq ro'moli uchini g'ijimlab o'ynadi*. (Tog'ay Murod. Oydinda yurgan odamlar)

Qarsning ushbu turi mayjud lug'atlarda uchramaydi.

**Boshqas (boshqars).** Bu badiiy buyum ham kelinlar sepi uchun tayyorlanadi. To'y kuni kelin ota uyidan kuyovnikiga ketayotganda paranji ustidan kelinning boshiga tashlanadi. Odatda, to'rburchak shaklida bo'lib, kashta bezaklari behasham bo'ladi. Hoshiya qismi ilmoqli bigiz

(kryuchok)da to'r qilib to'qilib, yaltiroq pilak, tanga, munchoqlar bilan bezatiladi.

Qarsning ushbu turi mavjud lug'atlarda uchramaydi.

**Itqas (itqars).** Kelin mingan ot ustiga yopiladigan kashtali qars turi. Ma'lumki, qadimda hozirgidek ulov turlari ko'p bo'lmagan davrlarda aksariyat hududlarda kelin ota uyidan kuyovnikiga otga mindirib olib kelingan. Hatto bugungi kunga qadar ham Kitob tumanining tog'li qishloqlarida bu an'ana saqlanib qolgan. Kelin mingan ot boshqa otlardan farqlanishi uchun uning ustida kashtali katta qars tashlangan va u itqars deb nomlangan. Ushbu qadimiy badiiy buyum nomi lug'atlarda uchramaydi.

**Qiyomat qiyiq.** Aza marosimi bilan bog'liq to'rtburchak shaklidagi kashtali ro'mol. Vafot etgan ayollarga kiyizish uchun oq matodan tikiladigan bosh, chekka,

bo'yinlarni o'rab turadigan, ko'krak qismiga oyatlar tikiladigan kiyim turi[10].

**Xulosa va takliflar.** Kuzatishlarimiz asosida xulosa qilish mumkinki, kashta naqshlari markazida inson va uni qurshab turgan olamning yaxlit tasviri – tabiat, o'simlik, hayvonot dunyosi, koinot (osmon, oy, yulduzlar), xo'jalik buyumlari, quroslasha (arra, pichoq, qilich, o'roq, ko'za, guldon), xalqning etnik madaniyati, tarixi (bayroq, muhr (tamg'a), gerb), e'tiqodi (Qur'ondag'i sura va oyatlarning arab yozuvidagi tasviri, duolar) va boshqalar yotib, bu kashtachilikning har bir millatning turmush tarzi, tarixi, milliy qadriyatlari, urf-odati, e'tiqodi, quvon-u shodligi, qayg'u-g'amlarini o'zida yaqqol aks ettirgan qadimiy san'at turi ekanini tasdiqlaydi.

#### ADABIYOTLAR

1. Ibrohimov S. Paxtachilik terminlaridan qisqacha izohli lug'at (xalq terminlari asosida). – Toshkent, 1934.
2. Ibrohimov S. Aravasozlik va abzalsozlik xalq terminlari. – Toshkent, 1934.
3. Ibrohimov S. Farg'ona shevalarining kasb-hunar leksikasi. – Toshkent: Fan, –1956-59.
4. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildli. 5-jild. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – 592-b. –B. 229, – 592-b. –B. 378.
5. Mahmud Koshg'ariy. Turkiy so'zlar devoni (Devoni lug'otit turk). 3 jiddlik. 1-jild. Tarjimon va nashrga tayyorlovchi: Mutallibov S. – Toshkent: Fan, 1960. – B. 333.
6. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildli. 2-jild. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – 672-b. –B. 300.
7. Rahmatullayeva D., Xodjayeva U., Ataxanova F. Libos tarixi. – Toshkent, 2015. 380-b. –B. 256.
8. Bulatov S.S., Ashirova M.O. Amaliy san'at qisqacha lug'ati. –Toshkent: Qomuslar bosh tahririyati. – 47-b. – B. 37.
9. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildli. 1-jild. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – 676 b. –B. 220.
10. Asomiddinova M. Kiyim-kechak nomlari. – Toshkent: Fan, 1981. – 113-b. – B.57.



Kamila BEGJANOVA,  
Qoraqalpoq davlat universiteti magistranti  
E-mail: begzanovakamila77@gmail.com

O'zDJTU, Ph G.A. Nazarova taqrizi asosida

## CONCEPTUAL ANALYSIS OF THE “YALMOG‘IZ KAMPIR” IN THE MYTHOLOGICAL WORLDVIEW

### Annotation

The article is devoted to the study of the mythology which represents conceptosphere human in the mythological worldview. Particular attention is paid to the mythological codes, which in each culture, on the one hand, are universal, on the other hand, it is distinguished by its national identity. The aim of the work is to determine national peculiarities of “Yalmog‘iz kampir/jalmawiz kempir” mythologeme in mythological worldview.

**Key words:** Linguaculture, national worldview, linguistic worldview, mythological worldview, mythologeme, linguistic unit, verbalization.

## КОНЦЕПТУАЛЬНЫЙ АНАЛИЗ “ЯЛМОГИЗ КАМПИР” МИФОЛОГИЧЕЙКОЙ КАРТИНЕ МИРА

### Аннотация

Статья посвящена изучению особенностей мифологем вербализирующею концептосферу человек в мифологической картине мира. Особое внимание удалено мифологическим кодам, которые в каждой культуре, с одной стороны, носят универсальный характер, с другой - отличаются своей национальной идентичностью. Цель работы - изучение национальных особенностей мифологемы «Yalmog‘zkampir/ jalmawizkempir», отражающей мифологическую картину мира.

**Ключевые слова:** Лингвокультурология, национальная картина мира, языковая картина мира, мифологическая картина мира, мифологема, языковые средства, вербализация

## MIFOLOGIK OLAM MANZARASIDA “YALMOG‘IZ KAMPIR” MIFOLOGEMASINING KONTSEPTUAL TAHLILI

### Annotatsiya

Maqola olam mifologik manzarasida odam konceptosferasini voqelantiruvchi mifologemalarning o‘ziga xosliklarin o‘rganishga bag‘ishlangan. Mifologik kodlarga alohida e’tibor berilmoqda, ular har bir madaniyatda, bir tomonidan, umum insoniy xususiyatiga ega, boshqa tomonidan, u milliy o‘ziga hosligi bilan ajralib turadi. Ishning maqsadi olam mifologik manzarasin voqelantiruvchi “Yalmog‘iz kampir/jalmawiz kempir” mifologemasining milliy o‘ziga hosliklarin o‘rganish hisoblanadi.

**Tayanch so‘zlar:** lingvomadaniyatshunoslik, olam milliy manzarasi, olam lisoniy manzarasi, olam mifologik manzarasi, mifologema, lisoniy vosita, voqelanish

**Introduction.** Linguaculturology is a general science that arose between the sciences of linguistics and cultural studies, the interaction and interrelationship of culture and language, the formation of this interrelationship is also seen as a system outside of language and language studies such phenomena. Linguoculturology studies the place of man in cultural language knowledge and on the other hand the place of man in the language factor.

Linguoculturology is one of the aspects of modern linguistics, which studies the manifestation of the national language in the spiritual and cultural life of a particular ethnic group. It allows to determine and explain how the main functions of the language are implemented in the perspective of language and culture, with the help of which tools culture is created, developed, preserved and delivered to the next generation, such issues are studied [Karasik 2001: 3-16]. Based on the cultural base, the national-linguistic worldview is revealed with the help of the text.

Myths, mythological thinking are of great importance in human history. "Science is not born from myth," wrote the well-known philosopher and scientist A.F. Losev, - but he cannot live without a myth. After all, science is always mythologized." The artistic expression of mythological observations has survived to our days in the form of examples of oral creations and some mythological images.

**Literary review.** "Mythological thinking is thinking that arose under the rule of imagination," says Ya. Voter. - Imagination is not the result of simple activity, but a form of higher thinking, a form that has the characteristics of both creativity and knowledge. This phenomenon is typical of the nature of mythological images. Therefore, in the imagination of our people, a number of traditions related to mythological images (giant, demon, monster, fairy, humo, qaqnus, semurg, etc.), studying the historical roots of mythological images in ceremonies, their mythological significance and historical features, it is appropriate to do a comparative analysis on the basis of folklore and written sources. In linguistics, mythological thinking is taken as the main part in the formation of the mythological worldview, the activity of reflecting objective reality is carried out using a special layer of linguistic units, the mythological worldview built on the basis of mythological concepts is perceived as a close part of the everyday consciousness of a person.

The analysis of the factors of formation of social consciousness created opportunities for researching the interaction of different cultures and the mechanisms of their understanding. This prompted the emergence of new studies in linguistics based on the study of the relationship between language and culture. Linguistic consciousness and cultural values (including cultural categories and customs) are reflected and expressed in the form of mental models of the

image of the objective world. On this basis, the categories of national perception and understanding of the world are formed in the language based on the context of cultural traditions. Mythological languages, i.e., mythologemes, are of interest among the linguistic phenomena mentioned above. It is known that myth is the object of research in several fields, such as philosophy, politics, cultural studies, folklore studies, psychology, and linguistics. Myth refers to stories about God and heroes involved in the natural and cultural creation of the world. In particular, the basic concepts of religion, philosophy, science and art are reflected in myths.

We consider the realization of the concept of "man" in myths and legends to be a very relevant issue, because the appearance of man on earth is closely connected with myths and legends. In particular, we can see that the mythologemes that make each myth come true are based on the origin of man, several issues related to man, and have reached the present day in various forms.

Linguistic and cultural units can function differently in various discourses, for example, in Karakalpak linguistic worldview, the concept of "woman" is studied from several variants, in each study, the Karakalpak national worldview is described in its own aspects: the archetypal image "Hawaene" (the image of the first mother in the creation of the world); in mythology the mythologeme "Ummayana" (the mythologeme of MOTHER in the mythology of the Turkic peoples); in the phraseological fund, the unit "Anasinkoripqizin al" (phraseological unit with an educational content) is an example of metaphorical devices such as "Aqjawliqli" (Old lady with a white scarf). As we have seen, each cultural information verbalized using linguistic units is expressed in an implicit character.

**Research methodology.** The concepts that make up the mythological conceptosphere are traditionally interpreted as units of collective consciousness, and they are represented by means of objects of the world that can be reflected, units that are verbally preserved in the national memory of speakers of a particular language, as they are in research works. It is observed that they are named with terms such as mythological concepts, mytheconcepts, mythologemes [Plakhova 2013:30]. Verbalizers of some mythological concepts are described in linguistics as names that do not have a denotation in the reality around us [Babushkin 1997:44], for example, albasli (a creature with a rude appearance and behavior that harms women and girls, used as an adjective against people, mainly in relation to women), jalmawiz (an ugly old woman common in eastern folktales) and others. Despite this, nominative lexemes and reflective indicators, which do not exist in real reality, representing a state beyond mental perception, are verbalized using elements associated with real phenomena of the objective world.

**Analysis and results.** V.V. Vorobyov stated that the main linguistic unit of the aspect of linguistic and cultural studies is lingvokulturemaa, among which V. A. Maslova classifies linguistic and cultural languages (lingvokulturema) mainly into nine types: non-equivalent language and lacunae; mythical languages (legends, programs, traditions, rituals, mythologems and archetypes); paramyological foundation; phraseological fund; symbols, stereotypes, standards; metaphors and images; stylistic system; way of dealing; etiquette [Maslova 2007:36-37].

Mythological languages, i.e. mythologemes, aroused interest in the above-mentioned linguistic phenomena. It is known that myth is the object of research in several fields, such as philosophy, politics, cultural studies, folklore studies, psychology, linguistics. Myth refers to stories about God and heroes involved in the natural and cultural creation of the world. In particular, the basic concepts of religion, philosophy, science and art are reflected in myths.

Scientific hypotheses and definitions about mythologemes that create the mythological worldview of the universe can be described in the following ways: mythologeme is a synonym of an archetype (T.B. Bovsunovskaya); mythologeme is an atom of a myth, a minimal system representing a myth (S.Yu. Gucol); a mythologeme is a concrete embodiment of an archetype (Yu.V. Vishnickaya, V.A. Maslova, S.I. Linchenko, A.S. Tsigankov, Yu.A. Ivanova, O.V. Kolyada); a mythologeme is a language that describes myths (I.T. Vepreva, T.A. Shadrina); a mythologeme is a cultural memory, public conscience and a tool of interethnic communication (E. Yu. Ilinova). We agree with Yu. V. Vishnickaya, V. A. Maslova, S. I. Linchenko, A. S. Tsigankov, Yu. A. Ivanova, O. V. Kolyadas from the definitions given to the mythologeme. Such a myth it is a database that is passed down from generation to generation from the initial way of life of a particular society.

The mythology of Yalmogiz old woman is widespread in the mythology of the Turkic peoples, and it is found in different versions of the same name.

Images similar to Yalmogiz exist in the folklore of other nations. In particular, in Indians, Shakini is a female devil, wrinkle; in Germans, Holdo is a witch; a four-fingered woman who causes evil, disease, and disaster; Hanekasa in American Indians is a woman who lives in the dark world and brings death to those she meets; Dravidian Amma is a bloodthirsty, disease-spreading woman; in Abkhazia, a cannibal woman - Arunap; in Russians Baba-Yaga; in Hungarians - Bosocran; in Mordvins - Vir-Ava; in Greeks - Gello, a child abductor, in Kazakhs, a brass nail; in Ingush and Chechens, it is Yeshan, who guards the passage to the world of the dead.

According to the works of folklorist M. Jorayev, the term "yalmogiz" in Uzbek folk tales is composed of two linguistic elements: "yal" + "mogiz". The first part of the term, the word "yal" (or "al") may be related to the image of "Alkha" or "Alakha", a symbol of evil in ancient Turk-Mongol-Buryat mythology. Because the names of many mythological characters depicted as evil forces in Turkic languages (for example, alvasti) are made with the word "al".

When G.N. Potanin writes about the origin of the images of Jelbegan, Chalbegan, Talbegan, Yelbegan and Yalmogiz, Jolmous in the folklore of the Turkic-speaking peoples, all these mythological terms are related to the Turkic words "jilan // chilan", which means "snake". noted that it is related.

If we mean that the words "yamlamoq" and "yalmamoq" in our language also mean "to swallow something", the mythological term based on the roots "il // yal// al // jal" is functionally the name of Indian mythology. It turns out to be an alternative type of the image of Rahu (a dragon chasing the moon and sun to devour them) mentioned. Therefore, just as the phrase "without your greetings, I would have swallowed" has both negative and positive meanings, so the image that said these words embodies both negative and positive qualities.

In the fairy tales "Olmos Batir", "BunyodPolvan", "ErmanaMergan", we can see the sentence "if it were not your greeting, I would have gulp you down"

According to experts, the owner of these words is the image of the old woman Yalmogiz. After all, in one of the interpretations of the word "yalmagiz", which is recognized as having several meanings in the sources, the definition of "swallowing mouth" is given. In the sources, it is mentioned that "it was formed under the influence of the mother clan head and the cult of the sacred momo", and it is also emphasized that "it started with the totem of the ancestors related to the mother's path" and the image saluted and showed

respect (more precisely, topinan) is a natural holder to patronize a person.

**Conclusion and recommendation.** To sum up, the mythologies in the mythological worldview is universal in Turkic peoples with common roots. However, it has its own characteristics in the linguistic and national worldview.

Mythologies embodying the mythological worldview are linguistic tools that help to fully realize the individual national portrait of each nation. The functional semantic tasks of linguistic tools have changed over time and are being used without changing their original meanings.

#### REFERENCES

1. Бабайцева В.В., Беднарская Л.Д. Комплексный анализ текста на уроке русского языка: VIII-XI кл.: при изучении син-таксиса по учеб. комплексу для VI-XI кл. // Русская словесность. 1997. № 3. С. 57-61.
2. Кдыраева Г.К. Мифологиярхетипархактафаккурреликти // Academic research in educational sciences. 2022. №11. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/mifologik-arhetip-arhaik-tafakkur-relikti> (дата обращения: 06.02.2023).
3. Литвинский Б.А. Этногенез и этническая история народов Средней Азии и Казахстана в древности и средневековые (теоретический аспект) // Проблемы этногенеза и этнической истории народов Средней Азии и Казахстана. М., 1990. Т. 1. С. 21-41.
4. Кдыраева Г., Калиева Н. Одам концептосферасининг миф ва афсоналарда воқеланиши/VIII международный симпозиум исследований тюркского мира, 2-5 июня 2021 г.Нийде.
5. Маслова В.А. Лингвокультурология: учеб. пособие. М.: Академия, 2004. 208 Маслова В.А. Введение в когнитивную лингвистику. – Москва: Флинта –Наук, 2007. – 296 с.
6. Rudenko S.I. Boshqirdlar: tarixiyvaetnografinsholar. Ufa, 2006-yil. “Ялмауз-Кымпир— Баба-Яга из Ташкента (Гуреева Нина) / Проза.ру— национальный сервер современной прозы”.



**Temur BOBOYEV,**

*O'zDJTU tayanch doktoranti*

*QarDU v.b. dotsenti, f.f.b.f.d. (PhD) Z.O. Amirova taqrizi asosida*

### INGLIZ, O'ZBEK VA RUS TILLARIDAGI SHE'R VA MATNLARDA HAJVNING QO'LLANILISHI

Annotatsiya

Bu maqolada hajviy she'r va matnlarning ingliz, o'zbek va rus tillaridagi umuminsoniy, milliy-madaniy hodisa sifatidagi o'rni hamda vazifalari tahlil qilingan. Shu bilan birga bu uch tildagi hajviy asarlarni bog'lab turuvchi umummilliy xususiyatlari ham yoritib berilgan. Satira va yumorga boy adabiy asarlar nafaqat hajviy asarlarda balki fojeaviy yakun topuvchi tragikomediya asarlarida ham o'z aksini topgan bo'lib, ulardagi obrazlar orqali muallif jamiyatning chirkin illatlarini, nohaqliklarini va shu holatlarga sababchi bo'lgan kishilarni qattiq tanqid ostiga olib, ularni insofga chaqiradi va oddiy xalqni uyg'onishga, ko'zini ochishga chorlaydi.

**Kalit so'zlar:** Satira, tragikomediya, she'r, she'riy band, limerik, allegoriya, yumor, komediya.

### ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЮМОРА В СТИХАХ И ТЕКСТАХ НА АНГЛИЙСКОМ, УЗБЕКСКОМ И РУССКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация

В данной статье анализируются роль и функции юмористических стихов и текстов на английском, узбекском и русском языках как универсального, национально-культурного явления. При этом выделяются национальные особенности, связывающие комические произведения на этих трех языках. Богатые сатирой и юмором литературные произведения находят свое отражение не только в комических произведениях, но и в трагикомедийных произведениях с трагическим концом, через образы в которых автор жестко критикует безобразные пороки и несправедливости общества и людей, являющихся причиной эти ситуации, и призывает их к правосудию, и призывает простых людей проснуться и открыть глаза.

**Ключевые слова:** Сатира, трагикомедия, поэма, стихотворная строфа, лимерик, аллегория, юмор, комедия.

### THE USE OF HUMOR IN POEMS AND TEXTS IN ENGLISH, UZBEK AND RUSSIAN LANGUAGES

Annotation

This article analyzes the role and functions of humorous poems and texts in English, Uzbek and Russian as a universal, national and cultural phenomenon. At the same time, national features that link comic works in these three languages are highlighted. Literary works rich in satire and humor are reflected not only in comic works, but also in tragicomedic works with a tragic end, through images in which the author harshly criticizes the ugly vices and injustices of society and people that are the cause of these situations, and calls them to justice, and encourages ordinary people to wake up and open their eyes.

**Key words:** Satire, tragicomedy, poem, stanza, limerick, allegory, humor, comedy.

**Kirish.** Xalq og'zaki ijodi yozma adabiyotdan anchaligari paydo bo'lgan va yozma adabiyotning yuzaga kelishi uchun zamin hozirlagan. Xalq og'zaki ijodi— mehnatkash xalq ijodi hisoblanadi. Xalq yaratgan asarlar o'zining g'oyaviyligi, chuqur xalqchilligi, til boyligi va badiyiligi bilan ajralib turadi. U xalqning yengilmas irodasini, kelajakka bo'lgan ishonchini, haqiqat, adolat, tinchlik va baxt haqidagi tasavvurlarini yaqqol aks ettiradi. Xalq shoirlari yoki jamaot tomonidan yaratilib, og'izdan-og'izga, avloddan-avlodga o'tib kelgan badiiy asarlar xalq og'zaki ijodi deyiladi. SHe'riyat ham xalq og'zaki ijodi hisoblanadi. Mambalarda she'rga quyidagicha ta'rif beriladi: Fikrning his-tuyg'uga qorishiq ifodasi sifatida vujudga kelgan, hayajonli she'riy nutq bilan ifoda etilgan, ma'lum ichki ohangga ega badiiy asar she'r deyiladi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** "SHe'r" atamasi o'rniga ba'zan shoirlar tomonidan "nazm" so'zi ham qo'llanadi va u badiiy adabiyotning qadimiy turi bo'lib, insoniyat eng birinchi badiiy asarlarni she'r shaklida yaratganligi ta'kidlanadi. Chunonchi, Arastuning "Poetika" asarida "Poeziya qanday paydo bo'lgan?" degan savolga: "...odamlar qadimdanoq tabiatan o'xshatishga qobiliyatlidirlar, ular buni oz-ozdan taraqqiy ettira borib, badiha she'rler (improvizatsiya)dan haqiqiy poeziyani yuzaga

keltirganlar" deb aniq javob beriladi. Bundan adabiyot ibtidosida she'riyat turishi, so'z san'ati she'riyat zaminida paydo bo'lgani anglashiladi. Rivoyat qilishlaricha, birinchi she'rni bevaqt o'ldirilgan o'g'li Hobilning dardida kuygan Odam alayhissalom yaratgan ekan. Shuning uchun ham unda, deyarli hamisha, muallifning oniy kayfiyati, lahzalik porloq kechinmalari ustuvorlik qiladi. SHe'rda fikrning kutilmagan va sezimlarga kuchli ta'sir ko'rsatadigan yo'sinda ifodalanishiga e'tibor qilinadi. Shu bois ham har bir she'rda o'ta muhim ijtimoiy g'oya ifodasini kutish maqsadga muvofiq emas. Ularda tuyg'ular po'rtanasi qadratli, sezimlar miqyosi keng va ta'sirchanlik, yuqumlilik darajasi yuqori bo'lishi bilan ham boshqa asarlardan farq qiladi. She'rning uzoq yashashini ta'minlaydigan asosiy omillar: tuyg'ularning samimiyyati va ifodaning tabiiyligidir.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Zamonaviy o'zbek adabiyotida "SHe'r" atamasi ma'nosini erkinroq tushunish, oldingi shakliy qoliplarni o'zgartirgan holda yangi poetik kashfiyotlar qilishga intilish tamoyili kuchli. Shuning uchun ham o'zbek she'riyatida "oq she'r" (she'r tizimidagi misralari o'zaro qofiyalanmagan she'r turi: qofiyasiz she'r), "sochma she'r" (jo'shqin ritmi bilan she'rga o'xshash bo'lgan nasriy asar; nasriy she'r), "nasriy she'r", "tashbih" (she'riy san'atning biri, so'zlarda ifodalangan ikki yoki undan ortiq narsa, hodisa

yoki xususiyatni ular o'rtasida mayjud bo'lgan biror o'xshashlik, umumiylig nuqtai nazaridan qiyoslash), "uchchanoq" singari she'r shakllari paydo bo'lmoqda. SHe'riyatda she'r bandlari turlicha bo'lib, ular haqidagi qisqacha to'xtalib o'tmoqchiman. SHe'rlar qofiyalanish va banddagi misralarning miqdoriga ko'ra maxsus janrlarga bo'lingan. SHe'r bandiga manbalarda quyidagicha ta'rif beriladi: Band— she'rning asosiy shaklini hosil qiluvchi qurilish materiali hisoblanadi. SHe'rdagi aynan bir xil fikr yoki mavzuga aloqador, bog'liq bo'lgan qatorlardan tashkil topgan asosiy qismidir. Agar she'r bandi 2 misradan iborat bo'lsa — masnaviy, 3 misradan iborat bo'lsa — musallas, har bir band 4 misradan tashkil topsa — murabba', 5 qatorli bandlardan tashkil etilsa — muxammas, bandlari 6 satrdan tashkil topsa — musaddas, 7 misrali bandlardan iborat bo'lsa — musabba', 8 misrali bandlardan tashkil topsa — musamman, 9 qatorli bandlardan iborati — tasne' (mustasne'), 10 qatorli bandlardan iborat poetik asarlar muashshar (mashru') deyilgan. SHe'rning eng kichik ko'rinishi mumtoz adabiyotda 1 baytdangina iborat bo'lib, u fard deb nomlanadi, o'zbek folklorida esa 4 qatorni tashkil etuvchi she'rler to'rtlik deyiladi. Adabiyotda rus shoiri A. Pushkin bir misradan iborat she'r yaratgan. Bu rus she'r yaratida "monostix" — bir she'r deb nomlangan.

**Tahlil va natijalar.** Hajviy she'rler bandlari ham turlicha bo'lishi mumkin. Hajviy she'rler ham badiiy adabiyot turlaridan hisoblanib, odatda tanqidiy ruhda yoziladi. Hajviy she'r deganda ko'z o'ngimizda kulgu uyg'otuvchi, madaniy hordiq beruvchi yoki kayfiyatni ko'taruvchi she'r tizimi gavdalaniishi tabiiy. To'g'ri, hajviy she'rler xuddi shu hislatlarga qisman bo'lsada ega ammo uning asosiy vazifasi mayjud ijtimoiy-siyosiy tuzumni, undagi ma'lum qatlama vakillarini fosh qilishga, ular ustidan kinoyali kulishga shu orqali vaziyatni o'nglashga qaratilgan. Shu o'rinda satira, humor, komediya, hazil kabi tushunchalar hajv tushunchasi bilan bir umumiy ma'noda ishlatalishi mumkin. Shu o'rinda, satira, hajv va humor tushunchalarini orasidagi qisman farqni bilishlik o'rinni bo'ladı.

Satira—yunoncha tildan olingen bo'lib, "qurama, har xil narsa" degan ma'nolarni bildiradi. Satira komiklikning bir turi, voqelikni badiiy aks ettirishning o'ziga xos usuli hisoblanib, tasvir obyekti bo'lgan shaxs yoki ijtimoiy-siyosiy tuzumni, jamiyatdagi bema'ni, asossiz hodisalar, illatlar ayovsiz kulgu vositasi orqali fosh qiladi. Voqealarning real ko'rinishini o'zgartirib, oshirib, bo'rttirib, mubolag'a qilish, keskinlashtirish va shartlilikning boshqa ko'pgina turlari dan foydalananish satira obyektiga xos xususiyat hisoblanadi. Satiradan maqsad nafaqat aniq bir shaxsni, balki ijtimoiy tuzumni, undagi illatlarni qattiq kulgu ostida fosh etishdan iborat bo'ladı. Satira adabiyot va san'atdagi hajviylikning o'tkir ko'rinishi bo'lib, shaxsnинг ham, butun jamiyat yoki davlat tuzumining illatlarini ham fosh etadi. Satirik yozuvlarda ayblovchi ta'sir ko'rsatish uchun turli kulgili vositalar, jumladan kinoya, allegoriya, parodiya va grotesk kabi tasviriy vositalardan foydalananish mumkin. Satira muallifi komiklikning boshqa turlaridan (humor, hikoya va boshqalar) ham foydalananish mumkin, biroq satira uchun salbiy tus berib, keskin ifodalangan estetik obyekt xarakterli hisoblanadi. Satiraning ma'naviy ta'sir kuchining o'tkirligi unda inkor qiluvchi kulgu orqali yaratilgan idealning umumxalq va universal bo'lishi bilan belgilanadi. Hajviy asarlarni umumxalq va universal bo'lishi ya'ni boshqa xalqlarda ham mavjudligiga sabab inson hamma joyda ham inson hisoblanadi. Uning dardi, fikrashi, dunyoqarashi, histuyg'ulari bir xil bo'lishligidadir. Yashab turgan hududi jihatidan insonning madaniyati, ijtimoiy siyosiy hayoti, bir biriga bo'lgan munosabati turlicha bo'lishi mumkin. O'zbek adabiyotida satiraning ilk namunalari dastlab xalq ijodida (terma va aytishuvlar, Nasriddin Afandi, Aldar ko'sa

obrazlarida) yaratilgan, keyinchalik yozma adabiyotda taraqqiy etgan. Navoiy, Turdi, Maxmur, Gulxaniy, Hoziq, Muqimiy, Hoji Muin Shukrullayev, Zavqiyalar satira janrida ijod qildilar. Satiraning keyingi taraqqiyoti Hamza, Qodiriy, G'oz'i Yunus, So'fizoda, G'afur G'ulom, Abdulla Qahhor, Said Ahmad, N. Aminov, S. Siyoyev, Abdulla Oripov, Shuhrat va Yerkin Vohidov boshqalar nomi bilan bog'liq.

Masalan:

Donishqishloq degan joy  
Bordir bizning tomonda.  
O'sha qishloq ahlidek  
Dono xalq yo'q jahonda.  
Jo'yak tortib tomiga  
Makka ekkan o'shalar.  
Kalishini perronga  
yechib ketgan o'shalar.  
Qop ganchni bir yo'la  
Suvga qorgan u yerlik.  
Echkini sartaroshga  
Olib borgan u yerlik.

Yumor—kulgi bilan xayrixohlikni o'zida mujassam etgan komiklik turi hisoblanadi. Badiiy adabiyotga mansub yumoristik asarlarda yozuvchi ijtimoiy hayotdagi, shaxsiy turmushdagi, xususan, ayrim kishilardagi ba'zi kamchilik nuqsonlardan kulib, uni tanqid qiladi. Bunda yozuvchi tanqid qilinayotgan obyektning yo'qotilishiga tarafda emas, unga achninadi, undagi mayjud kamchilikning tuzalishini istaydi. Yumor boshqa janrlardan kulgu qo'zg'atuvchi, kayfiyatni ko'taruvchi jihatlari bilan ajralib turadi. Yengil yumor va kulgu kishilar ustidan kulish, tanqid qilish funksiyasini bajarar ekan, to'g'ridan to'g'ri kishi xarakterini, vaziyatlarga nisbatan ularning munosabatini ham ifodalaydi. Nemis olimi Gyote "seni nima kuldirishini ayt, men senga kimligingni aytaman" deb ta'kidlagan. Bu holatda odamlar orasidagi yumor jamiyatdagi kishilarni qanday vaziyatlar kuldirishi, tanqidga, yumor va satiraga nisbatan ularning munosabatini ko'rsatib beradi. Arastuning fikricha "Komediya yomon kishilarni, butunlay badnom qilish ma'nosida bo'imasada, uni gavdalantirishdir", deydi. Bu bilan Arastu odamlar ongida tanqid qilinayotgan kishi obrazini yaratadi. U "yomon odamlar" deganda oliv tabaqa emas, balki quyi tabaqa vakillarini nazarda tutadi. Arastu yashagan davrda asosan yuqori lavozimdagagi kishilar, jumladan, shohlar yoki boshqa shunga o'xshash kishilar ustidan kulish o'rniga odatda quyi qatlama vakillari hajv ostiga olingen chunki o'sha davr e'tiqodiga ko'ra shoh va boshqa yuqori lavozimdagagi kishilar bunday darajalarga o'z qobiliyati va harakati tufayli erishgan degan ta'limot bor bo'lgan. Quyi qatlama vakillarining fe'l-atvoridagi illatlarga e'tibor qaratishgan va ularning dangasaliklari, e'tiborsizliklari ustidan kinoyali kulishgan. Arastu komediya janriga ta'rif berar ekan: "Kulgili holat xunuklikning bir qismi, xolos. Aslida kulgili narsa – bu hech kimning dilini og'ritmaydigan va hech kimga zarar keltirmaydigan ba'zi bir nuqson va majruhlikdir", deydi[1]. Yengil tanqid, hazil ruhi bilan yumor satiradan farq qiladi. Satirik asarda ijtimoiy hayot hodisalarini zaharxanda kulgi orqali fosh etilsa, xarakterdagi nuqsonlar hazil mutoyiba, kinoya bilan tanqid qilinadi. Satirada yumor unsuri bo'lganidek, yumorda ham satira unsuri bor. Har qanday jiddiy asar (roman, qissa, hikoya, doston, she'r va boshqalar)da, xalq ijodi namunalarida ham yumor bo'ladı. G'arb adabiyotidagi asosiy namoyandalari M. Servantes (Don Kixot, 1603), L. Stern (Tristram SHendi, 1759), Ch. Dikkens (Dombi va o'g'li, 1848), N. V. Gogol (Revizor, 1836), M. Tven (Eski va yangi hikoyalari, 1875) va boshqalar hajv yo'nalishidan o'z asarlarda foydalananishgan.

Hajv o'tmishda Sharq xalqlari, shu jumladan, o'zbek adabiyotida, asosan, she'r yarat va folklorda mustaqil janr sifatida rivojlangan. Ularda jamiyat hayotining, shuningdek,

ayrim guruh yoki shaxslarning aksariyat yomon tomonlari tasvirlanadi. Hajviyada tanqid qilinuvchi obyektga qaratilgan kinoyaviy masxaralovchi yoki fosh etuvchi kulgi asarning g'oyaviy mundarijasini va badiiy vositalarini belgilaydi. Hajviya turli janrlarda yozilishi mumkin. Masalan, "O'lik jonlar" (N. V. Gogol) hajviy roman shaklida, "Maysaraning ishi" (Hamza), "So'nggi nusxalar" (A. Qahhor) hajviy pyesa shaklida, "Yovuz niyatli kishilar" (A. Chexov), "Sudxo'mning o'limi" (S. Ayniy), "Qabrdan tovush" (A. Qahhor) hajviy hikoya shaklida, "To'yi iqon bachcha" (Muqimiy), "Hajvi yikchi eshon" (Zavqiy), "The Book of Nonsense" (Yedvard Lir) hajviy she'r - shaklida, "Bizning mulohazalarimiz" (A. Qahhor) hajviy felyeton shaklida yozilgan. Hajvdha aynan kulgu uyg'otuvchi unsurlarning bo'lishi shart emas chunki ba'zida jamiyatdagi ayrim kishilarning ayancli holatlari, fojealari ham qattiq tanqidga olinishi bilan izohlanadi. Bunda o'z o'zidan tragediya janri ko'z oldimizda gavdalananadi. Arastu, jumladan, tragediyani: "U she'rning ma'lum bir navi bo'lib, uning o'qilayotganini eshitgan yoki o'zi ovozini chiqarib o'qigan kishi huzur qiladi. Tragediyalarda birov larga misol (o'rnak) bo'la oladigan yaxshiliklar va maqtaniladigan fe'l-atvorlar zikr qilinadi; Arastu tragediya va komediyaning paydo bo'lishini qo'shiq bilan bog'laydi. Qo'shiqlarning o'zi esa badihago'ylik - improvizatsiyadan kelib chiqqanini ta'kidlaydi. Arastu komediya to'g'risida so'z yuritar ekan, poeziya, xususan, dramaturgiya san'atning boshqa turlaridan yuksak turishimi ta'kidlaydi hamda bunga so'z san'ati qalb kechinmalarini har jihatdan teran ochib berishga qodirligini asos qilib ko'rsatadi. Hajviy asarlarda voqeani bo'rttirib tasvirlash, mubolag'a va fantaziyadan keng foydalananish xarakterli hisoblanadi. Hajviya jamiyat hayotidagi ayrim illatlarni yo'qotishga, kamchiliklarni tuzatishga, oldini olishga xizmat qiladi. Har bir millatning o'z adabiy merosi, unda ijod qilgan olimlari va ijod ahli bor. Ingliz, o'zbek va rus tillaridagi hajviy she'rler shular jumlasiga kiradi.

Ingliz adabiyotida hajviy, humoristik va satirik she'rler "Limerick" deb ataladi. Limerik - bu humor va satira janriga oid bo'lgan hajviy she'r bo'lib, 5 qatorli baytdan iborat bo'ladi va AABBA qofiya sxemasi va suyjetiga nisbatan qat'iy tuzilishga yega. "Limerik" so'zining kelib chiqishi haqida ko'plab farazlar mavjud. Bu so'zning kelib chiqishi hali ham bahsli. Ehtimol, bu Irlandiyaning Limrik shahri (ba'zan rus tilida "Limerik" deb yoziladi) nomidan kelib chiqqan bo'lib, u yerda hazilkashlar ko'pincha kulgili qo'shiqlarni kuylab, hajviy she'rлarni aytib bir-birlarini ustidan kulishga harakat qilishgan degan qarashlar ham mavjud. Ba'zi folklorshunos olimlarning fikricha bu janrning kelib chiqishi Buyuk Britaniya xalq og'zaki ijodiga to'g'ri keladi. Limerik Irlandiyadagi bir shaharning nomi bilan bog'liq bo'lsada, hajviy she'rغا qanday aloqasi borligini va birinchi limeriklarni kim yozganligini hech kim bilmaydi. Limerik hajviy she'rlearning "otasi" sifatida ingliz shoiri Yedvard Lir tilga olinadi lekin manbalarda keltirilishicha, u o'zining she'rлarni bunday atamagan. Limerik janriga oid besh satr dan iborat she'rler XVII asrdan ham oldin yozilgan biroq aynan, Yedvard Lir bu janmi adabiyotda keng ishlatalishiga sababchi bo'lgan. Limerik so'zi birinchi marta yozma manbalarda 1892 yilda shoirning vafotidan keyin uchraydi. SHe'rlearning aynan shu nom bilan atalishi Buyuk Britaniyada 1898 yilda nashr etilgan Ingliz tilining yangi lug'ati (New English Dictionary)da, 1902 yilda Amerika adabiyotlarida uchray boshlaydi.

Ba'zi tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, 18-asrda irland shoirlari yig'inlarda, ziyofatlarda yig'ilib, zamonaviy limeriklarga juda o'xhash satirik she'rler aytganlar. Shu sababli, "Limerik" so'zi ko'pchilik o'ylaganidek, Irlandiya shahri nomidan emas, balki irlandcha "laoi meidbreach" yoki "quvnoq qo'shiq" degan ma'noni anglatuvchi so'zlardan kelib chiqqan degan taxminlar mavjud. Shu tariqa, 19-asrning oxiridan boshlab limeriklar hamma joyda keng foydalana

boshlandi. Yedvard Lir o'zining she'r iyatida xalq humoristik she'r shakli limerikdan foydalangan, bu yesa limerikni yanada mashhur qilgan. Hammasi bo'lib, Yedvard Lir ikki yuzdan ortiq limerik (212) yozgan va o'zining "Bema'nilik kitobi" (The Book of Nonsense) nomli asarida jamlagan.

Rossiyada chastushkalar qanchalik mashhur bo'lgan bo'lsa, Limeriklar Evropada xuddi shunday mashhur edi. Ular bema'nilik va aql-idrokning mantiqsiz kombinatsiyasi sifatida talqin qilingan. Ko'pgina ingliz yozuvchilari va rassomlari Xogart (satirkgravuralarida), Kuper, Gilbert, L. Kerroll, R. Kipling, D. Gol'svorsi va boshqalar o'z asarlarida xajvdan foydalananishgan. Limerik shaklidagi hajviy she'rler siyosiy satira uchun ham, dolzarb kuzatishlar va jiddiy falsafiy ta'limotlar uchun ham ishlataligan. Ko'pgina limeriklarni kim tomonidan va qachon yozilganligini hech kim bilmaydi, ularning mualliflarini aniqlash deyarli mumkin emas.

Limerikning xazilomuz tabiatli lingvistik vositalarni qat'iy qofiya sxemasida erkin o'zgartirishga va ishlatalishga imkon beradi. Limerik qasddan so'z o'yini, omofoniya, omonimiya, sinonimiya, polisemiya, inglizcha so'zlarining boy stilistik xilma-xilligi bilan ajralib turadi.

Ingliz tilidagi limerik hajviy she'rlerining bandi qat'iy besh qatordan iborat bo'lib, AABBA qofiya sxemasini tashkil qiladi va bunda 1-2 va 5 qatorlari hamda 3-4 qatorlari o'zaro qofiyalanadi.

#### Tarjimasi:

There was an Old Man with a beard, A Bir soqollı kishi bor edi,

who said, "It is just as I feared! -A Bu shunchaki qo'rquvdan der edi! Two Owls and a Hen, Б Иккি boyqush va bir tovuq

four Larks and a Wren, Б Yolg'iz sava va to'rt chumchuq,

Have all built their nests in my beard!" A Hammasi soqolimda in qurban edi.

Limeriklar ingliz adabiyotida o'zining humor va satira xarakterli xususiyatlari bilan quyidagicha ajralib turadi. 1) Turli talqinlarga imkon beruvchi keng kontekstga ega bo'lgan she'r. 2) Paradoksal so'z o'yini bo'lib, mantiqqa zid bo'lgan kutilmagan turli ma'nolarni chiqaradi. 3) Hayotning aqlga sig'mas tomonlarini ko'rish va unga kinoyali tabassum qilish qobiliyati ni shakllantiradi. 4) Turli xarakterlar hazilning bir shakldan ikkinchisiga o'tadi. Yengil istehzo, nozik ishora, qayg'u, sezilarli sukunat, sog'lom aql va ratsionalizmning to'qnashushi, yoki ijtimoiy munosabatlardagi keskin burilish kabi holatlarni yuzaga chiqarishi mumkin. Ikkinci tomonidan, "yorqin shaxslar"ning eksantrik ko'rinishlarini, ya'ni g'ayritabiiy xatti-harakatlari bilan ajralib turadigan asosan, ingliz milliy xarakterini belgilaydi[2].

Insonlar orasidagi umuminsoniy qadriyatlar, qadr-qimmat tushunchasi va qarashlar bir xilligi ularni umumiylar tushuncha -birdamlik tushunchasi ostida birlashtiradi. Jabrdiyda oddiy xalq vakillari zolim, boy va mansabdor poroxo'r kishilar tomonidan doim ham ma'nан ham ruhan ezlilgan hamda kamsitilgan. Shu illatlarga ega jamiyatning adolatsiz, vijdonsiz mansabdor kishilari azaldan tanqid ostiga olingan. Hajviy nafaqat komik asarlarda balki tragediya janrida yozilgan asarlarda ham uchratish mumkin va bu holatlarda ham ijtimoiy hayot va undagi ba'zi bir kimsalar qilmishi, hayot tarzi va dunyo qarashlari qattiq tanqid ostiga olinadi. Xuddi shu belgi va tasvirlarni ingliz, o'zbek, rus adabiyotlarida umumiylar birlashtiruvchi element tushuncha deb qabul qilish mumkin. Bunday asarlar sirasiga ingliz detektiv yozuvchisi Agata Kristining "O'nta negr bolasi" asarini keltirish mumkin. Bu asar garchi hajviy yo'naliishida yozilmagan bo'lsada, unda keltirilgan she'riy parchada ma'lum kimsalar ustidan qattiq kulinadi va tanqid qilinadi. Ularning hayotda, ijtimoiy qatlamning quyi vakilari bo'lgan

ojiz kishilar ustidan nohaq,adolatsizlarcha o‘z hukmlarini o‘tkazganlari uchun ularga nisbatan mohirona humor va satiradan ustalik bilan foydalilanigan holatda, ular ustidan hukm o‘qiladi.

Ten little nigger boys went out to dine;  
One choked his little self and then there were Nine.  
Nine little nigger boys sat up very late;  
One overslept himself and then there were Eight.  
Eight little nigger boys travelling in Devon;  
One said he’d stay there and then there were Seven.  
Seven little nigger boys chopping up sticks;  
One chopped himself in halves and then there were

Six.

Six little nigger boys playing with a hive;  
A bumble bee stung one and then there were Five.  
Five little nigger boys going in for law;  
One got into Chancery and then there were Four.  
Four little nigger boys going out to sea;  
A red herring swallowed one and then there were

Three.

Three little nigger boys walking in the Zoo;  
A big bear hugged one and then there were Two.  
Two little nigger boys sitting in the sun;  
One got frizzled up and then there was One.  
One little nigger boy left all alone;  
He went out and hanged himself and then there were

None.

Tarjimasi:

O‘nta negr bolasi tushlik qildi qo‘qqisdan,  
Biri qalqib ketib, qoldi to‘qqizta.  
To‘qqiz negr bola uylab qoldi birpasda,  
Biri qaytib uyg‘onmadni, qoldi sakkizta.  
Sakkiz negr bola qo‘msab sayrni,  
Lekin qaytmadi biri unutib hayrni.  
Yetti negr bola bir kun o‘tin yoribdi,  
Biri o‘zin chopib olti bola qolibdi.  
Olti negrvachcha ari uyin kovlashdi,  
Ari chaqib bittasini beshta qolishdi.  
Beshta negr bolasi sudga borishdi,  
Biriga hukm o‘qilib, to‘rtta qolishdi.  
To‘rtta negr bolasi cho‘milgani dengizga bordi,  
Ammo to‘rga tushib biri, uchovlon qoldi.  
Mana hayvonot bog‘iga bordi uchovlon,  
Birin ayiq g‘ajib qo‘ydi, qoldi ikkovlon.  
Biroq so‘nggi negrvachcha boqib uzoqqa,

Boshginasini hasrat ila tiqli sirtmoqqa.

Bu she’r zamirida kuchli satira va tanqid mavjud bo‘lib, har bir adolatsizlikka yo‘l qo‘yan qotil kimsalar ustidan achchiq kulgu vositasida tasvirlab berilgan. Muallif asarda qotil kimsalarni juda ojiz va imkonsiz vaziyatga tushirib, ularni go‘yoki, haq huquqqa ega bo‘laman qora tanlilarga tenglashtiradi va mazlumlar nomidan ayanchli qasos oladi.

O‘zbek adabiyotida ham shu mazmundagi asar bor bo‘lib, bunga Sharof Boshbekovning “Temir xotin” asarini misol qilish mumkin. Asar oxirida fojea garchi inson bilan sodir bo‘laman bo‘lsada, lekin muallif robot obrazi orqali aslida butun o‘zbek ayollarining fojeasini, ayanchli qishloq hayoti, og‘ir dala ishlardan ezilgan oddiy xalqni, ularning alam dard sitamlarini yoritib, xalqni shu ahvolga solgan ijtimoiy siyosiy tuzumni va hukumat egalarini tanqid qiladi. Rus adabiyotida Ivan Aleksandrovich Goncharev qalamiga mansub “Oblomov” romanı ham fojeali yakun topuvchi lekin uning zamirida kuchli tanqid va humor bor bo‘lgan asardir. Asardagi Oblomov obrazi ortida jamiyatdagi dangasalik, loqaydlik va kuchli pessimistik illatlar qoralangan. O‘zbek adabiyotida O‘zbek xalqining azaldan o‘lmas an‘analarini o‘zida mujassam etgan hajvij janrlari mavjud bo‘lib, ularning shakllanishi va rivojlanishi, takomillashuvi va boyishi insoniyat jamiyatni bilan hamkorlikda amalga oshirilib, dolzarb voqealarni aks ettirishga xizmat qilgan. O‘z navbatida o‘zbek folklorining hajv (komediya) janrini eslatib o‘tish muhimdir. Professor A. Quranov hajv biror kishini, kamchiliklarni sanab, ayblash maqsadida yaratilgan. Hajv birinchida marta arab she’riyatida keng tarqalgan bo‘lib, xajvlarda raqibni haqorat qilish uchun yolg‘om uydirmalar ishlashish odatiyi hol sifatida qaraladi, hatto behayo so‘zlarni qo‘llash ham keng tarqalib, xajvda haqorat qilish, tuhmat qilish holatlari vaqt-i-vaqt bilan uchrab turadi deb ta’kidlaydi[3]. Jabrdiyu oddiy xalq vakillari zolim, boy va mansabdar poraxo‘r kishilar tomonidan doim ham ma’nani ham ruhan ezilgan hamda kamsitilgan. Shu illatlarga ega jamiyatning adolatsiz, vijdonsiz mansabdar kishilarini azaldan tanqid ostiga olingan. Hajvni nafaqat komik asarlarda balki tragediya janrida yozilgan asarlarda ham uchratish mumkin va bu holatlarda ham ijtimoiy hayot va undagi ba’zi bir kimsalar qilmishi, hayot tarzi va dunyo qarashlari qattiq tanqid ostiga olinadi. Xuddi shu belgi va tasvirlarni ingliz, o‘zbek, rus adabiyotlarida umumiy birlashtiruvchi element tushuncha deb qabul qilish mumkin.

#### ADABIYOTLAR

1. Арасту. Поэтика (Поэзия санъяти ҳақида). Ахлоқи қабир. –Тошкент, Янги аср авлоди, 2004
2. Arnold Bennett and Shaw, “Anna of the Five Town”-1902, p: 89
3. Adrian Room, “A Dictionary of Confusable Words”, 1982, p: 215
4. Abul fath al-Busti, cited: “Адабиёт терминлари” by Куранов А.-2017, p: 146
5. Alfred Lord Tennison, “The Lady of Shalott”. A collection of poems-1832, p:42
6. Агата Кристи, “Ўнта негр боласи”. Лондон, 1939, 29 бетКунгурова И.М., Ткаченко К.И.”Лимерик как особый жанр стихотворного абсурда” (на примере творчества э. лира) Россия, 2012



Ergash BOBORAJABOV,  
O'zDJTU mustaqil tadqiqotchi-izlanuvchisi

F.f.d Y.Xamdamov taqrizi asosida

## O'ZBEK MILLIY INTERNET SIGMENTIDA SPORT SAYTLARINING YARATILISHI, FAOLIYATI VA OMMALASHISHI

### Annotatsiya

Maqlolada internet jurnalista yoki onlayn nashr – bu ommaviy axborot vositasi sifatida ro'yxatdan o'tgan va jurnalista tamoyillariga muvofiq tegishli funksiyalarini bajarishga qaratilgan veb-saytlar xususida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Jurnalista, internet jurnalista, veb-sayt, ommaviy axborot vositalari, an'anaviy jurnalista, gazeta, radio, televiedeniya.

## СОЗДАНИЕ, ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ И НАСЕЛЕНИЕ СПОРТИВНЫХ САЙТОВ В УЗБЕКСКОМ НАЦИОНАЛЬНОМ СЕГМЕНТЕ ИНТЕРНЕТ

### Аннотация

В статье говорится об интернет-журналистике или сетевом издании, представляющем собой веб-сайт, зарегистрированный в качестве средства массовой информации и направленный на выполнение соответствующих функций в соответствии с принципами журналистики.

**Ключевые слова:** Журналистика, интернет-журналистика, сайт, СМИ, традиционная журналистика, газета, радио, телевидение.

## CREATION, ACTIVITY AND POPULATION OF SPORTS WEBSITES IN THE UZBEK NATIONAL INTERNET SEGMENT


### Annotation

The article refers to internet journalism or online publication, which is a website registered as a mass media and aimed at performing relevant functions in accordance with the principles of journalism.

**Key words:** Journalism, internet journalism, website, mass media, traditional journalism, newspaper, radio, television.


**Kirish.** Internet jurnalista yoki onlayn nashr – bu ommaviy axborot vositasi sifatida ro'yxatdan o'tgan va jurnalista tamoyillariga muvofiq tegishli funksiyalarini bajarishga qaratilgan veb-saytdir[1]. U an'anaviy ommaviy axborot vositalari, jumladan, gazetalar, jurnallar, radio va

televiedeniye tomonidan boshqariladigan axborot oqimini demokratlashtirdi[2]. An'anaviy jurnalista va ommaviy axborot vositalari bilan solishtirganda Internet jurnalistikada erkin ijod qilish imkoniyati kengroq.




**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi taqdim qilgan ma'lumotlarga ko'ra, 2022-yil yanvar oyi holatiga ko'ra, mamlakatimizda internet foydalanuvchilari soni 27,3 million

kishidan oshgan. Ularning 25,3 millioni internetdan mobil telefon orqali foydalanadi. Taqqoslash uchun: mamlakatimizda internet foydalanuvchilari soni 2000-yili 7500, 2005-yili 675 000, 2010-yili 6 500 000, 2015-yili 10 000 000 kishini tashkil etgan[3].



2002-yil 30-iyulda (2002-yil 6-iyundagi 200-VMQ) UZINFOCOM kompyuter va axborot texnologiyalarini rivojlantirish va joriy etish markazi tashkil etildi. 2017-yil 29-avgustda (3245-PQ 29-avgust 2017-yil) UZINFOCOM davlat axborot tizimlarini yaratish va qo'llab-quvvatlash uchun yagona integratorga aylantirildi va davlat-xususiy sheriklik loyihamida ishslash uchun mas'uliyati cheklangan jamiyat (MCHJ) sifatida qayta ro'yxatdan o'tkazildi. UZINFOCOM - mamlakatdagi axborot texnologiyalarining ko'pgina sohalarida kashshof va ko'plab kompaniyalar uchun kadrlar yetkazib beruvchi tashkilot hisoblanadi[4]. Mazkur tashkilot tomonidan yuritiladigan WWW.UZ sayti orqali .UZ domeni ostida O'zbekistonda va xorijda faoliyat yuritayotgan barcha

yo'nalishlardagi internet-saytlari reytingi olib boriladi. Reyting natijalari esa har bir saytga kiradigan va uning ichidagi sahifalarini kuzatadiganlarni ko'rsatib turadi. WWW.UZ saytida mavjud "Tashrifchilar" va "Ko'rishlar" degan sahifalar orqali har bir saytga tashrif buyuruvchi va ko'ruvlar sonini kuzatib borish mumkin. Bunda mavjud statistika kunlik, haftalik va oylik tarzida olib boriladi. WWW.UZ saytidan olingan quyidagi fotosuratlar (skrinshot) orqali biz O'zbekistondagi UZ domeni ostida faoliyat olib boruvchi saytlar faoliyatini kuzatishimiz va ularning reytingini bilib turishimiz mumkin.



WWW.UZ saytingning 2022-yil dekabr oy bo'yicha statistikasiga e'tibor qiladigan bo'lsak, mazkur sayt katalogidagi resurslar soni 10484 tani, katalogdagisi barcha saytlarga tashrif buyuruvchilar soni 20 508 260 tani yoki o'tgan oya nisbatan 19%ga ortganini, sahifalar oralab ko'rishlar soni esa 117 859 536 tani yoki o'tgan oya nisbatan 1% ga ortganini, katalogdagisi saytlar sahifalari soni esa

22 247 674 tani yoki o'tgan oya nisbatan 5%ga kamayganini, mobil qurilmalardan kirayotgan foydalanuvchilar soni umumiyligi kiruvchilarning 80 %ni tashkil etganini yoki o'tgan oya nisbatan 7% ortganini kuzatish mumkin[5].

WWW.UZ saytingning 2023-yil 5-yanvar kuni e'lon qilingan "Sport" yo'nalishidagi reyting natijalariga ko'ra kuchli 10 talikka quyidagi veb-saytlar loyiq topilgan[6]:

O'rinni	Resurs nomi	Tashrif buyuruvchilar (05.01.20223y)	Ko'rishlar (05.01.20223y)
1	CA - novosti futbola Sentralnoy Azii	142157	654316
2	Stadion.UZ - Novosti futbola	60311	233478
3	TRIBUNA.UZ - Novosti futbola i sporta.	51620	84146
4	ONSIDE.UZ - Novosti futbola	28909	52588
5	OLAMSPORT - novosti sporta Sentralnoy Azii	14657	32699
6	Effect.uz - VMESTE S SELYU!	1387	2147
7	Yoshlar portali	405	532
8	Federatsiya Legkoy Atletiki Uzbekistana	325	871
9	UFF.uz - Novosti futbola v Uzbekistane	245	403
10	Dobro pojavovat v portal nasha onlayn shkola	179	445
Umumiy		300 195	1 061 625

Mazkurf reyting jadvali orqali ko'rishimiz mumkinki, O'zbekistondagi eng ommabop sport saytlariga bir kunda 300 195 tadan ko'p tashriflar uyushtiriladi yoki 1 061 625 marotaba ko'rishlar amalga oshiriladi. "Yangiliklar" yo'nalishida kuchli o'ntalikka kiruvchi saytlarning har birida alohida "Sport" sahifalari borligini va u yerga ham kunlik tashriflar uyushtirilishini inobatga olsak, umumiy hisobda 848 476 tadan ko'proq tashrifchilar sport yangiliklarini kuzatishi va kunlik ko'rishlar soni 3 538 297 tadan ortib ketishini kuzatish mumkin. Endi ushbu raqamlarni o'ttacha o'ttizga ko'paytirsak oylik tashrifchilar soni 25 454 280 tani, ko'rishlar soni 106 148 910 tani tashkil etadi. Demak bundan xulosa qilish mumkinki mazkurf saytlarga yil davomida o'ttacha 305 451 360 (Uch yuz besh million to'rt yuz ellik bir ming uch yuz oltmish) marotaba tashriflar uyushtirilsa, ko'rishlar soni esa 1 273 786 929 (Bir milliard ikki yuz yetmish uch million yetti yuz sakson olti ming to'qqiz yuz yigirma to'qqiz) marotaba amalga oshiriladi.

2023-yil 5-yanvar kuni olib borgan o'rganishlarimiz natijasida shunga amin bo'ldikki, birgina O'zbekiston Respublikasi Sportni rivojlantirish vazirligi veb-sayti bo'lgan https://minsport.uz/oz-da 2022-yil dekabr oyining o'zida qo'yilgan yangiliklar soni 96 tani tashkil etmoqda[7]. Bu esa kuniga kamida 2-3 tadan yangilik qo'yilganini bildiradi, yangilik qo'ygan matbuot xizmatining o'zi bir kunda kamida 4-5 marotaba kuzatganda ham bu oylik ko'rsatkich kamida 150-180 tani tashkil etishi kerak edi. Shu kabi misollarni

mazkurf jadvaldagi boshqa veb-saytlar bo'yicha ham kuzatish mumkin. Agar ushbu saytlar ma'muriyati o'z sayti reytingi bilan qiziqsa, kuzatuvchilari fikr-mulohazalarini hurmat qilsa, tizimdagi barcha elektron axborot almashinuvni mazkurf saytlari orqali amalga oshirsa, veb-saytni yuritish faqat yangilikni otib yuborib qochish degan tushunchadan xalos bo'lishsa, o'ylaymizki saytlarga kuzatuvchilar tashrifi bu qadar abgor bo'limasdi.

O'zbekistonda sportning rivojlanishi Internetda uning targ'ibotini amalga oshirishni ham taqozo etdi. Zero targ'ibotning kuchi uning atrofida muxlislar va ishqibozlarni orttiradi, ayniqsa yoshlar qalbiga sport bilan shug'ullanish ishiyoqini sola olish, kelgusi avlodni chinakkamiga sog'lom va baquvvat bo'lishini ta'minlaydi. Shu ma'noda UZ domenidagi ilk veb-sayt 1995-yili ochilgandan boshlab, mamlakatimizda sportning targ'iboti keng miqyosda amalga oshirib kelimoqda. 2000-yilning yanvarida O'zbekiston teleradiokompaniyasining "Axborot" dasturi ilk bora global tarmoq hisoblangan Internet orqali onlayn tarzda butun dunyoga uzatilishi ortidan, mazkurf dasturdan joy olgan "Sport" xabarlari ham ilk bora keng miqyosda dunyoga yoyildi. Dunyoning turli burchaklarida yashab kelayotgan millatdoshlarimiz ilk bor o'zbek televideniyesini va unda uzatilgan sportga oid xabarlarni ilk bora ko'rishga tuyassar bo'ldi. Bu tarixiy kun ortidan boshlangan sport targ'iboti turli tele va radio kanallardagi "Sport" xabarlaridan tortib, 2004-yil 1-yanvardan O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasining

4-Xalqaro telekanali negizida tashkil etilgan «Sport» telekanalida ham katta kuch bilan davom etdi. Internetning rivojlanishi va jamiyat hayotiga tobora chuqur singib borishi ortidan dunyoga kela boshlagan birinchi o'zbek sport saytlari o'z ishqibozlari va muhlislarini qynalmay topa boshladi.

2006-yil 3-may kuni ro'yxatdan o'tgan UFF.uz - O'zbekistonda futbol xabarlari – veb-sayti tez orada o'z mavqeyi va muxlislar auditoriyasiga ega bo'ldi. O'zbekiston va jahon futbol maydonlaridagi eng so'nggi yangiliklar, reportaj va intevyular, maqola va portret ocherklari bilan o'z kontentini boyita boshlagan mazkur sayt tez orada boshqa sport saytlarining ochilishiga ham turtki bo'ldi. Bugungi kunda 20 tadan ortiq rukn va sahifalarga ega mazkur veb-sayt mana 17 yillardiki, sportning futbol turi bo'yicha birorta musobaqani qoldirmay yoritib kelmoqda[8].

2007-yil 20-yanvarda ro'yxatdan o'tgan InterFUTBOL gazetasi – ning Internetdagi veb-sayti – interfutbol.uz sayti an'anaviy ommaviy axborot vositalarining ilk Internetdagi versiyasi sifatida maydonga chiqdi va muvaffaqiyatlari tarzda faoliyat olib bordi. Ushbu saytda ham millionlar o'yini bo'lgan futbol mavzusi keng miqyosda yoritildi. Veb-sayt InterFUTBOL gazetasi ning elektron muqobili sifatida o'z muhlislariga ega bo'ldi. Afsuski bugungi kunda mazkur veb-sayt o'z faoliyatini to'xtatgan[9].

2015-yil 8-oktabrda "QO'QON 1912" professional futbol klubı - <http://kokand1912.uz/uz/> - veb-sayti ro'yxatga olinadi. Ushbu sayt "QO'QON 1912" futbol klubining veb-sayti hisoblanadi, unda dunyo va mamlakatimiz futboliga oid yangiliklar va klub faoliyatini yoritib boriladi[10].

2015-yil 27-fevralsa ro'yxatga olinagan OLAMSPORT - Markaziy Osiyo sport yangiliklari veb-sayti nafaqat O'zbekistondagi balki O'rta Osiyo mintaqasidagi va dunyodagi deyarli barcha sport turlarida bo'layotgan o'zgarish va yangiliklarni tinimsiz tarzda yoritib boruvchi on-layn platforma. Sportning Basketbol, Bolalar sporti, Velosport, Voleybol, Gандbol, Gimnastika, Dzyudo, Yengil atletika, Zamonaviy beshkurash, Kamondan otish, Karate, Kikboksing,

Kurash, Muaytay, Olimpiya o'yinlari, Osiyo o'yinlari, Ot Sporti, Og'ir atletika, Regbi, Sambo, Sport kurashlari, Stol tennisi, Suv sporti, Taekvondo, Tennis, Triatlon, O'q otish, Formula-1, Futbol, Xokkey, Shaxmat, Eshkak eshish, Qilichbozlik kabi deyarli barcha turlarini va barcha yoshdagilarini yoritib boruvchi yirik veb saytdir[11].

2015-yil 4-iyunda ish boshlagan yana bir veb-sayt Veloman.uz – O'zbekistonda velosiped jamiyati a'zolari tomonidan taqdim etilgan. Ushbu saytda asosan velosiped ishqibozlari va velosporthilar hayoti, velopoygalar haqida yangiliklar berib borilgan. Hozirda ushbu sayt faoliyati noma'lum sabablarga ko'ra to'xtatilgan[12].

2016-yil 10-avgustda ro'yxatga olingan TRIBUNA.UZ - Futbol va sport xabarlari veb-sayti sportning nafaqat futbol turi balki, boshqa turlarini yoritishda ham eng faol saytlar qatorida turadi. Bugungi kundagi faoliyati davomida saytga kunlik tashrifchilar soni 51 620 tadan ortib ketgan[13].

2012-yil 14-yanvar kuni ro'yxatdan o'tgan Stadion.UZ - Futbol yangiliklari veb-sayti ham futbol, ham boshqa sport turlarini keng yorituvchi eng katta auditoriyaga ega bo'lgan veb saytlardan biridir. Mazkur skrin fotolavha orqali sayting ruknlarini kuzatish mumkin[14].

2010-yil 9-oktabrda tashkil etilgan CA – Markaziy Osiyo futboli yangiliklari veb-sayti bugungi kundagi O'zbekiston sport saytlari ichida eng katta auditoriyaga ega bo'lgan veb-saytdir. 2022-yil dekabr oyida o'tkazgan tadqiqotlarimizga ko'ra, mazkur saytga bir oylik tashrifchilar soni 1 970 368 nafarni tashkil etgan bo'lsa, sahifalar bo'ylab ko'rishlar soni esa 9 357 737 tani tashkil etdi. Bu qolgan barcha sport saytlaridagi tashriflar va ko'rishlar sonini jamlaganda ham ko'p degani. Saytda asosan futbol yangiliklari berib boriladi. Yangiliklar soat sayin emas, balki daqqaq sayin yangilanib turadi. Shu boisdandir sayt bugungi kunda mamlakatimizdagi eng yirik sport sayti sifatida e'tirof etib kelinmoqda[15].

#### ADABIYOTLAR

- <https://semantica.in/blog/ctho-takoe-internet-smi.html> 27.12.2022-y.
- Kevin Kawamoto, Digital Journalism: Emerging Media and the Changing Horizons of Journalism 2003, [https://books.google.co.uz/booksid=redir\\_esc](https://books.google.co.uz/booksid=redir_esc) 26.12.2022-y.
- Tojialiyev D. "Ma'rifikat" gazetasi, 2022-yil 19-oktabr, 41-42-son. "Milliy ma'lumot makoni manzaralari" maqolasasi
- <https://uzinfocom.uz/uz/about> 29.12.2022-y.
- <https://www.uz/uz/statistika> 05.01.2023-y.
- [https://www.uz/uz?cat\\_id=325](https://www.uz/uz?cat_id=325) 05.01.2023-y.
- <https://minsport.uz/oz/news> 05.01.2023-y.
- <https://uff.uz/> 05.01.2023-y.
- <https://interfutbol.uz/> 05.01.2023-y.
- <http://kokand1912.uz/> 05.01.2023-y.
- <https://olamsport.com/> 05.01.2023-y.
- <http://veloman.uz/> 05.01.2023-y.
- <https://tribuna.uz/news/category/sport> 05.01.2023-y.
- <https://stadion.uz/main> 05.01.2023-y.
- <https://championat.asia/uz/countries> 05.01.2023-y.



**Komilxon BOKIYEV,**

*O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi*

*Alisher Navoiy nomidagi davlat adabiyot muzeysi tayanch doktoranti*

*E-mail: www.navoiy-uni.uz*

*O'zMU professori, filol. f.d. Rahmonov N.A. taqrizi asosida*

## STRUCTURE AND GENRE FEATURES OF THE WORK "ROHATI DIL"

### Annotation

The article studies about the constituent structure and genres of Huvaido's work 'Rohati Dil'. The published copies of the work are comparatively scrutinized. 'Rohati dil' was studied through research and analysis methods such as descriptive, classification, contextual analysis, systematization.

**Key words:** Manuscript copy, published copy, descriptive, classification, contextual analysis, systematization, eulogy, nat, noma, narration, story and prayer.

## СТРУКТУРА И ЖАНРОВЫЕ ОСОБЕННОСТИ ПРОИЗВЕДЕНИЯ «РОХАТИ ДИЛ»

### Аннотация

В данной статье говорится о структуре и жанре произведения Хувайдо «Рохати Дил». Изданные экземпляры произведения подвергаются сравнительному изучению. «Рохати дил» изучался с помощью таких методов исследования и анализа, как описательный, классификационный, контекстуальный анализ, систематизация.

**Ключевые слова:** Рукописный экземпляр, опубликованный экземпляр, описательный, классификация, контекстуальный анализ, систематизация, хамду сано (прославление), наът (прославление пророка), нома (жанр), повествование, рассказ и молитва.

## "ROHATI DIL" ASARINING TUZILISHI VA JANR XUSUSIYATLARI

### Annotatsiya

Mazkur maqolada Huvaydoning "Rohati dil" asarining tarkibiy tuzilishi va janrlari haqida so'z boradi. Asarning nashr nusxalarini qiyosiy o'r ganilgan. "Rohati dil" tavsifiy, tasnifiy, kontekstual tahlil, tizimlashtirish kabi tadqiqot va tahlil usullari orqali o'r ganilgan.

**Kalit so'zlar:** Qo'lyozma nusxa, nashr nusxa, tavsifiy, tasnifiy, kontekstual tahlil, tizimlashtirish, hamdu sano, na't, noma, rivoyat, hikoyat va munojot.

**Kirish.** Huvaydoning "Rohati dil" asari masnaviy (hazaji musaddas mahzuf) janrida yozilgan bo'lib, tarkibida mumtoz didaktik adabiyotga xos hamdu sano, na't, noma(nurnoma, qiyomatnoma), rivoyat, hikoyat va munojot kabi mumtoz janrlar bor. Bu asar o'zbek adabiyotida tasodifan, ya'ni navotorlik bir holatda paydo bo'lgani yo'q. Xossatan, salaf shoirlarga Ahmad Yassaviy, Sulaymon Baqirg'oni, A. Navoiy, Bobur, So'fi Olloyorga ergashish natijasida yuzaga kelgan badiiy qimmatga ega bo'lgan bir asardir. "Sabotul ojizin"dan tashqari boshqa asarlarga ma'lum darajada o'xshab ketadi. O'xshashaligi shundan iboratki, adabiyotning asosiy g'oyaviy-maqsadi bo'lgan komil inson tarbiyasi. Bu tarbiyani sof islomiya ta'limot asosida olib boradi. "Sabotul ojizin"ga o'xshashligi payravliq yo'lidan borgan. Bu esa o'z navbatida adabiy an'anani davom ettirishdir.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Huvaydoning "Rohati dil" dostonini o'r ganish Mustaqillikdan keyin amalga oshirildi. Dostoning 10 ortiq qo'lyozma nusxasi va 1907-yil nashrda qilingan toshbosmalari Aburayhon Beruniy nomidagi sharq qo'lyozmalari institutida saqlanadi. Asarni asl matn asosida tavsifiy, tasnifiy va tizimli qiyosiy tahil qilish vaqtiga keldi.

S. Hasanov, N. Juvanmardiyeva 1994-yil, Qodirqul Ro'zmatzoda 2011-yillardagi nashr nusxalarini qiyosiy tahil asosida o'r ganishga ehtiyoj tug'ildi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** "Rohati dil" dostoni mavzu doirasida yoritilishi tavsifiy, tasnifiy, kontekstual tahlil, tizimlashtirish kabi tadqiqot va tahlil usullaridan foylanildi.

**Tahil va natijalar.** "Rohati dil" asarining o'zbek adabiyotida maydonga kelishini adabiy an'ana desak bo'ladi. Huvaydo o'zining salafi So'fi Olloyorga ijodiy yondashuv orqali o'z oldiga qo'ygan badiiy -estetik vazifalarini bajardi. Mazkur asar adabiyotimiz taraqqiyotiga ichki bir muhim omil sifatida xizmat qilgan. Adabiy ta'sir doirasi ham milliy adabiyotimiz zaminida. Xossatan, turkiy xalqlar islom dinini qabul qilagandan keyin Qur'on karim oyatlari va hadisi sharifni tushunib yetishga katta bir ma'nvaiy ehtiyoj tug'ildi. Adabiyotimizga islomiya ma'naviyatning kirib kelishini matnshunos olim Qosimjon Sodiqov quyidagicha izohlaydi.

"Mumtoz she'riyatda hadislar mazmuni asosida didaktik asarlar ham yaratilgan. Turkiy adabiyotda bu an'anani Adib Ahmad Yugnakiy boshlab berdi. U o'zining "Hibatu-l-hakoyik" asarida bilim o'r ganishning foydasi, axloq-odob, tilmi tiyish, saxiylik, tavoze'lik, insoniy fazilatlar borasida bahs etar ekan, o'rni bilan, mukaddas satrlarga ham murojaat kiladi: avval o'z o'gitlarini aytib, so'ng ayni baytalar mazmuniga mos keluvchi hadis, Kur'on oyatlardan dalil keltiradi. Adib o'gitlari oyat va hadislar bilan uyg'unlashib, o'z tasdig'ini topadi. "Hibatu-l haqoyik"ning 1444-yili Samarkanda ko'chirilgan uyg'ur yozuvli nusxasida ushubu arabcha oyat va hadislar arab xatida berilib, jadvallarga olingan[1]."

Hozirgi kunga qadar masnaviy adabiyotimizda faol qo'llanilib kelayotgan janrlardan biri. Turkiy adabiyotda bu janrida ijod qilishni Yusuf Xos Hojib XI asrda boshlab bergen bo'lsa-da, XXI Asrda ham o'z qimmatini yo'qtGANI yo'q. "Rohati dil" dostoni ham shunday asarlardan biri bo'lib, asrlar

osha xalq ma'naviyati va yosh avlod tarbiya uchun muhim bo'lgan didaktik adabiyotimiz namularidan biri. O'zbek dostonchiligining asrlar davomidagi taraqqiyot yo'lini haqida akademik Salohiddin Mamajonov quyidagicha fikr yuritadi:

"O'zbek dostonchiligi asrlar davomida o'sib, kamol topib, shakli rang-baranglashib bordi. O'rxun-Yenisey yozuvida, Avestoda, "Devonu lug'otit turk" dagi qadimgi Doston parchalarida, turkiy xalqlar mulki bo'lmish "Kitobi dodam Qo'rqu't"da va ayniqsa "Alpomish", "Go'ro'g'li" turkum Dostonlarida o'zbek dostonchiligining taraqqiyot yullari, davrlarini ko'rish mumkin. Navoiy "Xamsa"si o'zbek dostonchiligi tarixida yuksak cho'qqi bo'ldi[2]."

Folklorshunos akademik To'ra Mirzayev dostonchilik rivojini asrlar kesimida tahlilga tortib dostonchilik maktablari paydo bo'lganini qayd qildi.

"Epik dostonlarni yaratuvchi va kuylovchi badihago'ylar ko'payib borgan sari ustoz-shogirdlik an'analarini vujudga kela boshladи. Natijada 15 -16-a. larga kelib ko'pgina dostonchilik maktabi paydo bo'ldi. 17-18-a. lar Dostonchilik taraqqiyotida jiddiy ko'tarilish bosqichi, 19-20-a. lar esa uning eng rivojlangan davri hisoblanadi[3]."

Mazkur maktablар xalq orasida ma'naviy, g'oyaviy katta ta'sirga ega bo'lgan. Shoirlar dostonlar orqali xalq ma'naviy tafakkuri shakillanishiga ulkan hissa qo'shgan. Huvaydo ham "Rohati dil" dostoni orqali muslmon olamida inson yetukli darajasiga erishi uchun nimalarga amal qilishini badiy bir yo'sinda xalqona metod orqali ifodalaydi.

Asarning boshlanishidagi sharq adabiyotining an'anasi hamdu sanoning o'ziga xos ifodalanishi 76 misra, ya'ni 38 baytdan iborat.

Sanovu hamd xalloqi jahong'a,  
Ki hukmin ko'rsatib yaxshi yamong'a.  
Tutibdur besutun ko'kni muallaq,  
Berib shamsu qamar dunyog'a ravnaq[4].  
Quyida "Sabotul ojizin"ning kirish qismi.  
«Sano lil xoliqi g'abrovu aflok»,  
Yaratdi qatravedin gavhari pok.  
Samovot uyini tutdi muallaq,  
Jahona hukmini ko'rsatdi mutlaq[5].

"Sabotul ojizin"ning kirish qismi, ya'ni hamdu sano (Alloh taologa) Huvaydo asarai "Rohati dil" bilan bir-biriga juda yaqin mazmun, janr va shakl jihatidan. Farqli tamonlari asosan, asarning tilida ko'rindi. Turkiy so'zlardan ko'proq foydalangan. So'fi Ollayorning "Sabot ul- ojizin" asarida nisbatan arabiyl leksika kengroq qo'llanilgan. Huvaydoning asardan ko'zlagan asosiy maqsadi omma mo'ljalagan. Aslida ikka muallif ham asarini arabiyl, forsiy tillardan bexabar ommaga mo'ljallab yozgan. Ikka asarda tarkibidagi janrlar deyarli bir xil. Janrlarning paydo bo'lishi, takomili, adabiyot maydonidagi o'rni va ahamiyati haqida matnshunos olim akademik D.S. Lixachev quyidagicha fikr yuritadi:

"Adabiy janr tarixiy kategoriyalidir. Adabiy janrlar so'z san'atining muayyan bosqichlarida paydo bo'ladi va shundan keyin uzuksiz tarzda o'zgarib boradi. Gap faqat bir janrning o'rniga boshqasining kelishi hamda adabiyotda biror janrning "abadiy" emasligi ustidagina emas, balki alohida janrlarga ajratish prinsiplarining o'zi ham o'zgarishidadir. U yoki bu davrlarda janrlar tipi va tabiatini, ularning vazifalari o'zgarib boradi. Janrlarni ajratishdagi hozirgi sof adabiy alomatlarga tayanish nisbatan kechroq keladi", – deb yozgan edi[6].

Asarda keladigan ikkinchi janr na't. Sharq mumtoz adabiyotining klassik janrlaridan biri bu na't bo'lib, o'zbek adabiyoti tarixi va salaf ijodkorlar ijodi orqali bugungi kunimizgacha yetib kelgan. Hamd va munojotdan keyin keladi hamda adabiyotda payg'ambarlar sha'niga bag'ishlanadi. O'zbek va fors-tojik xalqlar adabiyoti lug'atidagi ta'rifi bir xil. Payg'abarlar va Muhammad alayhissalom sifatlari yorituvchi adabiy janr tarzida yuzaga kelgan.

NA'T (arab. - maqtov, ta'rif) - mumtoz adabiyotning an'anaviy tarkibiy qismlaridan biri. Odatda, katta she'riy-epik asar (doston)lar, ba'zan ilmiy asarlar bosh qismida hamd va munojotdan keyin keladi. Na't, asosan, payg'ambar (lar) sha'niga aytiladan maqtovdan iborat bo'lib, ko'pgina mumtoz she'riy asarlarda uchraydi[7].

Bu fikrlar va ta'riflar o'zbek adabiyoti, jumladan, fors-tojik adabiyotidagi na't uchun ham xosdir. Janning mazmuni va shakli ikkala adabiyotda ham bir xil. "Rohati dil" asarining na't qisi 18 bayt, ya'ni 36 misradan iborat.

"Rohati dil" dostonida keltirilgan mazkur 18 baytdan iborat na'tda payg'ambarimiz Muhammad alayhissalom sha'niga aytilgan ta'riflar, vasiflar quyidagicha bayon qilingan:

Payg'abarinizga durud(maqtov) aytilgan keyin Allohnning payg'ambarlari ichida eng afzali "nigini anbiyo" ligi alohida qayd qilingan. Payg'abarlarning eng afazli ekani voqelik davomida dalillar bilan isbotlanadi.

"Tufaylidin Ani xalloqi ma'ubd,  
Zaminu osmonni qildi mayjud.  
Topilmasdur aningdek gavhari pok,  
Anga kiyurdii Tangri toju lavlok."

Bu baytlar orqali shoir Alloh taoloning hadisi Qudusiyisiga badiiy bir yo'sinda ishora qilmoqda "lavlok – agar sen(Muhammad SAV) bo'lmaganingda edi olamni yaratmas edim." Jamiyki, maxluqotlar ichida eng afzali Muhammad SAVni mazkur baytlarda xalqona bir tilda ifodalaydi. Payg'abariniz sifatlarini qanchalik bilsang, o'shancha sifat qil, deb kitobxonning o'z ixtiyoriga tashlab qo'yadi. Faqat xudoga tenglashtirmasang bo'ldi, deydi va tarixdagi adashgan qavmning nomini hujjat sifati keltirib ogohlilikka chaqiradi.

"Xudo dema, xudoni o'g'li dema,  
Nasro qavmidek bu so'zni dema."

Oyat va hadis arab tilidaligi uchun hamma ham o'qub tushunavermaydi. Turkiy xalqlarning yig'in, to'y va hashamlari baxhilarsiz o'tmagan. Shoir xalq og'zaki ijodi metodidan unumli foydangan holda dostonchilik orqali islomiy ta'lomitlarni soddarоq qilib xalqqa yetakazgan. Ushbu falsafiy-didaktik ruhdagi asarda nazmiy usulda Alloh taolga shirk keltirmaslikni va payg'abarlari qanchalik buyuk shaxslar bo'lmасин унга teng bo'lmасигини shoir uqtiradi.

Huvaydo ijodining muxlisi va "Rohati dil" dotonini nashrga tayyorlovchi olimlardan bir Qodirqul Ro'zmatzoda shunday yozadi:

"XIX asrda chop etilgan juda ko'plab bayozlarda Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Bedil, Fuzuliy, Mashrab singari ulug' shoirlarning asarları qatorida Huvaydo g'azallariga alohida o'ri ajratilishi ham, Huvaydo g'azallari mashhur hofizlar tomonidan asarlar osha kuylab kelinayotganligi ham, xalqimiz o'rtasida navoiyxonlik, mashrabxonlik, bedilxonlik bilan bir qatorda huaaydoxonlik an'analarini uzuluksiz davom etib kelayotganligi ham ulug' mutasavvuf shoirning boy merosini ilmiy asosda har tomonlama tadqiq etish va undan xalqimizni to'larоq bahramand etish zarurligidan dalolat beradi[8]."

Olimning bu fikri Huvaydo ijodining xalq orasida sevib o'qilganligining bir isbotidir.

Asar tarkibida uchraydigan janlardan yana biri noma.

Noma janri asosan, fors-tojik adabiyotida XI asrdan boshlab shakillangan. Uning tariqqiyotiga Faxriddin Gurgoniy (11-a.), Avhadiy (1274—1338), Xoja Imod Kirmoniy (14-a.)lar asos solgan va rivojiga ulkan hissa qo'shgan ijodkorladir.

NOMA (fors. - xat, maktub) - 1) xat, maktub, farmon, yozilgan narsa;

2) adabiy janr; o'zbek va fors mumtoz adabiyotlarida yaratilgan, real yoki xayoliy to'qima shaxsga asosan she'riy maktub tarzida yozilgan badiiy asar turi[9].

O'zbek mumtoz adabiyotida noma janriga dastlab Xorazmiy murojaat qilgan. "Muhabbatnom" adabiyotimizdagi noma janriga mansub ilk badiiy asar hisoblanadi. Noma janri an'analarini bir qator mumtoz ijodkorlarimiz davom ettirdi. Jumladan, Xo'jandi, Sayid Ahmad, Yusuf Amiriy, Alisher Navoiy kabi ijodkorlar qalam tebratagan.

"Degoylar: Oh, odam odam bo'lmg'oyduk  
Muningdek mehnatu g'am chekmagoyduk".

"Rohati dil" dostonida nurnoma va qiyomatnomalar mavjud bo'lib, nurnomada dunyo yaralishi hamda payg'ambarimz Muhammad SAVning tavalludlari tavsif qilingan. Qiyomatnomada qiyomatning sifatlari va do'zax ahligi beriladigan jazolarning bayoni ishonchli manbalar va mutavotir (ishonchli yoki sahih) hadislar orqali yetib kelgani dalillangan. Hadislarning roviylari ibni Abbas va Abu Hurayra. Ikkala roiydan sahih hadislar rivoyat qilingan. Bizning nazarimizda bu ikki nomani alohida maqola sifatida tadqiqini amalga oshirish kerak. Sababi maqolamiz hajm jihatida kattalashib ketadi.

"Maslak ul- mutaqqin" va "Sabot ul - ojizin" asarlarini qiyosiy o'rgan adabiyotshunos Nodira Baratova quyidagicha xulosa qilgan:

"So'fi Olloyorning dunyoqarashi islom dini g'oyalari bilan chambarchas bog'likdir. Lekin shu bilan birga masnaviylarda jamiyatda odam qanday yashamog'i va faoliyat ko'rsatmog'i kerak, uning ijtimoiy burchi, vazifasi nimadan iborat, insoniy turmush kechirishning meyorlari kanday bo'lishi kerak va boshqa shu kabi ijtimoiy masalalar o'zining falsafiy ifodasini topgan[10]".

"Rohati dil" dostonining ham asosiy g'oyaviy maqsad mazkur asrlar bilan bir xil.

**Xulosa va takliflar.** Xullas, Huvaydoning "Rohati dil" asaridagi janrlarning hammasini bir maqolada tahlil qilish imkonii yo'q. Asarning tarkibiy tuzilishi va nashr nusxalarini tahlil qilingan. Nashr nusxalarini qo'lyozma va toshba nusxalarini asosida qiyosiy matnshunoslik aspektida tadqiq qilish lozim. "Rohati dil" dostoni haqidagi tadiqoqlar o'zbek mumtoz adabiyoti va o'sha davr, ya'ni XVIII asr Farg'onan abiy muhitini yoritishga alohida bir hissa qo'shadi.

#### ADABIYOTLAR

1. Sodiqov Q. Matnshunoslik va manbashunoslik asoslari. Toshkent davlat sharqshunoslik instituti. Toshkent, 2017. - 57-58-betlar.
2. Mamajonov S. Doston. D Qomus.Info Olayin Ensiklopediyi.
3. Mirzayev T. Xalq baxshilarining epik repertuari, T., 1979.
4. Huvaydo. Rohati dil. A. Qodiriy nomidagi xalq merozi nashiryoti (Nashrga tayyorlovchilar: Hasanov S. Juvarnardiyeva N.). Toshkent, 1994.- 6- b.
5. www.ziyouz.com kutubxonasi. So'fi Olloyor. Sabotul ojizin. Ilmiy-tanqidiy matn. nashrga tayyorlovchi Rashid Zohid. 4-b.
6. Lixachev D.S. Poetika drevnerusskoy literaturi. – M.: Nauka, 1979. – C. 55.
7. O'zbek tilining izohli lug'ati. Madvaliyev A. Tahriri ostida. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlalt ilmiy nashriyoti. Toshkent, 2006-2008.- 28-b.
8. Huvaydo. "Rohati dil". Navro'z, Toshkent.- 2011., 3- b (Qodirqul Ro'zmatzoda. Huvaydoning ishq falsavasi(so'z boshi o'rniда).
9. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi 6-tom. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlalt ilmiy nashriyoti. Toshkent. 279.- b.
10. Baratova N.A. So'fi Olloyorning "maslak ul- muttaqin" va "Sabotul - ojizin" asarlarining qiyosiy tahlili. Fil. Fan. nom. diss.. avtoreferati. Samarqand. 2004.-12- b.



Zilola BOLTAYEVA,  
O'zMU magistranti  
E-mail: zilolaboltayeva3885@gmail.com

PhD A.Murtozayev taqrizi asosida

### "DEVONI LUG'OTIT TURK" ASARINING JAHON TILSHUNOSLIGIDA O'RGANILISHIGA OID MULOHAZALAR

Annotatsiya

Mazkur maqolada Mahmud Koshg'ariyning "Devoni lug'otit turk" asarining jahon tilshunos olimlari tomonidan o'r ganilganligi hamda asar yuzasidan qilingan tadqiqot ishlari haqida ayrim fikr-mulohazalar va tahillar aks etgan. Bundan tashqari. "Devon"ning zamonaliv tilshunoslik yo'naliishlari doirasida ham tadqiq qilingan ilmiy ishlarga alohida urg'u berildi. Chunki bugungi kun fan olamidagi yangiliklar bevosita ushbu asarga ham aloqador ekanligi o'z isbotini topadi.

**Kalit so'zlar:** "Devoni lug'otit turk", jahon tilshunosligi, sinxron diaxron aspekt, lug'at, lug'atshunoslik, tilshunoslik tarixi.

### COMMENTS ON THE STUDY OF THE WORK "DEVONI LUGOTIT TURK" IN WORLD LINGUISTICS

Annotation

This article reflects the study of Mahmud Koshgari's work "Devoni lughotit turk" by world linguists, as well as some opinions and analyzes about the research work done in connection with the work. Besides. A special emphasis was placed on the researched scientific works within the modern linguistics directions of "Devon". Because today's news in the world of science is directly related to this work.

**Key words:** "Devoni lugotit turk", world linguistics, synchro-diachronic aspect, dictionary, lexicography, history of linguistics.

### КОММЕНТАРИИ К ИЗУЧЕНИЮ ПРОИЗВЕДЕНИЯ "DEVONI LUG'OTIT TURK" В МИРОВОЙ ЛИНГВИСТИКЕ

Аннотация

В данной статье отражено изучение произведения Махмуда Кошгари «Девони лугхотит турк» мировыми лингвистами, а также некоторые мнения и анализы по поводу исследовательской работы, проделанной в связи с произведением. Кроме. Особый акцент был сделан на исследуемых научных работах в рамках направлений современной лингвистики «Девона». Потому что сегодняшние новости в мире науки напрямую связаны с этой работой.

**Ключевые слова:** «Devoni lugotit turk», мировое языкознание, синхро-диахронический аспект, словарь, лексикография, история языкоznания.

**Kirish.** Jahon tilshunosligida turkiy tillarning qadimgi manbalari leksikasini o'r ganish, uning leksikografik ahamiyatini kelajak vakillariga taqdim qilish kabi masalalar bugungi kun tilshunosligi uchun muhim deb qaraladi. Til hodisasi necha asrlardan buyon tilshunos olimlar tomonidan o'r ganilmoqda va tadqiq etilmoqda. Xususan, tilni sinxron va diaxron aspektida o'r ganish, tilni qadimgi yozma manbalar va zamonaliv tillar bilan qiyoslab tahlil qilish nafaqat o'zbek tilshunosligida, turkologiyada balki jahon tilshunosligi oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Jahon tilshunosligida Mahmud Koshg'ariy ijodi va uning "Devoni lug'otit turk" asari yuzasidan ko'plab ilmiy izlanishlar olib borilgan. J. Xudoyberdiyevning 2011-yilda nashrdan chiqqan kitobida lug'at bo'yicha yaratilgan asarning soni 1779 ta deb berilgan[1]. Jumladan, K.Brokkelman, V.Radlov, G.Bergstrasser, I.I.Umnyakov, A.N.Kononov, F.Xommel, O.Pritsak, I.Xavenshild, R.Denkoff, V.V.Bartold, S.E.Malov, A.M.Sherbak, S.G.Klyashtorniy, E.R.Tenishev, I.V.Stebleva, T.A.Borovkova, Y.A.Zuyev kabi jahon miqiyosidagi tilshunoslар adib asari tilini o'r ganishgan. Turkologiyada ham "Devoni lug'otit turk" bo'yicha jiddiy ilmiy izlanishlar olib borilgan bo'lib, B.Atalay, N.Osim, I.Hikmat, S.Bey, M.F.Ko'prulu, Z.V.To'g'on, F.Birtek, M.Sh.Ulkutashir, A.Jafer o'g'lu, Sechin va Sarab Tug'ba Yurtachar, I.S.Xarkovskiy, A.Ekyeubay, X.S.Xo'jayev, R.Askar, X.Ko'ro'g'li, A.B.Xalidov, Z.Musabayeva, A.Erjilasun, P.Oruzbayeva, V.Maxpirov, A.Ragimov, P.Osmanaliyev kabi

olimlarning tadqiqotlarini alohida ko'rsatib o'tishimiz lozim[2].

**Tahlil va natijalar.** Ma'lumki, har qanday til hodisasini tarixiy jihatdan o'r ganishning yagona ilmiy yo'li birlamchi manbalarga asoslanib, yozma yodgorliklar tili bilan hozirgi tilni qiyoslash, shu asosda ikki oradagi yaqinlikni, farq va yangiliklarni aniqlashdir. Markaziy Osiyo xalqlari ko'p asrlar davomida yaratgan noyob madaniy yodgorliklar qatoriga shu xalq farzandlari yaratgan lug'atlar ham kiradi. Bunday lug'atlarning nodir qo'lyozmalari bizgacha yetib kelgan va ularning ba'zilari nashr qilingan, ular asosida ilmiy tadqiqot ishlari ham olib borilgan.

Bu asar jahon tilshunos olimlari e'tiborini tortgan qadimiylar asarlardan biridir. "Devonu lug'oti-t-turk" turkiy so'zlarning arabcha izohli lug'ati bo'lgani uchun ilmiy jihatdan alohida ahamiyatga molikdir. Uni har tomonlama tadqiq qilish turkiy xalqlarning, jumladan, o'zbek xalqining tarixini, urf-odatlarini, so'z boyligini, adabiy me'yorini o'r ganishda katta ahamiyat kasb etadi.

Mahmud ibn Husayn Muhammad (Mahmud Koshg'ariy) XI asrning ikkinchi yarmidayoq tillarni o'r ganishda birinchi bo'lib qiyosiy-tarixiy metodni qo'llagan qomusiy olim hisoblanadi. Chunki Yevropada bu metoddan foydalananish XVIII arsnинг ikkinchi yarmiga to'g'ri keladi. Olim yaratgan "Devoni lug'otit turk" asari faqat lug'at emas, balki "Rumdan Mochingacha" ya'ni Shimoliy Xitoydan Qora dengizgacha bo'lgan hududda istiqomat qilgan va hozirgi turkiy xalqlarning shakllanishiga asos bo'lgan 71 ta turkiy

qabila va urug'lar tillarida qo'llangan 8000 ga yaqin so'zni fonetik, leksik-semantik, grammatic xususiyatlari, shuningdek, yozuv va imlo qoidalarini ham tarixiy-qiyosiy tahlil qilish bilan birga, bu qabila va urug'larning etnogenezi va ular istiqomat qilayotgan o'lka, shahar va tumanlarning tarixi, mahalliy urf-odatlari hamda koinot sirlari haqida ma'lumot yozib qoldirdi. Ayni paytda, qabila va urug'lar joylashgan hududlarning geografiyasi, hayvonot olami, o'simlik dunyosi haqida ma'lumot berib, hududning xaritasini tuzib chiqdi. Bu xarita ma'lumotlarining aniqligini hozirgi zamon olimlari V.I.Belyayev ("DLT", M,L., S. 32), H.Hasanova (Mahmud Koshg'ariy", T., 1963. B. 43) arxeologik qazilmalar va etnograflar tasdiqlashini ko'rsatib o'tadilar[3].

"Devoni lug'otit turk" asari arab tilidan ilk tarjimasi turk tiliga qilingan. Shuningdek, asarning boshqa tillarga ham to'liq tarjimalari mavjud: o'zbek, uyg'ur, ozarbayjon, qozoq, inglez, nemis, xitoy, rus va eron tillariga ham tarjima qilingan.

Jahon tilshunosligi uchun asarning chop etilishi natijasida olimlar tomonidan "Devon"ga bo'lgan qiziqish kuchayib bordi va u asosidagi qator tadqiqotlar yuzaga keldi. "Devoni lug'otit turk" asari ustida ko'plab ilmiy izlanishlar olib borgan olimlardan biri nemis olimi Karl Brokelmann bo'ldi. Chunki olim "Devon" tadqiqiga bag'ishlangan o'nlab asarlar yaratdi. 1928-yilda "Devon" lug'atini nemis tilida alifbo tartibida chop ettiradi va bu nashrda so'zlarning umumiy miqdori, yuqorida ta'kidlanganidek, 7993 tani tashkil qiladi. Ushbu lug'at nashridan so'ng G'arb olimlari o'rtasida asarga bo'lgan qiziqishni orttiradi. K.Brokelmann o'zining uzoq yillik olib borgan tadqiqotlari natijasida "Devoni lug'otit turk" tili o'ra turk tili davriga mansub degan xulosani beradi. Albatta, keyinchalik mazkur fikni barcha olimlar tasdiqlagan.

Bu qadimiy yozma yodgorlikning Ahmad Rifat tomonida chop etilganidan keyin Mahmud Koshg'ariy haqida va uning mazkur asari to'g'risida turkolog olimlar xabardor bo'lishdi. Shundan keyin jahon tilshunosligida adibning "Devon"iga bag'ishlangan ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari yaratildi. Ayniqsa, turk olimlarining izlanishlari tahsinga sazovor. Jumladan, A.İ.Elöve, Ferit Birtek, F.Köprülü, Necib Asim, M.Ş.Ulkütsir kabi olimlar "Devoni lug'otit turk"da keltirilgan maqol va she'rler to'g'risida, Bangoğlu, Tahsin, A.Caferoğlu, Ali Karamanoğlu, M.Ş.Ulkütsir, Zeki Velidi Togan, R.Arıt, T.Tekin, F.Jiylan, E.Teres, N.Demir, E.Yılmaz va boshqalar asarning til xususiyatlari bilan bir qatorda Mahmud Koshg'ariyning hayoti, ijodiy faoliyatini ham yoritishgan, A.Battal devon tarjimasi borasida tadqiqot ishlari olib borishgan[4].

F.Ko'prulzoda "Devon"dagi she'riy parchalarning vazn, qofiya va mavzusiga asoslanib, asarda to'rtta – "Alp er to'nga" marsiyasi, "Yabaqu" qabilasi bilan bog'liq bir voqeа marsiyasi, kimga bag'ishlangani noma'lum bo'lgan uchinchи marsiya, Tanqut amiriga bag'ishlangan marsiya borligini qayd etgan[5].

"Devoni lug'otit turk" bilan shug'ullangan rus olimlaridan eng ko'p ilmiy izlanishlar olib brogan turkologlardan bir V.V.Bartold ilk bor 1921-yilda Mahmud Koshg'ariyning "Devon"i xususida o'zining ma'ruzasini o'qigan. Adibning "Devon"idan joy olgan tilshunoslikka bag'ishlangan nazariy qarashlari to'g'risida esa S.E.Malov ilmiy tadqiqot ishlari olib borgan va devondagi she'rлarni rus tiliga tarjima qilgan. Shundan keyin, 1926-yilda turkolog K.K.Yudaxin va arabshunos olim E.A.Shmitlar bilan birkalikda ushbu devonga asoslangan holda "Qadimgi turkiy til lug'ati" nomli kitobni tuzib chiqadilar.

"Devoni lug'otit turk" asarining eski turkiy til taraqqiyotidagi o'rni beqiyos darajadadir. Bu haqida rus tilshunosi A.M.Sherbak Mahmud Koshg'ariyning "Devoni lug'otit turk" asariga materialning hajmi jihatidan teng keladigan biror asar yo'q, "Devon"ning lug'at deb atalishi

uning asl mazmuniga uncha mos kelmasligini ta'kidlaydi. Chunki bunda turkiy tillar grammaticasidan juda keng ma'lumotlar keltirilgan bo'lib, qabilalarning joylashish xususiyati, geografik va boshqa til ma'lumotlari mavjud degan fikrlarni bergan edi.

Ozarbayjonlik turkologlar e'tiboriga tushgan "Devon" yuzasidan yana ko'plab tadqiqot ishlari olib boriladi. Jumladan, G.A.Bayramov asardagi frazeologik birliklar haqida o'z maqolasini e'lon qiladi. "Devoni lug'otit turk" bibliografiyasi bilan olim R.Askar shug'ullangan. Ushbu bibliografik ko'rsatkichda asarning o'rganilishi masalalariga oid ma'lumotlar berilgan bo'lib, olim so'z yasalishi, so'z turkumlari, Grammatik kategoriyalar bo'yicha ham izlanishlar olib borga, uning qator maqolalari e'lon qilingan[6]. Bundan tashqari, olim R.Askar "Devon" tarjimasi bilan ham shug'ullangan, asarni rus va ozarbayjon tillariga tarjima qilgan.

Tilshunos U.Isabekovaning ta'kidlashicha, nemis sharqshunos olimlaridan biri Markart tarixchi olim Miller, arabshunos Gensler bilan birga 1931-yilda "Devon"da keltirilgan lingvistik xaritani o'rganishga harakat qilganlar. Biroq ular asarning o'ziga murojaat qilmaganliklari sababli xaritani to'liq o'zlashtira olmaganlar. V.Radlov, G.Bergshtrasser, F.Xommel, O.Pritsak, I.Xavenshild kabi tilshunoslар tadqiqotlarida turkiy tillarning tarixiy xususiyatlari "Devoni lug'otit turk" asariga tayanilgan holda tadqiq qilingan. Xusan, V.Radlov turkiy tillar dialektlariga oid dalillarni keltirishda "Devon"ga murojaat qiladi. G.Bergshtrasser Mahmud Koshg'ariy asaridagi so'z yasalishi haqida tadqiqot olib brogan bo'lsa, F.Xommel turkiy tillarga xos maqollarni o'rganishda asardan keng foydalangan. O.Pritsak "Koshg'ariyning bolgar tili haqidagi bayonoti" nomli maqolasida olimning tillarning hududlarda tarqalishi, areal lingvistika bo'yicha qarashlariga munosabat bildirgan. I.Xavenshild esa Mahmud Koshg'ariy tomonidan qo'llangan hayvon nomlari (zoonimlar)ni lingvistik va madaniy-tarixiy nuqtayi nazardan o'rgangan. Muallif "Devon"da 250 ga yaqin uy hayvonlari va yavvoysi hayvonlar nomlari qayd etilgani, shuningdek, ularda nafaqat turlar, balki hayvonlarning jinsi, Yoshi bilan bog'liq maqol va matallar xalqning chovchilik va ovchilik bilan bog'liq tushunchalarini tasavvur qilishga imkon berishini e'tirof etadi. Amerikalik taniqli turkolog olim, Chikago universiteti professori Robert Denkof Mahmud Koshg'ariyning "Devon"ini ingliz tiliga tarjima qilish bilan bir qatorda, asar to'g'risida ko'plab maqolalar chop ettirgan. 2008-yilda muallifning "Mahmud Koshg'ariydan Avliyo Chelabiygacha" nomli kitobi nashr etilgan va bu kitobdan o'rın olgan maqolalarning bir nechtaси Mahmud Koshg'ariyning "Devoni lug'otit turk" asariga bag'ishlangan. J.Kelli, A.Bombaji, R.Ermerslarning maqolalarida ham "Devon"ning til xususiyatlari yoritilgan. Rus-sovet tilshunoslari V.V.Bartold, S.E.Malov, I.I.Umnyakov, A.N.Kononov, A.M.Sherbak, S.G.Klyashtorniy, E.R.Tenishev, I.V.Stebleva, T.A.Borovkova, Y.A.Zuyevlar "Devoni lug'otit turk" asarining fonetik, leksik, grammatic xususiyatlarini atroflichcha tadqiq qilganlar[7].

"Devoni lug'otit turk" asarining o'rganilishida turkologiyada boshqird tilshunoslarning ham amalgaloshirgan bir qator ishlarni alohida ta'kidlamaslikning iloji yo'q. T.M.Garipov, K.Z.Axmerov, Dj.G.Kiyekbayev, E.F.Ishberdin, L.Samsiteva, A.Kulanchin[8] kabi tilshunos olimlarning ilmiy tadqiqot ishlari eski turkiy til va hozirgi boshqird tili munosabatlarni yoritishga qaratilgan bo'lib, bu tadqiqotlarning asosiy qismi leksik birliklar va frazeologizmlar tahliliga bag'ishlangan. Z.A.Xabibullinaning "Devon"ni o'rganilishini yangi bosqichga olib chiqqanligini e'tirof etish lozim. Shuningdek, muallifning o'zi va shogirdi A.Haziyevaning tadqiqotlarida "Devoni lug'otit turk"

leksikasi va terminologiyasi sinchkovlik bilan tadqiq qilingan[9].

Tatar turkologlari ichidan Jamil Validov o‘zining “О словаре турецких языков Махмуда Кашгарского”, A.Xalidov “Düvan Lügat ит-Түрк“ в сравнительном освещении с его арабским прототипом“, “Словари Исхака ал Фараби и Махмуда Кашгари (из истории лексикографии в Средней Азии X-XI вв.)” nomli maqolalariida “Devoni lug‘otit turk” haqida ma’lumotlar berib o‘tadilar. Shuningdek, ushbu maqolalarda tatar tili va eski turkiy tillar bilan munosabati haqida to‘xtalib o‘tilgan. A.M.Krimiskiy esa o‘zining “Turkiylar, ularning til va adabiyoti” nomli asarini “Devon”ga bag‘ishlagan.

Turkman tilshunos olimi S.Axalli 1958-yilda yoqlangan “Махмуд Кашгаринынг созлуги ве түркмен дили” mavzusidagi dissertatsiyasi 2 bob va xulosadan iborat bo‘lib, dastlabki bobda “Devoni lug‘otit turk”ning fonetik, leksik va morfologik jihatlari haqida so‘z borgan, ikkinchi bobida esa “Devon” bilan turkman tilining leksik fondi qiyosiy o‘rganganligi aks etgan. A.Barovkovning 1966-yilda yoqlangan “Грамматический очерк языка “Дивану лугат-ит түрк” Махмуда Кашгари” nomli nomzodlik dissertatsiyasining birinchi bobni chigil tilining grammatic

sharhiga bag‘ishlangan. Ushbu dissertatsiyada chigil tilining fonetik va morfologik sathlari ochib berilgan. Ishning ikkinchi bobida esa Mahmud Koshg‘ariy tili, turkiy tillarni izohlashdagi uslubi va qarashlariga alohida to‘xtalgan. Bundan tashqari, asarning fonetik terminalogiyasiga, lab undoshlari hamda cho‘ziq unlilarga bag‘ishlangan bir qator maqolalar ham chop ettirgan. 1990-yili Qozog‘istonda Valeriy Uygurovich “Собственные имена в памятнике XI в “Дивану лугат-ит түрк” Махмуда Кашгарского” nomli nomzodlik dissertatsiyasi yoqlangan. Dissertatsiyada “Devoni lug‘otit turk” asaridagi onomastik birliklar tadqiqi, antronim, toponim, etnonimlar atroflicha tahlil qilingan bo‘lib, ularning etimologiyasiga e’tibor qaratish kabi masalalar ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, “Devoni lug‘otit turk”dagi atoqli otflarning ssstruktur-grammatik ahamiyatini shakllantirish, atoqli otlardan antroponim, etnotoponimlarning hosl bo‘lish jihatlariga ham alohida to‘xtalib o‘tilgan.

**Xulosa va takliflar.** Demak, dadil aytish mumkinki, o‘n asrlik qadimiy tarixga ega bu noyob yozma yodgorlik hali ham o‘z ahamiyatini, qimmatini yo‘qtgan emas. Jahon tilshunoslari tomonidan bu durdonha asarning lingvistik xususiyatlari yanada kengroq o‘rganish hozirgi tilshunoslikning muhim maslalaridan biri bo‘lib qolmoqda.

#### ADABIYOTLAR

1. Xudoberdiyev J. Mahmud Koshg‘ariy hayoti va “Devonu lug‘otit turk” asari bo‘yicha yaratilgan asarlar ko‘rsatkichi. — Toshkent: Akademnashr, 2011. —B. 158.
2. Xudoberdiyev J. Mahmud Koshg‘ariy hayoti va “Devonu lug‘otit turk” asari bo‘yicha yaratilgan asarlar ko‘rsatkichi. — Toshkent: Akademnashr, 2011. —158 b.
3. Абдураҳмонов Ф. "Девону лугатит түрк" асарининг ўрганилиш тарихидан // Ўзбек тили ва адабиёти. —Тошкент, 2009. № 6, —Б. 49-51.
4. Elöve A.İ. Divanü Lugatit-Türk teki halk şíirleri// Türkün, 1936, sa yı, s. 54-59; sa yı 7, s. 65-72; sa yı 8, s 65-72; 1937, sa yı 8, s. 1-8; sa yı 10, s. 32-40; sa yı 11, s. 29-38.; Ferit Birtek. En eski Türk Sa vları. Divanu Lügat-it-Türk'ten Derlemeler I. —Ankara, 1944.; Küprülü F. Divanü Lügati-t-Türk // Türk Dili ve Edebiyatı hakkında araştırmalar. —İstanbul, 1934, —S. 33-34.; Necib Asım. Eski Sa vları// Edebiyat Fakültəsi Mecmuası, 1338, yıl II, sa yı 2, s. 153-159; II, sa yı 4, s. 212-228; II, sa yı 5, s.421-435; II, sa yı 6, s. 487-502.; Ülkütsir M.Ş. Büyük Türk dilcisi Kaşgarlı Mahmud. —İstanbul, 1946.; Banguoğlu, Tahsin. Kaşgariden Notlar: I, Uygurlar ve Uygurca Üzerinde // TDAY-Bulleten 1959, s. 87-113.; Caferoğlu A. Türk Dili Tarihi. —Ankara, 2001.; Karamanoğlu Ali. Türk Dili. —İstanbul, 1986.; Zeki Velidi Togan. Mahmud Kaşgari'ye ait notlar// Atsix Mecmua, 1932, N 17.
5. Xudoberdiyev J. Mahmud Koshg‘ariy hayoti va “Devonu lug‘otit turk” asarining o‘rganilishi. —Toshkent, 2010. —B. 23.
6. Asker R. Mahmud Kaşgarinin "Divanü lügat-it-türk" eseri üzre bibliografik ve grammatical gösterici. —Baki, 2008. —S.192.; Asker R. Mahmud Kaşgari ve onun "Divanü lügat-it-türk" eseri. —Baki, 2008. —S. 423.
7. Розикова Г. “Девону луготит түрк” асаридаги от лексемаларнинг семантис, функционал ва услубий хусусиятлари. Филол.фунд.д-ри ... дисс. —Фарғона, 2021. —Б.19-20.
8. Розикова Г. “Девону луготит түрк” асаридаги от лексемаларнинг семантис, функционал ва услубий хусусиятлари. Филол.фунд.д-ри ... дисс. —Фарғона, 2021. —Б.23.
9. Хабибуллина З.А. Лексика современного башкирского языка в сварнении с языком древнетюркских письменных памятников. —Уфа: БГПУ, 2008. -152 с.; Хабибуллина З.А. Древнетюркские названия житоного мира в современном башкирском языке. —Уфа, 2008. -152 с.; Хазиева А.А. Религиозномифологическая лексика словаря Кашгари М."Дивану лугат-ит-тюрк" // Филологические науки. Вопросы теории и практики. —Тамбов: Грамота, 2016 №2 (56): в 2-х ч.Ч.1. —С. 167-171; Хазиева А.А. Названия космических объектов в словаре Кашгари М."Дивану лугати-ит-тюрк" // Филологические науки. Вопросы теории и практики. —Тамбов: Грамота. 2018. №2 (80). ч. 2. —С. 383-387.



UDK: 81'1:001:303.446.2

Nafisa G'AYBULLAYEVA,  
BuxDPI, dosenti, f.f.d (PhD)  
E-mail:nafisa.ped@mail.ru

BuxDU professori, f.f.d M.K.Abuzaeva taqrizi asosida

## LINGUOCULTUROLOGY AS A SCIENTIFIC SCIENCE

### Annotation

In the article linguoculturology is studied as one of the areas of linguistic research. The concept of language and culture acquires a broad ethnographic content as a folk way of life, national character, national mentality, language is one of the unique and relevant attributes of a person through which a person cognizes himself and the world. Within the framework of the study, the interpretation of linguoculturological studies in world linguistics and Uzbek linguistics, the objects of study, are explained with examples. Some opinions were also expressed about aspects of the Uzbek language related to the national character, customs, values and traditions, which can be considered the first examples of views related to the science of linguoculturology.

**Key words:** Linguoculturology, cultural studies, mentality, intellectual, conceptuality, language picture of the world, precedent, anthropocentric research.

## ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЯ КАК НАУЧНАЯ НАУКА

### Аннотация

В статье лингвокультурология изучается как одно из направлений лингвистических исследований. Понятие языка и культуры приобретает широкое этнографическое содержание как народный образ жизни, национальный характер, национальный менталитет, язык является одним из неповторимых и соответствующих атрибутов человека, через который человек познает себя и мир. В рамках исследования на примерах объясняются интерпретации лингвокультурологических исследований в мировой лингвистике и узбекской лингвистике, объекты изучения. Также были высказаны некоторые мнения об аспектах узбекского языка, связанных с национальным характером, обычаями, ценностями и традициями, которые можно считать первыми примерами взглядов, относящихся к науке лингвокультурологии.

**Ключевые слова:** Лингвокультурология, культурология, менталитет, интеллектуал, концептуальность, языковая картина мира, precedent, антропоцентрическое исследование.

## LINGVOKULTUROLOGIYA ILMIY FAN SIFATIDA

### Annotatsiya

Maqolada lingvokulturologiya lingvistik tadqiqotlarning yo'nalishlari birlashtirilgan sifatida tadqiq etiladi. Til va madaniyat tushunchasi xalqning hayot obrazi, milliy xarakter, milliy mentalitet sifatida keng etnografik mazmun kasb etishi, til insonning o'ziga xos va o'ziga mos atributlaridan bo'lib, u orqali inson o'zini va olamni anglaydi. Tadqiqot doirasida lingvokulturologiyaning dunyo tilshunosligida va o'zbek tilshunosligidagi talqinlari, o'rGANIsh ob'ektlari misollar orqali izohlaniladi. O'zbek tilining milliy xarakter, urf-odat, qadriyatlari va an'analari bilan bog'liq jihatlari haqida ham ayrim fikrlar bildirilganki, ularni lingvokulturologiya ilmiga oid qarashlarning ilk namunalari sifatida baholash mumkin.

**Kalit so'zlar:** Lingvokulturologiya, madaniyatshunoslik, mentallik, intellektual, konseptual, olamning lisoniy manzarasi, presedent, antroposentrik tadqiqi.

**Kirish.** Lingvokulturologiya lingvistik tadqiqotlarning yosh va istiqbolli yo'nalishlaridan biridir. Bu til mentaliteti bilan bog'liq ba'zi hodisalaridan kelib chiqadi, nutqiy kommunikasiyaning milliy va madaniy o'ziga xos qoidalari o'rGANADI, tilda aks etgan xalqlarning madaniyatini, milliy xarakterini ko'rsatadi. Shu bois ham insonning tilidan uning ma'naviyati yoxud madaniyatini bilib olish mumkin bo'ladi. Inson tilni qanday o'rgangan bo'lsa, qay tarzda qabul qilgan bo'lsa uning har so'zida buning aksini ko'rishimiz mumkin. Til va madaniyat tushunchasi xalqning hayot obrazi, milliy xarakter, milliy mentalitet sifatida keng etnografik mazmun kasb etadi. Til insonning o'ziga xos va o'ziga mos atributlaridan bo'lib, u orqali inson o'zini va olamni anglaydi. Lingvokulturologiya ham inson omili markazida bo'lgan antroposentrik tilshunoslikning yetakchi yo'nalishlaridan biri sanaladi. Ushbu atama (lot. lingua – til + lot. cultura – išlov berish + yun. logos – ta'lilot) tilshunoslik, madaniyatshunoslik, etnografiya, psixolingvistika sohalari hamkorligida yuzaga kelgan, tilning madaniyat, etnos, milliy

mentallik bilan o'zaro aloqasi va ta'sirini antroposentrik paradigma tamoyillar asosida o'rGANUVCHI sohadir [8].

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Lingvokulturologiya sohasiga XIX asrda V. Fon Gumboldt o'zining "Tilning tuzilishi va insoniyat ma'naviy rivojiga ta'siri" kitobi bilan tamal toshini qo'ygan bo'lib, til va millat xususiyatlarining munosabatlari haqida qayd etgan edi. U bir necha bor, til - bu shunday organiki, inson u yordamida o'z fikrini ifodalaydi deb ta'kidlagan. Bundan tashqari, nemis olimi ko'p marta til millat ruhini ifodalaydi va shakkantiradi, olam haqidagi milliy tasavvurni ko'rsatadi hamda turli tillarning mavjudligi, turli xalqlarda tafakkur obrazining xilma-xilligi asosida bo'lishini aytadi. V.Gumboldt tillarni qiyoslashga alohida e'tibor qaratishga chaqiradi, zero uning fikricha, "ularning farqi - bu nafaqat tovush va belgilarda, balki dunyoqarashda hamdir. Ayniqsa, uning "turli tillar, o'z xususiyatlari, fikrlash va xist tuyg'uga ta'siriga ko'ra amalda turlicha dunyoqarashni ifodalaydi", "tilning o'ziga xos xususiyatlari millatning o'zligiga ta'sir qiladi, shuning uchun tilni chuqur o'rganish

tarix va falsafa insonning ichki dunyosi bilan bog'lab tushuntiradigan barcha narsani qamrab olishi kerak" kabi fikrlari keng tarqalgan. Olimning qarashlarida hozirgi kungacha ochiq qolib kelayotgan va munozarali masala – tilning madaniyatga ta'siri masalasini o'rganish maqsad qilinadi. Tilni ruhiy quvvat sifatida tushunish uning asosiy oyasi sanaladi.

Tadqiqotchilarining ta'kidlashicha, XX asrning so'nggi choragida "lingvokulturologiya" termini V.N.Teliya rahbarligidagi Moskva frazeologik maktabi asoschilarini Yu.S.Stepanov, A.D.Arutyunova, V.V.Vorobyov, V.Shaklein, V. A.Maslova va boshqa bir qator tadqiqotchilar asarlarda juda ko'p marotaba tilga olingen va tadqiq qilingan. Agar madaniyatshunoslik insonning o'z-o'zini anglashini tabiat, jamiyat, tarix, san'at va uning ijtimoiy va madaniy mavjudligini o'rgansa, tilshunoslik esa yuqorida ta'kidlab o'tilgan jihatlarni tilda namoyon bo'lishini lingvistik tomonidan ko'rib chiqadi, lingvomadaniyatshunoslik esa uning mavzusi sifatida ham til, ham madaniyat bilan o'zaro aloqada bo'lib ularning birlgiligidagi ma'nosini ifodalaydi. V.N.Teliya bu haqda shunday yozadi: "Lingvokulturologiya insoniy, aniqrog'i, insondagi madaniy omilni tadqiq etuvchi fandir. Bu esa shuni bildiradiki, lingvokulturologiya markazi madaniyat fenomeni bo'lgan inson to'g'risidagi antropologik paradigmaga xos bo'lgan yutuqlar majmuasidir".

**Tadqiqot metodologiyasi.** Hozirgi vaqtida lingvokulturologiya jahon, xususan, rus tilshunosligida eng rivojlangan yo'nalishlardan biri bo'lib, bu borada bir qancha o'quv qo'llanmalar yaratilgan. Tilshunoslarning e'tirof etishicha, ularning orasida eng mashhuri V.A.Maslova tomonidan yaratilgan o'quv qo'llamma hisoblanadi. Mazkur o'quv qo'llanmada lingvokulturologiya sohasining metodlari, ob'yekti va predmeti, yo'nalishlari yoritib berilgan, muyyan til birligini lingvokulturologik tahlil qilish namunalari ko'rsatilgan.

V.A.Maslovaning darsligida lingvokulturologik tadqiqotlarning zamonaviy yo'nalishlari tavsiflanadi, metodologik asosi yaratilgan.

Olim ushbu sohaning rivojini 3 bosqichga ajratadi:

1) fan shakllanishiga turki bo'lgan dastlabki tadqiqotlarning yaratilishi (V.Fon Gumboldt, E.Benvenist, L.Vaysgerber, A.A.Potebnya, E.Sepir kabi tilshunoslarning ishlari);

2) lingvokulturologiyaning alohida soha sifatida ajratilishi;

3) lingvokulturologiyaning rivojlanish bosqichi[12].

O'z qarashlarida olamning lisoniy manzarasini, madaniyatning asosiy konseptlari majmui bo'lgan konseptosferani, lisoniy ongni tafsiflash hamda til egalaring milliy-madaniy mentalligini aks ettiruvchi lisoniy birliklarni, insoniyatning qadimiy tasavvurlariga muvofiq keluvchi madaniy arxetiplarni, nutqiy muloqotga xos bo'lgan milliy ijtimoiy-madaniy stereotiplarni aniqlash lingvokulturologiyaning asosiy vazifalari ekanligini ta'kidlaydi. Til va madaniyatning o'zaro ta'siri muammozi etnolingvistika, etnopsixolingvistika, kognitiv tilshunoslik, lingvomamlakatshunoslik, lingvokonseptshunoslik, lingvopersonologiya kabi sohalarda ham o'rganiladi. Shu sababli ushbu sohalar lingvokulturologiyaga yaqin sohalar hisoblanadi [8].

V.V.Vorobyovning «Lingvokulturologiya: teoriya i metodika» nomli tadqiqoti gumboldtchilik nazariyasi asosiga qurilgan bo'lib, tilda o'z aksini topgan madaniyatni o'rganish Sepir-Uorf gipotezasi asosida amalga oshirilgan, L.Vaysgerber terminlaridan faol foydalanilgan edi. Ma'lumki, lingvokulturologiyada L.Vaysgerber tomonidan tilshunoslikka olib kirilgan olamning lisoniy manzarasi tushunchasi alohida o'rinn tutadi. Olamning lisoniy manzarasi voqelikni idrok etishning tilda muhrangan va muayyan lisoniy jamoa uchun

xos bo'lgan tuzilishi, olammi idrok etish va konseptuallashtirishning universal va ayni vaqtida milliy xoslangan usulidir [10]. Tadqiqotda lingvokulturologiya lingvo'lkashunoslik sohasining nazariy asosi sifatida tadqiq etiladi, sohaga "til va madaniyat munosabatlari va aloqalarini tilni vazifalarida tekshiruvchi va bu jarayonni tizimli metodlar va zamonaviy yo'nish, madaniy qoidalarga ko'ra birliklarning lisoniy va nolisoniy (madaniy) mundarijasiga jamlab, bir butun tizimi sifatida aks ettiruvchi kompleks bilimlar majmui" deb ta'rif beradi [6].

Jumladan, lingvist N.F.Alefirenkoning lingvokulturologiyaga bag'ishlangan o'quv qo'llanmasi o'n to'rt bobdan tashkil topgan. Unda lingvokulturologik tadqiq metodlari; madaniyat hamda lisoniy madaniyat; til, madaniyat, mentallik tushunchalari munosabati; olamning lisoniy manzarasi; so'zning etnomadaniy asosi, xususiyatlari, madaniy konsept va semantika; so'zning madaniy-pragmatik ma'nosi singari masalalar tavsiflangan. Muallif tilga ta'rif berar ekan, uni xalq madaniyati, psixologiyasi, falsafasi va tarixini aks ettiruvchi oynaga o'xshatadi. Olimming «Linguocultural nature of mentality» nomli maqolasi mentallik tushunchasining lingvokulturologik tabiatini tadqiqiga bag'ishlangan. Maqolada, avvalo, «mentallik», «mentalitet» terminlarining izohi berilgan. Bu izohga binoan, «Mentallik – dunyoni anglash jarayonida vujudga kelsa, mentalitet – muayyan xalq tomonidan yaratilgan dunyo manzarasi hisoblanadi. Shunday ekan, xalqning mental xususiyatlari tilda o'z aksini topadi. Demak, muayyan millat madaniyati va mental xususiyatlarni o'rganish uchun uning tilini tadqiq etish maqsadga muvofiq». Mentallik konseptiga doir qimmatli ma'lumotlar havola etilishi bilan birga lingvokulturologiyaga shunday ta'rif berilgan: «lingvokulturologiya mentallikni tasvirlashning o'zgacha bir usuli bo'lib, uni dunyo manzarasining maxsus ko'rinishi, deb ta'riflasa bo'ladi»[2].

Lingvist N.D.Arutyunova qayd qilishicha, «Lingvokulturologiyaning vazifasi til birliklarining shu til bilan bog'liq madaniyat «kodlariga munosabati asosida tushuniladigan madaniy qiymatni ochish va talqin qilishdir. Tilda madaniy xususiyatga ega birlik sifatida lingvokulturologik konsept (yoki lingvokulturema) ob'yekt qilib olinadi [1].

«Lingvokulturologiya» deb nomlangan tilshunos Z.K.Sabitovaning darsligi ham o'n besh bobdan iborat. Kitobda lingvokulturologiya tilshunoslikning yangi yo'nalishlaridan biri maqomida o'rganilgan. Undagi har bir mavzu keng ko'lamli tarzda yoritilganligini ko'rish mumkin. Shu bilan birga, darslikda til va madaniyat; lingvokulturologik birliklar, madaniy konnotasiya, madaniyat kodi, lingvokulturema, olamning lisoniy manzarasi, olamning konseptual manzarasi, rus lingvomadaniyatining asosiy g'oyalari muallif tadqiqotlari markazida turgan. Sohaga, ya'ni lingvokulturologiyaga oid terminlar izohida V.N.Teliya, V.V.Vorobyov, V.A.Maslova, V.V.Krasnix kabi tilshunoslarning nazariy fundamental qarashlari, fikrmulohazalariga murojaat qilingan. Lingvokulturologiyaning o'rganish predmeti milliy-madaniy ma'lumotni yetkazishga xizmat qiluvchi til birliklari ekanligi e'tirof etilgan. Tilshunoslikning boshqa yo'nalishlaridan lingvokulturologiyaning farqlovchi tomonlariga ham e'tibor qaratilgan [7].

Lingvokulturologiyadagi matn bilan bog'liq yana bir hodisa bu presedent matn masalasıdir. Tadqiqotchi O.E.Artemovaning so'zlarini bilan aytganda, presedent janrlar madaniy axborotning "akkumulyatori"dir. Presedent matnlari presedent birliklarning bir turi bo'lib, o'zida muayyan millat til egalariga xos bo'lgan lisoniy xotirani aks ettiradi. Hozirgi vaqtida xususan rus tilshunosligida bu borada ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan.

Ye.V.Babayevaning dissertasiyasida «shaxsiy mulkka munosabat» tushunchasining milliy-madaniy hamda lisoniy-madaniy ifodasi tadqiq etilgan. Ish rus va nemis tillarida mavjud nutq birliklarini o'rganish barobarida har ikki xalq dunyoqarashi, madaniyati asosidagi shaxsiy mulkka munosabat shaklli frazeologizmlar, aforizmlar, maqol va matallar doirasida o'rganilganligini ta'kidlash kerak. Tillarlar birliklar iyerarxik va paradigmatic munosabat asosida tahlilga tortilgan [5].

S.V.Ianova til birliklarini lingvokulturologik aspektida o'rgangan.

Ishning birinchi bobida tadqiqotning nazariy asoslari, milliy-madaniy hamda lisoniy-madaniy xususiyatlari, til birliklaridagi universal va individual xossalalar ifodasi, dunyoning lisoniy manzarasi, dunyo modeli, lison, lisoniy-madaniy tadqiqot asoslari kabi tushunchalar tavsiyflangan. So'zlar, frazeologik birliklar va ular anglatadigan ma'no nozikliklari lisoniy-madaniy aspektida tahlil etilib, matn va namunaviy matn tadqiqot ob'yekti sifatida belgilangan [10].

Ana shu g'oyalalar asosida dunyo tilshunosligida yangi fan – lingvokulturologiya vujudga keldi va XX asrning 90-yillarda maxsus soha sifatida shakllandi.

O'zbek tilining milliy xarakter, urf-odat, qadriyat va an'analari bilan bog'liq jihatlari haqida ham ayrim fikrlar bildirilganki, ularni lingvokulturologiya ilmiga oid qarashlarning ilk namunalari sifatida baholash mumkin. Jumladan, S.M.Mo'minovning "O'zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari" mavzusidagi doktorlik dissertasiyasida o'zbeklarning o'ziga xos muloqot xulqi ijtimoiy-lisoniy nuqtai nazardan tadqiq etilgan. Tadqiqotdan muloqot xulqining milliy xarakter bilan aloqador jihatlari haqida, shuningdek, uning inson psixologiyasi va fiziologiyasi bilan bog'liqligi xususidagi qarashlar ham o'rinni olganki, buni til tizimiga antroposentrik yondashuv sifatida baholash mumkin [12].

Prof. Sh.Safarovning 2006 yilda nashr qilingan "Kognitiv tilshunoslik" nomli monografiyasi ayni sohaga oid nazariy qarashlarning o'zbek tilshunosligiga kirib kelishida muhim qadam bo'ldi. "Semantika" nomli monografiyasida lingvokulturologiya, xususan, lingvomadaniy konseptga doir nazariy qarashlar yanada keng talqin etildi.

M.X.Hakimovning "O'zbek tilida matnning pragmatik talqini" mavzusidagi doktorlik dissertasiyasida o'zbek tilshunosligida lingvistik pragmatikaga oid nazariy masalalar birinchi marta monografik aspektida tadqiq etildi [13]. Mazkur tadqiqotda lingvistik pragmatikaning tarixiy ildizlari, uning umumnazariy masalalari, ushu bo'nalishning tilshunoslikning boshqa bo'nalishlari bilan munosabati haqida babs yuritilgan, matn semantik tuzilishida qatnashuvchi pragmatik mazmun turlari o'zbek tilidagi matnlar misolida tadqiq etilgan. Dissertasiyada garchi lingvokulturologiya termini qo'llanmagan bo'lsa-da, lingvistik pragmatika nazariyasi tilning milliy o'ziga xosligini ko'rsatib berishda muhim rol o'ynashi alohida ta'kidlanadi.

Lingvokulturologiyadagi matn bilan bog'liq masalalaridan biri sentensiyadir. Sentensiya axloqiy-ta'limiylar xarakterdagi til birligi bo'lib, o'zida intertekstuallikni namoyon etadi. Z.I.Saliyeva ingliz va o'zbek tillaridagi sentensiyalarning milliy-madaniy xususiyatlarini qiyosiy aspektida o'rganar ekan, muayyan xalq tarixida katta o'rinni tutgan mutafakkirlarning asarlarida bayon qilingan didaktik g'oyalarning yozuvchi tomonidan o'zgargan shaklda ifodalishini intertekstuallikning bir ko'rinishi sifatida baholaydi. Tadqiqotchi bunga misol sifatida Oybekning "Navoiy" romanida Navoiy tomonidan aytilan didaktik mazmunli matnlarni keltiradi.

R.S.Ibragimovning nomzodlik dissertasiyasida esa ayol konseptining o'zbek va fransuz tillarida ifodalishni yo'llari tadqiq etilgan [14].

Prof. E.Begmatov 2013 yilda e'lon qilgan maqolasida o'z e'tiborini "antroponimik birliklarda antroposentrik usul uchun material beradigan xususiyatlari"ni aniqlashga qaratgan. Olimning ta'kidiga ko'ra, antroponimlarning inson xoxishi va faoliyati bilan bog'liq ekanligi, ularda insonning ehtiyoji va ijodi namoyon bo'lishi, inson nomida qadimiy davr kishilarining madaniy-ma'naviy va etnik qarashlari o'z ifodasini topganligi, umuman, ismlar xalqning ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy-maishiy turmushi bilan bog'liq ekanligi ularni antroposentrik paradigma asosida o'rganish uchun asos bo'la oladi.

**Tahlil va natijalar.** Hozirgi kunda lingvokulturologiyani chetlab o'tgan holda tilshunoslikda biror ishni amalga oshirish qiyin. Uni rad kilish ilmiy jamiyat etnosiga mos kelmaydi.

Mazkur tadqiqotlar doirasida salomatlik va kasallik konseptlarining lingvokulturologik tahlillari mufassal amalga oshirilmagan. Demak, bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, o'zbek tilida so'zlashuvchi til egalari uchun salomatlik va kasallik konsepti mazmunining milliy xususiyatlarini lingvomadaniy jihatdan talqin qilish zaruratini belgilaydi.

Lingvokulturologiya fanining asoschilaridan biri, Moskva frazeologik maktabining rahbari V.N.Teliyaning yozishchicha, tilning frazeologik tarkibi "lingvomadaniy jamaa milliy o'zligini ko'radigan ko'zgudir". Frazeologik birliklar inson faoliyati uning salomatligi bilan bilan bog'liq hattiharakatlar va tushunchalarni ifodalar ekan, shunday hodisalarini emotsiyal-ekspressiv, obrazli ifodalash ehtiyoji asosida ularni til va madaniyat munosabatida tadqiq etish yanada dolzorblik kasb etadi. Aynan frazeologizmlar til egasining o'z salomatlik va kasallik tushunchalarining o'ziga xos ko'rishini namoyon etadi. Masalan, o'lim semasiga oid iboralar dunyodan ketmoq, jahondan o'tmoq, olamdan o'tmoq, qazo qilmoq, ko'z yummoq, o'sal bo'lmoq, joni uzildi, joni chiqdi, tunni bitdi, nafasi chiqmadi.

Kasallik semasiga oid iboralar: yetti buklamoq, jon berib, jon olmoq, suyak-suyagidan o'tmoq, jon bor, ko'zi ochiq, joni xalqumiga keldi, jonnini kuydirmoq, mijja qoqmaslik, miyasi aynigan, yuragi xun bo'ldi, holdan ketmoq, ko'zi yorimoq, ko'zi tirik, ko'zini ochmoq, ko'z tegmoq, mazasi qochdi, me'dasi buzilmoq, og'iroyoq, ruhi sinmoq, tinka-madori qurigan, tobi yo'q, esidan og'moq.

Salomatlik semasiga oid iboralar: kasalliga yengillashdi, yengil tortdi, yostiqdan bosh ko'tarmoq, joniga oro kirmoq, ko'zi yonmoq, madori baquvvat kabi iboralar millatning mahsuli sifatida milliy madaniy manzarani kognitivpragmatik aspektlarda bayon etadi.

Ma'lumki, xalq madaniyati va mentalitetining qimmatli ma'lumotlar manbai bo'lgan tilning frazeologik fondini boyitishda yozuvchilarining o'rni beqiyosdir. O'zbek milliy frazeologizmlarining boyishi va rivojlanishiga eng katta hissa qo'shgan yozuvchilardan biri A.Qahhordir. Yozuvchining xalq iboralaridan foydalanish mahorati, uning frazeologik novatorligi qator ilmiy tadqiqotlarda o'rganilgan. Chunki, A.Qahhor qo'llagan frazeologizmlarning aksariyatida madaniy-milliy konnotasiya kuchli, ularda milliy madaniyatning ruhi, "izi" mavjud. "Xalqning so'z donoligini mukammal egallagan yozuvchi o'z hikoyalarida iboralardan muntazam va ifoda maqsadiga favqulodda muvofiq tarzda foydalanadi. O'zi ham yangi iboralar yaratadi, ammo bu yangi iboralar xalqning o'zida mavjud bo'lgan iboralarning modeliga asoslangan bo'ladi. Shuning uchun yozuvchining yangi iborasini o'qiganda, xalqning o'zidagi tegishli ibora ham esga tushadi. Aytish mumkinki, yozuvchi bitta iborani qo'llaydi, lekin yozuvchi maqsadi uchun bir paytning o'zida ikkita ibora "ishlaydi". Mana bir dalil: "Eshakni yashirsangiz, hangrab sharmanda qiladi ("Ikki yorti bir butun" hikoyasi). Ayni ibora Qahhorniki, bu iborani o'qish bilan "Kasalni

yashirsang, isitmasi oshkor qiladi” degan xalq iborasi esga tushadi, ya’ni tekstda implisit ravishda bu ibora ham ishtirok etadi, uni birinchi ibora ovozsiz “chaqiradi”. Bu – qahhorona mahorat”.

O’zbek oilasida bola tug’ilishi bilan chilla davriga katta e’tibor beriladi. Farzand ko’rgan ayol va uning chaqalog’i chilla davrida maxsus sharoitda saqlanib, turli insjinslar va kasalliklardan himoya qilinadi. An’anaga ko’ra ona va chaqaloq 40 kungacha uydan chiqmasligi, bolali uyga begona odam kirmasligi va chillali uyda chiroq o’chmasligi kerak. Chilla an’anası “tuqqaniga qirq kun bo’ldi” ma’nosidagi chillasi chiqdi iborasi bilan ifodalanadi.

Insonning dunyoni bilishida o’xshatish-qiyoslash benihoya katta o’rin tutadi. Ikki yoki undan ortiq predmet yoki tushunchani o’xshash yoki farqli jihatlarini aniqlash maqsadida qiyoslash, taqqoslash tashqi dunyoni bilishning eng keng tarqalgan mantiqiy usullaridan biri sifatida inson faoliyatining deyarli barcha sohalarida kuzatiladi. Bu behad muhim mantiqiy kategoriya, tabiiyki, tilda ham o’z aksini topadi

Masalan, o’zbeklarda xushbichim qomatlari ayollarga sarvday, turklarda gavdali ayollarga at gibi o’xshatishi qo’llaniladi. Hindlarda sohibjamol qizning yurishi filning ulug’vor va mahobatli qadam tashlashiga muqoyosa qilinadi. Yoki hind ayoli sigirqa qiyoslanganda u xursand bo’ladi, chunki hind xalqining idrokida sigir go’zallik timsoli sifatida gavdalananadi. Shuningdek, Hindistonda sigir muqaddas hayvon sanaladi.

O’zbek lingvomadaniyati uchun ayollarning yuzini oyga, olmaga, ba’zan kulchaga, inglizlarda olchaga, atirgulga (as red as a cherry /rose/), xitoy va koreylarda o’rikka, majnuntol novdasiga qiyoslash me’yor hol hisoblanadi.

Xitoy va Koreyada ayollarni ilonga o’xshatilsa, ular xursand bo’lishadi. Chunki, mazkur lingvomadaniyatlarda ilon donolik, go’zallik va epchillik ramzi hisoblanadi.

Ayni tushuncha turli lingvomadaniyatlarda o’zgacha ifoda vositalari, ya’ni boshqacha o’xshatish etalonlari vositasida aks ettirilishi mumkin. Masalan, sog’lom, baquvvat kishilarni o’zbeklar filga, inglizlar otga muqoyosa qilishadi: filday baquvvat, strong as a horse. Yoki o’zbeklar tinimsiz ishlaydigan, mehnat qiladigan kishilarni chumoliga (chumoliday), turklar esa ariga o’xshatadilar (ari kabi).

Dunyoni obrazli qiyoslash maqsadida istifoda etiladigan ba’zi o’xshatish etalonlari boshqa lingvomadaniyatlarda frazeologizm yoki metafora ko’rinishida

namoyon bo’lishi ham mumkin. Masalan, o’zbek madaniyatida “imillamoq, sudralmoq” ma’nosida qo’llaniladigan toshbaqday etalonni koreys madaniyatidagi kabo’k thata (toshbaqa minmoq) frazeologizmiga muqobil bo’ladi. O’zbek tilida “semirmoq”, “ko’p ovqat yemoq” ni anglatgan cho’chqaday o’xshatish etalonni koreys tilida twyeji (cho’chqa) ko’rinishida metaforaga aylanganini ko’rish mumkin. Yoki rus tilida “qo’rroq” ma’nosini kak zayas o’xshatishi bilan, turk tilida tavşan yürekli metaforasi bilan ifodalanadi.

Har bir lingvomadaniyatlarda shu xalqning mentalitetini, uning o’ziga xos milliy-madaniy xususiyatlari aks ettiruvchi turg’un o’xshatishlar mavjud bo’ladi. Masalan, “o’zbek tilidagi musichaday beozor (odam) o’xshatishini boshqa tillarda uchratish qiyin. Musichaday o’xshatish etalonida milliy-madaniy konnotasiya mavjud, unda “beozorlik” belgisining o’zbekka xos ta’kidi yaqqlar o’z ifodasini topgan. Musichaga xos yumshoq tabiat va harakat o’zbek idrokida ijobji talqin topishidan tashqari, bu mushfiq qush haqidagi islomiy rivoyat ham musichaday etalonining an’anaga kirishiga ta’sir etgani ehtimoldan holi emas. Ana shu tariqa musichaday beozor turg’un o’xshatishi beozorlikning o’zbekcha o’lchovi sifatida tamoman milliy obraz maqomini olgan”. Lekin hamma lingvomadaniyatlarda ham shunday emas. Masalan, ingliz tilida “beozorlik” timsoli sifatida “kabutar” qabul qilinganini kuzatish mumkin: As harmless as a dove (Musichaday beozor). Yoki koreys tilida “sigirday beozor” birikmasini uchratish mumkin.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa o’rnida aytish jomzki, ona tilimizning mukammal talqinini yaratishda yuqoridagi kabi lingvokulturologik tahlil tamoyillarini yanada kengaytirish, ulardan samarali foydalanish bugungi o’zbek tilshunosligining dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Zero, til va madaniyat ijtimoiy ahamiyatga ega bo’lgan axborotni saqlash, avloddan avlodga uzatish, madaniyatlararo muloqotni yuzaga keltirish va uni rivojlantirish xususiyatiga ega bo’lgan noyob hodisadir. Bunda u ham madaniyat mahsuli, ham uning mavjudligining asosiy sharti sifatida madaniyat qiyofasini belgilovchi, vorisiyligini tahrinlovchi omil vazifasini bajaradi. Shu boisdan ham o’zbek tili tizimi dunyo tilshunosliklarida yetakchi paradigmardan biri hisoblangan antroposentrism asosida tadqiq etilishi lozim. Bu o’zbek tilshunosligi rivojini yanada yuqori pog’onaga ko’tarishi bilan birga tilimizning jamiyat, madaniyat, milliy mentalitet va ruhiyat bilan uzviyiligin ko’rsatishga xizmat qiladi.

## ADABIYOTLAR

- Артемова О.Е. Лингвокультурная специфика текстов прецедентного жанра “лимерик”: На материале английского языка: Дис... канд. филол. наук. – Уфа: БашГУ, 2004. – С. 24.
- Алефиренко Н.Ф. Лингвокультурология: ценностно-смысловое пространство языка: Учебное пособие. 3-е изд. – М.: Флинта: Наука, 2013.
- Арутюнова Н.Д. Типы языковых значений. Оценка. Событие. Факт. –М.: Наука, 1988.
- Багдасарова Н.А. Соотношение вербализованных эмоций в русском и английском языках: Дисс. ... канд. филол. наук. – М., 2004.
- Бабаева Е.В. Культурно-языковые характеристики отношения к собственности (на материале немецкого и русского языков). Дисс. ... канд. филол. наук. – Волгоград, 1997.
- Воробьев В.В. Лингвокультурология (теория и методы): монография. – М.: Изд-во РУДН, 2006.
- Сабитова З.К. Лингвокультурология: Учебник. –М.: Флинта, 2013.
- Вильмс Л.Е. Лингвокультурологическая специфика понятия «любовь» (на материале немецкого и русского языков): Дисс. ... канд. филол. наук. – Волгоград, 1997.
- Махмудов Н. Оламнинг лисоний манзараси ва сўз ўзлаштириш // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2015. – №3. – Б. 3-12.
- Иванова С.В. Лингвокультурологический аспект исследования языковых единиц: Дисс. ... док. филол. наук. – Уфа, 2003.
- Маслова В.А. Лингвокультурология: Учебное пособие. – М.: Academia, 2001. – 208 с.
- Мўминов С. Ўзбек мулокот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари: Филол. фан. док-ри дисс. – Тошкент, 2000. – 236 б.
- Хакимов М. Ўзбек тилида матнинг прагматик талқини. ДДА. Тошкент, 2001.-39 б. 80.
- Ибрагимова Р.С. Француз ва ўзбек тилларида АЁЛ концептининг лингвокогнитив тадқики: Филол. фанлар номзоди... дис.автореф. –Тошкент, 2012.



**Ulug'bek JABBAROV,**  
Toshkent Davlat pedagogika universiteti dotsenti v.b., Phd  
E-mail: jabborovulugbek1985@gmail.com

Jizzax davlat pedagogika universiteti dotsenti A.Jabbarova taqrizi asosida

## ANTHROPOLINGUISTIC ANALYSIS OF COMPARATIVE PHRASEOLOGICAL UNITS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

### Annotation

This article deals with the anthropological analysis of comparative phraseological units in English and Uzbek languages.

**Key words:** Linguistics, phraseological units, anthropolinguistic analysis, English and Uzbek languages, lexicology, cognitive linguistics, linguopragmatics.

## INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI KOMPARATIV FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING ANTROPOLINGVISTIK TAHЛИI

### Annotatsiya

Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi komparativ frazeologik birliklarning antropololingvistik tahlili haqida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Lingvistika, frazeologik birliliklar, antropololingvistik tahlil, ingliz va o'zbek tillari, leksikologiya, kognitiv tilshunoslik, lingvopragmatika.

## АНТРОПОЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ СОПОСТАВИТЕЛЬНЫХ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

### Аннотация

В данной статье проводится антропологический анализ сравнительных фразеологизмов английского и узбекского языков.

**Ключевые слова:** Языкознание, фразеологизмы, антрополингвистический анализ, английский и узбекский языки, лексикология, когнитивная лингвистика, лингвопрагматика.

**Introduction.** Currently, many scientists are engaged in the study of issues related to the comparative study of the phraseological fund of different languages. The growing interest of scientists in this field of knowledge is due to the complex structure and specificity of the semantics of phraseological units, which reflects the mentality, cultural characteristics, traditions and customs of the people who speak this language, as well as the perception of the surrounding world as a whole.

A large number of phraseological studies have been carried out within the framework of the anthropolinguistic approach, since the description and comparison of phraseological units that characterize a person and his activity make it possible to analyze the ways of expressing any information in different languages, as well as to formulate conclusions about the linguocultural features and the linguistic picture of the world of people who speak certain language.

This work is devoted to a comparative study of the semantic features of English and Uzbek phraseological units that describe a person in terms of his appearance, namely, characterizing a person's face. In recent years, phraseological units of different languages have been subjected to comparative research, languages can be either genetically related or not (for example, like Uzbek and English). Such an approach to the study of phraseological units is quite understandable; when compared, features similar and different between languages are most clearly revealed. "The way of seeing the world through linguistic images captured in the phraseological system, being deeply national, rests, however, on common (i.e. universal) logical-psychological and proper linguistic foundations for all people" [D.O. Dobrovolsky, 70, p. 334].

A comparative analysis of linguistic phenomena makes it possible to establish the typological similarities of languages with different structures, regardless of their origin.

**Literature review.** The results of comparative studies are widely used in the methodology of teaching foreign languages, in teaching a number of subjects, such as: comparative typology of native and foreign languages, theory and practice of translation; as well as in lexicographic practice.

The significance of the comparative analysis of phraseological units is indicated by domestic linguists: R.A.Glazyrin, D.O.Dobrovolsky, A.D.Reichshtein and others, noting that the results of the comparative analysis serve as the initial basis for further typological research.

Synchronous comparative analysis makes it possible to give a qualitative and quantitative description of the phenomena under study, to identify similar and different features in the compared languages, all this in total creates, as noted by many researchers of phraseology, "preconditions for the development of a general theory of phraseology". [L.I.Roizenzon, Y.Y.Avaliani, R.A.Glazyrin, D.Dobrovolsky, Z.M.Solodukho].

The study of the interaction of phraseological units in languages of different structure is devoted to the works of such well-known linguists: D.Arakina, Gatiatullina, A.V.Kunina, L.I.Roizenzon, E.M.Solodukho, I.I.Chernysheva and others.

In recent decades, works have been written on the comparison of phraseological systems of genetically different languages (works by E.F.Arsentieva, Y.A.Dolgopolov, E.M.Solodukho, G.K.Gizatova, A.N. Lankina, D.M.Mardanova, G.B.Mardanova, G.Kh.Aleeva, Z.Kh.Nurizyanova, F.Kh.Tarasova and others).

However, until now, not all groups of phraseological units in languages of different structures have been fully explored. We consider phraseology as a separate subsystem of language and thus as an integral part of the science of language. Phraseology, like lexicology, has its own subject, methodology and problems.

**Research Methodology.** The units of these subsystems of the language are in the closest connection with each other, since phraseological units are created on the basis of lexical units and phraseology, in turn, enriches the lexical composition of the language due to the phenomenon known in linguistics under the term "phraseological derivation".

The author sees the main intralingual reason for the emergence and spread of pair combinations in people's need for means of generalization and amplification. S.A.Rakhshmir considers the modeling of phraseological units as one of the types of language abstraction and identifies models of phraseological units of the studied group and also determines a number of features that distinguish these units from paired combinations [4].

She distinguishes the following main features: 1) logical feature (contradiction in their semantic structure), 2) structural feature (word combinations and phrases represent 3) semantics (there is a rethinking of the components).

Analyzing phraseological units of the English language, N.M.Sidyakova dealt with the study of phraseological units of the above microsystem, but only one group of phraseological units based on the correlation of components - comparative units was subjected to a fairly complete analysis.

Analysis and results. Moreover, the study of a separate microsystem in comparison gives more significant results than the study of the entire phraseological system of a single language, which is complex and multifaceted. The basis of such units in the two studied languages is the opposition in their semantic structure. Differences in objective reality are reflected in logic in the form of incompatible concepts, and in language in antonymic meanings of words.

Thus, systemic antonymy penetrates phraseology and becomes a model for the formation of original phraseological units. We distinguish them into a separate microsystem, based on: firstly, the productivity of such units in two languages and secondly, the structural and semantic characteristics allow us to identify them as a special subspecies of phraseological units.

In the two compared languages, they are represented by phraseological units that are structurally equivalent to a phrase and a sentence (simple and complex). Phraseological units with antonymous components in this work are understood as phrases or sentences formed on the opposite or inconsistency of the meanings of the components, fixed in the studied languages in constant use.

The phraseosemantic group "face of a person" has 48 phraseological units of the English language and 45 units of the Uzbek language. In the explanatory dictionary edited by D.V.Dmitriev, the following definition of the concept of "face" is given: "this is the part of the human head on which the mouth, nose, eyes are located" [3].

Guided by this definition, we selected phraseological units in the group under consideration that characterize a person's face as a whole, for example, complexion or emotions reflected and changing facial expressions, as well as everything that is located on the face, eyes, nose, mouth, beard, etc.

When describing a person's appearance, people tend to pay attention first of all to the face, since the person's face reflects his emotions and intellectual abilities.

There is an ancient teaching called "physiognomy", according to which, one can determine the character,

personality type, state of health and internal qualities of a person by his appearance and especially by his face.[5]

The existence of this doctrine suggests that people have been interested in studying the external characteristics of a person's face since ancient times, and this interest was expressed in the language. The above facts explain the multiplicity of phraseological phrases that point specifically to certain facial features of a person.

Here are some examples from English:

knit one's brows - frown eyebrows (wrinkle one's brow by frowning);

a poker face - a stone, impenetrable face (describes someone whose face does not show what they are thinking or feeling);

a long face - sour look (looking sad);

pull / make a face as long as a fiddle - the face stretched out (to look very surprised);

a five o'clock shadow - stubble on the face by the end of the day (beard stubble that is visible late in the day, usually around 5 o'clock, on men who have shaved their faces that morning);

eyes (as) big as saucers - big eyes, eyes like bowls (very big eyes);

designer stubble - weekly stubble, specially left to create an image of a sloppy guy (a beard (= hair on the chin) that has grown for one or two days and is then kept at this length in order to look fashionable), etc.

The Uzbek phraseological units that characterize a person's face include such turns as:

written on the forehead / face (inform.)

- easy to identify by appearance;

there is no blood in the face / there is no blood in (on) the face (there was not) (colloquial, express) - someone is very pale;

pale as death/pale as a sheet/chalk/death/dead (express)

- very pale stone face (colloquial)

- a motionless, lifeless face, without expressing any emotions; the muzzle of a brick asks (roughly simple.)

- about someone who is unpleasant, unsympathetic, disgusting with a rude, impudent facial expression;

sponges with a bow (colloquial, joke.)

- about a small mouth, mostly female, with a sharply defined line of the upper lip;

make a sour face (make a sour face) (iron.)

- Express your dissatisfaction, act up, etc.

When selecting phraseological units for this study, we are guided by the so-called "broad approach" and consider not only nominative language units, but also communicative ones, thus including proverbs and sayings in phraseological units.

Such an approach to the comparative study of the phraseological fund of the two languages allows us to most fully represent the variety of specific and universal properties characteristic of the English and Uzbek languages.

It is worth noting that in English the phraseological-semantic group "face" does not include proverbs and sayings.

In the Uzbek language, the group under consideration consists of 21 phraseological units and 24 proverbs.

Most proverbs focus on the eyes of a person:

An eye with a veil, a mouth with a yawn;

The eyes are the mirror of the soul;

Eyes like bowls, but do not see a crumb;

Love begins with the eyes;

Eagle eyes and mosquito wings;

Good with eyes, but not good with speeches.

Many proverbs characterizing a face focus on the fact that a beautiful face does not always speak of the beauty of a person's spiritual qualities, but, on the contrary, very often misleads others:

From the face - a testicle and inside - a talker;  
 With a face - a kid and with a mind - a beast;  
 Don't look at the face, look at the custom;  
 Not he is good who is handsome in face, but he is  
 good who is good in business.

Some sayings characterize an ugly mouth:

Mouth to ears, at least sew on strings;  
 The mouth is wider than the gate.

Proverbs were also identified, indicating a large nose  
 as a certain dignity of a person:

The nose is out of order;

Why not well done when the nose is cucumber?;  
 This nose has grown in space.

An analysis of English phraseological units  
 characterizing a person's face revealed a fairly large number of  
 units in which there is a certain color name. It should be noted  
 that at present, many researchers pay special attention to the  
 vocabulary denoting certain colors, examining these names  
 from the point of view of various aspects: semantic structure  
 and composition, meaning and construction of semantic fields,  
 stylistic functions, national specifics of color designations in  
 different languages.[1]

The special attention of researchers to this issue can be  
 explained by the fact that the lexical names of colors are of  
 great importance. This is especially evident in the phraseology  
 of languages, since color lexemes are able to eloquently and  
 figuratively express specific features in the perception of the  
 world by people belonging to different cultures.

Here are examples of phraseological turns of the  
 English language, in which there are names of colors:

go/turn as red as a beetroot/go beet red (Am);  
 as white as chalk/a goat/a sheet;

be green about/around the gills (humor);  
 be/go as black as thunder /look like thunder;

blue noses (Amer., colloquial);

as yellow as a guinea;

as red as cherries/red as a poppy/red as a rose/red as a  
 ruby/red as blood;

a black look;

The above examples demonstrate the fact that in the  
 phraseology of the English language, when describing the  
 appearance of a person, mainly basic color names are used,  
 such as red, black, green, yellow, blue, white.[2]

Along with this, it should be noted the variety of  
 colors used to characterize the face in English phraseology. In  
 the Uzbek language, we have identified only one  
 phraseological phrase that describes a person's face and  
 contains a color lexeme in its composition:

like (what) poppy color (folk poet.)

- about blush, complexion (like a bright red poppy).

"Poppy" color is a peripheral color name derived from  
 the name of a flower.

The use of such a lexeme as part of a phraseological  
 phrase contributes to giving a positive connotation, and also  
 makes the phraseological unit more expressive and figurative.  
 Based on the results of the analysis of the Uzbek  
 phraseological units of the subgroup under consideration, it  
 can be concluded that many phrases include lexemes naming  
 animals.

Here are some examples: crow's feet (colloquial) -  
 wrinkles on the face, fan-shaped near the outer corner of the  
 eye;

sable eyebrows - well-groomed, beautiful eyebrows;

cow's eyes - large, bulging, dark eyes;  
 crayfish eyes - bulging eyes;  
 duck nose - a long, flat nose.

To designate phraseological units with the names of  
 animals, scientists use the terms "zoomorphisms" or  
 "animalisms".

It should be noted that in phraseological studies the  
 term "zoomorphism" has several features:

1. Zoomorphisms are stable phrases that contain the  
 direct name of the animal;

2. zoomorphisms are always associated with a person  
 and give him a figurative characteristic through the use of the  
 image of an animal;

3. zoomorphism carries an assessment of the actions,  
 behavior or appearance of a person.

Zoomorphic phraseological units are the most studied  
 group of phraseological units in the Uzbek and English  
 languages, as they are associated with the traditions, customs  
 and beliefs of people, as well as with realities, legends and  
 historical facts.

Accordingly, such phraseological units are a figurative  
 component of the language picture of the world. In the English  
 language, several zoomorphic phraseological units have also  
 been identified that characterize a person's face.

The English idiom grin like a Cheshire cat has the  
 meaning "to smirk, smile like a Cheshire cat" and contains the  
 animalism "cat". In this case, the phraseological unit is based  
 on a comparison with a fabulous animal, the character of the  
 book "Alice in Wonderland" by Lewis Carroll [5].

The English zoomorphism crow's feet (wrinkles at the  
 corners of the eyes) is based on a figurative comparison with a  
 crow and can also be translated into Uzbek using the Uzbek  
 zoomorphism crow's feet. Of interest is the fact that in the  
 Uzbek linguoculture, the considered phraseological unit is also  
 built on the image of a bird, but a domestic goose.

Such a comparison of two phraseological phrases  
 containing the name of an animal shows a difference in the  
 perception of the same phenomenon in different cultures.

Among the English zoomorphisms that characterize a  
 human face, it is worth noting the phraseological unit face of  
 the dying calf (silly melancholy facial expression), which  
 literally translates as "the face of a dying calf" [1].

**Conclusion.** The considered English phraseological  
 unit has a negative appraisal, while its image is based on a  
 comparison with a calf, an animal that in Uzbek culture is  
 usually associated with stubbornness and not with stupidity. It  
 should be noted that the phraseosemantic group "face" also  
 includes phraseological units that characterize the hairline on a  
 person's face. Of particular interest in terms of its  
 figurativeness is the English unit "Newgate frill (fringe)" (a  
 beard shaved so as to grow only under the chin and jaw),  
 which is translated into Uzbek as "beard, released below the  
 chin with a shaved mustache and smoothly shaven face."

Phraseologism is built on allusion, since the lexeme  
 "Newgate" included in it is the name of the former old prison  
 in London, over time it became a household name [4].

This fact is natural in relation to the phraseological  
 composition of the Uzbek and English languages as a whole,  
 since phraseological units are expressive units of the language  
 and their main function is to colorfully display reality. A  
 comparative study of the phraseological units of the selected  
 topic also revealed a variety of semantic characteristics  
 inherent in Uzbek and English phrases.

## REFERENCES

1. John Ayto. Oxford Dictionary of English Idioms. — Oxford University Press. 393 p.
2. Longman Dictionary of Contemporary English. — Longman, Pearson Education Limited 2009. 1770 p.
3. Большой англо-русский фразеологический словарь: Около 20 000 фразеологических единиц / Кунин А. В. — 6-е изд., испрavl. — М.: Живой язык, 2005. 944 с.

4. Большой фразеологический словарь русского языка / Отв. ред. Телия В.Н.. — 4-е изд. — М.: АСТ-ПРЕСС КНИГА, 2010. 784 с.
5. Онлайн словари и энциклопедии [Электронный ресурс]. — Режим доступа: <http://dic.academic.ru> — Доступ свободный.



Anora JABBAROVA,

Jizzax davlat pedagogika universiteti dotsenti, Phd

E-mail: jabbarova.anora86@gmail.com

Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsenti v.b. U.Jabborov taqrizi asosida

## FRAZEOLOGIK BIRLIKLER SINONIMIYASI VA ANTONIMIYASI

Annotatsiya

Frazeologik birliklar sinonimiyasida har bir sinonim frazema turli obrazlarda shakllanadi va ularda umumiyl so'z-komponent bo'lmaydi. Sinonim frazemalar umumtil frazemalari asosida emas, balki til frazeologik shakllanish tizimi asosida, turli doiralarda, lisoniy va nolisoniy omillar ta'sirida yuzaga keladi. Frazeologik sinonimlar aynan yoki bir-biriga yaqin tushunchalarini turli obrazlar yordamida ifodalaydi.

**Kalit so'zlar:** Frazeologik birliklar, sinonimiya, antonimiya, frazema, ideografik frazeologik sinonimlar, semantik mikrosistema.

## СИНОНИМИЯ И АНТОНИМИЯ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ

Аннотация

В синонимии фразеологизмов каждая синонимичная фразема образована разными образами и не имеет общего слова-компоненты. Синонимические фразеологизмы образуются не на основе универсальных фразеологизмов, а на основе системы фразеологического образования языка, в разных сферах, под влиянием языковых и неязыковых факторов. Фразеологические синонимы выражают одинаковые или сходные понятия с помощью разных образов.

**Ключевые слова:** Фразеологизмы, синонимия, антонимия, словосочетание, идеографические фразеологические синонимы, семантическая микросистема.

## SYNONYMY AND ANONYMY OF PHRASEOLOGICAL UNITS

Annotation

In the synonymy of phraseological units, each synonymous phraseme is formed in different images and does not have a common word-component. Synonymous idioms are formed not on the basis of universal idioms, but on the basis of the system of phraseological formation of the language, in different spheres, under the influence of linguistic and non-linguistic factors. Phraseological synonyms express the same or similar concepts using different images.

**Key words:** Phraseological units, synonymy, antonymy, phrase, ideographic phraseological synonyms, semantic microsystem.

**Kirish.** Sinonimiya til birliklari orasidagi semantik mikrosistemalardan biri bo'lib, iboralar orasida ham anchagina. Ikki iborani sinonim deyish uchun ular ayni bir ma'noni anglatishi shart. Busiz sinonimiya haqida gapirib bo'lmaydi. Ayni bir ma'nolilikni teng ma'nolilik deb tushunish yaramaydi. Har bir sinonim, shu sinonimiya uyasi uchun umumiyl ma'no o'zanidan tashqari, o'ziga xos ma'no qirrasiga ega bo'ladi[1].

Sinonimlar odatda bir yoki bir necha jihatdan farqqa ega bo'ladi, shulardan biri ma'no qirrasidagi farq bo'lishi mumkin. Masalan yer bilan yakson bo'lmoq - yer bilan yakson qilmoq iborasi kulini ko'kka sovurmoq - kuli ko'kka sovurildi iborasiga sinonim: ayni bir ma'noni anglatadi ("butunlay yemirmoq, yo'q qilmoq"). Bu sinonimlar, boshqa belgixususiyatlardan qat'i nazar, ma'no qirrasida farq qiladi: ikkinchisida ma'no bir qadar kuchli[2].

Sinonim iboralar leksik tarkibida biror komponent ayni bir so'z bilan ifodalangan bo'lishi mumkin. Ammo bunda iboralar tarkibidagi boshqa-boshqa so'z bilan ifodalangan komponentlari o'zaro sinonim bo'lmashligi shart. Aks holda bir iboraning variantlariga teng bo'ladi. Masalan, jon(i)ni hovuchlab va yurag(i)ni hovuchlab - sinonim iboralar: bir leksik komponenti ayni bir so'z bilan ifodalangan, ikkinchi leksik komponenti esa boshqa-boshqa so'z bilan ifodalangan va bular o'zaro sinonim emas. Ko'ngl(i)ga tugmoq bilan yurag(i)ga tugmoq o'zaro bir iboraning variantlariga teng, chunki bir leksik komponenti ayni shu so'zning o'zi, ikkinchi leksik komponentlari esa o'zaro sinonim[3].

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** O'zbek tilshunosligida fpazeologik bipliklap nazapiy, stuktur-pgrammatik, semantik-uslubiy, funksional-pagmatik jihatdan

tadqiq etildi; ilmiy-tadqiqot ishlapi , ilmiy maqolalap va o'quv qo'llanmalap , fpazeologik lug'atlap yapatildi . Sh.Pahmatullaev, A.Hojiev, B.Yo'ldoshev, A.Mamatov, Sh.Uemonova, B.Jo'paeva, Sh.Almamatova, M.Vafoeva, U.Pashidova, B.Boltaeva, Sh.Ganieva, Sh.Maxmapaimova, Z.Jumaeva kabi o'zbek tilshunoslapining tadqiqotlapida fpazeologik bipliklapning leksik-gpammatic, funksional-semantik xususiyatlapi tadqiq etildi.

**Tadqiqot metodoligiasi.** Bir tuzilishli frazeologik sinonimlar – sinonim frazeologik birlik to'liq mos keladigan tuzilishga ega.

1. Ingliz tilidagi (as) plump as a partridge – kaklik kabi do'mboq, (as) round as a barrel – bochka kabi dumaloq tarzida qiyoslansa, ular bir xil tuzilishga ega bo'ladi.

2. Turli-tuzilmaviy (ko'p shaklli) frazeologik sinonimlarni ifodalovchi g'amgin va yovuzlikni xarakterlovchi yuz ifodasini anglatuvchi ingliz tilining frazeologik birliklari: (be/go) as black as thunder / look like thunder – momaqaldoq kabi qop-qora ; a black look – qora ko'rinish; knit one's brows – qoshlarini to'qnashtirish tarzida ifodalanadi.

3. Ideografik frazeologik sinonimlarda obrazlar farqlanadi. Ingliz tilida: (as) lean as a rake – xaskash kabi ozg'in bo'lish; to be very thin – juda oriq bo'lish; (as) dry as a mummy – mo'myo kabi quruq bo'lish; to be extremely thin – nihoyatda oriq bo'lish kabi juda nozik iboralar yoki obrazlar turli xilligi kuzatiladi.

4. Uslubiy frazeologik sinonimlar stilistik jihatdan farq qiladi. Ingliz tilida: a yard of pump water – suyagi etiga yopishgan; (as) thin as a rake - xaskash kabi oriq kabi

frazeologik birlklarda uslubiy va neytral ma'noli iboralar sinonimlashadi.

5. Stilistik va ideografik frazeologik sinonimlar bir vaqtning o'zida uslubiy va semantik jihatdan ham farqlanadi: be all fur coat and no knickers – yuzaki, aldamchi jozibadorlik, go'zallik; Beauty dies and fades away, but ugly holds its own.– Go'zallik o'ladi va so'nadi, ammo inson qadri saqlanib qoladi (maqol) kabi frazeologik birlklarda namoyon bo'ladi.

Ko'rindiki, sinonimiya til birlklari orasidagi semantik mikrosistemalardan biri bo'lib, frazeologik birlklar orasida ham ko'plab uchraydi. Sinonimiya teng ma'nolik emas, sinonimik uya semantik maydonidagi har bir frazeologizm ma'no qirralari bilan farqlanadi. Bosh qo'shmaq iborasi bosh suqmoq frazeologizmiga nisbatan ma'noni bir qadar kuchli yoki kuchsiz ifodalashi bilan farqlanadi.

Qayd etish lozimki, sinonimlar bir necha jihatdan farqlanadi. Frazeologik sinonimlar asosida boshqa-boshqa obraz yotishi kuzatiladi.

Sinonimlarning variantlardan farqli tomoni shundaki, variantlarda umumiyo so'z komponent mavjud bo'ladi. Sinonimlarda esa, aksincha, umumiyo so'z komponent bo'lmaydi. Sinonim iboralar leksik tarkibida biror komponent ayni bir so'z bilan ifodalangan bo'lishi mumkin. Ammo ibora tarkibidagi boshqa-boshqa so'z bilan ifodalangan komponentlar o'zaro sinonim bo'lmashigi kerak. Sinonimiya ma'no asosida belgilanadigan hodisa bo'lganligi uchun ularning ma'no qirralari, ayniqsa, emotsiyonal, his-hayajonni bildiruvchi frazeologik birlklarda yaqqol ko'zga tashlanadi[4].

Antonimiya til birlklari orasidagi semantik munosabat asosida belgilanadigan hodisalardan biri bo'lib, iboralarda ham so'zlardagi darajada uchraydi. Antonimiyani belgilash, bir tomonidan, iboralarning lug'aviy ma'nosini chuquroq anglashga olib kelsa, ikkinchidan, polisemiyada bir iborangan ma'nolarini o'zaro farqlashga yordamlashadi, uchinchidan, sinonimlarni belgilashda ham foyda keltiradi[5].

Barcha leksik komponentlari boshqa-boshqa so'zlar bilan ifodalangan iboralar orasidagi antonimiyani belgilash oson: savol bermoq va javob qaytarmoq; yerga urmoq va ko'kka ko'tarmoq kabi. Birinchi antonimlar tarkibidagi ikki so'z-komponentlar, ikkinchi antonimlar tarkibidagi birinchi so'z-komponentlar o'zaro antonim. Quyidagi antonim iboralar tarkibida qatnashgan birinchi leksik komponentlar – ayni bir so'zning o'zi, ikkinchi leksik komponentlar esa antonim so'zlar: yurag(i) keng va yurag(i) tor. Boshqa bir misol: ko'ngl(i) joyiga tushdi va yurag(i)ga g'ulg'ula tushdi. Bu antonim iboralar tarkibidagi leksik komponentlarning uchinchisi ayni bir so'z, birinchisi o'zaro sinonim, ikkinchisi esa o'zaro ma'no-munosabati hosil qilmaydi. Ko'rindiki, antonim iboralar tarkibidagi antonim so'z-komponentlar bu iboralarning o'zaro antonim bo'lishida muhim rol o'ynaydi; ammo barcha antonim iboralar tarkibida antonim so'z-komponentlar qatnashavermaydi. Antonimiya iboradan yaxlitligicha anglashiladigan lug'aviy ma'no asosida belgilanadi[6].

Ayrim tilshunos olimlar antonimlarning majburiy belgisini qisman moslik deb ataydi. Ammo antonimlarning asosiy ma'no xususiyatlari mazmun qarama-qarshiligi va semantik yaxlitligidir. Frazeologik antonimiya leksik antonimiyaga nisbatan kam o'rganilgan hodisadir. O'zbek va ingliz tillarida frazeologik antonimlarning qator semantik tiplari mavjud: yaxshi – yomon; to'g'ri – noto'g'ri; adolatl – adolatsiz tipidagi frazeologizmlarning o'zbek, rus va ingliz tilidagi muqobili quyidagicha: o'zb. halol ishlab topmoq – ingliz. earn an honest renum – rus. заработать честным трудом. Antonimi: o'zb. harom-harish yo'l bilan topmoq ingl. live by one's wits – rus. всеми правдами и неправдами добывать средства к жизни; halol o'yin – fair play – честная

игра, честность; Antonimi: nohalol o'yin – foul play – грязная игра; ajoyib ovoz (ton) good form – хороший тон; yoqimsiz ovoz (ton) – bad form – плохой тон; vijdona yondashmoq – in good faith – добросовестно. Antonimi: vijdonsizlarcha yondashmoq – in bad faith – недобросовестно; yuragi ochiq – a heart of gold – золотое сердце. Antonimi: qora yurak – a heart of stone, tosh yurak – stone heart, stony heart – каменное сердце kabi antonimik tahlil asosida insonning his-hayajonlari yuzaga chiqadi hamda namoyon bo'ladi. Frazeologik antonimiya hodisasi A.B. Alexina, E.R. Mardiev, L.I. Stishkova, A.N. Emirova kabi rus olimlari tomonidan o'rganilgan, ammo shuni ta'kidlash kerakki, leksik birlklar antonimiyasi frazeologik birlklar antonimiyasidan ancha chuqur o'rganilgan. Bu leksikologiyada berilgan tushunchalar ta'rif va tasniflar hajmining kattaligi bilan izohlanadi. Ingliz tili frazeologiyasini o'rgangan A.V. Kunin o'zining "Курс фразеологии современного английского языка" nomli kitobida hodisaga quyidagicha ta'rif beradi: "Frazeologik antonimlar – bir grammatic sinfga mansub, leksik tarkibida qisman mos keladigan yoki to'liq mos kelmaydigan, umumiyo semantik komponentga ega bo'lgan va stilistik atamalarida farq qiluvchi yoki mos keladigan frazeologik birlklardir"[7].

**Tahlil va natijalar.** Insonning tashqi qiyofasi va hissiyorini ifodalovchi frazeologik birlklar ingliz hamda o'zbek tillarida tavsiflovchi bir nechta semantik guruhlarda namoyon etadi.

1. O'zbek tilida bo'yi uzun va bo'yi kalta, ingliz tilida: be as tall as a beanpole – minora kabi baland; a bit-size boy – kichik bo'yi bola; rus tilida: верста коломенская – “очень высокий и худощавый” – “juda baland va orig bo'lish”; мужичок с ноготок – “мальчик или мужчина очень маленького роста” – “juda kichik bo'yi bola yoki odam” kabi ifoda etiladi.

2. Noziklik va to'lalik ingliz tilida: be reduced to a skeleton – juda ozg'in, suyagi etiga yopishgan; like the side of a house – uyning yon tomoni kabi keng; rus tilida: живые (ходячие) мощи “о предельно исхудавшем, измождённом человеке” “juda ozib ketgan odam to'g'risida” – попerek себя толще “об очень полном человеке” “juda to'la odam haqida” kabi antonimik munosabatda ifoda etiladi.

3. Chiroyli ko'rinish va xunuk ko'rinish ingliz tilida: be as cute as a button – qo'g'irchoq kabi yoqimli; an ugly duckling – irkit o'rdakdek, yomon odam; rus tilida: ни кожи, ни рожи “кто-либо некрасивый внешне или худой” “jirkanch kimsa” – “красивый, физически совершенный юноша, мужчина” – “kelishgan, jismonan mukammal yosh odam” kabi ifodalanadi.

4. Tashqi o'xshashlik – tashqi farq ingliz tilida: like two peas in a pod – ikki no'xat singari o'xshashlik; cannot hold a candle to someone/ be not a patch on – shamni birovga tutib bo'lmaydi / unga yamoq bo'lmashlik, hech kim bilan sham tutmaslik, hech kim bilan taqqoslab bo'lmashlik; rus tilida: как две капли воды (напоминать, похож) “лицо или предмет имеет абсолютный аналог, очень похож внешне на другого человека или предмет” – ikki tomchi suv singari o'xshash bir xil, другой породы/другого пошиба “человек, сильно отличающийся от других людей по своим каким-либо качествам”; oq qarg'a - white crow – “kamdan-kam uchraydi, boshqalardan keskin ajralib turadigan g'ayrioddiy odam”, “boshqalardan o'z fazilatlari bilan juda farq qiladigan odam” kabi antonimik munosabatda ifoda etiladi.

5. Sog'lom ko'rinish va og'riqli ko'rinish ingliz tilida: be as fit as a fiddle – bodringga o'xshatish, sog'lom bo'lish, sog'lom ko'rinish; (be/look) white about the gills – oqarib ketgan, rangsiz ko'rinishga ega, kasal bo'lib ko'rinish. rus tilida: кровь с молоком “румяный, цветущий, крепкий” qon va sut “qizg'ish, gullab-yashnagan, kuchli” – краше в гроб

кладут “о худом человеке с нездоровым видом”, “tashqi ko‘rinishi nosog‘lom, oriq odam” каби ifoda etiladi.

6. Chirolyi va zamonaviy kiyimlar – eski va moda bo‘limgan kiyimlar ingliz tilida: in your glad rags – chirolyi kiyangan, oqilona kiyangan – down at hill – chirolyi va bejirim kiyangan; rus tilida: в пух и (в) прах разодеться “одеться крайне пышно и нарядно” “nihoyatda ajoyib va nafis kiyinish” каби ifodalanadi.

7. Oddiy ko‘rinish – g‘ayrioddiiy. Ingлиз tilida: Plane Jane – soda, tashqi ko‘rinishidan soda ayol; a rare bird – noyob qush, g‘ayrioddiiy odam; rus tilida: не акти какои “о ничем не выделяющемся, среднем, заурядном человеке” “unchalik e’tiborga loyiq bo‘limgan, o‘rtacha, oddiy odam haqida” каби misollar bilan izohlanadi. Shunday qilib, insonning emotsiyonal holatini tafsiflovchi o‘zbek va ingliz frazeologik birliklari o‘zaro sinonimik-antonimik munosabatlarga kirishadi.

Inson qiyofasi tushunchalarining ta’rifi va sinonimik ketma-ketligiga muvofiq ushbu tadqiqot obyekti faqat insonning tashqi qiyofasini, holatini, yuz xususiyatlarini, vizual ko‘rinishini, shuningdek, inson hissiyotini tafsiflovchi frazeologik birliklardir. Inson xulq-atvorini yoki xulq-atvorini aniqlash orqali tashqi ko‘rinishning bilvosita xususiyatini ifodalaydigan frazeologik birliklar tahlilga tortilgan.

Konsept va konseptuallashuv tushunchasi voqelikni kategoriyalashtirishning asosiy vositalaridan biri bo‘lib, kognitologiya va kognitiv lingvistikating tayanch tushunchalaridan biri hisoblanadi. Konseptlar voqelikni mantiqiy-tushunchaviy asosda o‘rganadi. Konsept olamni bilishning muayyan voqelik olami haqidagi madaniy bog‘langan tasavvurlarini aks ettiruvchi obyekt sifatida talqin qilinadi. Konseptlar borliqdagi hodisa va obyektlarning qanday tuzilganligi haqidagi tafakkur asosida yaratilgan tushunchani ifodalovchi fenomendir. Konseptlar til vositalari bilan izohlash konstruktiviyalarini ko‘rinishida tafsiflanadi. Til birliklari vositasida hayot va uning qonuniyatları haqidagi bilimlar turli ramzlar ko‘rinishida moddiylashtiriladi. Konseptlarning milliy o‘ziga xos xususiyati alohida ahamiyatga ega.

Psixologik yondashuv doirasida kontsept tafakkur jarayonida bir turdag'i bir qancha predmetlar o‘rnini bosuvchi fikriy hosila sifatida tushuniladi[8].

Kulturologik yondashuvda kontseptlarning individual-psixik xususiyatlaridan ko‘ra ijtimoiy mazmuniga e’tibor qaratiladi. Konsept madaniyatning asosiy birligi bo‘lib, inson ongida “madaniyat qaymog‘i”ni namoyon qiladi va u orqali madaniyat inson mental olamiga kirib keladi.

Konsept kognitiv semantika doirasida o‘rganiladi. Aynan so‘z ma’nolarida voqelikni idrok etish natijalari saqlanadi va shuning uchun komponent tahlil amaliyotini qo‘llash orqali so‘zning kontseptual parametrlarini, ya’ni so‘z ma’nosida uning mantiqiy – predmet mazmuni, voqelikdag‘i predmetlarning holatini aks ettiruvchi obraz haqida ma’lumot olish mumkin. Voqelikning xilma-xilligi uning kontseptlarini turlicha ifodalashga olib keladi. Kontseptlar xilma-xilligi quyidagi tiplarni taqozo qiladi: fikriy manzaralar, sxemalar, giperonimlar, freymilar, stsenariylar, insaytlar, kaleydoskopik kontseptlar. Ular o‘rtasida aniq ajralib turadigan chegara yo‘q.

Integrativ yondashuv kontseptlarni lingvistik, kognitiv, kul’turologik, sotsiologik nuqtai nazarlardan o‘rganishga imkon beradi. Buning natijasida hodisaning eng ko‘z ilg‘amas qatlamlarini ham ochib berish imkonii tug‘iladi. Bu yondashuvga ko‘ra kontseptlar inson mental olamidagi madaniyatning asosiy birligi hisoblanadi. Ular olamdag‘i narsalarning haqiqiy yoki ehtimoliy holati haqidagi, ya’ni inson voqelikdag‘i obyektlar haqida nima o‘ylashi, bilishi, taxmin qilishi va tasavvur qilishi kabi ma’lumotlarni o‘zida saqlaydi[9].

Madaniy kontsept – ko‘p o‘lchamli mental shakl, unda bir qancha sifatiy farqli komponentlar ajratiladi. Madaniy kontseptning ma’noviy komponentlari miqdori va xarakteri tavsifida turlicha qarashlar mavjud. Madaniy kontsept “mulohaza yaxlitligi”, “tushuncha”, “obraz”, “faoliyat” larning o‘zaro aloqasi asosida shakllanadi. Kontsept tushunchaviy komponentlarining muhim belgilarni sanash orqali tafsiflash imkonsiz. Shuning uchun kontsept zidlash vositasida izohlansa, ko‘proq axborotga ega bo‘linadi.

Frazeologizmning muhim vazifalari qatorida frazeologik ma’no tarkibini o‘rganishni alohida ta’kidlash lozim. O‘zbek tili frazeologiyasi tadqiqotchilari frazeologik birliklarning leksik-semantik va grammatic xususiyatlariga e’tibor berishadi. Ta’kidlash lozimki, frazeologik birliklarning lingvopoetikasi nisbatan keng o‘rganishiga qaramay, o‘zbek tilshunosligida frazeologik birliklarning semantik va uslubiy xususiyatlarini o‘rganish va ularning badiiy matndagi rolini o‘rganish ilmiy yechimni talab qiladi. O‘zbek tilidagi frazeologik birliklarning emotiv-hissiy-ekspressiv imkoniyatlari va baholash salohiyati yetarlicha o‘rganilmagan, frazeologik-semantik guruhlardagi frazeologik birliklarning hissiy-baholash funksiyalari va ekspressiv imkoniyatlarini o‘rganish muhimdir[10].

Ushbu frazeologik birliklarni o‘rganish ularning badiiy matndagi rolini aniqlashga yordam beradi, nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan o‘zbek frazeologiyasi rivojlanishining umumiy tendentsiyasini hisobga olgan holda frazeologik birliklarning lingvokultural jihatlari rivojlanishiga tavsif beradi.

Ushbu tadqiqotda frazeologik birliklarning inson histuyg‘ularini ifodalovchi birliklar sifatida o‘zbek yozuvchilarasi asarlarda matn doirasida qo‘llanilishi hisobga olingan holda ko‘rib chiqilgan. Ushbu muammoning yechimi hali o‘zbek tilshunosligida maxsus tadqiqot obyekti bo‘limgan, shu bilan birga, emotsiyonallik, ekspressivlik va baholash nazariy asoslashni talab qiladi.

O‘zbek tilining emotsiyonal-ekspressiv va baholovchi frazeologik birliklarini tafsiflash, ularning yashirin imkoniyatlarini, uslubiy xususiyatlarini aniqlash ham bugungi tilshunoslik uchun dolzarbdir. Frazeologizmda ekspressivlik, emotsiyonallik va baholash kategoriyasining lingvistik holatini ochib berish, turli xil emotsiyonal holatlarni ifoda etgan holda o‘zbek tilidagi frazeologik birliklarning semantik va uslubiy xususiyatlarini tahlil qilish, semantik jihatdan insonning sifatiy bahosini ifodalaydigan frazeologik birliklarning funksiyalarini asoslash ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Emotsional-ekspressiv va baholovchi ma’noga ega bo‘lgan frazeologik birliklar muhim uslubiy funksiya bajaradi, badiiy asar personajlari va muallif nutqini baholaydi.

Baho-munosabat ifodalovchi turli frazeologik-semantik maydonlarning tasnifini ishlab chiqish, ularni kontseptlar asosida o‘rganish, albatta, inson hissiyotining til birliklarida aks etishini yanada aniqlashtirish imkoniyatini yaratadi.

Emotsional-ekspressiv va baholovchi frazeologik birliklarni o‘rganish ba’zi lingvistik muammolarning yechimiga ta’sir qiladi: a) zarur uslubiy ta’sirni ta’minalash; b) bunday frazeologik birliklarning o‘zgarishiga ta’sir qiluvchi semantik omillarni belgilash; c) frazeologizmning semantik mohiyatini lingvistik hodisa sifatida aniqlash; d) frazeologik birliklardan tasviriy vosita sifatida foydalanishning stilistik-uslubiy usullarini aniqlashtirish mumkin bo‘ladi.

Insonning emotsiyonal-ekspressiv va baholovchi frazeologik birliklarning strukturaviy va semantik xususiyatlari ikkita muhim qismidan iborat. Frazeologik ma’no ikki denotativ va konnotativ makrokomponentdan hamda baho-munosabat komponentdan iborat bo‘lib, ular batafsil tahlil etilgan.

O'zbek, ingliz va rus tillarida inson emotsiyasi va tashqi ko'rinishini tavsiflovchi frazeologik birliklar kontsentrativiyasining ekspressiv, emotsiyal va funksional-stilistik tomonlari tahlil etilgan. Shuningdek, asosiy frazeosemantik guruhlarning qiyosiy tahlili semantik, strukturaviy tahlil asosida amalga oshirilgan, ishda, shuningdek, frazeologik birliklarning etimologik tahlili, o'zbek va ingliz madaniy rusumlariga xos bo'lgan umumiy va turli xil xususiyatlardan ta'kidlangan.

**Xulosa va takliflar.** Shunday qilib, insonning emotsiyal tashqi ko'rinishini, holatini tavsiflovchi o'zbek va ingliz frazeologik birliklari o'zaro sinonimik-antonimik munosabatlarga kirishadi. Bunda har ikki til frazeologik tarkibining strukturaviy xususiyatlari namoyon bo'ladi. Bundan tashqari ikkala tilda ham bir yoki bir nechta variantli frazeologik birliklar (ingliz tilidagi leksik variantlarga 40 ta misol va o'zbek tilida leksik variantlarning 29 ta namunasi) eng ko'p tarqalgan. Frazeologik tarkibning turli xil

strukturaviy va semantik sinonimlar turlari mavjud. Shuningdek, semantik xususiyatiga ko'ra ideografik, uslubiy, uslubiy-ideografik va frazeologik sinonimlar farqlanadi. Frazeologik sinonimiya va antonimiya hodisasi bir-biri bilan chambarchas bog'liq, chunki frazeologik birliklar sinonimik va antonimik munosabatlari ma'noga asoslanishi bilan tavsiflanadi.

Umuman olganda, frazeologik sinonimlarning ta'riflarini ko'rib chiqib, turli olimlar tomonidan taklif qilingan antonim variantlar, ularning belgilari o'zbek va ingliz tillari misolida bir qadar ishlangan degan xulosaga kelish mumkin: taqqoslangan ikkala tilda ham ularning turli xil turlari mavjud.

Frazeologik variantning holati va o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish ingliz va o'zbek tillaridagi frazeologik variantlarda tafovutlar tilning asosiy xususiyati ekanligini ta'kidlash zarur.

#### ADABIYOTLAR

1. Raxmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. – T., 1978.
2. Raxmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. – T., 1978.
3. Raxmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. – T., 1978
4. Rahmatullayev Sh. O'zbek frazeologiyasining ba'zi masalalari: Filol. fan. d-ri. dis. ... avtoref. – T., 1966. – B.65
5. Raxmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. – T., 1978.
6. Raxmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. – T., 1978.
7. Kunin A.V. Frazeologiya sovremennoj anglijskogo yazika. - M., 1986. – B.64.
8. Mamatov.A. O'zbek tili frazeologiyasi. O'quv qo'llanma. – T.: Navro'z, 2019.
9. Mamatov.A. O'zbek tili frazeologiyasi. O'quv qo'llanma. – T.: Navro'z, 2019.
10. Mamatov.A. O'zbek tili frazeologiyasi. O'quv qo'llanma. – T.: Navro'z, 2019.



**Abduxamid ZAIRIYEV,**

*Andijon davlat chet tillari instituti mustaqil tadqiqotchisi*

E-mail: abdulhamid56mail.ru

*Andijon davlat chet tillari instituti professori, filol. f.d. M.E.Umarxo'jayev taqrizi asosida*

## ИСТОРИЯ СОЗДАНИЯ ДВУЯЗЫЧНОГО АРАБСКО-УЗБЕКСКОГО СЛОВАРЯ

### Аннотация

В статье обсуждается история создания двуязычной турецкой лексикографии, а также достигнутые достижения и исследования. Определена необходимость проведения исследования истории переводного словаря и его самобытности. «Аль-Камус (арабско-узбекский энциклопедический словарь)» - энциклопедический словарь, изучаемый аналитическими методами.

**Ключевые слова:** Туркские языки, древнейшие словари, двуязычный турецкий словарь, лексикография, двуязычный словарь, общетюркская лексикография, переводной словарь, толковый словарь, научное исследование, переведенная произведение.

## THE HISTORY OF ARABIC-UZBEK BILINGUAL DICTIONARY COMPILATION

### Annotation

The article discusses the researches of the history of bilingual Turkic lexicography and achieved results in it. It is also identified that there is a necessity to study the history and peculiarities of lexicography. ‘Al-Qamus (Arabic-Uzbek encyclopedic dictionary)’ is an encyclopedic dictionary studied through analytical methods.

**Key words:** Turkic languages, the oldest dictionaries, bilingual Turkic dictionary, lexicography, bilingual dictionary, all-Turkic lexicography, translation dictionary, annotated dictionary, scientific research, translation work.

## ARABCHA-O'ZBEKCHA IKKI TILLI LUG'AT TUZISH TARIXI

### Annotatsiya

Maqolada ikki tilli turkiy lug'atchilik tarixi va amalga oshirilgan tadqiqotlar hamda erishilgan yutuqlar haqida fikr yuritilgan. Tarjima lug'atchiliginin shakllanish tarixi va o'ziga xosligi bo'yicha tadiqiqot olib borishga ehtiyoj borligi aniqlangan. “Al-Qomus (arabcha-o'zbekcha qomusiy lug'at)” bo'lib, bu ensiklopedik lug'ati tahlil usullari orqali o'r ganilgan.

**Kalit so'zlar:** Turkiy tillar, eng qadimgi lug'atlar, ikki tilli turkiy lug'at, lug'atshunoslik, ikki tilli lug'at, umumturkiy leksikografiy, tarjima lug'at, izohli lug'at, limy tadqiqot, tarjima asar.

**Kirish.** Tilshunoslik ilmida lug'at va lug'atshunoslik dunyo ilmlari ichida azaldan eng qadimgi sohalardan biri sanaladi. Uning shakllanish va taraqqiy etish jarayonida mutaxassislardan tashqari kishilik jamiyatning boshqa a'zolari ham faol ishtirot etgan.

Jahon va turkiy (o'zbek) tilshunosligida bir, ikki va ko'p tilli lug'atlarni ilmiy o'rganish jarayoni tilshunoslikning turli aspektlarida tahlil qilingan. Masalan, so'zlarining ko'chma ma'nolari, leksikografik, turli tillarning izohli lug'atlari misolida ko'plab dalillar keltirish mumkin.

Ikki tilli lug'atlarning manbalari va hozirgi davrda amalga oshirilgan ilmiy nashrlarining ishonchliligi va har tomonlama mukammalligini aniqlash uchun ilmiy-qiyosiy tahlillarni amalga oshirish zarur. Xususan, manbaning dunyo yuzini ko'rgan davrdan boshlab, to oxirgi nashrgacha bo'lgan jarayonni o'rganish belgilaydi. Ikki tilli lug'atlar ustida tadqiqot olib borgan birqator o'zbek olimlarining monografik tadqiqotlari fanga ma'lum. Jumladan, lug'atshunos olim Normatov Sultonbek Ermamatovich “O'zbek lug'atchiliginin shakllanishi va rivojlanishida jadid ma'rifatparvarlarining o'rni” (DSc) doktorlik ishida ular haqida atroflicha to'xtalgan.

“Monografik tadqiqotlar sifatida ikki tilli lug'atlar tahlili X.Fattohov, T.Qodirov, Q.Muhiddinov, E.Umarov, Sh.Fayzullaeva, N.Rasulova, M.Ziyaevlar ishlari amalga oshirilgan. Monografik tadqiqotlar orasida B.Hasanovning “Navoiy asarlariga tuzilgan qo'lyozma lug'atlarning tuzilish printsiplari” nomli dissertatsiyasi o'zining keng qamroviligi, tahlillarining ishonchliligi bilan ajralib turadi va unda “Badeo’ al-lug'at”, “Abushqa”, “Sangloh”, “Lug'ati atrokiya” asarlari

tahlil qilingan[1].” S. Normatovning doktorlik dissertatsiyasi mazmun-mohiyatidan kelib chiqadigan bo'lsak ikki va ko'p tilli lug'atlar tadqiqiga bag'ishlangan.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Mamlakatimiz hurriyatni qo'iga kiritgandan keyin arab tilli manbalarni o'rganishga keng yo'l ochildi. Arab davlatlarini bilan diplomatik aloqalar o'matdi. Arab tilidagi lug'atlarni to'rganish va tadqiq qilishga milliy bir ehtiyoj paydo bo'ldi. “Al-Qomus (arabcha-o'zbekcha qomusiy lug'at)ni o'rganishda hozirgi zamon lug'atchilik yuzasidan qilingan filologik tadqiqotlarham qiyosiy o'rganildi. O'zbek tilining ko'p asrlig tarixi, shakllanish jarayonlari va tilshunoslik maktablari tajribasiga suyanildi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** O'zbek tilshunoslik ilmida lug'atshunosligi haqida ko'plab ilmiy mulohazalar, tadqiqot va maqolalar e'lon qilingan. Tarjima lug'atlatda madaniy tushunchalarni tashiydigan so'zlar ya'ni ikki tilning imkoniyat va xususiyatlari qiyoslangan, o'zbek va arab tilidagi matnlar tahlilida nafaqat milliy, balki diniy tushunchalarning ham ahamiyatli ekanligini ta'kidlangan. Ammo, tilimizda tarjima lug'atlat mavzu doirasi yoritilishi tavsifiy, tasnifiy, kontekstual tahlil kabi tadqiqot va tahlil usullari biroz kamroq tadqiq qilingan.

**Tahil va natijalar.** Movaraunnahrga Islom dini kirib kelgandan keyin turkiy xalqlar ko'p asrlar davomida arab xalifaligi va arab xalqlari bilan iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqada bo'lib kelgan. Bu munosabatlar ayniqsa, Abbosiylar (750-1238-yy.) davrida taraqqiy etdi. Natijada u yerda bir qancha fanning noyob sohalari bilan birga tilshunoslik,

lug‘atshunoslik sohalari ham rivojlandi. Turkiy xalqlarning Islom dinini qabul qilishi arabiy lug‘atlardan foydalanishga ehtiyoj sezildi. Qur‘oni karim va hadisi shariflarni turkiylar o‘z ona tilida tushunishi va arab tilidan tahsil olishi uchun zarurat tug‘ildi.

Tilshunos olim Mirziyatov Shuhrat Mirgiyazovich “Muqaddimatul-adab” asarida tilshunoslik, lug‘atshunoslik, lug‘atshunoslik an‘analari va arabiy-turkiy so‘zlikning leksiksemantik talqini. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasida yuqorida jarayonlarni “yangi an‘ana” sifatida qiyosiy-tarixiy metod asosida quyidagicha ilmiy baho beradi.

“Arab tilshunosligi aynan o‘rta asrlarda islom islom dinining bevosita ta‘sirida hamda boshqa xalqlar orasida tarqalishi natijasida shakllangan “yangi an‘ana” sifatida e’tirof etiladi. Uning yangiligi shundaki, arab tilshunosligi arab tilining strukturasiga to‘la muvofiq keluvchi orginal til tizimini yaratadi, arab tilining spetsifikasiga mos keluvchi orginal tushunchalar va terminlar apparatini muomalaga kiritdi. Arablar tomonidan ishlab chiqilgan ilmiy tadqiqot metodlari boshqa tillar, xususan, fors, turkiy tillarning o‘rganilishida ham tatbiq etila boshlandi[2].”

Ikki tilli turkiy lug‘atchilik tarixi XI asrdan Mahmud Koshg‘ariyning turkcha-arabcha “Devonu lug‘otit turk” qiyosiy-tarixiy asarini tartib borganidan boshlangan. Arabcha-turkcha lug‘atlardan yana biri Abul qosim Mahmud ibn Umar az-Zamaxshariy (1075-1144) “Muqaddimat ul-adab” asari. Olim bu asarini 1137- yilda xorazmshoh Aloudavla Abulmuzaffar Otsizga tuhfa sifatida uning nomiga bag‘ ishlab yozgan. Asar besh katta qismga bo‘lingan bo‘lib — otlar, fe‘llar, bog‘ lovchilar, ot o‘zgarishlari va fe‘l o‘zgarishlari haqida bahs yuritadi.

Turkiy leksikografiyaning taraqqiyot jarayoni va tadriji haqidagi tilshunos olim A. Nurmonov quyidagicha fikr bildiradi:

“Devonu lug‘otit turk” asari umumturkiy leksikografiyasining namunasi bo‘lsa, XIII – XIV asrlardan boshlab o‘zbek leksikografiysi undan oziqlangan holda mustaqil rivojlana boshladi. Ayniqsa, turkiycha-forscha, turkiycha-arabcha tarjima lug‘atlar tuzishga e’tibor kuchaydi. Bu esa, arab va ajam mamlakatlarida turkiy tilga qiziqishning ortib borganligi natijasi. Ana shuning natijasida “Tarjimonu turki va ajami va mug‘uli va forsi” (XIII–XIV asrlar), “Kitob – at – tuhfatuz – zakiyat fil – lug‘atit turkiya” (XIV asr), Abu Hayyonning “Kitobi al – idrok lison al – atrok” (XIV asr), shuningdek, Alisher Navoiy asarları uchun tuzilgan ko‘pgina lug‘atlar va boshqalar [3].”

Olim tarjima lug‘atlar tuzishga ehtiyoj paydo bo‘lganini “turkiycha-forscha, turkiycha-arabcha tarjima lug‘atlar tuzishga e’tibor kuchaydi...”, deb alohida qayd etadi. Bundan tashqari, keyingi davrlarda ham turkiy tilni boshqa tillar bilan qiyoslab lug‘at tuzishga ko‘plab zarurat bo‘ldi. Bu esa siyosiy-iqtisodiy va ijtimoiy holatlar bilan bog‘liq.

XX asr o‘zbek leksikografisi tadqiqotlar tarixini Filologiya fanlari doktor S. E. Normatov ikkiga bo‘lib o‘rgangan. “Monografik rejada” va “turli maqolalar shaklida” olib borilga taqiqotlar misolida.

XIX-XX asrlarda turkiy tillarning tasnifiy tadqiqi bilan ko‘plab tilshunos olimlar shug‘ullandi. Ular turliha tasniflarni amalga oshirdi va kitoblar nashr qilishdi. Bu davrda ikki tilli va ko‘p tilli lug‘atlar tuzildi va ular ustida bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borildi. Jumladan, shunday turkiyshunos olimlardan biri N. A. Baskakov. Bir qancha turkiy va rus tilli lug‘atlar tuzishda ishtirok etgan.

XXI asrda barcha turkiy tillar qatori o‘zbek tilining lu‘gatshunoslik sohasida keng qamrovli ilmiy ishlar olib borildi. Bizning davrimizgacha yetib kelgan Fazlullaxon barlos XVIII asrning ikkinchi yarmida Shohjahonning o‘g‘li Avrangzeb buy rug‘iga ko‘ra tuzgan “Lug‘ati turkiy”, Salohiddin Toshkandiy

“Lug‘ati solis” asarlari turkiy qo‘lyozma lug‘atlar. Bu manbal ar tadqiqi turkiy va o‘zbek lug‘atshunosligiga ulkan hissa bo‘li b qo‘shildi. Lug‘atshunoslikda ilmiy tadqiqotlar va nashr qilin gan lug‘atlar fikrimizning isbotidir.

O‘zbek leksikografiysi taraqqiyot tarixini tilshunos olma G‘afurova Surayyo Ulug‘bekovna “Salohiddin Toshkandiy “Lug‘oti salos” asarining leksikografik xususiyatlari” Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) nomli dissertatsiyasida uch davrga bo‘lib o‘rgangan.

“1. Eng qadimgi lug‘atlar. Ular XI asrdan va XIII asrga qadar yaratilgan bo‘lib, Mahmud Koshg‘ariy “Devonu luotit turk” n omli mashhur asaridan boshlanadi.

## 2. XV-

XIX asrning ikkinchi yarmi lug‘atchiligi. Bu davrni, asosan, Navoiy asarlariga tuzilgan lug‘atlar tashkil etadi.

3. XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab bir qator lu‘gatlar maydonga keldiBu davrda o‘zbek leksikografiysi an‘a nalarini yavom etdi va rivojlandi[4].”

O‘zbek lug‘atchiligi tarixini Filologiya fanlari doktor S. E. Normatov shartli ravishda quyidagicha to‘rt davrga bo‘lib dadqiq qilgan.

Ma‘lumki, o‘zbek lug‘atchiligi tarixi shartli ravishda, avvalo, to‘rt davrga ajratilgan edi:

1. XI – XV asrlar lug‘atchiligi davri.

2. XVI – XIX asrlar (XIX asrning birinchi yarmi).

3. XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning birinchi yarmi lug‘atchiligi.

4. XX asrning 30-yillaridan keyingi davr lug‘atchiligi kabi.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan keyin, o‘zbek lug‘atchiligi tarixida alohida davr boshlandi. Bu – mustaqillik davri o‘zbek lug‘atchiligi davri. Bu davr lug‘atchiligi alohida tadqiqotlari talab qiladi [5].”

Haqiqatan, Mustaqillik davri lug‘atchiligi alohida tadqiqot olib borishni taqozo qiladi. Bu davrda ko‘plab lug‘atlar tadqiqi amalga oshirildi va lug‘atlar tuzildi. Jumladan, o‘zbek tilshunosligi faniga imlovil, izohli va tarjima lug‘atlar kirib keldi. Obyektimiz bo‘lgan “Al-Qomus (arabcha-o‘zbekcha qomusiy lug‘at)”i “Mustaqillik davri lug‘atchiligi” uchun muhim lug‘talardan hisoblanadi. Bugungi o‘zbek jamiyatni uchun arabcha-o‘zbekcha tarjima izohli qomusiy lug‘at kunning dolzarb masalalaridan bira. Bundan tashqari, O‘zbekistonida o‘zbek millati vakillari uchun inglizcha-o‘zbekcha, o‘zbekcha-englizcha lug‘atlar uchun ham ehtiyoj borligi zamon talablaridan bira. Masalan, Shavkat Butayevning “Inglizcha-o‘zbekcha”[6] 50 000 so‘z va iboradan tashkil topgan lug‘ati, Fahriddin Rahmatovning “englizcha-o‘zbekcha”, “o‘zbekcha-englizcha” [7] 8000 yaqin so‘z va birkimlari lug‘ati fikrimizning isbotidir.

Biroq, tadqiqotimiz obyekti bo‘lgan “Al-Qomus (arabcha-o‘zbekcha qomusiy lug‘at)ni o‘rganishda hozirgi zamon filolo gik tadqiqotlar bilan birga o‘zbek tilining ko‘p asrlik tarixi, sh akllanish jarayonlari va tilshunoslik maktablari tajribasiga suy anildi. O‘zbek tilida lug‘at va atamalarning(o‘zbekcha va arab cha) ilmiy yo‘ssinda tadqiq qilish tilshunoslikning bir qator ha l bo‘limgan ba’zi muammolarini: lug‘at va terminlar tarjimasi dagi qiyinchiliklarni, lingvokulturologiya va kognitiv tilshuno slik nuqtai nazaridan qarashlarga e’tibor qaratilgan.

“Al-Qomus” (arabcha-o‘zbekcha qomusiy lug‘at) G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyotda 2017-2022-yillar oraliq‘ida nashr qilingan bo‘lib, 4 jildan iborat.

Uning 1-jildi 2017-yil nashr qilingan “alif” va “xe” haflarini o‘z ichiga oladi. 2-jildi 2018-yil nashr qilingan “dol” va “sod” haflarini o‘z ichiga oladi. 3-jild 2019-yil “zod” va “qof” haflarini o‘z ichiga oladi. 4-jild 2022-yil nashr qilingan “kof” va “y” haflarini o‘z ichiga oladi.

“Al-Qomus” (arabcha-o’zbekcha qomusiy lug‘ati nashr qilingunga qadar «An-Na’ym ul-Kabir» arabcha-o’zbekcha lug‘at “An-Na’ym” arabcha-o’zbekcha lug‘atining (Toshkent, Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2003) to‘ldirilgan va tuzatilgan varianti nashr qilingan edi.

“... Baranov lug‘ati birinchi bora yigirmanchi asrning elliginchi yillarda nashr etilgan bo‘lib, oradan qariyb oltimish yil vaqt o’tgan, bu davr mobaynida ilm-fan, ijtimoiy-siyosiy hayot keskin o‘zgargan, yangidan-yangi so‘zlar muomalaga kirib, o’sha davr mafkurasi bosimi o stida lug‘atlari orasiga suqilgan ko‘pgina so‘z va iboralar yaro qsiz holga kelgan edi. Endi Baranov lug‘atini aynan tarjima qil ish emas, balki asl arab manbalari hamda jahon lug‘atnavislik tajribasidan unumli foydalangan holda yangi, original, mukam mal lug‘at tuzish ehtiyoji maydonga chiqqan edi. Ushbu ehtiyojidan kelib chiqqan holda, biz, bir guruh arabshunos mutaxassislar shu benihoya katta va bag‘oyat mas‘uliyatlari ishga bel bog‘l ab, ham zamon talablariga javob beradigan, ham klassik matnlarni o‘qishda boshqa lug‘atlarga ehtiyoj qoldirmaydigan mukammal lug‘at tuzishga kirishdik. Besh yil davom etgan uzluksi va og‘ir mehnat natijasida to‘rt jilddan iborat, yuz mingdan ortiq so‘z va iborani o‘zida mujassam etgan lug‘at tayyor bo‘ldi. Ushbu lug‘atni tuzishda muqaddimada nomlari zikr etilgan barcha mo‘tabar manbalar, arab hamda g‘arb va sharq tillaridagi t arjima lug‘atlaridan foydalanildi. Shuningdek, lug‘atga klassik hamda zamonaviy arab adabiyotining durdona asarlari, arab matbuoti, turli sohalarga bag‘ishlangan ensiklopediyalar, ilmiy t adqiqotlar jalb qilindi. Ushbu lug‘atning ko‘pchilik boshqa lug‘atlardan farqi, unda arabcha so‘zlarining o‘zbekcha tarjimasini berish bilan kifoyalanmasdan, har bir so‘z, uning har bir ma’nosi yanada tushunrali bo‘lishi uchun, asl arabcha manbalardan misollar berilganidir. Unga ”القاموس (معجم عربي-أوزبكي)“ ”Al-Qomus (arabcha-o’zbekcha qomusiy lug‘at)“ deb nom berildi. Lug‘atda qadimgi davr leksikasidan tortib, eng yangi davrda iste’molga kirgan so‘z va iboralar, atama va tushunchalar mujassam etildi[8].”

Tarjima asar va tarjima lug‘atlarning milliy madaniyeros va tillarning rivojida o‘rnii beqiyos. Ayniqa, tarjima lug‘atlar bir tildan ikkinchi bir tilga qilinadigan tarjimada muhim ahamiyat kasb etadi. Tarjima maktablarining rivojlanishiha ham tarjima lug‘atlar zarur. Tarjima maktablariga tarjimashunos olim filologiya fanlari doktori G‘aybullo Salomov (G‘aybullo Salom) ”Tarjima nazariyasi asoslari“ asarida yetarlichva xolisona ilmiy baho bergan:

”Jahon madaniyati tarixida ikkita Bag‘dod va Toledo tarjima maktabi bo‘lgani ma’lum. Biri – qadimgi yunon olimlari yaratgan klassik fan asarlarini arab tiliga o‘girgan, sharhlagan va ko‘chirish ishlari bilan shug‘ullangan. Bag‘dod tarjima maktabi (arab xalifaligining ilmiy markazi), ikkinchisi – arab tilida yaratilgan boy ilmiy adabiyotni G‘arbiy Yevropa tillariga o‘girish ishi bilan mashq‘ul bo‘lgan Toledo tarjima maktabi (Ispaniya). Har ikkala tarjima maktabi ham jahon fani taraqqiyotida misli ko‘rilmagan buyuk rol o‘ynagan. Ko‘p hollarda hatto olimlar yaratgan asarlarning asl nusxalar bez yo‘qolib ketganida ham, ular ana shu ikki tarjima markazining namoyandalari tomonidan qilingap tarjimalarda saqlanib qolgan. Chunonchi, tarix alg‘ov-dalg‘ovlari kadimgi yunon olimlari bunyod etgan juda ko‘p kitoblar g‘oyib bo‘lgan, ammo ular arab tiliga qilnган nusxalar – tarjimalar va sharhlarda qolgan. Shu bilan birga, Yaqin va O‘rta Sharq, O‘rta Osiyoda arab tilida ijod qilgan mutafakkirlarning ham al-laqancha noyob ishlari Toledo maktabi tarjimonlarining xizmati tufayli lotin va yunon hamda keyingi davrlarda boshqa G‘arbiy Yevropa xalqlari tillariga qilingan tarjimalarda bizning davrimizgacha yetib kelgan. Tarjima Sharq bilan G‘arb madaniyatini bog‘lagan, payvandlagan, boyitgan, mislsiz oltin ko‘priq vazifasini bajargan[9].”

Valeriy Sergeyevich Ribalkinining ”Prinsini postroyeniya arabiskich leksikograficheskikh trudov VIII-XVIII

vv“ mavzusidagi filologiya fanlari nomzodligi dissertatsiyasida arab tilshunosligining taraqqiyotini yuqorida G‘. Salomning ilmiy qarashlaridan farqli ravishda arab tiliga qilingan tarjimalar rolining o‘rnii beqiyosligini tubandagicha isbotlashga harakat qiladi.

”Arab tilshunosligining yuzaga kelish va shakillanish, xususan, unga antik va o‘rta asr an‘analarining ta’siri borasida hozirgicha turli, hattoki, qarama-qarshi fikrlar mavjud. Bundan VIII asr o‘rtalaridan boshlab yunon va suriya tilidagi falsafa, matematika, astronomiyaga oid asarlar, shuningdek, fors tilidagi ko‘plab kitoblarning arab tiliga o‘girila boshlaganligini ham e’tiborga olish lozim. Shu sababli, Osiyo, Afrika, va Yevropa xalqlari bilimlarining ijobji ta’sirsiz arab tilshunosligi VIII asrdanoq bu qadar takomillashishi mumkin emas edi[10].”

Kitobal al-A’yin arab tilining dastlabki, izohli lug‘ati. Kitobal al-A’yinning muallifi basralik filolog olim al Xalil ibn Ahmad al- Farhadiy (786-yil vafot etgan.) Keyingi davrda arab leksikografiyasi undan oziqlangan. Arabcha-o’zbekcha tarjima lug‘atlar ichida birinchisi ”Al-Qomus (معجم القاموس“) (arabcha-o’zbekcha qomusiy lug‘at)“ bo‘lib, bu ensiklopedik lug‘at hisoblanadi.

”Al-Qomus (معجم القاموس“) (arabcha-o’zbekcha qomusiy lug‘at)“ va ”An-Na’ym“ arabcha-o’zbekcha tarjima lug‘atlar hozirgi davr o‘zbek tilshunosligi va leksikografiyasi uchun ulkan hissa bo‘lib qo‘schildi. Arab tilli matnlarni o‘zbek millati vakillari izohli lug‘at tarjimasida kengroq tushunishi uchun qulaylik yaratildi. Bu lug‘atning lekikogafik xususiyatlarini tadqiq qilish o‘zbek va arab tili o‘rtasidagi lisoniy aloqalar va tarjima jarayonlarida o‘ziga xos muhim ahamyatiga ega.

”.....o‘zbek lug‘atchiligi tarixida tarjima lug‘atchiligining shakllanish tarixi o‘ziga xos ehtiyoj asosida yuzaga kelgan. O‘zbek tarjima lug‘atchiligining shakllanish davrini shartli ravishda ikki davrga bo‘lish mumkin:

”1) XIV asrlardan XIX asrning ikkinchi yarmigacha bo‘lgan davr (“Tarjimoni turki va ajami va mo‘g‘uli va forsi”, “At tuhfa”, Abu Hayyonning “Turk-arab lug‘ati” kabilar hamda Alisher Navoiy asarlarini uchun tuzilgan “Sangloh”, “Kelurnoma”, “Badoye’ al-lug‘at”, “Abushqa” kabi lug‘atlar yaratilgan davr);

2) XIX asrning ikkinchi yarmidan keyin yaratilgan lug‘atnari qamrab oluvchi davr (boshqacha aytganda, O‘rta Osiyoning Rossiya tomonidan bosib olinishidan keyingi davr). Bu davrda asosan o‘zbekcha - (turkcha, chig‘atoycha) ruscha yoki ruscha - o‘zbekcha lug‘atlar yaratilganligi kuzatiladi. Har ikki davrga qisqacha to‘xtaladigan bo‘lsak, shuni aytish mumkinki, ikkinchi davr lug‘atchiligi asosan izohli lug‘atlar xarakterida bo‘lsa, ikkinchidan, tilni ilmiy jihatdan o‘rganishni ko‘proq nazarda tutgandek. Boshqacha aytganda, Alisher Navoiy asarlarini tushunishni ta‘minlash va yangi shakllanayotgan eski o‘zbek adabiy tilini targ‘ib qilish, uning o‘ziga xos jihatlarini ommaga singdirish xarakteriga, shakllanayotgan tilning takomillashuviga yordam berishiga xizmat qiluvchi lug‘atchilik edi.

Ikkinci davr lug‘atchiligi XIX asrning 20-yillaridan harakatda bo‘lgan mustamlakachilikka xizmat qiluvchi, shu ehtiyojni amalga oshirishni ko‘zlab amalga oshirilayotgan, ya’ni O‘rta Osiyo xalqlari tili va etnografiyasi, boshqa jihatlarini o‘rganib, ular orasiga ”suqulib kirish“, kuzatuv ishlarini olib borish, qanday qilib bo‘lsa-da mahalliy xalqni qaram qilish niyati bilan vujudga kelgan lug‘atchilik, ta‘kidlaganimizdek, asosan, ruscha - o‘zbekcha, o‘zbekcha - ruscha xarakteridagi, ya’ni o‘zaro muloqotni amalga oshirishni ta‘minlovchi lug‘atchilik xarakterida edi[11].”

Mazkur davrni davrlashtirishda olim xolis va to‘g‘ri prinsipga tayanadi hamda ilmiy-nazariy qarashlarini ilgari suradi. Tarixdan ma’lumki, ikkinchi davrda haqiqatan, ijimoiy-siyosiy maqsadlar lug‘at tuzish, lug‘atshunoslik va

terminologiya borisidagi ishlarga bevosita aralashdi. "Turkiston viloyati gazeti" 1891- yilgi 19-20- sonlaridagi "Rus tilini o'rganishning ahamiyati hakida" sarlavhasi ostidagi maqola ham olimning fikrini bevosita tasdiqlaydi.

Maqolada Turkiston aholisining tilida ilmiy termin yo'qligi va fan taraqqiyoti uchun hissa qo'shmaganligi iddo qilingan. O'zbek xalqining tili qashshoq va biror asarni tarjima qilib bo'lmasligi keltirilgan.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib aytganda, o'zbek tilshunosligida lug'atchilikni tarmoqlar bo'yicha o'rganishga yetarli darajada tajriba mavjud. Qator sohalarda terminalogik ilmiy-tahlily tadqiqotlar qilingan. Tarjima lug'atchiligining shakillanish tarixi va o'ziga xosligi bo'yicha tadiqiqot olib borishga ehtiyoj sezilmoqda. Bu esa o'z navbatida o'zbek adabiy tilining ravnaqiga ulkan bir hissa bo'lib qo'shiladi.

#### ADABIYOTLAR

1. Normatov S. E. Filologiya fanlari doktorligini olish uchun yozilgan dissertasiya avtoreferati.- 15-16-betlar.
2. Mirziyatov Shuhrat Mirgiyazoviya. "Muqaddimatu-l-adab" asarida tilshunoslik, lug'atshunoslik, lug'atshunoslik an'analarini va arabiyy-turkiy so'zlilikning leksik -semantik talqini. Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiysi avtoreferati. – 11- bet.
3. Nurmonov A. O'zbek tilshunosligi tarixi. – Toshkent: Ma'naviyat, 2002. – B. 99.
4. G'afurova S.U. Salohidin Toshkandiyl "Lug'oti salos" asarining leksikografik xususiyatlari: Filol. fanlari bo'yicha falsafa doktorlik (PhD) diss . – Toshkent, 2018. 12- 18 – betlar.
5. Normatov S. E. O'zbek lug'atchiligining shakllanishi va rivojlanishida jadid ma'rifatparvarlarining o'rni. Filologiya fanlari doktorlilk(DSc diss.- Toshkent, 2019. 185-bet.
6. Butaev Sh. "Inglizcha-o'zbekcha" lug'at. Toshkent: "BAYOZ". 2013, 734-b.
7. Rahmatov F. "Inglizcha-o'zbekcha, o'zbekcha-inglizcha" lug'at. Toshkent: "FUTURE-BOOKS". 2020, 880-b.
8. Ibrohimov N., Oripov A., Ikromjonov A., Zayriev A. "Al-Qomus (arabcha-o'zbekcha qomusiy lug'at)". 4 j. 1 j. Toshkent: "G'afur G'ulom nomidagi matbaa ijodiy uyi". 2017, 13-14- betlar.
9. Salomov G'.T. "Tarjima nazariyasi asoslari" . Toshkent: "O'qituvchi". 1983 y.- 18-19- betlar.
10. Ribalkin V.S. "Prinsini postroeniya arabiskix leksikograficheskix trudov VIII-XVIII vv ". Diss ... kan. filol. nauk.- L., 1984.- S 23.
11. Normatov S.E. O'zbek lug'atchiligining shakllanishi va rivojlanishida jadid ma'rifatparvarlarining o'rni. Filologiya fanlari doktorlilk(DSc diss.- Toshkent, 2019. 189-190-betlar.



Zebuniso ISANOVA,

O'zbekiston davlat jahon tillar universiteti tayanch doktoranti

E-mail: zebunisoisanova7@gmail.com

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD M.Nizomova taqrizi asosida

## THE NOTION OF PLURILINGUAL COMPETENCE IN THE CEFR

### Annotation

This article examines the essence of plurilingual competence included in CEFR. Differences of the concept of plurilingualism from the concepts of bilingualism and multilingualism have been cited, and how to interpret in CEFR as a holistic concept has been analyzed.

**Key words:** CEFR, plurilingual competence, pluricultural competence, plurilingual repertoire, plurilingual comprehension, pluricultural repertoire, bilingualism

## ПОНЯТИЕ ПЛЮРИЛИНГВАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ В CEFR

### Аннотация

В данной статье рассматривается сущность плюрилингвальной компетенции, включенной в CEFR. Были приведены отличия концепции плюрилингвизма от концепций билингвизма и многоязычия, а также проанализировано, как интерпретировать CEFR как целостную концепцию.

**Ключевые слова:** CEFR, плюрилингвальной компетенция, поликультурная компетенция, плюрилингвальный репертуар, плюрилингвальное понимание, поликультурный репертуар, билингвизм.

## CEFRDA PLURILINGVAL KOMPETENSIYA TUSHUNCHASI

### Annotatsiya

Ushbu maqolada CEFRga kiritilgan plurilingval kompetensiyaning mazmun mohiyati ko'rib chiqilgan. Plurilingvalizm tushunchasining bilingvizm va multilingvalizm tushunchalaridan farqlari keltirilib, yaxlit tushuncha sifatida CEFRda kanday talqin qilinish tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** SEFR, plurilingval(ko'p tilli) kompetensiya, multimadaniy kompetensiya, plurilingval repertuar, plurilingval tushunish, multimadaniy repertuar, bilingvizm

**Kirish.** O'tgan asrning 80- yillardan boshlab ko'p tillilik tushunchasiga yangicha qarash kirib keldi. Yevropa Kengashi individual ko'p tillilik tushunchasini ilgari so'rdi. Yevropa Ittifoqi ko'p tillilik (multilingvalizm) tushunchasini ona tilidan tashqari Yevropa Ittifoqining kamida ikkita tiliga egalik qilish sifatida bildi va til ta'limga oid hujjatlar bilan tasdiqlangan norma deb hisobladi.

**Mavzuga doir adabiyotlar tahlili.** Plurilingvalizm va plurilingval kompetensiya to'g'risida D.Koste, D. Mur, G. Zarate [1], Pikardo [2], A. Galante [3] kabilar tadqiqot olib borishdi.

Pikardo plurilingvalizmni ko'p tilli jamiyatga nisbatan ishlatsa A.Galante va boshqalar(...)faqatgina individualga qaratadi va ko'p tilli jamiyatga nisbatan multilingvalizmni ishlataladi. Plurilingualizm shaxsnинг repertuarida tillar va til variantlari/lahjalardan foydalanishni o'z ichiga oladi. Bu multilingvalizm va til uzatishga (translanguaging) o'xshaydi; ammo, uchta asosiy farq mavjud. Birinchisi, plurilingvalizm xayotiy tajriba orqali egallangan madaniy bilimlarni nazarda tutuvchi plurikulturalizmni o'z ichiga oladi [4].

Ikkinci farqi turli tillar, shevalalar va madaniyatlarda notejis va muvozanatsiz bo'lgan qisman kompetensiya(partial competence)[5]. Uchinchi farq bu moslashuvchanlikni bildiruvchi agent til foydalanuvchilar /o'quvchilar/ tayaniши mumkin bo'lgan lingvistik va madaniy bilimlardan qisman bo'lsa ham foydalanish [6].

Bu uch farq plurilingval va multimadaniy kompetensiya tushunchasi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega [7].

Ko'p tilli( plurilingval) insonlarning aksariyati o'z tillaridan o'ziga xos va turli aloqa ehtiyojlarini qondirish

uchun foydalanadilar. Va ular har bir tillarda turli xil kompetensiyalarni rivojlantiradilar. Bu kompetensiyalar muloqot zaruriyatidan kelib chiqib turli vazifalarni bajaradi. Bir tilni qisman bilishlikni kompetensiyaning yo'qligi yoki uni pastligi bilan adashtirmaslik kerak.

Galante plurilingvalni ikki yoki undan ortiq tilni biladigan, lekin ular bilan bir xil darajada gaplashishi shart emas; masalan bir til boshqasiga qaraganda ravonroq bo'lishi mumkin. Shuningdek plurilingval shaxs bir xil tilning variantlarini(dialektlarini) masalan, tilni mamlakatning turli mintaqalarida, yoki boshqa mamlakatlarda qanday qullanilishini biladigan kishidir.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ko'p madaniyatli shaxs bu ikki yoki undan ortiq madaniyatlardan xabardar bo'lgan lekin ularni bir xil darajada qabul qilish shart emas. Ko'p madaniyatli shaxs shuningdek bir mamlakat/ shahardagi madaniyatlar o'rtaqidagi farq va o'xshashliklarni masalan bir mamlakatning turli mintaqalarida odamlar o'zini qanday tutishimi biladigan odamdir [8].

Plurilingval kompetensiyadan foydalanuvchi o'zining mavjud ijtimoiy lingvistik va pragmatik kompetensiyalariga tayanadi, bu ko'plab tillarning tuzilishi va tashkil yetilishining umumiyyatini o'ziga xos tamoyillarini tushunishni shakllantiradi.

Plurilingval kompetensiyaning assimetrik rivojlanishi uning tarkibiy qismlarining notejis rivojlanishi bilan belgilanadi: retseptiv va reproduktiv, polilingvistik va metakognitiv.

CEFR kommunikativ kompetensiyaga asoslanadi, bu kompetensiya murakkab to'plam komponentlarni yoki sub kompetensiyalarni o'z ichiga oladi. Bu boshqalar bilan muayyan madaniy resurslarini nazorat qilish va

ulardan foydalanish orqali hosil qilinadigan bilim, ko'nikma, malakalar, munosabat va qadriyatlar orqali muloqot qilish demak. Xorijiy til o'rganishda o'rganuvchini hali plurilingval hisoblamasakda, u til o'rganishda o'z ona tili va o'rganayotgan tilida allaqachon egallagan bilimlarga tayanadi.

- Inson o'zi biladigan turli tillardan turli usullar va aloqa shakllaridan foydalanish qobiliyati ko'p tilli (plurilingval) kompetensiya deyiladi. Ko'p tillilik va madaniyatlararo kompetensiya bir biriga bog'liq hodisa bo'lib, insonga boshqa madaniyat vakillari bilan muloqot qilish, tillar va madaniyatlar o'rtaqidagi farqlar tufayli kelib chiqadigan to'siqlarni bartaraf etish imkonini beradi.

- CEFR (2001-yil, 1.3-bo'lim, CEFR 2018: 157) ga ko'ra, shaxs o'zining lingvistik tajribasini kengaytirar ekan, "u bu tillar va madaniyatlarni bir-biridan qat'iy ajratilgan aqliy bo'linmalarda saqlamaydi, balki til bo'yicha barcha bilim va tajribalar hissa qo'shadigan hamda tillar o'zaro bog'langan va o'zaro ta'sir qiladigan kommunikativ kompetensiyanı shakkantiradi" [9].

- CEFR (2018) ga ko'ra, ko'p tilli va ko'p tilli kompetensiyalar til va muloqot haqida xabardorlikni rivojlantirishga yordam beradi, ular keyinchalik til va madaniy doiralarda o'rganishni ma'lum darajada oshirishi mumkin [10].

- CEFR ko'p tillilikni bir tildan ko'p tillarda, muayyan holatlarda, bir nechta sohalar ichida samarali muloqot qilish uchun bir lingvistik koddan boshqasiga osonlik bilan almashtra oladigan shaxs qobiliyati sifatida belgilaydi.

- Ikki tilli yoki ko'p tilli kontekstlardan farqli o'laroq, bu erda bitta tilni boshqasidan ustun deb hisoblash mumkin, ko'p tillilik hech qanday til kodи bo'lmashligini talab qiladi boshqalar hisobiga muhim ahamiyatga ega.

- Plurilingvial va multimadaniy kompetensiya tillardan maqsadli foydalanish, muloqot va madaniyatlararo o'zaro ta'sirda ishtirot etish, bu erda ijtimoiy aktyor sifatida qaraladigan shaxs turli darajadagi bir nechta tillarni bilish va bir nechta madaniyatlar bilan tanishish qobiliyatini anglatadi.

- Odadta bu ikki kompetensiya bir biriga muvozanatsiz bo'lishi mumkin masalan til ko'nikmalari bir xilda rivojlanmasligi mumkin (masalan ikki tilda yaxshi gapirishi mumkin ammo ulardan bittasida yaxshi yoza oladi biroq uchinchi tilda yashiroq yoza oladi lekin yaxshi gapira olmaydi). Yoki ikki kompetensiyalar bir biridan farq qilishi mumkin masalan jamiyat madaniyatini yaxshi bilishi mumkin ammo til bilish darajasi pastligi, yoki dominant til madaniyatni yaxshi bilmalaslik)

- Plurilingval va multimadaniy kompetensiya bir biriga bog'liq va o'z ichiga ucta komponentni o'z ichiga oladi, ya'ni plurikultural repertuar (Building on pluricultural repertoire), ko'p tilli tushinish (Plurilingval comprehension) va ko'p tilli repertuar (Building on plurilingval repertoire).

- Multimadaniy repertuarga asoslanish shaxsiy til tajribasi va muammolarni hal qilish qobiliyati orqali sotsiolingvistik yoki ijtimoiy-madaniy tabiat adekvat til modellari va strategiyalaridan foydalanish xorijiy madaniyat vakillari bilan muloqot qilishga asoslanadi.

Aslida Hoshimjon va uning sehrli qalpog'i haqidagi asari "Sariq devni minib" va "Sariq devning o'limi" nomli romanlardan iborat. Shu jihat bilan u Mark Tvenning romanlariga o'xshashlik bor. Hoshimjon ham Tom Soyerga o'xshab qiziqqon, turli yangiliklarga o'ch bo'lib, jamiyatdagi ba'zi tartib qoidalarga qarshi boradi, o'yinqaroqligi, dengasaligini yashirish uchun har xil nayranglar o'ylab topadi. Masalan, ekspozitsiyaning davomida yana bir episod borki, bu fikrimiz isboti bo'la oladi: "Rostini aytasam, o'zim ham unchalik yomon bola emasman. Aql-hushim joyida, odobim chakki emas, oltinchi sinfning intizomli o'quvchilaridanman. Bir xil, haligi sho'x bolalarga o'xshab, kun bo'yi ko'cha changitib yurmayman. Yashirib nima qilaman, ko'cha changitib yurgandan ko'rcha komandaga bo'linib olib to'p tepgan yoki holiroq joyga, masalan, oying harchand chaqirmsam ham ovozi yetmaydigan joyga borib chillak o'ynagan ming marta yaxshi"[2].

Ko'rindaniki, Hoshimjon voqeani bayon qilar ekan, o'zining shumligini ham ochiq aytadi (oying harchand chaqirsa ham ovozi yetmaydigan joyga borib chillak o'ynagan ming marta yaxshi), buning ustiga u aqli ham sanaladi. Ya'ni, ikki komandaga bo'linib to'p tepish jamoaviy o'zin bo'lib, bunda bola jamoa ichida o'zini tutishni ham o'rganadi, jismonan va aqlan kamol topa boshlaydi.

Kompozitsiyada, aniqrog'i, uning bayon usuli degan komponentida bosh qahramonning o'zini ko'rsatishga intilishi, odamlar muammosiga o'zicha yechim topishga urinishi ostida havf-xatarga to'la sarguzasht borligini anglatadi. Sarguzasht romanlar haqida so'z borganda, olimlar syujet voqealarining qiziqarli bo'lishi, favqulodda qiziq tus olishi, o'tkir

intrigalarga boyligi, voqealar rivojida kutilmagan keskin o'zgarishlar, personajlar qismatida tez burilishlar yuz berishi, asar qahramonlarining turli sinovlarga duch kelishiyu har qanday to'siqlarni yengib o'tib, turli-tuman balo-qazolardan omon chiqishi kabi xususiyatlarni keltirishadi. Hoshimjonda ham shunga o'xshash tomonlar borligi quydagi dialogda ham ko'rindi. Lekin u o'z shumligini jamiyatdagi kattalarning mantiqsiz harakatlariga bog'lab asoslashga harakat qiladi. Masalan:

- Hoshim! – deb chaqiradi ba'zan oyim.
- Labbay, oyijon?
- Tomdan o'tin tashlab bergin.
- Xo'p bo'ladi, oyijon, – deymanu sekin u yoq-bu yoqqa qarayman-da:

- Oysha! – deya qichqiraman.

- Labbay, akajon!

- Tomdan o'tin tashlab bergin.

- Xo'p bo'ladi, akajon. – deydi Oysha. Shunday demasa ishlar chatoq, och biqinga musht kelib tushadi. Ishqilib, oyimning gapini hech yerda qoldirmayman. Aslini olganda o'zining bajarishing shart emas. Fermamiz mudiri Sirojiddin aka ham nuqul shunaqa qiladi. Raisdan biror topshiriq olib kelsa a'zolariga topshiradi[2.16].

Bu yerda Xudoyberdi To'xtaboev bola tilidan jamiyatdagi kamchilikni, ma'muriy buyruqbozlikni tanqid qiladi. Bunday boshqaruv nafaqat kattalarga, hattoki, bola tarbiyasiga ham salbiy ta'sir etishini ishonarli tarzda ochib beradi. Shuningdek, jamiyat rivojlanishidagi ijtimoiy munosabatlarning tabiiy bo'lishini bola tushunchasi bilan anglatadi. Agar shunday qilinmasa, tuzumni tanqid qilyapsan, degan ayb qo'yilishi mumkin. Bola tilidan bayon etilganda esa uncha e'tiborga olinmaydi. Bundan tashqari, bu yerda Hoshimjonning har bir topshiriqni boshqalar hisobiga bajarishga urinib, o'zi rahmat olishi, agar topshiriq singillari bajarmasa, urishi - och biqiniga musht tushishini ham tan oladi. U hatto yaqin do'sti, har qanday tenglama-yu masalalarni yechadigan sinfdoshi Orifni ham kaltaklaydi. Bu bilan Hoshimjonning sho'x, urishqoq, tirishqoq ekanligini kuzatamiz.

Yuqoridaq parchalarda yozuvchi obraz xarakterini ochish, romandagi bayon usulini qanday shakllantirish va syujetning mantiqiy asoslash orqali yaxlit kompozitsiyani yaratganini ko'rish mumkin. Bu bilan bolalarbop romanlarda obraz kompozitsiya yaratishda yetakchi vazifani bajarishini ham isbotlagan. Agar voqealari Hoshimjon tilidan emas, balki muallif tilidan bayon etilganda, obrazning kompozitsiyadagi o'rni bu qadar teran va ta'sirli ochilmas, Hoshimjonning psixologiyasi ham ishonchli chiqmasligi mumkin edi. Shu ma'noda obraz kompozitsiyasi va umumiyligi kompozitsiya munosabatlari roman badiyatini asosiy o'rinda turadi. Chunki Hoshimjon obrazi ichki olami, tushunchasidan kelib chiqib kutilmagan qarorlar qabul qilishi, voqealar rivojiga favqulodda burilish kiritish va buni o'z vaziyatidan kelib chiqib asoslashi mumkin, xolos. Hoshimjon maktabdag'i o'qishlari pastligini onasidan yashiradi, uy vazifasini bajarish uchun Oifning onasini ham aldaydi, oxiri mifik tab direktori nomiga algebra, geometriya, ona tili kabi fanlarni olib tashlash, o'rniga futbol degan fanni qo'yishni so'rav ariza yozadi[2].

Yozuvchi bunday ariza yozishgacha bo'lgan bola holatini, ruhiyatni, vaziyati og'irligini Hoshimjonning tilidan bayon qilib, voqealari rivojidagi o'zgarishini asoslaydi. Ariza yozish esa bola uchun oxirgi chora, imkoniyat ekanligini ko'rsatadi. Arizadagi asosiy fanlarni yoqtirmaslik, bir narsayu, uni vaqtincha o'qishmaslikni so'rash ikkinchi narsa bo'lib, bu bilan bolaning xatarli vaziyatga tushib qolishiga o'zi sababchi ekanligini anglatadi. Ammo buni Hoshimjon hali anglamaydi. Lekin Hoshimjon obraz sifatida yomon emas, u futbolni sevadi, shuning uchun biroz g'alati tuyulsa-da, o'tgan asrning oltmishinchini yillari Paxtakor komandasida to'p surgan

mashhur futbolchidan saboq olishni istaydi. Bu yerda bolaning ijtimoiy hayotdagi muammoga, ya’ni futbolda katta yutuqlarga erishish uchun mohir futbolchilar bolalarga saboq berishi kerakli haqidagi fikri ham keltiriladi.

Shu yerda obraz va kompozitsiyadagi munosabat, birinchidan, tasvir predmeti bilan emas, faqat bayon qilinayotgan hodisa bilan bog’liq ekanligi aniqlanadi, ikkinchidan bayon qilish hodisasi ma’lum matn doirasida yuzaga chiqmoqda. Matn ham o’z o’mrida badiiy rivoya va rasmiy xat shakli bilan munosabatga kirishmoqda. Natijada syujet liniyasidagi voqealar rivojida o’ziga xos kattaroq tugun paydo bo’ldi. Shu tariqa yozuvchi kompozitsiyaning tashqi shakllarini belgilaydi. Aynan syujetdagi bir nechta mayda tugunlar shu yerda kata muammoga aylanib, birinchi planga chiqmoqda hamda kompozitsiyaning keyingi ko’rinishida albatta direktor va ota-onasi qatnashishi, voqealar mantiqiy rivojidan kelib chiqib, shart ekanligini talab etyapti.

**Xulosa va takliflar.** Aslida obrazni syujet tarkibiy qismlarining xronologik ketma-ketligidagi voqealar joylashuvni asosidagi tahlili oddiy bo’lib, bunda, asosan, obraz va syujetning yagona kompozitsiya hoslil qilishi, aniqrog’i, o’zaro

mutanosibligiga ko’proq diqqat qilinadi. Ammo obraz va syujet aniq makon-zamonda yuzaga chiqishi undagi ma’lum davr ruhini ifodalashi, obrazlarni o’z zamonasi qoliplaridan chetga chiqishini ham taqazo etadi.

“Demak, yaratilayotgan badiiy asar, .... nutqiy qurilish, badiiy voqelik va ularning turli qismlarini o’zaro uyg’un hamda muvofiq munosabatlarda joylashtirilsa, asar kompozitsion jihatdan yetuk sanaladi. Ammo kompozitsiya yaratishni faqat shuni o’zidangina ibrat deb bilsak, kompozitsiya shakliy unsuri degan yanglish fikr ham chiqib keladi. Kompozitsiya birinchi galda qism (nutqiy qurilish, badiiy voqelik)larining o’zaro munosabati, ya’ni asar mavzusi, g’oyasi, ular mohiyatida namoyon bo’ladigan ijtimoiy muammolarining o’zaro muvofiq kelishini ta’minlaydi. Demak, kompozitsiyada badiiylikning muhim sharti bo’lgan badiiy shakl va mazmun birligi namoyon bo’ladi”[2]. Ustozimizning mazkur mulohazasiga ko’ra, syujetni tashkil etuvchi voqealari, hodisalar real borliqdagi dalillar bilan turlicha munosabatda bo’lishi mumkin. Bu esa romandagi obraz va kompozitsiya munosabatlariiga ta’sir qiladi.

#### ADABIYOTLAR

1. To’xtaboev X. Sariq devni minib. Sarguzasht roman. – Toshkent: Yosh gvardiya, 1982. – 464-b.
2. Ikromxonova F.I. Kompozitsionnaya struktura istoricheskoy povesti Mirkarima Osima «Tumaris». Vestnik Chelyabinskogo gosudarstvennogo universiteta. 2021. № 1 (447). Filologicheskie nauki. Vip. 123. – S. 55—60.
3. Qur'onov D. Adabiyotshunoslik nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2018. 480-b.
4. Qur'onov D., Mamajonov Z., Sherlieva Z. Adabiyotshunoslik lug’ati. Qayta nashr. – Toshkent: Akademnashr, 2013. – 408 b.
5. Kurbanova M. (2022). Children’s literature in the United States: genesis and development. A.Qodiriy Nomidagi Jizzax Davlat Pedagogika Instituti. <https://doi.org/http://doi.org/10.51348/tziuj>.
6. Kurbanova M. (2022). "Гекльберри Финн саргузаштлари" романидаги сюжет ва конфликт ҳақида баъзи мулоҳазалар. Хоразм Маъмун академияси.



**Mexribon MAHMUDJONOVA,**

Samarqand davlat chet tillar instituti o'qituvchisi

E-mail: mahmudjonova-a@samdchti.uz

SamDChTI dotsenti, f.f.n.O'.U.Usmonov taqrizi asosida

## INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA BIR VALENTLI SINTAKTIK BIRLIKLER DISTRIBUTSIYASI

Annotatsiya

Mazkur maqola ingliz va o'zbek tillarida bir valentli sintaktik birlıklarning gap tarkibidagi qurshovi, sintaktik o'rni va morfologik ifodalananishini o'rganishga bag'ishlangan. Unda ingliz va o'zbek tillarida bir xil sintaktik vazifada kelgan komponentlarning valentligi soni bir xil bo'lmashligi mumkinligi tahlil asosida ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Valentlik, sintaktik qurilma, yunksion model, komponent model, noyadroviy predicativ aloqa.

## DISTRIBUTION ON MONO-VALENCE SYNTACTIC UNITS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Annotation

The article focuses on the study of the distribution, syntactic position and morphological expression of univalent syntactic units in the sentence structure in the English and Uzbek languages. Based on the analysis, it was revealed that the number of valences of the components appearing in the same syntactic function in English and Uzbek languages may not be the same.

**Key words:** Valency, syntactic structure, junctional model, componential model, non-nuclear predicative connection.

## РАСПРЕДЕЛЕНИЕ ОДНОВАЛЕНТНЫХ СИНТАКСИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация

Статья посвящена изучению дистрибуции, синтаксического положения и морфологического выражения одновалентных синтаксических единиц в структуре предложения в английском и узбекском языках. На основе анализа было выявлено, что количество валентностей компонентов, появляющихся в одной и той же синтаксической функции в английском и узбекском языках, может быть неодинаковым.

**Ключевые слова:** Валентность, синтаксическая структура, юнкционная модель, компонентная модель, неядерная предикативная связь.

**Kirish.** Tilda doimiy o'zgarishlar bo'lgani kabi tilshunoslik fanida ham turli yondashuvlar, qarashlar va nazariyalar, biri ikkinchisini to'ldiradigan yoki qarshi chiqadigan fikrlar olg'a suriladi. Zero, muayyan qonuniyatlar qardosh va qardosh bo'limga tillararo farqlanadi. Shuningdek, har bir tilda umumiylilik va xususiylik mavjud. Shu nuqtai nazardan qardosh bo'limgan ingliz va o'zbek tillari gap qurilmasida hamda sintagmatik qatorda so'zlarning birkish usullarida farqli tomonlar kuzatiladi. Mazkur maqolada ingliz va o'zbek tillarida bir valentli sintaktik birlıklarning distributsiyasini muhokama qilar ekanmiz, avvalo ularning gap tarkibidagi sintaktik vazifikasi va o'rni haqida mulohaza qilishimiz hamda sintaktik valentlik haqida tilshunoslarning yondashuvlarini qisqacha bayon etib o'tishimiz lozim.

Dunyo tilshunosligida fonologik, leksik va semantik qatlamlar bilan bir qatorda sintaktik valentlik va sintaktik birlıklarning semantikasini aniqlash, ularni tillararo qiyosiy tahlil qilish natijasida erishilgan yutuqlarga badiiy tarjimada ham o'z samarasini bermoqda. Lingvistikada muhim ahamiyatiga ega bo'lgan sintaktik sathda valentlik nazariyasiga turli xil yondashuvlar mayjud. Shu nuqtai nazardan tilshunoslarda yechimini kutayotgan muammolardan biri, ya'ni qardosh bo'limgan tillar gap qurilmalarining paradigmatic va sintagmatik yo'nalişlarning valentlikni aniqlash, gaplarni sintaktik valentlik asosida tahlil qilish va sintaktik birlıklarning semantikasini ochib berish kabi ustuvor yo'nalişlarda tadqiqotlar olib borilish ehtiyoji bor.

O'zbek tilshunoslida ham valentlik nazariyasi bo'yicha til sathlari doirasida tadqiqotlar, asosan, fe'lning leksik xususiyatlariga tayangan holda olib borilgan. Til birlıklarining leksik va semantik valentligining o'rni va

ahamiyatini o'rganishda jiddiy yutuqlarga erishilgan bo'lsa-da, sintaktik sathda valentlik borasidagi monografik ishlar nisbatan kamchilikni tashkil qiladi. Shuningdek, gapni bo'laklarga ajratib tahlil qilish an'anaviy usuli o'zini to'liq oqlamayotganligi sababli sintaktik tahlilning yangicha usullaridan foydalanish zarurati mavjud. Mazkur tadqiqot ishida sintaktik sathda har qanday mustaqil so'z turkumi valentlikka ega bo'lishi mumkinligi haqidagi qarashning mohiyatini ingliz va o'zbek tillari gap tarkibini zamonaviy tadqiq metodlaridan komponentlarga va sintaksemalarga ajratish, transformatsiyaning turli xil usullaridan foydalanish orqali qiyoslab ochib berish dolzarb muammolar sirasiga kiradi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Tilshunoslida, ma'lumki, valentlik asosan fe'lga bog'lab o'rganiladi va fe'l gapda aktantlarni boshqarish xususiyatidan kelib chiqib nolga teng valentli, bir valentli, ikki valentli, uch va to'rt valentli fe'llar farqlanadi. L.Tenyerning mazkur verbosentrik nazariyasi asosida M.V.Vlavatskaya (2011) nemis tilidagi sintagmatik aloqlarni tadqiq qilgan [1]. O'tgan asrda yurtimiz tilshunoslardan N.P.Bilimovich (1983) rus tilidagi fe'l valentligining xususiyatlari borasida tadqiqot olib borgan bo'lsa [2], yangi avlod tilshunoslardan Sh.A.Ganiyeva (2016) o'zbek tilidagi frazeologizmlar valentligini aniqlash borasida bir qator ishlarni amalga oshirgan. Bu kabi ishlarda asosiy e'tibor leksik-semantik valentlikka qaratilgan [3].

R.M.Asadovning (2014) sintaktik valentlikka yondashuviga binoan gap qurilmasida nafaqat fe'l, balki har qanday sintaktik birlik sintaktik valentlikka ega bo'la oladi. Bunda sintaktik valentlik sintaktik aloqa asosida aniqlanadi, ya'ni gap bo'lagi nechta sintaktik aloqaga kirishsa, shuncha

sintaktik valentlik ega bo'ladi Mazkur maqola gap qurilmasida sintaktik birliliklarning differensial sintaktik, sintaktik-semantik belgilarini va muayyan sintaktik aloqalar asosida boshqa sintaksemalar bilan birikish imkoniyatlarni aniqlashga e'tibor qaratilgan. Sintaktik tahlildagi an'anavy gap bo'laklariga ajratib tahlil qilish o'zini to'liq oqlamayotganligi sababli mazkur tadqiqot ishida sintaktik tahlilning yangicha usullaridan, ya'ni komponentlarga va sintaksemalarga ajratib tahlil qilish metodidan foydalanildi. Komponentlarga ajratib tahlil qilishda valentli elementlar gaplarning tashqi qurilmasini tashkil qiladi. Sintaksemalarga ajratib tahlil qilishda esa valentli elementlar gaplarning ichki qurilmasini qamrab oladi [4]. Shunga o'xshash yondashuvni nemis tilshunoslarining ot va sifat valentligi borasidagi ishlardida (Institut für Deutsche Sprache 2018) kuzatishimiz mumkin [5]. Xususan Malchukov va Komrielarning (2015) izlanishlari e'tiborga molik [6].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Gap qurilmasida bir valentli yoki monovalentli sintaktik birliliklar bitta sintaktik munosabatga kirishib, yadro predikativ, noyadroviy predikativ yoki subordinativ aloqalar asosida vogelanadi. Mazkur holat qardosh bo'lмаган ingliz va o'zbek tillarida o'xshash bo'lsada, ularning ifodalanish usullari, morfologik xususiyatlari bir-biridan farq qiladi.

**Tahlil va natijalar.** Ingliz tilida yadro predikativ aloqa bazasida faollashgan bir valentli elementlar yadro predikatlanuvchi (NP1) va yadro predikatlovchi (NP2) komponentlari o'rniда bosh kelishikdagi ot yoki olmosh, sof fe'l, fe'lning infinitiv yoki gerundiy shakli, son, ravish va sifat bilan ifodalanishi mumkin. O'zbek tilida NP1 va NP2 vazifasidagi monovalentli komponentlarning morfologik ifodalanishi ingliz tilidagidek bo'lishi bilan bir qatorda quyidagi farqli tomonlari mavjud: yadro predikatlanuvchi komponent o'rniда ot egalik affikslarini, yadro predikatlovchi komponent o'rniда ot jo'nalish yoki o'rın-payt kelishigi, fe'l shaxs-son qo'shimchalarini olib ifodalanishi mumkin. Bunday

holat o'zbek tilining flektiv tizimli tillar turkumiga kirishi bilan dalillanadi.

Monovalentli sintaktik birliliklar subordinativ aloqa asosida noyadroviy tobe (ND) komponent o'rniда kelib yadro komponentiga yoki boshqa bir tobe komponentiga bog'lanadi. Bir valentli tobe komponentlar ingliz tilida bosh kelishikdagi ot, obyekt kelishikdagi olmosh, predlogli birikmalar, sifat va ravishlar yordamida voqelansa, o'zbek tilida so'z turkumlari barcha kelishik shakklerida kelishi, otlashgan so'zlar bilan ifodalanishi ko'zga tashlanadi. Ingliz tili flektiv tillar tizimiga mansub bo'lib, so'zlarning sintaktik munosabatga kirishida asosiy vosita predloglar hisoblanadi. Shu bois noyadroviy tobe sintaktik birlik vazifasidagi bir valentli elementlar aksariyat hollarda predlogli birikmalar qurshovida faollahashi. O'zbek tilidagi tobe komponentlar qo'shimcha morfemalar vositasida, ya'ni morfologik usulda birikma hosil qiladi.

Гапнинг синтактик таҳлилига тилшунослярнинг турлича ёндашувлари хосиласини хулоса қилиб айтганда, ҳар бир гап бўлганинг морфологик ва синтактик хусусиятларини ўрганиши жараёнида, уларнинг қандай сўз туркуми билан ифодаланиши, лексик бирликларнинг қандай шаклда бўлиши ва қандай синтактик алоқа асосида бошқа синтактик бирликлар билан боғланиши инобатга олиниши зарурдир деган фикрдамиз.

«*Bir valentli komponentlarning gapdagi sintaktik o'rni* deb nomlanib, unda badiiy adabiyotlardan *yig'ilgan misollar* asosida bir valentli komponentlar gap qurilmasida quyidagi sintaktik o'rnlarda kela olishi aniqlangan: 1. Yadro komponentlari (*NP1 . NP2 – ega va kesim*) o'rniда kelgan bir valentli sintaktik birliliklar; 2. Noyadroviy tobe (ND – ikkinchi darajali bo'lak) komponent o'rniда kelgan bir valentli sintaktik birliliklar.

Quyidagi misol orqali har uchala sintaktik o'rinda kelgan bir valentli sintaktik birliklarni yunksion va komponent modellar asosida tahlil qilamiz:

Yu.M.1	ND . NP1 . NP2 . ND K.M.1 SpS S cS prPnob
Walter's death had been a shock to her (SM. 202).	

Mazkur gap qurilmasida har bir sintaktik birlik bir valentli komponent hisoblanadi, chunki ular bittadan sintaktik aloqaga kirishgan. Yadro komponentlar – yadro predikativ 1 (NP1 – ega) o'rniда kelgan death, yadro predikativ 2 (NP2) o'rniда kelgan had been a shock sintaktik birliliklar o'zaro yadro predikativ aloqa asosida bog'lanadi. Noyadroviy tobe (ND) komponent o'rniда kelgan sintaktik birliliklar Walter's va to her ham bir valentli komponentlar bo'lib, yadro predikativ 1 (NP1) – death va yadro predikativ 2 (NP2) – had been a shock sintaktik birliliklar bilan subordinativ aloqa asosida bog'langan. Yadro predikativ 1 (NP1) va yadro predikativ 2 (NP2) o'rniда kelgan sintaktik birliliklar tobe komponentlarga nisbatan hokim yoki tayanch komponentlar hisoblanadi.

Tahlil qilingan gapning komponent modeli quyidagicha ifodalanadi: ND o'rniда kelgan sintaktik birlilik Walter's – (SpS) qaratqich kelishikdagi ot bilan, NP1 o'rnidagi death – (S) bosh kelishikdagi ot, NP2 o'rnidagi had been a shock – (cS) bog'lama fe'l va ot, ND o'rnidagi to her-(prPnob) predlog va ob'ekt kelishigidagi kishilik olmoshi bilan ifodalangan.

Quyida keltirilgan misoldagi noyadroviy tobe komponentlarni tushirib qoldirish transformatsiya yordamida aniqlash mumkin:

Walter's death had been a shock to her →...death had been a shock.... Noyadroviy tobe komponentlarni tushirib qoldirsak ham, gapning asosiy mazmuni saqlanadi. Biroq, yadro komponentlarni tushirib bo'lmaydi:

Walter's death had been a shock to her → Walter's ... had been a shock to her. → Walter's death ... to her.

Transformatsiya hosilasidan ko'rinish turibdiki, yadro komponentlarning tushirib qoldirilsa, gap mazmuni tushunarsiz bo'lib qoladi. Shuningdek, mazkur bo'limda tobe komponentlarning nafaqat hokim bo'laklarga, balki ikkinchi bir tobe bo'lakka nisbatan ham subordinativ aloqa asosida bog'lanishini tahlil qildik.

**Xulosa.** O'z o'rniда shuni aytish mumkinki, ingliz va o'zbek tillarida aynan bir xil sintaktik vazifada kelgan komponentlarning sintaktik valentliklari soni har doim ham bir xil bo'lavermaydi. Bunday nomutanosiblik ingliz va o'zbek tillarining qardosh bo'lмаган tillar oilasiga va turli tizimli tillar turkumiga mansubligi bilan asoslanadi.

Mazkur tadqiqot sintaktik valentlikning sintaktik sathda semantik vogelanishiga bag'ishlangan bo'lib, unda bir valentli komponentlarning gap tarkibidagi sintaktik o'rni, sintaktik belgilarinin sintagmatik tabiatini va ular vositasida ifodalangan sintaksemalar paradigmatikasi qiyosiy-chog'ishtirma jihatdan komponentlarga va sintaksemalarga ajratib tahlil qilish orqali o'rganildi. Юқорида келтирилган фикрлардан келиб чиқиб, шундай хулосаларга келиш мумкин: Турси тизимли тиллар системасини қиёсий ўрганиши бир томонлама бўлса, иккинчи томони эса соғ назарий лингвистик соҳасини камраб олиш билан бирга амалий-услубий мақсадни ҳам ўз ичига олади ҳамда тадқиқот жараёнида назария билан амалиёт ўртасида яқин боғланишини вужудга келтиради, айниқса, турли тизимли тилларни ўрганишда она тили билан чет тили ўртасидаги ўхшашилик ва ноўхашлик томонларини инвентаризация килиш чет тилини чукурроқ ўрганишга ва тушунишга

катта имконият яратади. Тилларни қиёсий ўрганишда бундай ёндашув методи тил ривожланишида, қиёсланаётган тиллар бир-бирини бойитишида, ҳамда тилларро алоқаларини, уларнинг қардошлиги ва қардош бўлмаган даражаларини атрофлича ўрганишга имконият яратади.

#### ADABIYOTLAR

1. Влавацкая М.В. Теория валентности как интерпретации синтагматических связей слов в немецком языкоznании // Сборник материалов 2-й международной научно-методической конференции «Межкультурная коммуникация: лингвистические и лингводидактические аспекты». – Новосибирск, 20-21 апреля 2011г. Новосибирск: НГТУ, 2011.– С.111-120.
2. Билимович Н.П. Лексико-семантическая субъектная валентность бесприставочных глаголов перемещения в современном русском языке (на матерееале научного стиля) // Функция и семантика лингвистических единиц, сборник научных трудов.– Ташкент: ТашГПИ, 1983.– С.106-108.
3. Ганиева Ш.А. Темпоральная валентность фразеологизмов узбекского языка // Ученый XXI века. – Йошкар-Ола, 2016. – № 3-4. – С.19-21.
4. Asadov Rustam Muminovich. Syntaxemes expressed by bivalence components / Grein, Marion Neue methodische Ansätze im DaFUnterricht am Beispiel Usbekistans. Band 2. Mainz: Salonlöwe Edition Wissenschaft. 2014. – P.109-123. Paperback. ISBN: 978-3-944571-12-6.
5. Deutsches Institut für Sprachwissenschaft: <https://grammis.ids-mannheim.de/systematische-grammatik/4537> [12.12.2022]
6. Malcukov, Andrej & Comrie, Bernarnd (eds) (2015). Valency in the World's Languages. Berlin: De Gruyter Mouton.



**Umida MUMINOVA,**

Termiz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

E-mail: avazberdiyevismoil@gmail.com

TDO 'TAU professori, f.f.d B.B. Abdushukurov taqrizi asosida

## PHYTONYMS IN THE WORK "MAHBUB UL-KULUB"

### Annotation

In this article, which language (genealogy) of plant names used in the works of Alisher Navoi belong to, that is, several words are used to name the same plant, words expressing new concepts are formed on the basis of phytonyms, "Mahbub ul -kulub" is used to study lexemes with the word "plant" divided into lexical-semantic groups.

**Key words:** "Mahbub ul-Kulub", plant, genealogical, phytonym, sema, lexeme semantic.

## ФИТОНИМЫ В ПРОИЗВЕДЕНИИ «МАХБУБ УЛЬ-КУЛУБ»

### Аннотация

В данной статье, к какому языку (генеалогии) названий растений, используемых в произведениях Алишера Навои, относятся, то есть для названия одного и того же растения используется несколько слов, на основе фитонимов образуются слова, выражающие новые понятия, «Махбуб ул -«qulub» используется для изучения лексем со словом «растение», разделенных на лексико-семантические группы.

**Ключевые слова:** «Махбуб уль-Кулуб», растение, родословная, фитоним, сема, семантика лексемы.

## “MAHBUB UL-QULUB” ASARIDAGI FITONIMLAR

### Annotatsiya

Ushbu maqolada Alisher Navoiy asarlarida qo'llangan o'simlik nomlarining qaysi tilga mansubligi (genealogiyasi), ya'ni bir xil o'simlikni nomlash uchun bir necha so'zlardan foydalilanigan, fitonimlar zaminida yangi tushunchalar ifodalovchi so'zlar hosil qilinishi, "Mahbub ul-qulub" da qo'llangan "o'simlik" semali leksemalarni leksik-semantik guruhlarga ajratib o'rganish ko'rsatib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** "Mahbub ul-qulub", o'simlik, genealogiy, fitonim, sema, leksema semantik.

**Kirish.** O'simlik nomlari har bir xalq tilida ma'lum qatlamni tashkil qiladi. O'simlik nomlarda shu xalq yashab kelgan tarixiy-geografik hududga va iqlimga mos keluvchi nabotot olami ko'lami ham namoyon bo'ladi.

Tadqiqotchi M.Usmonova mutafakkir asarlaridagi fitonimlar xususida shunday yozadi: Alisher Navoiy asarlari tilida Navoiy qo'llangan o'simliklarga oid 300 dan ortiq so'zlar mavjudligi aniqlandi. Ular mevali va mevasiz daraxtlar va ularning mevalari nomlari, gullar, sabzavotlar, maysa-o'tlar nomlari va ularga aloqador bo'lgan so'zlardir. Alisher Navoiy asarlarida qo'llangan o'simlik nomlarining qaysi tilga mansubligi (ya'ni geneologik) jihatdan bizning o'rganishimiz quyidagi natijalarini berdi: umumturkiy va o'zbekcha so'zlar – 34 ta, arabcha so'zlar – 53 ta, fors-tojikcha so'zlar – 204 ta. Bundan tashqari, arabcha-forscha va forscha-turkiyicha aralash tarkibli 14 ta so'z mavjudligi qayd qilindi[1].

Alisher Navoiy asoslagan til turli-tuman turkiy urug' va qabilalar til xususiyatlarini o'zida birlashtirgan, tarixiy-geografik, ijtimoiy-siyosiy sharoitlar tufayli boshqa tillardan so'z o'zlashtirgan, badiiyati yuksak til sanaladi. Bunday boylik shoir asarlari lug'at tarkibida, xususan, o'simliklarni olamiga mansub leksik fondida namoyon bo'ladi. Ya'ni bir xil o'simlikni nomlash uchun bir necha so'zlardan foydalilanigan, fitonimlar zaminida yangi tushunchalarni ifodalovchi so'zlar hosil qilingan.

**Tahsil va natijalar** "Mahbub ul-qulub"da qo'llangan «o'simlik» semali leksemalarni quyidagi leksik-semantik guruhlarga ajratib o'rganish maqsadga muvofiq:

1. Daraxt nomlari: *meva, samar-* «meva»; *samara* - «meva», *bar* - «meva», *fäkiha* - «meva», *daraxt, yığaç, şajar* - «daraxt», *aşjar* - «daraxtlar», *yafrağ, barg, anār, pista, rızum, sarv, tal, činār*.

2. Gul nomlari: *čaman, bāğ, bāğāt, ravza, bostān, čečäk, gul, nargis, günçə, lāla, nilufar, savsan, saman*.

3. Donli ekinlar nomlari: *ekin, mazra* - «*sekinzor*», *kök, tuxm, dāna, buğday, tariq, arpa, afyun* – «*ko'knori*», *bay* – «*nasha*»,

5. Sabzavotlar nomlari: *sabza, pāliz, rayhān, karam, tarra* – «*sabzavotlar*».

Ma'lumki, boshqa so'zlardan farqli o'laroq, o'simlik nomida shu o'simlikning «*tupi*» tushunchasi ham, «*mevasi*» tushunchasi ham, «*guli*» tushunchasi ham ifodalanadi. Uning «*tupi*» yoki «*mevasi*», yoki «*guli*» ma'nosida ekanligi nutqiy birlikdan (kontekstdan) anglashiladi. Chunonchi, Navoiy asarlari tilida **gul** shu ma'nodagi yagona so'z emas, «*gul*» ma'nosini umumturkiy **čečäk** so'zli ham ifodalagan: *Quyaş bilä abri bahārdeq qara tufrağdin gullar ačar* (MQ,10); *Yafragni ipäk qilur, čečäk bargini bäl* (MQ,77). **Čečäk**ni ilk bor Yusuf Xos Hojibning “Qutadg'u bilig” dostonida, **gul** (DTS,195) o'zlashmasini esa dastlab Ahmad Yugnakiyining “Hibatul haqoyiq” asarida uchratamiz: *yelik kulmuz o'ynar chechaklar uza* – yovvoyi echki va takalar chechaklar uzra o'ynar (DTS,143). Shuningdek, ob'ekt qilib olingan manbada *gulning grammatic ko'plik* («*gullar*») ma'nosida turkiy **čaman** (MQ,29), arabcha **ağläl** (MQ,28), fors-tojikcha **gulistän** (MQ,6), **gulşan** (MQ,44), **bostān** (MQ,7) istohlari ham qo'llangan.

“Mahbubu ul-qulub” asari tilida gul turlarini ifodalovchi bir nechta so'z mavjud. Ularning barchasi fors-tojik tiliga mansub so'zlar bo'lib chiqdi.

1. **Läla** so'zi hozirgi o'zbek tilidagidek gul turini ifodalagan: *Yel ägärçi läla tājīn učurğay* (MQ,62)

2. **Nargis** hozirgi o'zbek tilida «oq yoki sariq gulli ko'p yillik o't va uning chiroyli guli» (O'TIL,III,17)

ma'nosidagi o'simlikni anglatish uchun qo'llanadi: *Nargisedürki, davrān čamaniğā köz salmaydur* (MQ,60).

3. **Nilufar** xuddi hozirgi o'zbek tilidagidek, «uvda o'sadigan ko'kimtir yoki sariq rangli gul»ni ifodalaydi: *Azamatı bāğında sipehri davvār bir nilufardin kam* (MQ,6).

4. **Savsan** hozirgi o'zbek tilidagi *gulsapsar* o'rnda qo'llangan: ...*ağzī sadaf ağzidek va tilī savsan tilidek quruğay* (MQ,23).

O'simliklar olamining bir turkumini umumiylar ifodalovchi daraxt va uning tushunchasini anglatuvchi so'zlar o'rganilayotgan asarda quyidagi tarzda aks etgan.

**Yığač** «daraxt – tana qo'yib, shox va novdalar chiqarib o'sadigan ko'p yillik o'simlik» ma'nosida: *Mevasiz yığač hamānu otun hamān* (MQ,59). Turkiy atama birinchini marta XI asr yodgorliklari, jumladan, Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» dostonida qayd etilgan: *uquşsuz kişi ol yemişsiz yığač* – bilimsiz kishi mevasiz daraxt kabitidir (DTS,265).

**Şajar** «daraxt va «nihol» ma'nosida: *Va bu şirin meva valāyat bāğī şajarasidin bolğay* (MQ,49). Mazkur arabcha o'zlashma asarda ko'chma ma'nolarda ham qo'llangan, «kelishgan qad-qomat», «meva, hosil, samara» ma'nolarda ishlataligan: *İnsāniyat bāğınıñ dilpisandraq şajarı ehsāndur* (MQ,57).

**Daraxt:** ...*otı kalım daraxtınıñ nori ištı 'ăli* (MQ,6). Bu fors-tojikcha istilohning grammatic ko'pligi ma'nosida **aşjär** atamasini istifoda qilingan: *Aşjārinij har biri čarxi axzar* (MQ,29). «Devon»da «daraxt» guruhida tog' daraxtlarining nomlari alohida izohlangan. Tur nomini ifodalovchi so'zlar jins nomini ifodalovchi so'z bilan mantiqiysemantik jihatdan aloqaga kirishgan hamda gipo-giperonimik paradigmmani hosil qilgan. «Daraxt» ma'nosida Sayram (Ispijoblik)liklar tilida *a:vun* (I,74) bilan ifodalangan. O'g'uz va arg'ularda *urg'a* «katta daraxt» ma'nosida qo'llangan (I,103). Qomusda «tog' daraxtlarining biri» deb izohlangan so'zlar sezilarli miqdorni tashkil etidi. Tog' daraxtlaridan, jumladan, **kÿrt** (I,233), **uch** (I,44) kabi daraxtlardan qalam, kamon, qamchin va hassa yasashda foydalanilgan. Shuningdek, bu guruh *sÿzgÿn* «rangni qora, tikanli bir tog' daraxti» (I,295) va *qaraqan* «bir xil tog' daraxti» (I,299), *chävÿj* «tog'larda o'sadigan, tanasi, shoxlari, mevasi qizil, achchiq doni bor bir daraxt» (I,283) kabi leksemalarni ham qamrab oladi[3].

Arabcha **naxl** «ko'chat, yosh daraxt» semasida keltirilgan: ...*xirad naxlin fâsid xayāl samumi bilā qurutma* (MQ,91).

Tadqiq qilinayotgan manbada mevali daraxt nomlari ham ko'zga tashlanadi. Masalan, **anār** «anor», «qizil gullaydigan daraxt va uning mevasi» ma'nosida keladi: *Öz ilgidä bir anār bolsa bilmäski, neçä parda va neçä xānası bar va har parda va har xānasida neçä dānasi bar* (MQ,26).

Anor O'rta Osiyoda miloddan avvalgi III-VI asrlardan boshlab o'stirila boshlangan. Hozirgi o'zbek tilida keng qo'llaniladigan **anor** so'zi turkiy tilga fors tilidan o'zlashgan. Birinchi marta uyg'ur yozuvidagi turkiy matnlarda «nar» shaklida qayd etilgan. XIV-XV asr o'zbek tilidagi yozma yodgorliklarda, xususan, Navoiy asarlariда «nor», «anor» shaklida uchraydi.

Umumiylar leksikologiya bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda bu so'zni oromiy yoki sanskrit tillaridan eroniy tillariga o'tganligi haqidagi fikrlar mayjud. Forsiy va turkiy tillaridagi lug'atlarda «nor» so'zi «anor» so'zining soddalashtirilgan shakli sifatida izohlanadi. Forsiy va turkiy tillarida «nor» so'zi XV asrgacha faol ishlataligan. XV asrdan boshlab «anor» asosiy so'zga, qadimiy shakl «nor» variyant esa ikkinchi darajaliga aylangan[6].

Asarda **pista** «janub tog'larida o'sadigan past bo'yli daraxt va uning mevasi» (O'TIL,III,266) ma'nosini anglatadi: *Uşaqlar işi nimä bolmas, pista qabuğī kemä bolmas* (MQ,91).

**Pista** – mevaning forscha nomi; bu so'z arabcha *fustuq//fustaqq*. XIV asr boshidan boshlab **pista** so'zi yozma yozuvlarda uchraydi. **Pista** so'zi boshqa tillarga turli shakkarda qabul qilingan. Ba'zi tadqiqotchilar bu so'zni asl yunonchaga bog'lab, uni yunoncha *pissa*, *pitta* (qatron)dan desalar, boshqalari buni forscha *piste*, *pista* bilan bog'laydilar. Fikrimizcha, bu so'zning xalqaro lotincha nomi *piste* forschanan olingan. Navoiy asarlariida *pista* so'zi ko'p ishlatalgan[6].

Hozirgi o'zbek tilidagi fors-tojikcha **meva** so'zi shoir asarlariida bor, lekin bu so'z ma'nosi uchun boshqa bir necha so'zlar ham qo'llangan:

«Mahbub ul-qulub» asarida «daraxt mevasi, hosili» ma'nosini bir necha fitonimlar bildirgan:

Fors-tojikcha **meva**: *Va bu şirin meva valāyat bāğī şajarasidin bolğay* (MQ,49). Qadimda mazkur sema **yemiš** so'zi orqali ifolanganini X asr yodnomasi sanalgan “Oltun yorug” asaridan bilib olish mumkin: ...*bimba atlıq yemiš teg – bimba nomli meva kabi* (DTS,255).

Fors-tojikcha **bār** – «meva, hosil»: ...*dānāsi durri saādat bār bergäy va tuxm sačib, anjumi uluvvi rif'at tergäy* (MQ,29).

Fors-tojikcha **fākiha** – «meva, hosil»: ...*bu laziz fākiha hidāyat şajarasinij samarası bolğay* (MQ,49).

Arabcha **samar** – «meva, hosil»: *Saxāvat insāniyat bāğınıñ barvar şajarıdur, balkı ul şajarnij müfid samarıdur* (MQ,59). Bu so'zning «natija, foyda» ma'nosi ham mavjud: ...*şoxi istiğnā va hurmat samar keltürür* (MQ,59).

Arabcha **samara** – «meva, hosil»: ...*hidāyat şajarasinij samarası bolğay* (MQ,49).

Navoiy asarlariida o'simliklar olamini umumiylar qilib atovchi birliklar va ekinlarning urug'i, doni, boshog'i tushunchalarini bildiruvchi so'zlar mayjud. Buni tadqiq qilinayotgan asar tilida ham ko'rish mumkin:

**Qamḡaq** – «o'simlik» (umumiylar nom o'rniida) ma'nosida: *Yengillik fartidin barbād erür qamḡaq yafrāğı* (MQ,62).

**Nabāt** – «giyoh, o't-o'lan» ma'nosida: *Bu keltürgän nabāt gazak üçün uşalib* (MQ,13).

**Dāna** – «urug', don» ma'nosida: *Dehqānki, dāna sačar, yerni yarmaq bilä rızq yolin ačar* (MQ,29). Ushbu fitonim ko'chma ma'noda “tish donasi”ni ifodalagan: ...*başı köksigä tüsüb, ağzı huqqasidin dānaları tökülib* (MQ,86).

**Tuxm** – «o'simlik urug'i» ma'nosida: ...*dānāsi durri saādat bār bergäy va tuxm sačib, anjumi uluvvi rif'at tergäy* (MQ,29). Bu so'z «yaxshilik urug'i», «nasl urug'i, avlod» ma'nolarida ham qo'llangan: *Yaxşılıq tuxmin sačgilkim, budur dehqānğa söz* (MQ,83); ...*bu birin sačmaqdin naslij tuxmün qurutma* (MQ,90).

Alisher Navoiy asarlari tilida gul, mevali va mevasiz daraxt, sabzavotlar nomlari boshqa so'zlar qatori, she'riy va nasriy asarlarning mazmun va badiiy talabiga ko'ra ishlatalgan leksemalar hisoblanadi. Shuning uchun bunday fitonimlar terminologik ma'nosidan (nom bo'lishdan) tashqari umumiste'mol so'z sifatida ko'chma ma'nolarni ifodalash uchun ham xizmat qilgan.

**Xulosa** va **takliflar**. Mevali daraxt nomlari semantikasida o'ziga xoslik bor: bir mevali daraxtning nomi shu meva daraxtining o'zi ma'nosini ham, uning mevasi ma'nosini ham, tanasi (yog'ochi) ma'nosini ham anglataveradi. Bu uch ma'noni ko'chma ma'nolar deb bo'lmaydi, chunki biri ikkinchisidan o'sib chiqmagan; ma'nodosh so'zlar deb ham bo'lmaydi, chunki ular bir tushunchaning turli ma'no qirralarini ko'rsatuvchi so'zlar emas.

#### Sharqli qisqartmalar

**DTS** – Древнетюркский словарь. –Л.: Наука, 1969. -676 c.

**ESTYA** – 1) Севорян Э. Этимологический словарь тюркских языков. Общетюркские и межтюркские основы на гласные. -М.:Наука, 1974. -767 с.

**MQ** – Mahmud Qoshg'ariy. Devonu lug'otit turk / Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S.M. Mutallibov. I-III. –T.: Fan, 1960-1963.

**MQ** – Navoiy. Mahbub ul—qulub. Mukammal asarlar to‘plami. Yigirma tomlik. Ўн то‘rtinchi tom. – Toshkent: Fan. 1998.

**O‘TIL** – O’zbek tilining izohli lug‘ati. I-V. -T.: O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi, 2006-2008.

#### ADABIYOTLAR

1. Усмонова М. Алишер Навоий асарларидаги фитонимларнинг лексик-семантик ва стилистик хусусиятлари. Филол. фан. бўй. фалс. докт. ... дисс. – Тошкент, 2022. – Б.36.
2. Бафоев Б. Алишер Навоий асарларида мева номлари/Ўзбек тили ва адабиёти. -Тошкент, 1991. -№2, - Б.8-13;
3. Невматова Г.Ў. Ўзбек тилида ўсимлик номлари: тизими, бадиий қўлланиши: Филол. фан. ном... дисс. автореф. – Т.,1998;
4. Пазлитдинова Н. Ўзбек тили фитонимларининг лексик-семантик хусусиятлари. Филол. фан. бўй. фалс. докт дисс.автореф. –Ф., 2018.
5. Розикова Г. Маҳмуд Кошғарий «Девону луготит турк» асаридаги от лексемаларнинг семантик, функционал ва услубий хусусиятлари. Филол. фан. док. дисс. –Фарғона, 2021. –Б.116.
6. Усмонова М. Алишер Навоий асарларидаги фитонимларнинг лексик-семантик ва стилистик хусусиятлари. Филол. фан. бўй. фалс. докт. ... дисс. – Тошкент, 2022. – 173б.
7. Борисов В.В. Аббревиатуризм и акронимия. Военные и научно-технические сокращения в иностранных языках. М., 1972. С. 112.
8. Санников В.З. О русских графических сокращениях/ В.З Санников // О современной русской орфографии. М., - 1964.. 75-77c.



Dilnoza NURULLAYEVA,  
O'zbekiston Davlat jahon tillari universiteti o'qituvchisi  
E-mail: nurullayevad9@gmail.com

O'zbekiston Davlat jahon tillari universiteti dotsenti, f.f.d. M.R.Galieva taqrizi asosida

### MADANIY QADRIYATLARNING VOQELANISHI (GO'ZALLIK KONSEPTI ASOSIDA)

Annotatsiya

Ushbu maqolada madaniyat va qadriyat tushunchalarining uziy bog'lanilganligi va tahlili, ushbu tushunchalar lingvomadaniyatshunoslik sohasida "madaniy qadriyat" tushunchasi sifatida tutgan o'rni, "madaniy qadriyat" va "madaniy konsept" tushunchasining tilshunoslardan o'rganilganlik holati tahlil qilingan. Maqola, shuningdek, o'z ichiga go'zallik madaniy konseptining qimmatbaho toshlar va metallar orqali o'zbek tilida verbalashuvi tadqiqot predmeti ostida o'rganilib chiqildi.

**Kalit so'zlar:** Madaniyat, qadriyat, lingvomadaniyatshunoslik, madaniy qadriyat, konsept, madaniy konsept, go'zallik, qimmatbaho toshlar va metallar.

### VERBALIZATION OF CULTURAL VALUES (BASED ON THE CONCEPT OF VALUE)

Annotation

This article explores the interlink between the notions of culture and value and their analysis, the position of this notions in Cultural linguistics as "cultural value", as well as the state of investigation of the notions "cultural value" and "cultural concept" by scientists is pointed under discussion in the article. Furthermore, the article covers the verbalization of the cultural concept of beauty through precious stones and metals as its object of study.

**Key words:** Culture, value, Cultural linguistics, cultural value, concept, cultural concept, beauty, precious stones and metals.

### ВЕРБАЛИЗАЦИЯ КУЛЬТУРНЫХ ЦЕННОСТЕЙ (НА ОСНОВЕ ПОНЯТИЯ ЦЕННОСТИ)

Аннотация

В данной статье проводится анализ понятий культуры и ценность и их неотъемлемый связи, роль этих понятий как понятия «культурная ценность» в области лингвокультурологии, а также состояние изученности лингвистами понятия «культурная ценность» и «культурный концепт». В статью также включено исследование вербализации культурной концепции красоты через драгоценные камни и металлы в узбекском языке.

**Ключевые слова:** Культура, ценность, лингвокультурология, культурная ценность, концепт, культурный концепт, красота, драгоценные камни и металлы.

**Kirish.** Dunyoda har bir xalq o'zining madaniy qadriyatlar bilan ajralib turadi. Madaniy qadriyatlar bu moddiy va nomoddiy predmetlar, badiiy va mulkiy xususiyatga ega bo'lgan san'at asarlari yig'indisidir. Ular inson ongiga estetik ta'sir ko'rsatadi, insонning etnik kelib chiqishi va umumsotsial madaniy qarashlarining yig'indisi hisoblanadi. Madaniy qadriyatlarga etnik birlıklarning e'tiqodlari, xalqlarning urf-odatlari, din, til, kiyim-kechak va turmush tarzining o'ziga xos xususiyatlari, go'yalar va hakozolar kiradi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Madaniyat va qadriyat tushunchalari bir biriga uziy bog'liq va keng qamrovli tushunchalardir. Quyida biz ularga alohida to'xtalib o'tamiz.

**Madaniyat** – jamiyat, inson ijodiy kuch va qobiliyatlar tarixiy taraqqiyotining muayyan darajasi. Kishilar hayoti va faoliyatining turli ko'rinishlarida, shuningdek, ular yaratadigan moddiy va ma'nnaviy boyliklarda ifodalananadi [1].

Madvaliyev A. tahriri ostida yozilgan "O'zbek tilining izohli lug'ati" da "madaniyat" tushunchasiga quyidagi izoh beriladi:

**Madaniyat** (arabcha sivilizatsiya)

1.Jamiyatning ishlab chiqarish, ijtimoiy, ma'nnaviy-ma'rifiy hayotida qo'lga kiritgan yutuqlari majmui.

2.Biror ijtimoiy guruh, sind yoki xalqning ma'lum davrda qo'lga kiritgan shunday yutuqlari darajasi.

3.O'qimishlilik, ta'lim-tarbiya ko'rganlik, ziyolilik, ma'rifat.

4.Madaniyatli shaxs talablariga javob beruvchi sharoit.

5.Q.x. (o'simlik yoki ekin turlarini) yetkazish, o'stirish, yetishirish.

O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasida , "qadriyat" tushunchasi aksiolik kategoriyaligi ta'kidlab o'tilgan va, "qadriyat" tushunchasiga quyidagicha izoh berilgan:

**Qadriyat**-voqelikdagi muayyan hodisalarning umum insoniy, ijtimoiy axloqiy, madaniy ma'nnaviy ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llanadigan tushuncha. Inson va insoniyat uchun ahamiyatlari bo'lgan barcha narsalar, masalan, erkinlik, tinchlik, adolat, ijtimoiy tenglik, ma'rifat, haqiqat, yaxshilik, go'zallik, moddiy va ma'nnaviy boyliklar, an'ana, urf-odat va boshqalar qadriyat hisoblanadi."

Madaniy qadriyat tushunchasi falsafa, madaniyatshunoslik, sotsiologiya fanlari tarkibida o'rganilibgina qolmay, tilshunoslardan doirasida, xususan, madaniy tilshunoslardan fanida ham tadqiqot obyekti bo'lib hisoblanadi. Qadriyatning turli ijtimoiy sohalarda o'rganilib holati mavjudligini O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasida ham ta'kidlangan: "Ijtimoiy fanlarning qaysi sohasida qadriyatga doir tadqiqot olib borilgan bo'lsa, bu tushunchaga shu jihatdan ta'rif berishga intilishgan."

Madvaliyev A. tahriri ostida yozilgan "O'zbek tilining izohli lug'ati" da "qadriyat" tushunchasiga quyidagi izoh beriladi:

**Qadriyat** (arabcha qiymat, ahamiyat; qimmatbaho buyumlar; xalq boyligi) Voqelikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy-ahloqiy, madaniy, ma'nnaviy

ahamiyatini ko'rsatish uchun ishlataladigan tushuncha. Inson va insoniyat uchun ahamiyatlari bo'lgan barcha tushunchalar, mas., erkinlik, tinchlik, adolat, ma'rifat, haqiqat, yaxshilik, moddiy va ma'naviy boyliklar va b. qadriyat hisoblanadi.

Lingvistika, xususan lingvomadaniyatshunoslik sohasida madaniy qadriyat iborasiga turli xil qarash bor bo'lib, bu ibora bo'yicha quyidagi olimlar o'z ilmiy qarashlarini bayon etishgan: N.F.Aliferenko, Heidegger, D.Lixachov, R.D'Andrade, V.A.Maslova, Yu.S.Stepanov, N.D.Arutyunova va boshqalar. O'zbek olimlari D.U.Ashurova, M.R. Galiyeva, R.U. Majidova kabi olimlar ham bu iboraga o'z ilmiy qarashlarini bayon qilishgan.

V.I.Karasik Lingvomadaniy jihatdan qadriyatlarni o'rganish aksioligik tilshunoslikning predmeti ekanligini, qadriyatlari yaxshi(musbat) va yomon (manfiy) juftliklardan tashkil topgani va bu qarshda qadriyatlari antiqadriyatlari qarama-qarshiligi mayjud ekanligini ta'kidlaydi. V.I.Karasik qadriyatlari haqida so'z ketkanda quyidagi qadiyat mezonlari va shu mezonlarga kiruvchi qadriyat turlarini ishlab chiqqan:

Asosan shaxsiy va jamoat manfaati nisbatini aks ettiruvchi aksioligik mazmunga ko'ra: axloqiy va utilitar qadriyatlari;

hayotiy ko'rsatmalarning mohiyatini tavsiylovchi funksiyasiga ko'ra: hayotiy va ma'naviy qadriyatlari;

bir xil motivatsion qarashlarga ega bo'lgan subyektlarni qamrab olishiga ko'ra: umuminsoniy, tsivilizatsiyaviy, etnik-madaniy, makro va mikroguruuhlar qadriyatlari va individual shaxsiy qadriyatlari;

diskursiv ixtisoslashuviga ko'ra: diskursiv ixtisoslashgan (siyosiy, ilmiy, pedagogik, ommaviy axborot vositalari diskursi) va diskursiv- universal qadriyatlari;

konkretilik darajasiga ko'ra: qadriyatlari (konsept va skript shaklida), ularni aniqlashtiruvchi normalari (taqiqalar va qoidalari) va turli xil shxsiy tavfsiyalarni (odatlar va an'analar) ajratish mumkin [2].

N.F.Aliferenko madaniy qadriyatga tilning madaniy va qadriy maydoni asosida turadigan madaniy kategoriya deb qaraydi. Aliferenko qadriyatlarning ierarkik tashkil etilgani haqida fikr yuritar ekan, har bir xalq o'z qadriyatlarning darajasi bor ekanligini ta'kidlaydi. Qadriyatlari tarixiy harkaterga ega bo'lib, ular inson sivilizatsiyasi davomida o'zgarib boradi. Yangi qadriyatlari sistemasi shakllanib, insonlar tomonidan anglab yetilib va ular tomonidan qabul qilingan holatdagina madaniyatda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan krizis xolatini yengib o'ta oladi. Qadriyat doim uning bahosi bilan bog'liqligiga alohida urg'u berib, baho qadriyatning mavjud bo'lish formasi ekanligini ta'kidlab o'tadi. Baholash 3ta etapdan o'tadi: emotsiyonal-ta'sir eta olishi, ratsional-verbal holati va pragmatik-xulq-atvor etapi. Lingvokulturologiya uchun qadriyatni baholash protsessidagi eng muhim xusuiyat bu so'z bilan ifoda etish xususiyatidir. Qadriyat va uning qadri yoki bahosi, bizning ongimizidan qat'iy nazar obyektiv holatda doim bir biri bilan ideal mavjudlikka egadir. Ular nutqni ifoda etish jarayonida til vositalarini tanlashga kata ta'sir ko'rsatadi. Lingvokulturalogiya tatqiqotlari markazida ko'pincha quyidagi qadriyat tiplari yotadi [3]:

**Hayotiy:** hayot, sog'liq, hayotning sifati, atrof-muhit va boshqalar;

**Sotsial:** sotsial o'rinni, status, mehnatkashlik, boylik, kasb, oila va h.k;

**Siyosiy:** so'z erkinligi, qonuniylik, inson fuqaroyiy erkinligi va boshqalar;

**Ahloqiy:** yaxshilik, hayirlilik, muhabbat, do'stlik, burch, obro' va hakazolar;

**Diniy:** Xudo, xudoga ishonch, qutqaruv, ilohiy qonunlar va hakazolar;

**Estetik:** go'zallik, chiroy, mukammallik, uslub va hakazolar.

Yuqorida qayd etilgan madaniy qadriyatlari shuningdek universal, milliy, guruhiy, oilaviy va individual tiplarga ajratilishi mumkin [4].

O'zbek olimlari R.U.Madjitova qadriyatlarning aksiologik jihatini ta'kidlab, ularni ma'naviy qadriyatlarni madaniy qadriyatlari; absolyut (obyektiv) qadriyatlari – nisbiy (subyektiv) qadriyatlari; doimiy qadriyatlari – vaziyatga bog'liq qadriyatlari; hayotiy qadriyatlari-sotsial qadriyatlari-politik qadriyatlari-ahloqiy qadriyatlari-diniy qadriyatlari-estetik qadriyatlari va boshqa bir qator aksiologik qadriyatlarning juftlik turlarini ilmiy izlanishlariga asoslanib ajratgan [5].

**Tahlil va natijalar.** Qadriyatlari ko'pincha konspet sifatida namoyon bo'ladi. Konsept lotincha "conceptus" so'zidan olingan bo'lib, murakkab mental birlik hisoblanadi. Lingvomadaniyatshunoslik sohasida konspet madaniyatning asosiy birligi bo'lib, madaniyatning inikosini o'zida ifodalaydi. Konsept mental, madaniy va milliy xarakterga ega bo'lib, emotsiyonal, tasviriy va baho berish komponentlariga ega. Konsept konseptual dunyo qarashni o'zida ifodalaydi va ushbu dunyoqarash bir vaqtning o'zida ham yagona shaxsga, ham butun bir lingvomadaniy sotsial jamoaga tegishli bo'lishi mumkin. Lingvomadaniyatshunoslikda „konsept“ termini va uning asl mohiyatini Yu.Stepanov, N.D. Arutyunova, V.I.Karasik, V.A. Maslova, N.F. Alefirenko kabi olimlar o'z ilmiy ishlarida yoritib berishgan.

Madaniy konsept bu abstrakt tushunchalar nomi [6]. Yu.Stepanov madaniy konsept bu madaniyat olami bilan individual ma'nolar olami o'rtasidagi kesishish nuqtasi bo'lib, u inson ongidagi madaniyatlar jamlanmasini aks etadi. Ushbu jamlanma orqali inson madaniyatga kira oladi [7]. Konsept turli xil til birliklarida o'z ifodasini topadi. Xususan, konseptlarni, jumladan madaniy konseptlar so'zlar, iboralar va frazeologik birliklar, maqol va matallar, aforizmlar va matnlar orqali verballashadi. Estetik qadriyatlari kategoriyasiga kiruvchi madaniy konseptlardan biri bu go'zallikdir. Madaliyev A. tahriri ostida 2021-yil chop etilgan "O'zbek tilining izohli lug'ati" kitobida "go'zallik" so'ziga quyidagi izoh berilgan:

Go'zallik 1. Chiroy, husn

2. fls. Tabiat va jamiyatdagi narsa va hodiasalarning, inson faoliyatining kishida mehr-muhabbat, quvonch, zavq tuyg'ulari uyg'otuvchi xususiyatlarini ifodalovchi estetik tushunchasi.

O'zbek xalqining yashash mintaqasi tarixan ko'pgina qimmatli toshlar va metallarga boy bo'lganligi sababli, o'zbek tilida "go'zallik" madaniy konsepti bir qator qimmatli tosh va metallar nominatsiyalari orqali verballashadi. Misol uchun, qizlarning go'zalligi haqida gapirliganda o'zbek tilida "kumush yuzli" degan ibora bor bo'lib, bunda kumushning rangi qizlar yuzining oq rangiga taqqoslanadi. Shuningdek, ko'zning ichi "ko'z duri" yoki "ko'z gavhari" iborasi bilan ishlatalidi. Lablar haqida gapirliganda la'lga taqqoslanish holati o'zbek tilida keng tarqalgan bo'lib, labning rangi la'l toshidek qizil ekanligi mumtoz adabiyot na'munalarda, xususan, g'azallarda ham uchraydi.

*Dam urmassen, labing shirinlig'in vasf aylasam, go'yoiki la'lingni bir-birga yopishturdi shakar har yon. A.Navoiy*

\*\*\*

*Necha daf'i xumor etmas, ko'rungkim, Labi la'lingdadur ma'juni qandi. Atoi*

O'zbek tilida tishlar go'zalligini dur, gavhar va injuzarlar bilan ifodalash holati keng qo'llaniladi.

*Ey orazi shams-u qamarim, netti, ne bo'ldi? Atoi*  
*Vey tishlari dur-u guharim, netti, ne bo'ldi? Atoi*

\*\*\*

*Belingu inju tishlaring hasratida Navoiyning Jismiyu ashki bordurur rishta duri samin aro. Navoiy*

\*\*\*

*Labing yoquti ichra qatra-qatra termudur, yoxud Tushubtur dona-dona inju ikki la'li nob ichra. Navoiy*

Shuningdek, o'zbek tilida inson ishining, qalbining va xulqining go'zalligini "tilla" va "oltin" bilan ifodalanish holatlari bor. Misol uchun, biror odamning xulqi va o'zini tutishi juda yaxshi bo'lsa, o'sha odam haqidagi "tillo kishi", "tillo bola", "tillo ayol" kabi fikrlarni eshitish mumkin. holatida inson tana va yuz a'zolari, qalbi; shuningdek ishi va so'ziga bog'liqlik holati aniqlandi.

O'zbek xalq maqolida berilgan bo'lib, unda so'z go'zalligi kumush bilan, ish go'zalligi oltin bilan baholangan:

*So'zing* *kumush* *bo'lsa,*  
*Ishing* — *oltin.*

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, qadriyat bu tarixan shakklangan, tilning madaniy va qadriy maydoni asosida turadigan madaniy kategoriya. Qadiyatlar konsept sifatida namayon bo'ladi. Go'zallik konseptini verballashtiruvchi lisoniy birliklardan biri qimmatli toshlar va metallar nominatsiyalaridir. O'zbek tilida go'zallik madaniy konsepti qimmatli tosh va metallar bilan verballashtagan

- ### ADABIYOTLAR
1. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti - 2005-yil.
  2. Madvaliyev A. tahriri ostida yozilgan "O'zbek tilining izohli lug'ati". O'zbekiston nashriyoti. Toshkent – 2021.
  3. Карасин В.И.“Ценности как культурно значимые ориентиры поведения” Материалы Международной научной конференции, Тяньцзинь, Тяньцзиньский университет иностранных языков, 16 ноября 2018 г.
  4. Алефиренко Н.Ф.“Лингвокультурология”, “Ценностно-смысловое пространство языка” – Москва, 2010
  5. Маджидова Р.У. “Аксиологическая исследование антропоцентрических пословиц (на материале узбекского и русского языков)” – Ташкент, 2019.
  6. Маслова В. А. “Лингвокультурология” – Москва, 2001
  7. Ashurva D.U., M.R.Galiyeva “Cultural linguistics”. Vneshinvestprom. Tashkent - 2019



Gulnora OCHILOVA,

Samarqand davlat chet tillar instituti

Ingliz tili o'qitish metodikasi kafedrasi o'qituvchisi

E-mail: ochilovaraxmanovagulka@gmail.com

SamDCHTI professori DSc Mirsanov G'.Q. taqrizi asosida

### THE CONCEPT OF "KINSHIP" AND ITS USE IN LANGUAGES OF DIFFERENT SYSTEMS

#### Annotation

The study of the concept "kinship" is the focus of this article. This article explores numerous methods for studying kinship words in the Uzbek and English languages, as well as their classification and selection criteria. Kinship determines social relationships, establishes a person's status in society, and modifies his conduct. The terminology kinship attributes also reflection of the uniqueness of the language, the particulars of the national course, and, as a result, define the national mindset.

**Key word:** Kinship, classification, relatives, terminology, terms, relations.

### "QARINDOSHLIK" TUSHUNCHASI VA UNING TURLI TIZIMLAR TILLARIDA QO'LLANILISHI

#### Annotatsiya

Ushbu maqolaning asosiy mavzusi "qarindoshlik" tushunchasini o'rganishdir. Ushbu maqolada o'zbek va ingliz tillaridagi qarindoshlik so'zlarini o'rganishning ko'plab usullari, ularning tasnifi va tanlash mezonlari o'rganiladi. Qarindoshlik ijtimoiy munosabatlarni, insonning jamiyatdagi mavqeini belgilaydi va uning xatti-harakatlarini o'zgartiradi. Terminologiyaning qarindoshlik atributlari ham tilning o'ziga xosligini, milliy yo'nalish xususiyatlarini aks ettiradi va natijada milliy tafakkurni aks ettiradi.

**Kalit so'z:** Qarindoshlik, tasnif, qarindoshlar, atamalar, atamalar, munosabatlar.

### ПОНЯТИЕ «РОДСТВО» И ЕГО УПОТРЕБЛЕНИЕ В ЯЗЫКАХ РАЗНЫХ СИСТЕМ

#### Аннотация

Исследованию понятия «родство» посвящена данная статья. В данной статье исследуются многочисленные методы изучения родственных слов в узбекском и английском языках, а также их классификация и критерии отбора. Родство определяет социальные отношения, устанавливает статус человека в обществе, модифицирует его поведение. Терминологическое родство обуславливает также отражение своеобразия языка, особенностей национального течения и, как следствие, определяет национальное мировосприятие.

**Ключевые слова:** Родство, классификация, родственники, терминология, термины, отношения.

**Kirish.** Har bir tilda odamlarning qarindosh-urug'lari o'rtaqidagi aloqalarni ifodalash uchun ishlataladigan atamalar majmuasi mavjud. Bular qarindoshlik so'zlarini hisoblanadi. Ular tilning lug'aviy tarkibining bir qismi sifatida lingvistik massivning xususiyatlarini aks ettiradi va ularning sifatlari ichki qonuniyatlar sifatida tasniflanadi.

Tadqiqotimizning asosiy maqsadi o'zbek va ingliz tillari o'rtaqidagi qarindoshlik atamalarini sinxron-qiyosiy o'rganishdir. Ma'lumki, qarindoshlik atamalari har bir til lug'atining o'ziga xos mikrotizimini tashkil qiladi.

1950-yillarda paydo bo'lgan komponentli tahlil yondashuvi, birinchi navbatda, bugungi kunda lingvistik materiallarni uslubiy ekspertizadan o'tkazish uchun javobgardir. Komponentlarni tahlil qilish yondashuvining asosi shundaki, har bir birlikning qiyomi semalar yoki xususiyatlar deb nomlanuvchi elementlardan iborat. Erkak kishi, qarindosh, gorizontal o'q bo'ylab qarindoshlik, ota-onasi onaning katta yoki kichik ukasi, birinchi avlod qarindoshi "amaki" so'zining ma'nosini tashkil etuvchi besh sema yoki belgidir. Shunga o'xshash xususiyatlar "qarindoshlik" va "bobo" atamalarining ta'riflariga ham tegishli: erkak, ota-onasi, to'g'ri chiziqdagi ota-onasi, qardosh ota-onasi va ikkinchi avlod ota-onasi misoldir.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** M.M. Guxmanningadolatli bayonetiga ko'ra, qarindoshlik atamalari "... haqiqatan ham qiyosiy tadqiqotlarning mustahkam

asoslarini isbotlash uchun keng qo'llaniladigan sevimli materialdir" [Guxman, 132].

Qarindoshlik atamalari ko'plab boshqa tillarda ham o'rganilmoqda. E.V. Sevortyan o'zining leksikografik asarida shunday yozadi: "...qarindoshlik atamalarini o'rganish ba'zi qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Ular turli til oilalarida qarindoshlik haqidagi asosiy atamalarning umumiyligini tushuntirishga muhtojligida yotadi, bunda, aftidan, barcha leksik kategoriyalarning genetik umumiyligini istisno qiladi. Aks holda, lingvistik oilalarning o'zlarini o'rtaqidagi genetik munosabatlar haqida savol tug'iladi".

Masalaning tadqiqi umumiyligini turkologik xususiyatiga ega bo'lgan asarlar ham bor. Bularga A.A. Pokrovskaya, A.N. Kononov, K.M. Musaev va boshqalarning asarlari misol bo'la oladi. Bu asarlar orasida A.A. Pokrovskayaning "Turkiy tillarda qarindoshlik atamalari" majud. Ushbu leksik birliliklarni hisobga olgan holda A.A. Pokrovskaya "...qarindoshlik terminologiyasi lug'atning eng arxaik qatlamlariga mansubdir. Bu leksik-semantik guruhda asosiy qarindoshlik munosabatlari aks ettiruvchi nomlar, shubhasiz, har bir tilning asosiy lug'at fondiga kiradi. Qarindoshlik terminologiyasini o'rganishda har qanday til yoki tillar guruhi katta qiyinchiliklar tug'diradi, chunki «...oila shakli qarindoshlik tizimiga qaraganda tezroq o'zgaradi, shuning uchun ham eng xilma-xil xalqlar orasida saqlanib qolgan qarindoshlik munosabatlari tizimi o'rtaida qadim zamonalardan beri va oilaning zamonalaviy shakli borasida

nomuvofiqliklar mavjud. Xuddi shunday hodisa turkiy xalqlarda ham kuzatiladi» [Pokrovskaya, 11].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tilshunoslikning zamonaviy metodologiyalaridan biri bo'lgan tizimli yondashuv hozirda faol qo'llanilmoqda. Ammo shuni ta'kidlash kerakki, tilning barcha qatlamlarini o'rganishda u bir xil darajada muvaffaqiyatli emas. Tizimli yondashuv ayniqsa qiyin va odatda tilning lug'at tarkibini o'rganish uchun amaliy jihatga emas. Ushbu jarayon quydagi sabablarga ko'ra murakkab va noqulaydir: "Har qanday til haqiqatan ham g'alati lug'atga ega. Uni morfologiya, fonetika yoki sintaksis bilan bog'liq mavzulardan ko'ra metodik tekshirish qiyinroq. Leksikaning "ochiqligi" va doimiy harakatchanligi tufayli, "muxolif juftlik atamasini tanlash biroz shartlidir" [Fortes, 4]. Leksik tarkibni tizimli tekshirishga turli qo'shimcha sabablar to'sqinlik qiladi. Natijada, lug'atning ma'lum leksik-semantic qatlamlari tizimli tuzilishga ega bo'lib, tizimli ravishda oson o'rganilishi mumkin. Boshqalar murakkab tizimli tuzilmalari tufayli ushu tadqiqot strategiyasidan foydalananishni qiyinlashtiradi. Bu haqda A.G. Grigoryan shunday deydi: "Alovida leksik-semantic guruuhlar nisbatan yaxshi o'rganilgan - birinchи navbatda, qarindoshlik atamalari, rang shakllanishi va o'ziga xos lug'atning ba'zi guruuhlar; bundan ham eng yomoni ko'p sonli asarlarga qaramay ijtimoiy munosabatlar vaziyati va insонning ichki hayoti bilan bog'liq belgilardir. O'rganish darajasidagi bunday o'zgarishlar asosan o'rganilayotgan mavzuning o'zgaruvchanligi bilan bog'liq: ba'zi lug'at guruuhlar boshqalarga qaraganda "tizimliroq" guruhangan, boshqalari esa murakkabroq tarkibga ega [Grigoryan, 39-57].

Qiyosiy-tipologik yondoshuvdan turdosh va qarindosh bo'lmagan tillarda ekvivalent bo'lgan va an'anaviy xarakterga ega bo'lgan faktlarni tahlil qilishda foydalaniadi. Uning yordami bilan tadqiqotlar qat'iy terminologik ma'noda tilni emas, balki nutq faktlarini o'rganishi mumkin.

Leksik-semantic guruuhlari o'rganishda komponentli tahlil usulidir amaliy va asosli foydalanimi. Darhaqiqat, qandaydir semantic komponent semantic maydonni (leksiko-semantic guruuh) farqlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Misol tariqasida "qarindoshlik" so'zi qarindoshlik bilan bog'liq tushunchalarni bir semantic sohada birlashtirish uchun ishlataladi.

Aytish joizki, turkologiya bo'yicha lug'aviy tarkibni metodik tahlil qilish asosida tadqiqotlar olib borilmoqda. Natijada o'zbek tilshunosligidagi ko'plab leksikologik tadqiqotlar o'zbek tili lug'atini tekshirishda tizimli yondashuvdan foydalaniadi. Ular orasida Sh. Rahmatullayev, I. Qo'chqortoyev, X. Negmatov, E. Begmatov, R. Rasulov, R. Safarova va boshqalar. Ulardan eng muhimi X. Negmatov va R. Rasulovlarning "O'zbek tili tizimli leksikologiyasi asoslari" darsligidir [95, 128]. Professor A. Azizov "Til – murakkab hodisa. Bundan ham qiyini tillarni qiyosiy o'rganishdir". Tadqiqotchi ko'p tillarni, eng yaxshisi kamida ikkita tilni bilishi, shuningdek, solishtirilayotgan tillarda so'zlashuvchilarining tarixi va madaniyati haqida ma'lumotga ega bo'lishi kerak deb to'g'ri ta'rif bergan [Azizov, 21]. Sinxron-qiyoslash (qiyosiy-sinxron) texnikasi tavsiflovchi va qiyosiy metodologiyalarning birlashishi natijasida paydo bo'lgan an'anaviy usullarga tegishli bo'lib, tillarni sinxron-qiyosiy o'rganish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Turli tuzilishga ega tillarda qarindoshlik so'zlar tizimini o'rganish uchun tizimli yondashuvni sinxron-qiyoslash texnikasi bilan birlashtirish juda amaliy va foydalidir. Chet tilshunosligida german tillari asosidagi qarindoshlik terminologiyasining tarixiy rivojlanishini qiyoslovchi va taqqoslaysidan bir qancha nashrlar mavjud. Bu mavzuni 19-asr o'rtalarida nemis olimi Yakob Grimm, so'ng'a Delbryuk, Shuf, M.M. Guxman va boshqalar o'rganib chiqishgan [M.M. Guxman, 93-115].

**Tahlil va natijalar.** Jeykob Grimm ba'zi german tillarida "ota", "ona" ma'nosini bildiruvchi ikki toifadagi atamalar mavjudligini ta'kidladi va bu hodisaga o'z izohini berishga harakat qildi. U shunday deb yozadi: "... aftidan, bir paytlar fater, mutter, bruder, shwester shakliga ega bo'lgan o'sha qarindosh xalqlar Yevropaga bostirib kirishlari chog'ida boshqa atamalarni topdilar, ba'zilarini qarzga oldilar. Misol sifatida J. Grimm gotika atta, "ota" va aipei "ona" so'zlarini va uning fikricha, oliv nemis qabilalari azo va eidi orasida kamdan-kam qo'llanish holatlarini keltiradi [J. Grimm, 97].

M.M. Guxmanning maqolasida "German tillarida Hind-Yevropagacha bo'lgan qarindoshlik atamalari" ta'kidlashicha, "... keyingi asarlarda, germanistlar sifatida, kengroq ma'noda, ular Hind-Yevropa tillarida mavjudligi bilan ko'proq va ko'proq hisoblashta majbur bo'ldilar., qarindoshlik atamalarining taniqli guruhiga qo'shimcha ravishda, shakli jihatidan anchalibtiyoq va ayni paytda bir nechta Hind-Yevropa tillari uchun umumiyl bo'lgan ba'zi boshqa atamalarning mavjudligi haqida ma'lumot berib o'tdi.

Delbryuk tuzilishi jihatidan o'xshash ikkinchi bo'g'inni alohida ajratib ko'rsatdi: asosan, sanskrit tilidagi tata, nemis dialekta deda, nena, muhme kabi bir bo'g'inning takrorlanishi, ba'zan ata, ama, ape va boshqalarning birinchи undoshlarining qisqarishi bilan tadqiqotchilarini ikkita holat hayratda qoldirdi: 1) favqulodda bu komplekslarning butun dunyo bo'ylab tarqalishi, ularning mutlaqo begona va o'xshash bo'lmagan tillarda mavjudligi; 2) har bir kompleks semanticasining noaniqligi, juda tez-tez bitta yoki yaqin qo'shni tillarda "ota", "ona" ni bildiradi; "ota", "bobo"; "ona", "onaning xolasi" va boshqalar. M. M. Guxmanning guvohlik berishicha: "... sheva lug'atlari nemis tilining janubiy va shimoliy deyarli barcha shevalarida bu komplekslarning mavjudligini aniqladi [M.M. Guxman, 97-98].

"Tog'a" va "xola" ma'nolari bilan qarindoshlik atamalarining paydo bo'lishi masalasiga kelsak, Morgan Punaluan ("Turan qarindoshlik tizimi") aks ettiruvchi qarindoshlik tizimida onaning opasi ham ona, otaning ukase ham ota deb hisoblaydi, onaning akasi tog'a, otaning opasi esa amma hisoblanadi. Keyingi tizimdan farqli ravishda, bu atamalar boshida faqat onaning akasi va otaning opasi uchun mavjud, chunki Punalua oilasi shaklidagi onaning singlisi ona va otaning ukasi otadir [Morgan, 112].

O'z vaqtida F. Engels "...qarindoshlik atamalari tizimi konservativ bo'lib, ko'pincha ma'lum bir xalqda mavjud bo'lgan oilaviy munosabatlarga mos kelmaydi, balki ijtimoiy taraqqiyotning oldingi bosqichini aks ettiradi", deb ta'kidlagan edi. Misol tariqasida F. Engels Shimoliy Amerika irokezlar o'rtasidagi qarindoshlik shartlarini keltiradi. Ularda "juftlashgan oila" hukmonlik qilgan. Demak, "ota", "ona", "o'g'il", "qiz", "aka", "singil" atamalari o'z ma'nosida oilaning ushu shakliga mos kelishini kutish mumkin. Aslida, bunday emasligi ma'lum bo'ldi. "Irokez o'z o'g'il va qizlarini nafaqat o'z bolalari, balki ukalarining bolalarni ham o'z farzandlari deb ataydi va ular uni ota deb ataydilar, aka-uka bolalari, xuddi opa-singillarning bolalari kabi, bir-birlarini aka-uka, opa-singillar deb atashadi" [Engels, 239]. Keyinchalik V.I. Abayevning guvohlik berishicha, "... osetin tilida "ota" (fud), "ona" (mad), "o'g'il" (furt) atamalari oilaviy, ya'ni ular bizning mamlakatimizda oila ichidagi qarindoshlik munosabatlariiga nisbatan qo'llaniladi. [Akbaev, 240]. Yuqoridagi faktlar dunyoning deyarli barcha tillaridagi ayrim qarindoshlik atamalarining ko'p funksiyali, polisemantik xususiyatga ega ekanligidan dalolat beradi. Demak, o'zbek va inglez tillarida bobo/grandfather "ota-bobosi", aka/elder brother - "katta aka", amaki//uncle "ota tomondan amaki", o'z ma'nolaridan tashqari "otaning katta akasi", "otaning ukasi" ma'nolarida ham qo'llangan; O'zbekcha - aka "katta og'ayni", tog'a "otaning akasi" - "otaning ukasi" ma'nolarida qo'llanadi. Yana bir ota atamasi o'zbek tilidagi "bobo",

“otaning katta akasi”, “onaning ukasi//tog‘a”, “otaning katta akasi”, “onaning tog‘asi” ma’nolarida qo’llanishi mumkin, umumiy holatda “otadan kattaroq qarindosh” va boshqalar, bu ularning inglizcha ekvivalentlari uchun xosdir. Bunday qo’llanishlarda (noto‘g’ri ma’nolarda) ota//father “ota” atamasining semantik tarkibida uming asosiy belgilaridan biri neytrallanadi, sema “ota-on” xususiyati (sema) hisoblanadi. Bu opa – “katta opa” atamasining ma’nolarida ham kuzatiladi. Opa o‘z qo’llanishidan tashqari bir qancha ma’nolarni ham bildiradi, masalan, “ona”, “ota tarafdag‘i xola”, “ona tarafdag‘i xola”, “kata akaning xotini”, “o‘gay ona”, “keksa qarindoshi (o‘zidan kattaroq)”, “so‘zlovchidan katta bo‘lgan har qanday ayol” bunda “gorizontal chiziq bo‘ylab qon qarindoshi” belgisi neytrallanadi.

Qarindoshlik atamalari noto‘g’ri ma’noda qo’llanilganda ikki yoki undan ortiq qarindoshlik atamalari orasida “nostandard” sinonimik qatorlar paydo bo‘ladi. Masalan, aka-brother, ya’ni katta aka-uka, kichik ota (“father”) bilan sinonimdir; “bobo” ma’nosini bilan, bobo//grandfather terminining sinonimi (“ota tomonida va ona tomonidagi bobo”); “ona” ma’nosidagi opa/katta opa-singillik atamasi ona//mother (“ona”) atamasi bilan sinonimdir; “ota tarafdag‘i amma” ma’nosini bilanamma/aunt ma’nosini bilan “ona tarafdag‘i xola” atamasi bilan sinonimik bo‘lib xola//aunt bo‘lib xizmat qiladi. Bunday hollarda ma’no tuzilishi, atamalar o‘z ma’nosiga xos bo‘lmagan yangi sema-xususiyatlarga ega bo‘ladi. Masalan, “ota” ma’noli aka//elder brother, “ona” ma’noli opa//elder sister, “qondosh ota-on” atributlari ma’no tuzilmalarida uchraydi.

Qarindoshlik atamalarini qiyosiy o‘rganish bir til oilasiga kiruvchi tillarning o‘zaro bog‘liq va bog‘liq bo‘lmagan genezisini ishonchli tushunishga yordam beradi. Jeykob Grimm Hind-Yevropa tillarining munosabatlari aniqlab, tillar munosabatlaring o‘rnatalishini ko‘rsatadigan to’rtta atama guruhini keltirdi. Bularqa quyidagilar kiradi:

- 1) raqamlar tizimi;
- 2) olmoshlar;
- 3) gap mazmunli;
- 4) “ota”, “ona”, “opa”, “aka”, “qiz” kabi qarindoshlik atamalari.

A.A.Pokrovskayaning ishida qarindoshlik atamalarining yigirma yetti nomi o‘rganilgan. U ikki bo‘limdan iborat: 1) qondosh qarindoshlik shartlari 2) nikoh orqali qarindoshlik shartlari. Bunda tadqiqot muallifi “...bu asar barcha yoki ko‘philik hozirgi turkiy tillar uchun umumiy bo‘lgan qarindoshlik atamalarining lingistik atamalarini

ko‘rib chiqish bo‘yicha birinchi va, albatta, juda nomukammal tajribadir” deb ma’lumot berib o‘tgan.

Turkiy tillarda qarindoshlik atamalarini o‘rganishda I.Ismoilovning “Turkiy tillarda qarindoshlik atamalari” monografiyasi muhim o‘rin tutadi. Tadqiqot uch qismidan iborat: 1) qarindoshlik terminlari (ota, o‘g‘il, qiz, aka/og‘a, ini, opa, singil, qarindosh, buva, amaki, jiyan, nevara); 2) nikohdan keyingi munosabatlarning qarindoshlik atamalari (er, xotin, kuyov, kelin, yanga, pochcha, ovsin, kelin oyi, qayin, o‘gay); 3) turdosh munosabatlar xususiyatlarining nomlari (qarindosh bolalar, aka-uka). Tahlil jarayonida I.Ismoilov tomonidan taklif etilgan qoidalarni tasdiqlash maqsadida ko‘plab turkiy tillardan, xususan, o‘zbek, uyg‘ur, qozoq, qirg‘iz, qoraqalpoq, turkman tillaridan tegishli materiallarni keltirib o‘tadi. Monografiyada “...o‘zbek va uyg‘ur tillaridagi qarindoshlik atamalarini o‘rganish nolingistik xususiyatga ega bo‘lganligi” qayd etilgan. Bu fikrni M.Sh. Saidova, “...qarindoshlik atamalarini o‘rganish asosan etnografik xususiyatga ega” deb yozadi. M.Sh. Saidova o‘zbek tilining Namangan shevalarida qarindoshlik atamalarining etimologiyasini o‘rganish va shakllanish va yanada rivojlanish yo‘llarini aniqlashga bag‘ishlangan “Namangan shevalarida qarindoshlik atamalarining leksiko-semantik tahlili” nomli nomzodlik dissertatsiyasida shakllantirilgan.

Men olib borayotgan tadqiqot uch bobdan iborat. Birinchi bobda (nikohdan oldingi munosabatlarga kiruvchi qarindoshlik atamalarining etimologiyasi) “ota”, “ona”, “bobo”, “buvi”, “opa-singil”, “kuyov” mavzulari tahlil qilinadi. Ikkinci bobda (nikohdan keyingi munosabatlardagi qarindoshlik atamalarining etimologiyasi) “xotin”, “kelin”, “yazna”, “kelin”, “quda”, “qarindoshlik atamalarining etimologik xususiyatlari (bir yil ichida tug‘ilgan bolalar) tahlil qilinadi. Uchinchi bobda qarindoshlik atamalarining etimologiyasi har ikki yon munosabatlar tomonidan tahlil qilinadi. Tadqiqot ishining xulosasi shundan iboratki, “...qarindoshlik atamalari lug‘at tarkibining tarkibiy qismi bo‘lib, til lug‘atida ma’lum o‘rinni egallaydi”.

**Xulosa.** Qarindoshlik moslashish mexanizmidir. U sivilizatsiyaning o‘ziga xos talablariga javob beradigan ijtimoiy-madaniy ijod sifatida turli xil madaniyatlarda tasvirlangan. Ko‘philigimiz ishonganimizdan farqli o‘laroq, qarindoshlik biologik emas, balki madaniy jihatdan aniqlangan aloqadir. Maqolada qarindoshlik atamalarining qadim zamonalardan to hozirgi kungacha tarixiy shakllanishi ochib berilgan, ularning fonetik, morfologik, semantik o‘zgarishlari kuzatilgan.

## ADABIYOTLAR

1. Акбаев Ш.Х. Сравнительно-исторический метод в тюркологии и генезис балкарского цоканья // СТ, Баку, 1971. № 2. - С. 98-101.
2. Григорян, А.Г. Некоторые проблемы системного и исторического изучения лексики и семантики [Текст] / Григорян А.Г. // Вопр. языкоznания. – 1983. – № 4. – С. 57–63.
3. Григорян А.Г. Некоторые проблемы системного и исторического изучения лексики и семантики [Текст] / Григорян А.Г. // Вопр. языкоznания. – 1983. – № 4. – С. 57–63.
4. Гухман М.М. Доиндоевропейские термины родства в германских языках// Памяти академика Марра И.Я. – М. – Л., 1978. – С. 93-115.
5. Исмоилов И. Туркий тилларда кавм-қариндошлик терминлари. - Тошкент: Фан, 1966. - С. 62-150.
6. Исмоилов И. Туркий тиллардаги бўйдок; сўзига оид // Узбек тили ва адабиёти. - Тошкент, 1978. № 1.
7. Исмоилов И. Ўзбек тилида кавм-қариндошлик терминларига доир баъзи мулоҳазалар // ж. Ўзбек тили ва адабиёти. — Тошкент, 1964. № 4. — С. 40 -43.
8. Ишаев А. Ўзбек шеваларидаги қариндошлик терминлари //В кн. Ўзбек халқ шевалари лугати. - Тошкент: Фан, 1971. - С. 320-385.
9. Мусаев К.М. Лексика тюркских языков в сравнительном освещении. - М., 1975.
10. Мусаев К.М. Основные проблемы изучения лексики языков // СТ, 1978. №3.- С. 33-41.
11. Покровская А.А. Термины родства в тюркских языках // В кн. Историческое развитие лексики тюркских языков. - М.: Изд-во АН СССР, 1961. - С. 11-81.
12. Saidova M.Sh. Қариндошлик атамалари тарихига доир // ж. «Ўзбек тили ва адабиёти». 1993. № 3.

13. Сайдова М.Ш. Наманган шеваларидаги кариндошлиқ терминларининг лексик-семантик таҳлили. Автореферат кандидатской диссертации. – Тошкент, 1995. 21 с.
14. Fortes M. 1969. Kinship and the social order: the legacy of Henry Lewis Morgan. Chicago: Aldine.
15. J. Grimm, Robin. Kinship and Marriage. UK: Pelican Books. P. 30. 1967. Print.



**Mirzali RAXIMOV,**

*SamDU roman-german tillar kafedrasi o'qituvchisi*

*rahimovmirzaali74@gmail.com*

*SamDCHTI professori M.B.Begmatov taqrizi asosida*

## HOZIRGI NEMIS TILI BADIY MATNIDA ILOVALI ELEMENTLARNING STRUKTURAL KO'RINISHLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada bugungi kun nemis tili tilshunosligida badiy matnda ilovali elementlarning struktural ko'rinishlari haqida hikoya qilinadi. Bunda tasvirlanayotgan voqealr hodisa kitobxon yoki o'quvchiga batafsil va tushunali yetib borishi uchun qo'shimcha struktural komponentlar ya'ni, ilovali elementdan foydalanish jarayoni ilmiy asoslanadi. Shu bilan birga ushub maqolada ilova elementlarining murakkab struktural shakllari haqida ham aytib o'tilgan. Bundan tashqari bir qator tilshunos olimlarning mavzuga oid ilmiy qarashlari va tadqiqot natijalarini haqida ham fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Badiy matn, yetakchi komponent, mantiqiy urg'u, qurilma komponenti, murakkab strukturaviy guruh, lingvistik mohiyat, strukturaviy tarkib, sintaktik aloqa, auch, und, und auch bog'lovchilar ilovali element sifatida, parallelilik xususiyat.

## СТРУКТУРНЫЕ ПРОЯВЛЕНИЯ ПРИСОЕДИНИТЕЛЬНЫХ ЭЛЕМЕНТОВ В ХУДОЖСТВЕННОМ ТЕКСТЕ СОВРЕМЕННОГО НЕМЕЦКОГО ЯЗЫКА

Аннотация

В этой статье идет речь о структурных проявлениях присоединительных элементов в современном немецком языкоznании. При этом научно обосновывается процесс использования дополнительных структурных компонентов, то есть присоединительного элемента, для того, чтобы описываемое событие доходило до читателя более подробно и понятно. В этой же статье также упоминается о сложных структурных формах присоединительных элементов. Кроме того, представлены научные взгляды ряда ученых-лингвистов, занимающихся присоединительной конструкцией и результаты их научных исследований.

**Ключевые слова:** Художественный текст, ведущий компонент, логический акцент, присоединительный компонент, сложная структурная группа, языковая сущность, структурное содержание, синтаксическая связь, связи auch, und, und auch как присоединительный элемент, свойство параллельности.

## STRUCTURAL VIEWS OF ADDITIONAL ELEMENTS IN CONTEMPORARY GERMAN FICTION TEXT

Annotation

This article tells about the structural manifestations of additional elements in the literary text in today's German linguistics. In this case, the process of using additional structural components, i.e., the application element, is scientifically based, so that the described event reaches the reader or reader in detail and understandably. At the same time, this article also mentions the complex structural forms of application elements. In addition, the scientific views and research results of a number of linguists on the topic are discussed.

**Key words:** Artistic text, leading component, logical emphasis, device component, complex structural group, linguistic essence, structural content, syntactic connection, conjunctions auch, und, und auch as an additional element, parallelism feature.

**Kirish.** Ilovali elementlar ilova qurilma tarkibida bajarib kelayotgan funksiyalari bilan bir-birlariga xos bo'lgan xususiyatlarni o'zlarida takrorlabgina qolmasdan, balki yangi xususiyatlarni bilan bir-birlarini boyitib, kengaytirib boradi. Bu holni parallel birikishga moslangan ilovali elementlar tahlilida ham kuzatish mumkin. Chunki, "bu ilovali elementlar quyidagi o'zlariga xos xususiyatga ega: birinchidan, ilovali elementning yetakchi komponenti, ya'ni ilovali elementning o'zi takrorlanish prinsipi bilan hosil bo'ladi va so'ng unga tobe bo'lgan qismlar bilan kengaytiriladi; u yoki bu gap bo'lagining takrorlanib kelishi bu uslubiy hodisadir" [7], chunki yozuvchi kitobxonning diqqat e'tiborini tasvirlayotgan voqealr bilan qaratish maqsadida uni takrorlaydi, takrorlanuvchi komponent doimo mantiqiy urg'u oladi, natijada uning ta'sirchanligi, voqeayligi oshadi. Demak, bunday formada shakllanish xususiyatiga ega bo'lgan ilovali elementlarning stilistik funksiyalari nihoyatda salmoqli bo'ladi; ikkinchidan, ilovali element tarkibida inversiya hodisasini kuzatamiz, chunki takrorlanuvchi komponentlar oddiygina takrorlanib qolmasdan, balki o'zgaradi, demak bu yerda qandaydir sinonimik holat namoyon bo'ladi;

uchinchidan, ilovali elementning strukturaviy shakllanishi bilan bog'liq bo'lgan holat, ya'ni biz bu yerda til elementlarini tejash usuliga duch kelamiz. Natijada, "ilovali elementlar yetakchi gap tarkibida tushirilib qoldirilgan komponentni to'ldirish, tiklash maqsadida namoyon bo'libgina qolmasdan, balki ularning o'zi ham shu asosiy ifoda tarkibida keluvchi komponentlar yordamida tiklanishi mumkin" [1] degan xulosaga ega bo'lamiz. Demak, o'zaro bog'liqlik ilova qurilma komponentlariga xos bo'lgan yana bir muhim xususiyatni, ya'ni asosiy ifoda bilan ilovali elementlar o'rtaqidagi sintaktik-semantik bog'liqlikni yana bir marta isbotlaydi.

Ilovali elementlardan tashkil topgan ilova qurilmalar murakkablashish xususiyatiga ham ega. Natijada, ilova qurilma tarkibida asosiy ifodaga har xil yo'llar bilan birikib keluvchi ilovali elementlarning soni bittadan oshishi shart. Demak, ikki yoki undan ortiq ilovali elementlardan tashkil topgan sintaktik qurilmalarga murakkab strukturaviy ilova qurilma deb ataladi.

Ba'zi hollarda ilova qurilmalarni sodda yoki murakkab strukturaviy guruhlarga ajratishda asosiy ifodaning ham

strukturasi hisobga olinadi. Masalan, Y.S. Moraru ilova qurilmaning strukturaviy guruhlarini ispan tili materiallari asosida o'rGANIB, quyidagicha mulohaza bildirgan: «Sodda strukturaviy ilova qurilmani tashkil qiluvchi komponentlarning soni har ikkala tomonda ham bir xil bo'lishi kerak, ya'ni bittadan gap yoki sintagmaldan oshmasligi kerak; murakkab strukturaviy ilova qurilmani tashkil qiluvchi komponentlar esa, ham ilovali element tarkibida, ham asosiy ifoda tarkibida ikkitadan kam bo'lmasligi kerak» [4].

Boshqacha qilib aytganda, murakkab strukturaviy qurilmalarni tashkil qiluvchi asosiy ifodani soni bilan ilovali elementlarning soni bab-baravarga oshishi kerak, ya'ni ikkitadan kam bo'lmasligi kerak. Biroq, ilova qurilmaning strukturaviy xususiyatlarni bunday metod yordamida anglash hamma vaqt ham ijobjiy natija beravermaydi. «Shu sababli ilova qurilmaning lingvistik mohiyatiga tayangan holda, ularni strukturaviy guruhlarga ajratish maqsadga muvofiqdir» [8], chunki ilova hodisa, ilova qurilma yoki ilova munosabatlari ham asosan ana shu ilovali elementlarning, ya'hi aytilgan, tugatilgan fikrlarga qo'shimcha ma'nio, mazmun berishga moslashtirilgan lingvistik mohiyatdan kelib chiqadi, ya'ni asosiy ifodaga birikib keluvchi ilovali elementlarning soni bilan belgilanadi. «Ilovali elementlarning soni birdan oshgan barcha ilova qurilmalar bizningcha murakkab strukturaviy ilova qurilmalar» [2] deb hisoblanishi va ana shu qoidaga roya qilishi lozim.

Endi ana shu murakkab strukturaga ega bo'lgan ilova qurilmalar to'g'risida mulohazalar yuritishga o'tamiz.

I. Ilovali elementlarning soni ikkitadan iborat bo'lgan ilova qurilmalar:

1. Wir fördern jeden, auf, mitzumachen und mitzudenken. Dich auch. Jeden [11].

2. Da mußt du ein starkes Ich haben. Eine Nase. Und Glück natürlich [11].

3. Toni sagte leise: «Nein. Wirklich, ich kenn's nicht». Sie dachte noch. Und sie fuhr fort, zögernd, nach Worten suchend: «Ich kenne nur Leute, die drüben waren, und welches, die drüben sind. Den Nohl, den ersten Mann von der Lene, den hab ich gekannt. Und auch den Bechtler, der es heimlich mit ihm gehalten hat» [12].

1, 2 va 3-raqamli misollarda bayon qilingan ilova qurilmalarining bir-biriga o'xshash va bir-birlaridan farq qiluvchi alomatlarini izohlab berishga o'taylik. Bu ilovali elementlar bir-birlariga faqatgina strukturaviy xususiyatlari bilan o'xshaydi, chunki ular murakkab strukturaviy ilovali elementlardir, sabab asosiy ifodaga birikib keluvchi ilovali elementlarning soni ikkitadan iboratdir. Qolgan sintaktik xususiyatlari jixatdan ular bir-birlaridan farq qilishadi. Jumladan, 1-raqamli misoldagi ilovali elementlarga qisman o'xshasa-da, lekin qisman farq ham oshadi, bu farq 1-raqamli misoldagi ikkinchi ilovali elementning paydo bo'lishi bilan belgilanadi, chunki bu ilovali element takrorlanish yo'li bilan hosil bo'ladi. 3-raqamli misoldagi ilovali elementlar 1, 2-raqamli misollardagi ilovali elementlardan, birinchidan, strukturaviy kengayishi, ikkinchidan esa asosiy ifodaga birikib kelishi bilan farq qiladi, chunki bu yerda ilovali elementlar asosiy ifodaga ketma-ket birikib keladi. Ularga xos bo'lgan bunday ketma-ketlik ikkinchi ilovali elementning tarkibida keluvchi «auch» biriktiruvchi bog'lovchisining yordami tufayli amalga oshadi, agarda shu «auch» kelmaganda edi, bu ilovali elementlar ham xuddi 1, 2-raqamli misollarda keltirilgan ilovali elementlarga o'xshab o'zlarining asosiy ifodasiga parallel birikkan bo'lar edi. Yana ana shu 3-raqamli misoldagi ilovali elementlarga xos bo'lgan xususiyatlarga to'xtalaylik, u ham bo'lsa, bu yerda har bir ilovali element ikki guruhga bo'linadi, ya'ni hokim va tobe. Boshqacha qilib aytganda, bu murakkab strukturaviy guruhni tashkil kiluvchi har bir ilovali element polifunksiyaga ega, ya'ni polirema bo'lib kelmoqda. Masalan 3-raqamli misoldagi birinchi ilovali

elementni quyidagicha izohlash mumkin: den Nohl bu shu elementning hokim komponenti, -den ersten Mann der Lene - bu ham hokim komponentiga tegishli, ya'ni oppozitsiya, lekin bu ilovali elementning den habe ich gekannt -komponenti unga tobe xisoblanadi. Natijada, bir ilovali elementning strukturaviy tarkibida ikki xil xususiyat namoyon bo'ladi: hokimlik va tabelik. Ularga xos bo'lgan bu xususiyatlar ana shu ilovali elementlarga polifunksionallik xususiyatini beradi.

Demak, bunday ilovali elementlar ikki xil funksiyada keladi, ya'ni o'zi bevosita bog'liq bo'lgan asosiy ifodaga nisbatan ilovali element funksiyasida, o'ziga tobe bo'lgan komponent uchun asosiy ifoda funksiyasida. Xuddi shunday xususiyat 3-raqamli misoldagi ilovali elementlar tarkibida ham takrorlanipsh mumkin. Demak, bu xususiyatlar ularning ichki xususiyatlardagina emas, balki tashqi ko'rinishlarida ham namoyon bo'limoqda.

Murakkab strukturaviy ilova qurilmalarga xos bo'lgan sintaktik xususiyatlardan yana biri, ular orasidagi sintaktik aloqalarining ifodalanishida namoyon buladi. Bunday murakkab strukturaviy ilova qurilma komponentlari orasidagi sintaktik aloqa vositalari, birinchidan, shu ilova qurilmalar tarkibida keluvchi «auffordern», «haben», «mennen» kabi kontaktli so'zlar yordamida, ikkinchidan esa, ana shu ilovali elementlar tarkibida keluvchi, lekin ba'zi hollarda o'zlariga xos bo'lmagan joylarda qo'llanuvchi auch, und, und auch kabi biriktiruvchi bog'lovchilar yordamida ifodalanib keladi.

Murakkab strukturaviy ilovali elementlarga xos bo'lgan bunday xususiyatlarni maxsus biriktiruvchi bog'lovchilar yordamida kelgan ilovali elementlar tahlilida ham kuzatish mumkin. Fikrimizning isboti uchun quyidagi misollar tahliliga e'tibor qarataylik:

4. Selbst die Mutter geht nicht mehr gern in den Wald. Nur um die Mittagszeit wagt sie sich bis an die Lichtung und holt Gras für die Ziege. Auch Beeren. Und Pilze [9].

5. «Ich hab noch mal laut gehört, was ich mir selbst dagegen hielte. Jetzt hab ich mich nicht mehr zurückhalten. Auch von dir nicht. Und von mir nicht» [12].

6. Dann aber, und immer mehr Zeit verging und verging begann für mich die Rückkehr. Auch für Richard. Und auch für Herbert [12].

7. Endlich kam er dazu mit Julia zu tanzen. Und wieder mit ihr. Und einmal mit Loni [11].

8. Er geht noch mal zurück in die Gaststätte, und am Büfett verlangt er Zitronenscheiben. Oder andere Platzchen. Oder etwas mit Apfelsine [11].

4,5,6,7 va 8 -raqamli misollarda keltirilgan ilovali elementlarga xos bo'lgan sintaktik xususiyatlarni quyidagicha izohlash mumkin. Ilovali elementlarning asosiy ifodaga nisbatan birikishi parallellik xususiyatiga ega, bu parallellikni ikki tomonlama tushuntirish mumkin, birinchidan, asosiy ifoda tarkibida ilovali elementlarga mos keladigan gap bo'laklarining mavjudligi; ikkinchidan esa, ilovali elementlarning har birini alohida-alohida asosiy ifodaga birikib kelishi orqali.

Boshqacha qilib aytganda, murakkab strukturaga ega bo'lgan ilovali elementlar bir-birlarining yordamisiz asosiy ifodaga mustaqil ravishda birikib keladi. Chunki murakkab strukturaviy guruhni tashkil qiluvchi har bir ilovali elementning oldida biriktiruvchi bog'lovchilar qo'llanilayapti. Shu sababli bunday ilova qurilma komponentlari orasidagi sintaktik aloqalar ham o'zgacha xarakterga ega bo'ladi. Bu holni quyidagicha izohlash mumkin. Masalan: 1 va 8-raqamli misollardagi ilovali elementlar bilan asosiy ifoda orasidagi sintaktik aloqalar quyidagicha ifodalanadi: birinchidan, kontaktli so'zlar yordamida, ya'ni -holen; verlangen; ikkinchidan, auch, uns va oder boglovchilarining ishtirokida; bunday hollar faqatgina 1, 8 raqamli misollarda emas, balki, barcha ilova qurilmalar tarkibida kuzatilmoqda; uchinchidan esa, asosiy ifoda funksiyasida keluvchi bosh bo'laklarning

yaxlitligi bilan; va nihoyat to'rtinchidan, ilovali elementlar tarkibida asosiy ifodaning ba'zi bir komponentlarining takrorlanishi bilan.

Takrorlanuvchi komponentlar funksiyasida nicht (5), für (6), mit (7) lar kelmoqda. Ilovali elementlarga xos bo'lgan bunday sintaktik xususiyatlardan ularning kommunikativ funksiyasiga ham ta'sir qiladi, natijada kommunikativ funksiyalar har xil nozikliklarga ega bo'ladi: to'liqlik, birkish va ajralish. 4, 5, 6, 7 va 8-raqamli misollarda keltirilgan murakkab strukturaviy ilovali qurilmalarga xos bo'lgan xususiyatlardan yana biri, ilovali elementlarning oldida u yoki bu biriktiruvchi bog'lovchining kelishi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, bunday ilovali elementlar oldidagi biriktiruvchi bog'lovchilar maxsus biriktiruvchi bog'lovchilar yordamida keluvchi ilovali elementdan tubdan farq qiladi, chunki bu yerda biriktiruvchi bog'lovchilar ilova qurilma komponentlari orasidagi sintaktik aloqa vositasini ifodalashda zarur omil bo'lib xizmat qilmaydi. 4, 5, 6, 7, va 8-raqamli misollarda esa, ilovali elementlar oldida keluvchi biriktiruvchi bog'lovchilar bunday funksiyalarni bajarmaydi, chunki bu ilova komponentlar orasidagi sintaktik aloqlar ularsiz ham ifodalanib kelishi mumkin. Lekin shunga qaramasdan, bu ilovali elementlarga xos bo'lgan xususiyatlarni alohida ta'kidlash o'rinni deb hisoblaymiz, chunki biriktiruvchi bog'lovchilarga ega bo'lgan bunday ilovali elementlar shu turdagisi ilovali elementlarning alohida olingan strukturaviy guruhlarini tashkil qilishda muhim rol o'yaydi. Shuning uchun ham bu strukturaviy guruh alohida ta'kidlanishi lozim.

Ba'zi bir hollarda murakkab strukturaviy ilova qurilmalarni tashkil etishda bir xil sintaktik xarakterga ega bo'lgan predloglar ishtirok etishi mumkin:

9.Er ist in der Nähe der eldbrücke. Er kaut langsam. Welt er nachdenkt. Über Fanselow. Und über sich[10].

10.Ernst Ferdinand verstand das alles; er wußte, warum die Mutter seufzte und schwieg. Er ging in seine Kammer und kam mit einer kleinen Börse wieder, in der er sein erspartes Geld aufbewahrte. Sie könne das nehmen, sagte er zur Mutter. Für die Siegertin. Für Medizin[6].

11.Er wehrte sich verbissen. Mußte sich wehren. Gegen wen. Gegen alle[15].

9, 10, 11-raqamli misollarda bayon qilingan ilovali elementlarning tahliliga tayanib, ularga xos bo'lgan yana "bir sintaktik xususiyatlari alohida ta'kidlash maqsadga muvofiq, u ham bo'lsa ilova qurilma tarkibida keluvchi asosiy ifoda bilan ilovali elementlarning strukturaviy shakllanishidir. Boshqacha qilib aytganda, asosiy ifodaning strukturaviy shakllanishi hamma vaqt ham ilovali elementlarning strukturaviy shakllanishiga mos kelavermaydi.

## ADABIYOTLAR

- Admoni W. Der deutsche Sprachbau. M., -L., 1966. – 284 S.
- Axmedova B.M. Ilova qurilmaning ba'zi bir strukturaviy xususiyatlari (L. Feyxtvanger asarlari asosida). -Samarqand: SamDU. 1997. 48-53-b.
- Begmatov M.B., Begmatov Q.M. Sintaktik aloqlar va ilova konstruksiya. Zamonaviy lingvistik tadqiqotlar va chet tillarni o'qitish didaktikasi. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materillari. Samarqand. SamDChTI nashri. 2017, 161-162-b.
- Moraru Y.S. Prisoedinitel'nie konstruksii semanticeskogo issledovaniya s antesedentom glagolnogo tipa. Sb.: Pragmatiko-funksional'noe issledovanie yazikov. -Kishinev: «Shtiinsa», 1987, -S. 58- 63.
- Sidorova Y.G. Prisoedinitel'nie konstruksii v sisteme sovremennogo russkogo yazika // Vestnik Volgogradskogo gosudarstvennogo universiteta. Ser. 2. Yazikoznanie. 2012. № 2 (16). S. 57-62.
- Timoshenkova T.M. Prisoedinenie kak osobiy vid sintaksicheskoy svyazi // Vestnik Xar'kovsk. gos. un-ta. - Xar'kov, 1977., №159, vip. 10. - S. 96-100.
- Tursunov B.T. Prisoedinenie kak osobiy tip sintaksicheskoy svyazi. Dokt. diss... -Sankt-Peterburg. 1993. 465 s.
- Tursunov B.T. Obosoblenie i prisoedinenie. Ilmiy tadqiqotlar axborotnomasi (Ilmiy-nazariy, uslubiy jurnal. -Samarqand: SamDU, 2005, № 2 -b. 57-59.
- Bruns Marianne. Die Lichtung. Mitteldeutscher Verlag Halle (Saale) 1972. 460 S.
- Flegel Walter. Ein Katzensprung. Militärverlag der Deutschen Demokratischen Republik, Berlin, 1976. 251 S.
- Küster Karl-Heinz. Das Gespenst von Black Rose Castle. Greifenverlag zu Rudolstadt, 1973. 188 S.
- Seghers Anna. Das Vertrauen. Aufbauverlag Berlin und Weimar, 1971. 455 S.

Bu xulosaning isboti sifatida T.M.Timoshenkovning ingliz tili materiallari asosida olib borgan izlanishidan quyidagi mulohazani keltiramiz: "Asosiy ifoda ham, ilovali element ham kommunikativ nuqtai nazardan bir xil strukturaviy shaklga ega bo'lmaydi, shu sababli ilova qurilma na bog'langan qo'shma gapga va na ergashgan qo'shma gapga o'xshaydi, ular o'zgacha struktura kashf etadi" [6].

Haqiqatdan ham, agarda biz bu yerda tahlil qilingan va tahlil qilinishi lozim bo'lgan ilova qurilmalarning strukturaviy shakllanishini bir-biriga qiyos qilib o'rgansak, yuqoridaq mulohazaning to'g'riligiga to'lig'icha ishonamiz, chunki ilova qurilmalarning har-xil strukturaviy shakllanishga ega. Bunday shakllanishda yo asosiy ifoda, yo ilovali element ma'lum murakkablashgan shaklga ega bo'lishi mumkin. Masalan 10-raqamli misoldagi asosiy ifodaning strukturaviy shakllanishi 9, 10 va 11-raqamli misollardagi ilovali elementlarning strukturaviy shakllanishidan keskin farq qiladi. Demak, "ilova qurilma tarkibida asosiy ifoda ilovali elementlarga nisbatan qanday strukturaviy shakllanishga ega bo'lmisin, bu ilova qurilma ham strukturaviy va ham ma'noviy tomondan ana shu ilovali element yordamida yakunlanadi" [5], demak, ilovali element har qanday strukturaviy shakllanishda yakunlovchi, tugallovchi komponent sifatida yuzaga keladi.

Endi ana shu 9, 10, 11-raqamli misollarda keltirilgan ilovali qurilmalarning tahliliga to'xtaylik. Ular orasida, 9-raqamli misolda keltirilgan ilova elementlar o'zgacha qiziqish uyg'otadi, chunki bu ikkala ilovali element yagona bir komponentning ajralmas qismi hisoblanadi. Agarda biz transformatsiyan metoddan foydalanim, bu ikkala ilovali elementni asosiy ifoda funksiyasida keluvchi gap tarkibida joylashtirsak, u holda – weil er über Fanselow und auch über sich nachdenkt – yagona ergash gap hosil bo'ladi. Biroq, yozuvchi shu ergash gap tarkibidagi ayrim komponentlarning muhimroq ekanligini ko'rsatish, ularni alohida ta'kidlash maqsadida ana shu ilovali elementlarga murojaat qiladi va ularni ilovali element funksiyasida qo'llaydi. Natijada, "bu ilovali elementlar kitobxonning ham diqqat-e'tiborini o'ziga jabol qiladi, chunki sintaktik jihatdan ilovali elementlar yolg'iz kelishi mumkin emas" [3], lekin kelganda ham nimagadir bevosita bog'liq bo'lishi shart. Bu bog'liqlik ikki tomonlama sodir bo'lmoqda: strukturaviy va ma'noviy. Strukturaviy bog'liqlik ilovali elementning asosiy ifodadan keyin turishi, ya'ni past pozitsiyada turishini ta'kidlasa, ma'noviy bog'liqlik esa, ilovali elementlarning asosiy ifodasiz mavjud bo'la olmasligini ta'kidlaydi, sabab oldindi gap tarkibida tushirilib qoldirilgan fikr ilovali elementlar yordamida tiklanadi, to'ldiriladi, konkretlashtiriladi.



Dilfuza RAKHMONOVA,  
Buxoro davlat universiteti maktabgacha ta'lim kafedrasini o'qituvchisi

Buxoro Davlat Universiteti dotsenti, f.f.f.d.(PhD) M.B.Akhmedova taqrizi asosida

## MODEL OF THE DEVELOPMENT OF BILINGUALISM IN CHILDREN THROUGH PLAY ACTIVITIES

### Abstract

The relevance of the article is due, on the one hand, to the development of early bilingualism in modern children aged 5-7 years, on the other hand, the significant role of play activity in the formation of speech skills and abilities of a child at the stage of preschool childhood. The article presents a comprehensive interdisciplinary theoretical analysis of psychological, pedagogical, sociolinguistic and psycholinguistic scientific literature on the topic of children's bilingualism.

**Key words:** Bilingualism, the stage of preschool childhood, theoretical analysis, sociolinguistic and psycholinguistic scientific literature.

## МОДЕЛЬ РАЗВИТИЯ БИЛИНГВИЗМА У ДЕТЕЙ ЧЕРЕЗ ИГРОВУЮ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ

### Аннотация

Актуальность статьи обусловлена, с одной стороны, развитием раннего двуязычия у современных детей в возрасте 5-7 лет, с другой стороны, значительной ролью игровой деятельности в формировании речевых навыков и умений речи. ребенок на этапе дошкольного детства. В статье представлен комплексный междисциплинарный теоретический анализ психолого-педагогической, социолингвистической и психолингвистической научной литературы по теме детского двуязычия.

**Ключевые слова:** Двуязычие, этап дошкольного детства, теоретический анализ, социолингвистическая и психолингвистическая научная литература.

## O'YIN FAOLIYATI ORQALI BOLALARDA IKKI TILLILIKNI RIVOJLANTIRISH MODELI

### Annotatsiya

Maqlolaning dolzarbligi, bir tomonidan, 5-7 yoshli zamонавиyl bolalarda erta ikki tillilikning rivojlanishi bilan bog'liq bo'lsa, boshqa tomonidan, bolaning nutq qobiliyatlarini shakllantirishda maktabgacha yoshdag'i bolalik bosqichida o'yin faoliyatining muhim roli. Maqlolada bolalarning ikki tilliliqi mavzusiga oid psixologik, pedagogik, sotsiolingvistik va psixolingvistik ilmiy adabiyotlarning har tomonlama fanlararo nazariy tahlili keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Ikki tillilik, maktabgacha yoshdag'i bolalik davri, nazariy tahlil, sotsiolingvistik va psixolingvistik ilmiy adabiyotlar.

**Introduction.** In recent years, a new type of spontaneous development of mass bilingualism in preschool children in natural conditions has emerged, for the consequences of which the adult population (parents and teachers) turned out to be insufficiently prepared. An analysis of the scientific psychological literature allows us to conclude that for the early stage of the formation of bilingualism in preschool children, the most optimal strategies are the simultaneous mastery of two languages according to the formula "one person - one language" and the systematic teaching of a second language based on the first language with the parallel development of native speech in conditions of the educational process.

**Literature review.** In the modern world, bilingualism and multilingualism are part of a person's communicative competence. Along with the language attitude of a modern person in education, there is a need to organize a bilingual and multilingual educational process, to develop the methodology of bilingual education and upbringing.

The domestic education system does not yet have the necessary psychological and pedagogical tools that will allow organizing high-quality support for the early stage of development of balanced bilingualism and multilingualism, and new pedagogical forms, methods and means of implementing bilingual and multilingual education with the component "native (national) language", developed taking into account psychological characteristics, such as the leading activity - the game of preschool children.

On this occasion, the famous psycholinguist, specialist in the field of ontolinguistics, researcher of early childhood bilingualism Alexander Markovich Shakhnorovich wrote the following: "Introducing a child to a second (non-native) language is a matter that requires, firstly, special conditions and Secondly, high professionalism. Moreover, we cannot talk separately about national-Russian bilingualism. The question is broader: what you need to know and what you need to do to teach preschoolers a second language. If the second part of the question belongs to the competence of methodology and educational psychology, then the first part belongs to linguistics. Thus, the creation of effective methods for the speech development of bilingual children of preschool age requires an interdisciplinary approach.

**Research methodology.** The modern language environment has changed even in monolingual settlements. This is due, firstly, to the intensive introduction of information technologies and the provision of mass access to the Internet, which provide children with playful, educational and educational content in Russian and English. Secondly, the population of the republic has become more mobile, tourist and health trips with children to the central part of Russia, to other regions and foreign countries have become more accessible and widespread. The above factors create favorable conditions for the development of early bilingualism in children in a natural situation.

The psychological aspect of the development of bilingualism in children is a direction sufficiently studied by

foreign and domestic researchers and is closely intertwined with the sociological aspect of bilingualism. An analysis of the scientific psychological literature allows us to conclude that the main issue is the typology and methodological characteristics of bilingualism, as well as language teaching strategies that are important in developing a model of game activity that develops bilingualism in preschool children and when it is introduced into the educational process.

**Analysis and results.** A bilingual can use the language only in a certain situation (at home - native, at work - official). Therefore, carriers of this type of bilingualism are monolingualistic in every situation. It is assumed that in pure bilingualism speech mechanisms are in no way connected with each other. Mixed bilingualism develops in the conditions of active functioning of two languages in the socio-cultural environment. Proficiency in two languages to the same extent in the same situation, taking into account the language

If a person with a native (national) language has a better command of Russian, then he has Russian-national bilingualism. The strategy of teaching and mastering languages is also an important psychological aspect of the development of bilingualism in children. Psychologists have described three strategies for language acquisition:

(1) simultaneous acquisition of two languages (the formula "one person - one language"), which occurs with the help of a language setting on the part of adults;

(2) spontaneous acquisition of a second language in conditions of natural communication without deliberate influence on the part of adults;

(3) systematic teaching of the second language on the basis of the formed speech skills in the native (first) language.

The advantages of the first strategy of teaching (mastering) languages have been noted by many researchers of early bilingualism in children. This method of teaching bilingualism to children at preschool age, first of all, requires compliance with the principle of "one language - one person", in which a bilingual communicates with one person (mother) in only one specific language, and with the second person (father) in another language.

**Conclusions and suggestions.** As a result, the child has two language systems formed independently of each other, he simultaneously masters the phonetic, lexical and grammatical and stylistic forms of the two languages without displacement and interference. Parallel mastery of two languages is possible only in childhood, subject to the purposeful management of the formation and development of speech in two languages by adults. With the strategy of mastering two languages according to the formula "one person - one language", the child develops a set of speech in one or another language in connection with a certain person or situation, and the other language is deactivated at this time. (Note: the inhibition of speech in another language occurs only in the first stage of the development of bilingualism, after a while the child develops the ability to translate from one language to another).

#### REFERENCES

- Shakhnorovich A.M. Early bilingualism: psycholinguistic problems in different regions of the world // Sociolinguistic problems in different regions of the world. - M., 1996. - S. 445-448.
- **Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** Masalan: The girl Glanced back at him over her shoulder and said with great bitterness. (J. Joyce).

Qiz unga tikilib orqasiga qaradi va chuqur g'am bilan aytdi.

Predmetning belgisini, sifatini aniqlab gapda asosan aniqlovchi vazifasida keluvchi olmoshlar deyiladi.

Masalan: She nodded **her** head gravely (J. Joyce).

U boshini jiddiy holatda irtidti.

"O **my** Enemy and Mosher of **my** enemy" said the cat.... (R. Kipling).

Ey, mening dunshmanim u dushmanimning onasi-dedi mushuk...

"That's **your** very own hump that you've brought upon **your** very own self by not working (Gbid)".

On **his** heart he was satisfied.

Yuragidan u mammun edi. (D. H. Lawrence).

Ayrim olmoshlar ham substantive, ham ad'ektiv olmosh vazifasida kelishi mumkin.

Masalan: **All** (substantiv) was dark in the house. (Galsworthy).

Hamma narsa uyda qorong'u edi.  
But we don't want **all** (ad'ektiv) those (ad'ektiv) teeth:  
Only put two. (R. Kipling).

Lekin biz ana shu tushlarning hammasini xoxlamaymiz, faqat 2 ta qo'ying.

She wondered about the **other** (ad'ektiv) girl. (P. Abrahams).

U boshqa qiz haqida qiziqdi.

The others (substativ) just care about being a good dresser. (B. J. Friedman).

Boshqalar faqatgina yaxshi oshxona javoni bo'lishi haqida o'yashdi.

Keyingi ikki gapning birinchisidagi "**Other**" so'zi "**girl**" so'zini aniqlab, ad'ektiv olmoshi vazifasida kelayotgan bo'lsa, u gapning ikkinchisidasi ko'plik qo'shimchasini "**S**" ni olganligi hamda aniq artikel "**the**" bilan ishlatalib, gapda ega bo'lganligi uchun ham substantive olmosh vazifasida kelyapti. Shu jumladan

hozirgi ingliz tilidagi **both**, **either**, **neither** so'zlarini morfoligik va sintaktik xususiyatlarni nazariy va amaliy hamda sintaktik semantik jihatdan har tomonlama o'r ganib chiqishamiz. **neither**, **either**, **both** olmoshlari to'g'risida gapirganda avvalombor ular faqat ikki narsa yoki shaxsga nisbatan ishlatalishi mumkin.

**BOTH** and neither are used to talk about two things that are the same:

a) Both Bettys had worked in post offices in their home towns.

Ikkala Bettilar ham pochtada o'zlarining shaharlarida uyida ishlaydi.

(both+plural; One and the other).

b) Neither Betty could show the other her engagement ring.

Na Betti boshqalarga unashiruv uzugini ko'rsatolmadi.

(neither+singural; not one and not the other);

Ya'ni **Both** va **neither** faqat bir hil bo'lgan ikki narsa uchun ishlatalishi mumkin.

a) misolda ikkala Bettilar ham pochta idorasida ishlarkan deyilgan va **both** so'zi ikkala, har ikkisi, ikkisi ham degan ma'noma anglatib qo'yidagi formula bo'yicha qo'llaniladi: (Both+ko'plik; biri va boshqasi).

•I have got two brothers. Both are elder than me.

Mening 2 ta akam bor. Ikkalasi ham mendan katta.

b) misolda **Nether** so'zi ikkisidan hech qaysi, hech biri, ma'nosida kelib qo'yidagi tartibda kelgan:

Neither+birlilik;

Neither car is mine. Mashinalardan hech qaysi meniki emas.

**Both**, **neither**, **either** so'zlarini olmosh vazifasida yaqinroq ko'rib chiqsak, ularni qo'yidagicha tasniflash mumkin:

Both-belgilash olmoshi bo'lib, (Defining pronouns) u har ikkala, ikkalasi degan ma'noni bildiradi.

**Both** olmoshi bosh va ob'ektiv kelishigidagi kishilik olmoshlari bilan ishlatalishi mumkin:

We both-biz ikkalamiz, ikkimiz;

You both-ikkalangiz;

They both-ikkalasi;

•We both have a pair now. (J. Joyce). Endi ikkalamizni juftimiz bor.

•We both turned, though I still kept my left arm about Clara's waist. (R. L. Stevenson).

Biz ikkalamiz ham burildik shunga qaramay meni qulim hamon Klara belida turar edi.

**We both**, **you both**, **they both** birlklari ma'noma jihatdan **both of us**=**we both**;

Both of you=you both

Both of them=they both birlklariga teng.

We both participated in this project.

Both of us participated in this project.

Ikkala gap ham ma'nova jihatdan bir xil.

Biz ikkalamiz ham bu loyiha ishtirok etgan edik.

Qo'yidagi misollarni ko'rib chiqamiz.

•Both of them kissed Gabriel's hand (B. Shaw).

Ularni ikkalasi ham Gabrielning qo'lini o'pishdi.

Ba'zida kishilik olmoshlari tushurib qoldirilishi mumkin:

•Both were secure but I was not to be beaten (R. I. Stevenson).

Ikkalasi ham xotirjam edi, lekin men tinch turolmadim.

Yuqoridagi misollarni ko'rib chiqar ekanmiz, both olmoshidan keyin faqat ko'plik ishlatalib, ba'zida both kelishik va ob'ektiv kelishikdagi kishilik olmoshlari tushurib qoldirilsa ham mumkinligini va bunda ma'nova va grammatic jihatdan katta o'zgarish bo'lmashagini ko'rishimiz mumkin:

•She tickled her until **both of them** were laughing....

U uni qitiqladi toki ularning ikkalasi kuloyotganga qadar.

She tickled her until **both** were laughing (Melvyn Bragg).

•Both he and Bob had been unable to stop themselves... (Melvyn Bragg)=Both had been unable to stop themselves.

Ikkalasi ham o'zini to'xtatolmadidi.

**Tahlil va natijalar (Analysis and results)**. Ko'rib chiqilgan misollarga tayangan holda shuni xulosa qilish aytilishimiz mumkin:

Both: -a) faqat **ikki** narsa, yoki shaxs uchun ishlataladi, ammo so'zlovchi **ikki** narsa yoki shaxs danortiqroqni nazarda tutsa unda **both** olmoshi o'rnida **all** olmoshiga almashadi.

**Both** faqat bo'lislili gaplarda qo'llaniladi. Inkor ma'nova da uni o'rnida nether olmoshini qo'llaymiz.

We both speak English.

Biz ikkimiz ham ingliz tilida gaplashamiz (ikki kishi). All of us speak English.

(ikki kishidan ortiq). Barchamiz ingliz tilida gaplashamiz.

Yuqorida aytganimizdek **both** olmoshidan so'ng fe'lni inkor shakli ishlatalmaydi.

•I have got two brothers. **Both** are older than me.

Mening ikkita akam bor, ikkalasi ham mendan katta.

•But neither is taller. Ammo ikkalasi ham uzunroq.

**Both** olmoshining inkor shakli vazifasini **neither** olmoshi bajaradi.

**Either**-belgilash olmoshi asosan ob'ektiv olmosh sifatida ishlatalib, grammatic kategoriyasi nisbatan neytraldir. Bu olmoshlardan keyin kelgan kesim birlik sonda ishlataladi.

•Either of them may come. Ulardan xoxlagani kelishi mumkin.

**Either**-faqat ikki narsa yoki shaxsaga nisbatan ishlatalib yoki bu, yoki unisi degan ma'noni bildiradi. Ya'ni y **either** olmoshi ma'nosiga ko'ra predmetni ajratib, yakkalab ko'rsatadi.

•You may choose either of them.

Ulardan xoxlaganingizni tanshashingiz mumkin.

**Either** olmoshi ikki shaxs yoki buyumga taaluqli bo'lib, har ikkalasi, **ham unisi ham bunisi**, ikkalasidan biri ma'nosida ishlataladi.

At either end-ikki (la) chekkasida ham.

At either side-ikki (la) tomonida (ham).

•There is a door at either end of the room.

E. M. Gordon fikricha "**either**" olmoshi **or** bog'lovchisi bilan birga ishlatalganda olmosh emas balki bog'lovchi vazifasida kelarkan. Masalan:

•I'll take either this or that. Bunisini ham unisini ham olaman.

Bo'lishsizlik olmoshi **neither** inkor ma'no anglatuvchi olmosh bo'lib unga sinonim sifatida **no**, **not**, **none** bo'lishsizlik olmoshlari bo'lishi mumkin, ammo albatta ular o'rtasida birmuncha farq bor:

- (ko'p) none of them are ready now;
- (2 kishi) Neither of them are ready; Ularni ikkalasi ham tayyor emas.

**Neither** olmoshini lo'g'aviy ma'nosini ko'rib chiqsak, **neither-syn, not either, nor one nor other;**

**Neither-hech** qanday. I can agree in neither case in neither case can I agree.

Men na bu, na u tomonlama rozi bo'la olaman.

**Neither-1.** pron. Ped. (ega vazifasida) na unisi na bunisi, hech qaysi;

• Neither of you knows. Ikkiningiz ham bilmaysiz.

• **Neither of** two donkeys **carries** heavy loads.

• **Ether** of them **has** stolen my chewing gum.

Ulardan bittasi menin saqichimni o'g'irlagan.

• **Neither** of them **has** the courage to talk so her.

Ularning birortasida ham unga gapirishga jasorat yo'q.

**Neither** olmoshi ko'p holda gap boshida kelishi yoki savolga qisqa javob berish uchun ishlataladi.

• Neither of the boys knows anything about her.

Bolalarning hech biri u haqida bilishmaydi.

• Which pizza do you want? Qaysi bir pitsani xohlaysiz?

Neither, (no this nor another). Thank you. Hech birini rahmat (There are only two pizzas), (Faqt ikkita pitsa bor).

Agar gapda fe'l inkor shaklida ishlatalganda unda **neither** olmoshini ishlatalish mumkin emas, uning o'rniда **either** olmoshi ishlataladi.

He doesn't want **ether** of those balls. U ham bunaqa koptoklarni xoxlamaydi.

Agar gapda **ikkali**, **ikkisi**, har ikkalasi ma'nosida **both** olmoshi ishlatalsa undan so'ng **not** inkor so'zi qo'llash mumkin emas, uning o'rniда **neither** olmoshi ishlataladi.

• (Both of them don't know the answer-noto'g'ri) uni o'rniга, neither of them knows the answer. Ularning ikkalasi ham javobni bilmaydi.

Bundan tashqari **either** va **neither** olmoshlari yakka holda ham ishlatalishi mumkin.

• "Do you want coffee or tea?" "Either". It doesn't Matter which one.

"Siz koffe ichasizmi yoki choy?", "Ikkalasidan biri" Farqi yo'q.

• Which house do you have in mind? "Neither. They are overpriced".

Bu uylarni qaysi birini olishni ko'ngligizga tugib qo'ydingiz?

Hech birini. Ular juda qimmat ekan.

Ham **either**, ham **neither** va **both** ikki kishi, buyumga nisbatan ishlatalarkan.

**Neither, either** olmoshlardan keyin fe'l birlikda ishlatalarkan. **Both**, olmoshi inkor gapda ishlatalishi mumkin emas, uning o'rniда **neither** olmoshi ishlatalishi kerak degan xulosaga keldik.

Xulosa qilib **-both, either, neither** so'zlari gapda otolmosh va sifat-olmosh, **-either va neither** so'zlari ravish bo'lib, keladi.

Gapda ular aniqlovchi, ega, to'ldiruvchi vazifalarini bajarib kelishi mumkin.

Ammo ular: both...and, Neither .....nor, Either .....or ko'rinishda kelganda bog'lovchi bo'lib keladi va prof. I. A. Reznik takidlagandek bunda qo'shma gapning ikkala qismi ham teng komponentlarga ega bo'lishi shart.

**Xulosa va takliflar. -both, either, neither** so'zlari gapda olmosh, olmosh-ot, olmosh-sifat ba'zida olmosh-ravish va bog'lovchi bo'lib kelib, boshqa olmoshlardan farqli o'laroq faqat ikki kishi, predmet uchun qo'llaniladi deb aytish mumkin.

Olmoshlar bir necha turlarga bo'linib, alohida so'z turkumi bo'la oladi. Olmoshlar ot va sifat o'rniда ishlatalib kelishi mumkin. Ammo ba'zi xususiyatlari o'zarloq farqlanishi, ya'niy olmoshlar ot va sifatdan farqli o'laroq ular predmetning o'rni va xususiyatlarini to'g'ridan-to'g'ri ifodalamasligini ko'rdik.

#### ADABIYOTLAR

1. Ilsh B. A. The structure of modern English. M. 1959.
2. Kaushanskaya V. L. Kovner A grammar of the English language.
3. Barxudarov L. S., Shteling D. A. "Грамматика английского языка" М. 1963 г.
4. Gordon E. M. "A grammar of present day English" M, 1974.
5. Смирницкий А. И. Морфология английского языка. М. 1959.
6. Starshimova E.K Vasilyeva M.A. Practical grammar of English. Moscow 1975.
7. Англо-русский словарь. Мюллер.
8. New collegiate dictionary. The collaborative international dictionary of English.



*Abdurasul TO'XTAMISHEV,*

*Samarqand davlat chet tillar instituti tayanch doktoranti*

*E-mail:abdurasul\_tukhtamishev@mail.ru*

*Samarqand Konfutsiy instituti direktori, Li Chenxu taqrizi asosida*

### ON THE CHARACTERISTICS OF THE STRUCTURE, DISTINCTIVE MEANING AND POSITION OF USE WITHIN THE CONTENT OF THE SENTENCE OF “是...的”

#### Annotation

This article is about the use of the deconstruction of shi... in the Chinese language in the sentence, and the features of the deconstruction of shi... regarding the structure, the highlighted meaning and the position of use in the sentence are studied in the article.

**Key words:** Construction是...的, clause是, particle 的.

### ОБ ОСОБЕННОСТИ СТРУКТУРЫ, ОТЛИЧИТЕЛЬНОГО ЗНАЧЕНИЯ И УПОТРЕБИТЕЛЬНОЙ ПОЗИЦИИ В СОДЕРЖАНИИ ПРЕДЛОЖЕНИЯ “是...的”

#### Аннотация

В данной статье речь идет об употреблении конструкции 是...的 в китайском языке в предложении, а также изучаются особенности конструкции 是...的 относительно структуры, выделенного значения и места употребления в предложении. в статье.

**Ключевые слова:** Конструкция 是...的, связка 是, частица 的.

### “是...的” NING TUZILISH, AJRATIB KO'RSATILAYOTGAN MA'NO VA GAP TARKIBIDAGI QO'LLANISH POZITSIYASIGA OID XUSUSIYATLARI HAQIDA

#### Annotatsiya

Ushbu maqola xitoy tilidagi 是...的 konstruksiyasining gapda qo'llanishiga oid bo'lib, maqolada 是...的 konstruksiyasining tuzilish, ajratib ko'rsatilayotgan ma'no va gap tarkibidagi qo'llanish pozitsiyasiga doir xususiyatlari tadqiq qilingan.

**Kalit so'zlar:** 是...的 Konstruksiyasi, 是 bog'lamasi, 的 yuklamasi.

Xitoy tilida 是...的 konstruksiyasi gapda suhbatdoshga allaqachon ma'lum bo'lgan ish-harakatning kim tomonidan, qachon, qay tarzda, kim uchun yoki nima maqsadda bajarilganligini ifodalash uchun qo'llaniladi. Shu tariqa, 是...的 konstruksiyasi doimo o'tgan zamonda sodir bo'lgan ish-harakat yoki vaziyatni ifodalab keladi. Ayni shu mazmundagi ish-harakat kim tomonidan, qay tarzda kelajakda bajarilishi haqidagi xabar 是.....的 konstruksiyasi ishtirokida emas, balki darak gap yordamida ifodalanadi.

明天(hol)我(ega)一个人(anizlovchi)坐飞机(hol)去  
(kesim)上海出差(to'ldiruvchi).

Míngtiān wǒ yǐgè rén zuò fēijī qù shànghǎi chūchāi.

“Ertaga men yolg'iz Shanxayga xizmat safari bilan uchaman”[ 2; 437-449].

Yana bir xitoysunos Karpekaning ta'kidlashicha, bu konstruksiya butun bir sintaktik kompleksni, boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, ma'no jihatdan o'zaro bog'liq bo'lgan gapning bir necha bo'laklarini urg'ulash imkonini beradi. 是.....的 konstruksiyasi aniq nisbatdagi gaplarda ma'no jihatdan bir vaqtning o'zida ega va predikatni, majhul nisbatdagi gaplarda esa to'ldiruvchi va predikatni belgilashda yordam beradi.

Aniq nisbatdagi gap:

条件(to'ldiruvchi)是(shi)人们(ega)建立(kesim)的(de)

。

Tíáojiàn shì rénmen jiànli de.

Sharotmi ayanan odamlar yaratadi.

这是(olmosh)由武装侵略(to'ldiruvchi)引起(kesim)的(de).

Zhè shì yóu wǔzhuāng qīnlüè yǐngqí de.

Bu ayanan harbiy tahdid oqibatida yuzaga kelgan.  
[Карпека Синтаксис китайского языка, Санкт-Петербург.  
«Восточный экспресс». 2019 – С. 251.]

是...的 konstruksiyasi qo'llangan aksariyat hollarda 是 fe'li tushib qolishi mumkin. Ya'ni bordiyu gapda 是 ishtirot etsa, u gapga izohlash ohangini beradi (ya'ni harakatning ayanan shu tarzda sodir etilganini urg'ulaydi), bordiyu 是 alohida urg'u bilan ajratilsa, suhbatdosh shubha ostiga olishi mumkin bo'lgan ma'lumotning haqqoniyigini ta'kidlash vazifasini bajaradi.

是...的 konstruksiyali gaplar bir qancha sintaktik va semantik o'ziga xosliklarga ega.

#### I. Tuzilish nuqtai-nazaridan:

主 (ega)+ 是(shi)+ 谓(kesim yoki kesim guruhi) + 的 (de) konstruksiyasi tahlilini oladigan bo'lsak, 是(shi bog'lamasi) kesim guruhi oldidan, 的(yuklamasi) gap oxirida keladi:

我(ega)(是-shi)前天回来(kesim guruhi)的(de)。

Wǒ (shi) qiántiān huílái de.

Men o'tgan kun qaytib keldim.

(So'zlovchining allaqachon qaytib kelganligi vaziyatdan anglashilib, gap urg'usi o'sha harakatning ayanan qachon bo'lganiga qaratilgan).

II. Ma'no nuqtai-nazaridan. 是...的 konstruksiyasi gapda ifodalananoytgan harakatning sodir bo'lganiga oid ma'lumotdan tashqari, unda berilayotgan kesim guruhibiga oid bo'lak ifodalayotgan yangi ma'lumotni ajratib ko'rsatadi; quyida 是...的 konstruksiyasi ifodalashi mumkin bo'lgan asosisi holatlar aks ettirilgan:

2.1. ajratib ko'rsatilayotgan ma'no - ish-harakatning bajarilish vaqtisi:

李(ega)律师(aniqlovchi)(是-shi)九点(payt holi)走(kesim)的(de)。

*Lí lìshī (shi) jiǔ diǎn zǒu de.*

Advokat Li soat 9:00 da ketdi. (harakatning bajarilish vaqtisi)

2.2. ajratib ko'rsatilayotgan ma'no – ish-harakatning sodir bo'lish yo'nalishi va o'rni (ish-harakatning o'mi, boshlanish va tugallanish nuqtalari, ish-harakat trayektoriyasi va h.k.):

我(ega)(是-shi)从上海(o'rín holi)来(keism)的(de)。

*Wǒ (shí) cóng Shànghǎi lái de.*

Men Shanxaydan keldim. (harakatning boshlanish nuqtasi)

2.3. ajratib ko'rsatilayotgan ma'no - ish-harakat yo'naltirilgan, yoki uning sodir bo'lishidan manfaatdor shaxs/adresat:

这(aniqlovchi)辆(aniqlovchi)摩托车(ega)是(shi)给你(to'ldiruvchi)买(kesim)的(de)。

*Zhè liàng mótuō chē shì gěi nǐ mǎi de.*

Bu mototsikl siz uchun sotib olingan.(harakatning benefetsianti)

Yuqorida keltirilgan barcha holatlarda farqli, mazkur misolda是(shi) gap tarkibida tushirib qoldirilishi mumkin emas, chunki 是...的konstruktsiyasi harakat (kesim) va harakat qaratilgan manfaatdor shaxs (to'ldiruvchi – adresat/benefetsiant) ni belgilab kelmoqda.

2.4. ajratib ko'rsatilayotgan ma'no - ish-harakatning bajarilish usuli:

王(ega)教授(aniqlovchi)(是-shi)坐(tarz hol)公共汽车(vosita holi)来(kesim)的(de)。

*Wáng jiàoshòu (shí) zuò gōnggòng qìchē lái de.*

Professor Vang avtobusda keldi.

2.5. ajratib ko'rsatilayotgan ma'no - ish-harakatning bajarilish joyi:

我(ega)(是-shi)在北京(o'rín holi)长大(kesim)的(de)

◦

*Wǒ (shí) zài běijīng zhǎng dà de.*

Men Pekinda o'sganman.

2.6. ajratib ko'rsatilayotgan ma'no - qanday material ustida ish-harakatni sodir etilayotgani haqidagi ma'lumot:

这(aniqlovchi)支(aniqlovchi)毛笔(ega)(是-shi)用(hol)狼毫(to'ldiruvchi-material)做(kesim)的(de)。

*Zhè zhī máobì (shí) yòng lángháo zuò de.*

Bu mo'yqalam bo'rining junidan tayyorlangan.

2.7. ajratib ko'rsatilayotgan ma'no - ish-harakatni bajaruvchi subyekt-ega haqida ma'lumotning是(shi)+ 主语(ega)+谓kesim +的(de) stukturasi orqali ifodalanishi:

(是-shi)谁(ega)说(kesim)的(de)?

(Shi) shéi shuō de?

Kim aytdi?

### III. To'ldiruvchi va 的(de)-yuklamasining joylashuv o'rni nuqtayi-nazaridan.

3.1. Gapda to'ldiruvchi ishtirot etsa的(yuklamasi) gap oxirida ham fe'l va to'ldiruvchi o'rtasida ham qo'llana oladi. Uning fe'l va to'ldiruvchi o'rtasida qo'llanilishi holati ko'proq so'zlashuv uslubida afzal ko'rildi. Ba'zan to'ldiruvchi berilishi ko'zda tutilgan xabar mavzusi o'laroq, gap boshiga ko'chirilishi mumkin.

3.1.1. 的(de) yuklamasining to'ldiruvchidan keyin qo'llanilishi – 主语(ega)+(是-shi)+动词(fe'l)+宾语(to'ldiruvchi)+的(de):

我(ega)(是-shi)坐(hol)火车(to'ldiruvchi)来(kesim)撒马尔罕(Samarqand-to'ldiruvchi)的(de)。

*Wǒ (shí) zuò huochē lái sā mǎ'er hǎn de.*

*Men Samarqandga poyezdda keldim.*

3.1.2. 的(qo'shimchasining fe'l va to'ldiruvchi orasida qo'llanilishi – 主语(ega)+(是-shi)+动词(fe'l)+的(de)+宾语(to'ldiruvchi))

我(ega)(是-shi)坐火车(hol)来(kesim)的(de)撒马尔罕(Samarqand-to'ldiruvchi)。

*Wǒ (shí) zuò huochē lái de sā mǎ'er hǎn*

*Men Samarqandga poyezdda keldim.*

3.1.3. Agarda to'ldiruvchi xabarning mavzusini ifodalasa, u gapning boshiga chiqariladi, ayni paytda 是(shi) egadan oldin, 的(de) esa gapning oxirida qo'llaniladi – 宾语(to'ldiruvchi)+主语(ega)+(是-shi)+动词(fe'l)+的(de):

这个(aniqlovchi)课文(to'ldiruvchi)是(shi)大卫(ega)翻译(kesim)的(de)。

*Zhège kèwén shì dà wèi fānyì de*

*Bu matnni Da Wei tarjima qilgan.*

To'ldiruvchi gapning boshida kelgan holatlarda odatda 是(shi) tushirib qoldirilmaydi.

3.2. Gapda to'ldiruvchi va 的(de) yuklamasining qo'llanish o'mi tahlili. Quyidagi holatlarda 的(de) yuklamasi faqatgina gapning oxirida qo'llaniladi:

3.2.1. Agarda to'ldiruvchi shaxs olmoshlari bilan ifodalangan bo'lsa,

主语(ega)+(是-shi)+动词(fe'l)+宾语(代词)

(to'ldiruvchi olmos bilan ifodalanishi)+的(de):

我(ega)(是-shi)在图书馆(o'rín holi)看见(kesim)他(to'ldiruvchi)的(de)。

*Wǒ (shí) zài túshū guǎn kànjiàn tā de*

*Men uni kutubxonada ko'rdim.*

(是-shi)谁(ega)告诉(kesim)你(to'ldiruvchi)的(de)?

— (是-shi) 校长(ega)告诉(kesim)我(to'ldiruvchi)的(de)。

(Shi), shéi gào sù nǐ de? — (Shi) xiàozhǎng gào sù wǒ de.

*Kim senga aytdi? — Rektor (boshqa emas) menga (bu haqida) aytdi.*

3.2.2. Agarda 是...的konstruksiyasi gapda ish-harakatning maqsadini ifodalasa bunday gaplar 主语+ (是) + (来/去/回) +动词 +宾语(目的 цель) +的- ega+(是)+(来/去/回)+fe'l+to'ldiruvchi (maqsad)+的 sturukturası orqali yasaladi:

我(是)来学习中国古代历史的。

*Wǒ (shí) lái xuéxí zhōngguó gǔdài lìshǐ de.*

Men (bu yerga) Xitoyning qadimiy tarixini o'rganish uchun keldim.

3.3. Agarda fe'l+to'ldiruvchi (离合词 qurilmasi) idiomik xarakterga ega yoki fe'l to'ldiruvchisiz mustaqil qo'llanmaydigan holatda gaplar – ega+(是)+(fe'l)+to'ldiruvchi+的 tarzida shakllanadi:

1) 你是哪年毕业的？我是2015年毕业的。

*Nǐ shì nǎ nián bìyè de? Wǒ shì 2015 nián bìyè de.*

Siz nechanchi yili bitirgansiz? 2015-yilda.

2) 昨天我是一个游泳的。

*Zuótān wǒ shì yíngé rén yóuyǒng de.*

Kecha men yolg'iz suzdim.

Xulosa qiladigan bo'lsak, 是...的konstruksiyasi zamonaliviy xitoy tilida o'tgan zamonda sodir bo'lgan ish-harakat yoki vaziyatni ifodalashda qo'llanilib, suhbatdosha ma'lum bo'lgan ish-harakatning kim tomonidan, qachon, qay tarzda, kim uchun yoki nima maqsadda amalgaloshirilganligini ifodalashga xizmat qiladi. Yuqorida mazkur konstruksiyaning tuzilish nuqtai nazaridan, ma'no nuqtai nazaridan hamda to'ldiruvchi va 的(de)-yuklamasining joylashuv o'rni nuqtayi-nazaridan qo'llanishiga doir holatlarni misollar asosida ko'rib chiqildi.

**ADABIYOTLAR**

1. Горелов В.И., “Грамматика китайского языка”. Москва. 1982. - 280 С.
2. Ивченко Т.В. “Китайский язык Полная грамматика в схемах и таблицах”. Издательство АСТ. Москва 2021. –737 С.
3. Карпека Д.А., “Синтаксис китайского языка”. Санкт-Петербург. «Восточный экспресс». 2019. - 504 С.
4. Чжу Сюсин, “Грамматика китайского языка”. Москва 2019. - 267 С.
5. Син Фуи, “Грамматика китайского языка”. Санкт-Петербург. Издательства СПбГУ. 2019. - 764 С.
6. Курдюмов В.А., “Курс китайского языка – Теоретическая грамматика”. Москва. 2005. - 576 С.
7. 狄昌运. “是.....的”结构方面的错误辨析[J].北京语言文化大学出版社,1996.
8. 丁声树.1961现代汉语语法讲话[M].商务印书馆, 1999.
9. 韩梅. “是.....的”句的句法语义分析[J]. 东疆学刊, 2005(02).
10. 韩昱. “是.....的”句的历时发展研究[D]. 西北师范大学, 2012.
11. 金立鑫.论“是.....的”和“是”以及“的”[J]. 东方语言学, 2013(01).
12. 李海燕. “是.....的”句的语用分析[J]. 汉语教学学刊, 2006(02).
13. 龙海平.已然义“是.....的”类句式的多角度考察[D]. 华中师范大学, 2007.



Darmon O'RAYEVA,

BuxDU professori, filologiya fanlari doktori

Ma'mur SHARIPOV,

Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi,

Buxoro davlat universiteti dotsenti, PhD M.B.Ahmedova taqrizi asosida

## INGLIZ VA O'ZBEK ADABIYOTIDAGI XIZMATKOR OBRAZI: ULARNING AHAMIYATI VA ROLINI O'RGANISH

Annotatsiya

Ushbu maqolada ingliz va o'zbek adabiyotida xizmatkor (3-odam) obrazining qiyosiy tahlili, badiiy mushtarak jihatlari tahlil qilingan. Xizmatkor obrazining sinxron va diaxron tahlili ingliz va o'zbek tillari misolida yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Obraz, badiylik, xizmatkor, tarixiy kontekst, diaxron va sinxron tahlil.

### ХАРАКТЕР СЛУГИ В АНГЛИЙСКОЙ И УЗБЕКСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ: ИССЛЕДОВАНИЕ ИХ ЗНАЧЕНИЯ И РОЛИ

Аннотация

В данной статье проводится сравнительный анализ образа слуги (человека 3) в английской и узбекской литературе и анализируются общие художественные аспекты. Объясняется синхронно-диахронический анализ образа слуги на примере английского и узбекского языков.

**Ключевые слова:** Образ, художественность, слуга, исторический контекст, диахронический и синхронический анализ.

## THE CHARACTER OF THE SERVANT IN ENGLISH AND UZBEK LITERATURE: A STUDY OF THEIR SIGNIFICANCE AND ROLE

Annotation

In this article, a comparative analysis of the image of the servant (3rd person) in English and Uzbek literature and common artistic aspects are analyzed. The synchronic and diachronic analysis of the image of the servant is explained on the example of the English and Uzbek languages.

**Key words:** Image, artistry, servant, historical context, diachronic and synchronic analysis

**Kirish.** Xizmatkor personajlar asrlar davomida ingliz adabiyotining ajralmas qismi bo'lib kelgan. Ular turli shakllarda tasvirlangan: sodiq va ishonchlidan tortib, hiylakor va manipulyatsiyaga qadar. Biroq, ularning tabiatidan qat'i nazar, ular yashaydigan hikoyalarda muhim rol o'ynaydi. Ushbu maqola ingliz adabiyotidagi xizmatkor personajlarning ahamiyatini va ular syujet va boshqa qahramonlarning rivojlanishiga qanday hissa qo'shishini o'rganishga qaratilgan.

**Asosiy qism.** Xizmatkor obrazlar qadim zamonlardan beri adabiyotda asosiy o'rinni egallagan. Qadimgi Yunonistonning kamtar qullaridan tortib, zamonaviy romanlarning sodiq butlerlarigacha, xizmatkor qahramonlar tasviri vaqt o'tishi bilan rivojlanib bordi. Biz ushbu maqolada adabiyotda qadim zamonlardan to hozirgi zamon adabiyotigacha bo'lgan davrda xizmatkor obrazlarning rivojlanishini ko'rib chiqamiz.

Xizmat obrazi tasviri genezisi o'zbek adabiyotida folkloridan boshlangan, deyish o'rinni bo'ladi. O'zbek folklorida Alpomish o'z otasiday ko'rgan qul-xizmatkor Qultoy, Go'ro'g'lining sayisi Soqibulbul, go'zal malika qizlarning kaniz-xizmatkorlari Suqsuroy, Oqqiz va boshqalar obrazi bunga misol bo'ladi. Folkorda xizmatkor obrazi, asosan, bosh qahramonning tarbiyachisi, sodiq yordamchisi va maslahatgo'y qiyofasida aks ettiriladi. Shu tasvir usuli Abdulla Qodiriyning "O'tgan kunlar" romanidagi bosh qahramon Otabekning mehrinig qozongan ma'naviy padari buzrukвори, keksa xizmatkor Hasanali qiyofasida davom etganligi kuzatiladi.

**Tarixiy kontekst.** Qadimgi adabiyotda xizmatkor personajlar ko'pincha xo'jayinlariga tegishli bo'lgan qullar sifatida tasvirlangan. Bu belgilari o'z xo'jayinlariga so'zsiz

xizmat qilishlari kutilgan edi. Yunon va Rim adabiyotida qullar ko'pincha xo'jayinlari tomonidan yomon munosabatda bo'lgan va haqoratlangan sifatida tasvirlangan. Biroq, qullar o'z xo'jayinlariga sodiq va sadoqatli sifatida tasvirlangan holatlar ham bo'lgan.

Qadimgi adabiyotdagagi sodiq xizmatkorning eng mashhur namunalaridan biri Gomerining "Odyssey" asaridagi Nausikaa obrazidir. Nausicaa – dengiz qirg'og'ida halokatga uchragan Odisseyni topib, uni qabul qiladigan malika. Uning xizmatkor qizlari unga sodiq va yordamchi bo'lib, unga kundalik ishlarda yordam berishadi.

O'rta asr adabiyotida xizmatkor obrazlar tasviri o'zgara boshladi. Xizmatkorlar endi oddiy qullar sifatida emas, balki o'zlarining shaxsiyatları va motivatsiyalariga ega bo'lgan shaxslar sifatida ko'rishdi. Ular ko'pincha aqli va topqir bo'lib, qiyin vaziyatlardan chiqish uchun o'zlarining aql-zakovatidan foydalananilar. O'rta asrlar adabiyotidagi aqli xizmatkorning namunalaridan biri - Choserning Miller qahramoni. Tegirmonchi o'z xo'jayinini ortda qoldirib, undan o'g'irlashga qodir bo'lgan xizmatkor. U ayyor va tez zehnli bo'lib, o'z aql-zakovatidan o'zi xohlagan narsaga erishish uchun foydalaniadi.

Uyg'onish davri adabiyotida xizmatkor obrazlar tasviri murakkablashdi. Xizmatchilar endi shunchaki fon qahramonlari emas, balki hikoyada ko'proq muhim rollarga ega bo'lishdi. Ular ko'pincha o'z xo'jayinlariga sodiq va sadoqatli sifatida tasvirlangan, ammo ularning o'z xohishlari va motivlari ham bor edi. Shekspirning "Bo'ron" pyesasi bunga yorqin misoldir. Kalibanning xarakteri - dastlab yirtqich hayvon sifatida tasvirlangan xizmatkor. Biroq, o'yin davom

etar ekan, biz Kaliban aslida o'z xohish-istaklari va motivatsiyasi bilan murakkab xarakter ekanligini bilib olamiz.

18-19-asrlarda maishiy xizmat ko'p bo'lgan davrda ingliz adabiyotida xizmatkor obrazlar keng tarqalgan edi. Ular ko'pincha o'sha davrning ijtimoiy ierarxiyasini aks ettiruvchi bo'ysunuvchi va itoatkor sifatida tasvirlangan. Biroq, 20-asrning rivojlanishi bilan adabiyotda xizmatkorlar tasviri yanada nozik bo'lib, ijtimoiy sinf va hokimiyat dinamikasiga nisbatan o'zgaruvchan munosabatni aks ettiради.

Aytish joizki, xizmatkor obrazni ifodasi davr voqealari bilan bog'liq. Bunda tadrijiylik kuzatiladi, zero, odamzod faqat ma'lum jonivorlarni o'z xizmatiga qo'sha boshlagan. Bu esa ba'zan ixtiyorli, ba'zan majburiy tarzda amalgalashirilgan. Bu illat, ayniqsa, quldarlik davrida yuqori darajaga ko'tarilgan. Bunday fojia badiyi adabiyotda qul-xizmatkorlar timsoldida umumlashtirildi, buning dalili sifatida Sadreddin Ayniuning "Qullar" romanini qahromonlari siyosini keltirish mumkin, lekin bu asarda qul-xizmatkorlar "uchinchchi-odam" timsoldida emas, yetakchi qahramon obrazida tasvirlangan.

Zamonaviy adabiyotda xizmatkor personajlar tasviri rivojlanishida davom etdi. Xizmatchilar endi shunchaki fon qahramonlari emas, balki ko'pincha o'z hikoyalari va xarakter yoylari bilan ta'minlanadi. Ular o'z xohish-istaklari va motivatsiyalari bo'lgan shaxslar sifatida tasvirlangan. Kazuo Ishiguroning "Kun goldiqlari" romanidagi janob Stivens obrazni bunga misoldir. Janob Stivens o'z xo'jayiniga sadoqatli, lekin ayni paytda o'zining afsus va yo'gotish tuyg'ulari bilan kurashadigan butlerdir. Uning boshqa qahramonlari bilan o'zaro munosabatlari orqali biz janob Stivensning xarakterining rivojlanib, o'sib borayotganini ko'ramiz.

#### Xizmatkor obrazni belgilari turlari:

Ingliz adabiyotidagi xizmatkor personajlarni ikki toifaga bo'lish mumkin: o'z xo'jayiniga sodiq va sodiq bo'lganlar va bevafo va manipulyatsiya qiluvchilar. Ish beruvchisi Berti Vuster uchun muammolarni hal qilishda o'zining aql-zakovati va topqirligi bilan mashhur bo'lgan Vudxausning romanlari. Xuddi shunday, Daphne du Maurierning "Rebekka" asaridan Danvers xonim o'zining marhum bekasiga sodiq bo'lgan va yangi missis de Winterdan xafa bo'lgan sodiq xizmatkor.

Boshqa tomondan, ikkinchi toifaga Shekspirning "Otello" dagi Iago kabi qahramonlar kiradi, ular o'z xo'jayinini xotinini xiyonatkor deb hisoblaydilar. Yana bir misol - Jeyn Ostening Mansfield bog'idagi Norris xonim, u jiyani Fanni Praysni doimiy ravishda pastga tushiradigan snob va manipulyatsiya xarakteriga ega.

#### Xizmatkor obrazining syujetni ishlab chiqishdagi roli:

Xizmatkor personajlar ko'pincha syujetning rivojlanishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ular boshqa belgilar bilmagan bo'lishi mumkin bo'lgan ma'lumotlardan xabardor bo'lib, ularning xatti-harakatlari juda katta oqibatlarga olib kelishi mumkin. Misol uchun, Emili Brontening "Wuthering Heights" asarida Nelli Din ko'p voqeani hikoya qiluvchi xizmatkor va syujetning hal qilinishida muhim rol o'ynaydi.

Xuddi shunday, Charlz Dikkensning "Buyuk umidlar" asarida Pipning xayrixohiga aylangan mahkum Magvitch xarakteri, uning sodiq xizmatkori Kompeyson aralashuvi orqali Estellanining onasining otasi ekanligi oshkor bo'ladi. Bu syujetga sezilarli ta'sir ko'rsatadi va voqealarning dramatik burilishiga olib keladi.

"Buyuk umidlar" asaridagi eng ko'zga ko'ringan xizmatkor qahramonlaridan biri - Pipning qaynog'asi temirchi Jo Gargeri. Jo kamtarin va sodiq qahramon sifatida gavdalangan bo'lib, u o'z oilasiga sodiq va ota-onasi vafotidan keyin Pipga g'amxo'rlik qiladi. U katta qalbga ega, boshqalarga yordam berishga doimo tayyor odam sifatida tasvirlangan. Misol uchun, Pip muammoga duch kelganda, Jo

shaharda o'zini qulay his qilmasada, unga yordam berish uchun Londonga boradi.

Romandagi yana bir xizmatkor qahramon - Bidi, u o'qituvchi bo'lib ishlaydi va keyinchalik Joning xotiniga aylanadi. Biddi mehribon va aqlli qahramon bo'lib, Pipga talim olishda yordam beradi va uni orzularini amalga oshirishga undaydi. U, shuningdek, olyjanob ayol sifatida o'sgan, ammo Biddining iliqligi va rahm-shafqatiga ega bo'Imagan Estellanadan farqli o'laroq xizmat qiladi.

Va niyoyat, Joning temir zavodida ishlaydigan va keyinchalik Miss Xavishamning yuk tashuvchisiga aylangan ishchi Orlikning xarakteri ham bor. Orlik - zo'ravon va g'azabli qahramon bo'lib, u Pip va Joga nisbatan nafrat saqlaydi. U xizmatkorlar sinfining qorong'u tomonini ifodalaydi, agar ba'zi xizmatchilar o'zlariga yomon munosabatda bo'lishganliklarini yoki e'tiborsiz qolganliklarini bilihsa, qanday qilib xafa bo'lishlari va xavfli bo'lishlari mumkinligini ko'rsatadi.

Xizmatkor obrazining xarakterni rivojlantirishdagi ahamiyati:

Xizmatkor personajlar boshqa personajlarning rivojlanishida ham katta rol o'ynaydi. Ular ko'pincha xo'jayinlari yoki bekasi uchun folga vazifasini bajaradilar, ularning kamchiliklari va zaif tomonlarini ta'kidlaydilar. Misol uchun, Jeyn Ostening "G'urur va Xurofot" asarida janob Kollinz Elizabeth Bennetning aql-zakovati va aql-zakovati uchun folga bo'lib xizmat qiladi. Uning beadabligi va o'zini o'zi anglamasligi Elizabethning mustaqilligi va o'ziga ishonchini ta'kidlaydi. Xuddi shunday, Sharlotta Brontening Jeyn Eyr asarida Tornfield Xolldagi uy bekasi Feyrfaks xonim obrazni o'rychan va sirli janob Rochesterga qarama-qarshi bo'lib xizmat qiladi. Uning iliqligi va mehribonligi uning sovuqqonligi va uzoqligini ta'kidlaydi.

Feyrfaks xonim Jeyn Eyr gubernator bo'lib ishlaydigan Tornfield Xollda uy bekasi. U Jeynga g'amxo'rlik qiladigan va uni o'z uyidagidek his qilishga harakat qiladigan mehribon va onalik timsoli sifatida tasvirlangan. Feyrfaks xonimning xarakteriga misollar keltiramiz:

1. Mehrionlik va hamdardlik: Feyrfaks xonim Tornfield zaliga birinchi marta kelganida Jeynga mehr va hamdardlik ko'rsatadi. U uni iliq kutib oladi va o'zini qulay his qilishga harakat qiladi. Masalan, u Jeynga shunday deydi: "You must be tired and hungry, Miss Eyre. Come, let me show you to your room, and then we can have some supper."

2. Sadoqat: Feyrfaks xonim o'z ish beruvchisi janob Rochesterga sodiqdir, lekin u ham uning farovonligi haqida qayg'uradi. U Jeynni janob Rochesterning fe'l-atvori haqida ogohlantiradi va uning atrofida ehtiyoj bo'lishni maslahat beradi. Misol uchun, u shunday deydi: "Mr. Rochester can be very kind, but he can also be very moody. You must be careful not to upset him."

3. Halollik: Feyrfaks xonim haqiqatni Jeyndan yashirmaydigan halol xarakterdir. U unga uydagi g'alati shovqinlar va ularni keltirib chiqarayotgan sirli odam haqida gapirib beradi. Misol uchun, u shunday deydi: "I don't know what it is, Miss Eyre, but there's something strange going on in this house. I've heard footsteps in the attic and doors opening and closing by themselves."

4. Hikmat: Feyrfaks xonim uzoq umr ko'rgan, ko'p narsalarni ko'rgan domishmand qahramondir. U Jeynga maslahat beradi va unga Tornfield Xolldagi murakkab ijtimoiy ierarxiyanı boshqarishga yordam beradi. Misol uchun, u shunday deydi: "You must be careful around the other servants, Miss Eyre. They can be very jealous of a governess who is treated well by their master."

Umuman olganda, Feyrfaks xonim Jeynning Tornfield Xolldagi hayotida muhim rol o'ynaydigan qo'llab-quvvatlovchi va tarbiyalovchi xarakterdir.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, ingliz adabiyotidagi xizmatkor qahramonlar ular yashaydigan hikoyalarning muhim qismidir. Ular syujet va boshqa personajlarning rivojlanishida hal qiluvchi rol o'ynaydi, ijtimoiy ierarxiya va kuch dinamikasi haqida tushuncha beradi. Ular sodiq bo'ladimi yoki manipulyatsiyachi bo'ladimi, ular o'zlari yashaydigan hikoyalarga chuqurlik va murakkablik qo'shadilar. Adabiyotda xizmatkor obrazlar tasviri vaqt o'tishi bilan rivojlanib bordi. Qadimgi Yunonistonning kamtar qullaridan tortib, zamonaviy romanlarning murakkab qahramonlarigacha, xizmatkor qahramonlar uzoq yo'ni bosib o'tdi. Bir paytlar ular past va ahamiyatsiz deb hisoblangan

bo'lsa-da, endi ular hikoyada ko'proq muhim rollarga ega bo'lib, o'z xohish-istiklari va motivlariga ega shaxslar sifatida tasvirlanadi.

O'zbek romanlarida xizmatkor obrazni tasviriga alohida o'rinn ajratilgani kuzatiladi. Milliy adabiyotimizda xizmatkor obrazining bir necha tipik vakillari siyoshi o'ziga xos an'analar vositasida yaratilgan. Adabiyotda xizmatkor obraz davr voqealari bilan bog'liq, undan har bir davrda zamon voqeligini real aks ettirishda, syujet voqealarini yanada boyitishda xronotop shakli sifatida o'ziga xos usul va ko'rinishlarda foydalananilgan.

#### ADABIYOTLAR

1. Mary Ann Cotton in The Five by Hallie Rubenhold: <https://www.goodreads.com/book/show/43882098-the-five>.
2. Mrs. Danvers in Rebecca by Daphne du Maurier: <https://www.goodreads.com/book/show/17899948-rebecca>.
3. John Bates in Downton Abbey by Julian Fellowes: <https://www.imdb.com/title/tt1606375/>.
4. Mr. Carson in Downton Abbey by Julian Fellowes: <https://www.imdb.com/title/tt1606375/>.
5. Mrs. Fairfax in Jane Eyre by Charlotte Bronte: [https://www.goodreads.com/book/show/10210.Jane\\_Eyre](https://www.goodreads.com/book/show/10210.Jane_Eyre).
6. Akhmedova Mekhrinigor. The meaning of spirituality: different approaches and development of the word. Science and practice: a new level of integration in the modern world. 2018/4/28. - P.110-113.
7. Sumaira Nawaz, Khaitova Gulshan Bahodirovna, and Akhmedova Mehrinigor Bahodirovna. "Explanation of Agricultural Terms in Dictionaries". Indonesian Journal of Innovation Studies, Vol. 18, May 2022, doi:10.21070/ijins.v18i.606.
8. Bahodirovna A.M. "Semantic Field and Sema in Uzbek (In the Example of 'Ma'naviyat')". International journal of inclusive and sustainable education, vol. 1, no. 4, Oct. 2022, pp. 77-80, <http://inter-publishing.com/index.php/IJISE/article/view/173>.
9. Sharipov M.M. "Intertextuality and Intertext: Main elements and determination. 2022/10/21 International journal of inclusive and sustainable education <http://inter-publishing.com/index.php/IJISE/article/download/187/148>.
10. Sharipov M.M. The Problem of Intertextuality in Modern Literature 2022/5/11 Indonesian Journal of Innovation Studies <https://ijins.umsida.ac.id/index.php/ijins/article/view/604>.
11. Sharipov M.M. Modernist prose in the light of intertextuality in modern literary criticism 2022/3/31 Innovative Society: Problems, Analysis and Development Prospects <https://www.openconference.us/index.php/ISPADP/article/view/258>.



**Mohigul XALIKOVA,**

Buxoro davlat universiteti Ingliz tilshunosligi kafedrasi mustaqil tadqiqotchisi

E-mail: islomovas98@gmail.com

Buxoro davlat pedagogika instituti dotsenti, f.f.d. N.I. G'aybullayeva taqrizi asosida

## NUMEROLOGY IN LINGUISTIC RESEARCH

### Annotation

In the article, it is said that numbers are not only mathematical symbols, but they are a unit that forms a system of numerology at the linguistic level, as a unit with a symbolic meaning related to mythological, religious, historical and human psyche, and the linguistic features of numbers are revealed.

**Keywords and expressions:** Numerology, numerical system, mythology, semiotics, numbers and history, numbers and symbols, field terminology, numbers in poetry.

## НУМЕРОЛОГИЯ В ЛИНГВИСТИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЯХ

### Аннотация

В статье говорится о том, что числа являются не только математическими символами, но представляют собой единицу, образующую систему нумерологии на лингвистическом уровне, как единицу с символическим значением, относящуюся к мифологической, религиозной, исторической и человеческой психике, и выявляются языковые особенности чисел.

**Ключевые слова:** Нумерология, нумерологическая система, мифология, семиотика, числа и история, числа и символы, полевая терминология, числа в поэзии.

## LINGVISTIK TADQIQOTLARDA NUMEROLOGIYA

### Annotatsiya

Maqlolada raqamlar nafaqat matematik belgi, balki ular mifologik, diniy, tarixiy va inson ruhiyati bilan bog'liq ramziy ma'no anglatuvchi birlik sifatida lisoniy sathda numerologiya tizimini tashkil etuvchi birlik ekanligi haqida so'z yuritilib, raqamlarning lingvistik xususiyatlari ochib beriladi.

**Kalit so'zlar:** Numerologiya, numerologik tizim, mifologiya, semiotika, raqamlar va tarix, raqamlar va ramzlar, soha terminologiyasi, she'riyatda raqamlar.

**Kirish.** Bugungi globallashuv jarayonida ustuvor vazifa barsha sohalar qatori o'zbek tilshunosligida ham jamiyat taraqqiyoti uchun xizmat qildagidan soha terminologiyasi, amaliy lingvistika yo'nalishlari kesimida ilmiy yangiliklarni amalga oshirishdir. Tilning lisoniy imkoniyatlaridan amaliy foydalanish natijasida soha leksikasi boyitildi, natijada ko'pgina lisoniy birliklarning substansiya ko'lami ochib berildi. Jumladan, numerologik tizimni tashkil etuvchi raqamlarning matematik belgi ifodalash xususiyatidan tashqari, sonlarning tarixiylik, ramziylik, lingvistik, diniy va xalq madaniyati bilan bog'liq jihatlari ochib berildi.

Bugungi kunda dunyo tilshunosligida xalqning turmush tarzi, dunyoqarashi, o'tmishi va kelajagini aks ettirishda til birliklaridan amaliy foydalanishga alohida e'tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, insoniyat turmush tarzi, ichki kechinmalari, tabiat, borliq, koinot bilan uyg'unlikdagi raqamlarning lingvistik tahlilini amalga oshirish, ularni maxsus tadqiq qilish orqali numerologiya [1] va lingvistika fanlari integratsiyaga kirishdi va raqamlarning lisoniy xususiyat ko'lami kengaydi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Buyuk olim Pifagor raqamlar orqali numerologik tizimni shakllantirdi va bu tizim bizgacha yetib keldi. Eramizdan avvalgi VI asrda pifagorchilar raqamlar matematik belgi ifodalashdan tashqari ruhiy ma'noga ega degan g'oyani ommalashtiradi [2].

Qadimdan raqamlar turli tushunchalarni ifodalab kelgan, numerologiya fanida raqamlar bo'yicha maxsus tadqiqotlar qadimgi Misr va Yunonistondan boshlangan [3].

Ammo, numerologiya tanaganing faqat bir tomonidir, uning ikkinchi jihatni tarix, din, mifologiya va madaniy jihatlarni o'zida jamlaydi. Vaholanki, sonlar(ayrim

manbalarda raqamlar deb keltirilgan) Sharqdan to G'arbgacha ming yillar davomida turli madaniyatlarda turlicha mazmun kasb etgan. Masalan, to'rt raqami misoldida buni ko'rishimiz mumkin: mahaliy amerikaliklar dunyoning yaratilishini dunyoning to'rt tomoniga nisbatan, to'rt shamol yo'nalishidan deb belgilasa(shu mazmunda o'zbeklarda ham "to'rt tomoning qibla"), qadimgi yunonlar dunyo yaralishi muqaddas to'rt element bilan aloqador degan tezisda(Avestoda ham muqaddas to'rt unsur—olov, suv, tuproq, havo keltirilgan\*), xristianlikda to'rt soni dunyoning yaratilishi kuni ya'ni, Xudo olamni haftaning to'rtinchı kuni yaratgan degan mushohada bilan bog'lanadi. Ko'rinish turibdiki, yuqoridaq xalqlarda to'rt soni turli madaniyatlarda, turli vaqt va makonda bo'lishidan qat'iy nazar o'xshash semalarini ham mujassamlashtirgan.Yuqoridaq misollardan ayon bo'ldiki, numerologiya fani tarix, etnografiya, dinshunoslik kabi qator fanlar integratsiyasida ish ko'radi. To'rt raqami o'zbek xalqi lisoniy tizimida esa quyidagi semalarini o'zida jamlay oladi:

to'rt fasl;  
dunyoning to'rt tomoni;  
to'rburchak shakli;  
to'rt sahaba(choryorlar);  
to'rt muqaddas diniy kitob(Qur'on, Tavrot, Injil, Zabur);  
chorak(4/1);  
to'rtinchı farzand(Robiya—ya'ni, oldingi yil hisobi bo'yicha to'rtinchı muqaddas oyda yoki to'rtinchı farzand bo'lib tug'ulgan qiz bola ismiga nisbatan);  
to'rt mazhab(islomdag'i mazhablar—hanafiy, shofifiy, hanbaliy, molikiy).

Shuni aytish joizki, raqamlar mumtoz adabiyotimiz-u folklor asarlarimizda ham o'z ramziylik belgisiga ega. Adabiyotimizda raqamlarga murojaat qilish, raqamlar orqali ramziy ma'no ifodalash klassik ijodkorlarimiz asarlarida ham ko'plab uchraydi. O'z asarlarida raqamlar orqali ramziy ma'no ifolagan ijodkorlar falsafa, tarix, din, mifologiya va numerologiyaga oid bilimga ega bo'lgan va bu raqamlarning yashirin ma'nosini anglagan. O'zbek folklorida ham to'rt soni bilan bog'liq maqollar-u matallar uchraydi:

Oltovlon ola bo'lsa, og' zidagin oldirar,  
To'rtvolon tugal bo'lsa, ummaganin undirar.

Yuqoridagi maqolda to'rt raqami jamlik ma'nosini ifodalab, ovlon jamlovchi son afiksin qabul qilgan.

Baho semasiga ko'ra to'rt "yaxshi" sifatini ifodalaydi. Masalan, "...maktabda baholarim yomon emas, to'rt-besh, dedi Hoshimjon"(X.To'xtaboyev).

Mumtoz shoirlarimiz asarlarida ham to'rt raqami turli semalarni ifoda etgan. Jumladan, Alisher Navoiyning quyidagi g'azalida uchraydigan to'rt raqami mazhab semasini o'zida jamlasa, boshqa bir g'azalida to'rt ulusga (Nuh payg'ambar va uning vorislari) ishora qiladi:

Kim ayo to'rt ulusqa voris,  
Faxr etib zotingg'a ruhi Yofas.  
Jahon zoli ham tark etar, ham nifoq,  
Ani to'rt mazhabda qil uch taloq [4].

Tasavvuf ilmining namoyandası Ahmad Yassaviy ham o'z hikmatlarida to'rt raqami ramziy ma'no kasb etib, "to'rt muqaddas ariq" semasi orqali jannatiylik ma'nosini ifodalagan, ya'ni tavba qilib haqqa yongan oshiqlarga jannah ichra to'rt ariqning sharbati ato etilishini bayon qilgan:

Tavya qilib haqqa yong'an oshiqlarga,  
Uchmoq ichra to'rt arig'da sharbati bor [5].

Tasavvuf ilmidida to'rt soni diniy mazmundagi semani o'zida jamlab, turli tushunchalarini ifodalaydi, jumladan, buyuk shoir Alisher Navoiy bir g'azalida "To'rt ariq" diniy birlikni keltirib, tasavvufiy sema ustiga to'rt raqami orqali dunyoviy ilmlarni ham qavatlantirgan. Tasavvuf ahli to'rt soni bilan odatda "to'rt ariq(chor arba)"(ayrim tasavvufchilar "to'rt irmoq" ham deb ishlataladi)ni tushunsa, Alisher Navoiy to'rt raqami semasini quyidagi yangi ma'no bilan boyitdi:

Har ko'zumdin goh su, gah qon oqar ko'yung aro,  
To'rt ariq oqqan masallik ravzayi rizvonda su [6].

Ushbu parchada keltirilgan to'rt raqami dunyo ilmlarining 4 xilligiga ishora qilgan—kasbiy ilm, fitriy ilm, ilmi xoli sakr, ilmi haqiqati zavqiya [7] kabi ilmlarni nazarda tutgan.

Yuqorida keltirilgan misollardan ayon bo'ldiki, raqamlar ifodalagan sema milliy mental xususiyatlarni ham o'zida majassamlashtiradi. Bu milliylik ma'lum millat shoirlari asarlarida, xalq folklori namunalarida, nutqiy muloqotda raqam ifodalaydigan turli mazmun semalari orqali voqelanadi. Har bir millat o'zining milliy tili, til birliliklariga ega va bu lisoniy birliklar xalqning o'zligini, madaniyatini namoyon etuvchi vosita hisoblanadi. Jumladan, yurtboshimiz Shavkat Mirziyayev bejizga "Dunyodagi qadimiy va boy tillardan biri bo'lgan o'zbek tili xalqimiz uchun milliy o'zligimiz va mustaqil davlatchiligidimiz timsoli, bebaho ma'naviy boylik, buyuk qadriyatdir. Turkiy tillarning katta oilasiga mansub bo'lgan o'zbek tilining tarixi xalqimizning ko'p asrlik kechmishi, uning orzu-intilishlari, dard-u armonlari, zafarlari va g'alabalari bilan chambarchas bog'liqidir. Ajdodlarimiz, ota-bobolarimiz aynan ona tilimiz orqali jahonga o'z so'zini aytib kelganlar. Shu tilda buyuk madaniyat namunalarini, ulkan ilmiy kashfiyotlar, badiiy durdonalar yaratganlar" [8] deb aytmaganlar.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Darhaqiqat, barcha til birliliklari kabi raqamlar ham hayotimizda turli jabhalarda—matematik amallar(uch taqsim bir), muhim tarixiy sanalar (1991-yil 31-avgust O'zbekiston Respublikasi mustaqillik

kuni), turli narsalarni kodlash(mashina raqamlari-yu telefon raqamlar), shaxsiylik(ID - pasport JSHIR) va hokazo... qator mazmurnlarni ifoda etgan. Pifagor ham bejizga "Son—borliqning asosi" degan nazaryani ilgari surmagan. Raqam so'zining izohi ham arabcha "yozuv", "bitish", "son" ma'nolarini ifodalab, eng qadimgi raqamlar bobilliklar va misrliklarga mansub [9].

Bundan tashqari, badiiy durdonalarimiz nomlari tarkibida ham raqamlar uchrashi e'tiborga molikdir. Jumladan, "Ikki eshik orasi", "Ikki karra ikki—besh", "Uch og'ayni botirlar", "Yetti zog'ora qissasi", "To'qqizinchchi kvartira", "O'n sakkizga kirmagan kim bor"... asar nomlari tarkibidagi bu raqamlar o'z mazmun mohiyatiga ega.

Tilning bunyodkorlik vazifasi xalqimiz nutqida uchraydigan iboralar-u metaforik birliliklar ifodalagan mazmunda yaqqol aks etadi. Jumladan, tilimizda raqamlar qatnashgan shunday frazeologik, evfimik, metaforik birliliklar borki, raqamlar orqali voqealangan sema nutqni ko'tarinki mazmun, ifoda ta'siri bilan boyitadi:

Qilni qirq yoradigan—Yo'lchi qilni qirq yoradigan yigit;

Qirq kokilli qiz—Zulxumor go'zallikda tengsiz, qirq kokilli qiz edi;

Yetti qavat niqob—So'fi yetti qavat niqobli odam edi;  
Ikkiquat—Mehrining ikkiyat bo'lganini eshitgan Jannah xola tashvishlana boshladi.

O'n sakkiz ming olam sarvari— Muhammad s.a.v. ga na'tlar bo'lsin...

Bundan tashqari shunday paremiologik birliliklar borki, ulardagagi asosiy mazmun raqamlar orqali namoyon bo'ladi:

Yetimning haqqi yetti daryoni quritar;

Bola yettiga kirguncha yerdan yetti tayoq yeydi;

Yeridan ayrilgan yetti yil yig'lar;

Elidan ayrilgan o'lguncha yig'lar;

Yetti o'lichab bir kes.

Yuqoridagi paremiologik birliklarda asosan "yetti" raqami orqali asosiy ma'noga urg'u berilgan. Bu raqamni boshqa raqamlar bilan almashtirib bo'lmaydi, chunki, bizga ma'lumki, xalq paremalari tarkibidagi til birliliklari asrlar davomida sayqallanib, avloddan-avlodga o'tib keladi va ular tarkibidagi har bir leksema ma'lum ma'no kasb etadi. Bundan tashqari, yetti raqami bilab bog'liq shunday perifrazik, frazeologik, metaforik birliliklar borki, ularning tarkibini o'zgartirib bo'lmaydi, til birliliklari tarkibidagi raqamlar orqali hosilaning mazmun plani reallashadi:

Dunyoning yetti mo'jizasi;

Yetti qaroqchi yulduzi;

Yetti iqlim;

Yetti sayyora;

Yetti pusht;

Yetti falak;

Yetti kun.

Ushbu birliliklar tarkibidagi yetti raqami o'rniga boshqa sonni qo'ysak nutq birliklarining ifoda semasiga putur yetadi. Yetti raqami bilan bog'liq ushbu birliklarning hosil bo'lish etimologiyasi ancha qadimga borib taqaladi va badiiy durdonalarimiz tilida bu kabi birliklarni uchratishimiz mumkin:

Ko'rmadingizmi Alloh yetti osmonni qanday ustma-ust qilib yaratdi.(Nuh surasi, 15-oyat)\*;

Yetti osmon, yer va ulardagи bor jonzot unga tasbeh aytur(Al-isro, 44-oyat);

Yetti kavokib va o'n ikki burj haqida bayon("Qutadg'u bilig" bir bobining nomi);

E'tibor qaratadigan bo'lsak, yuqoridagi birliklarning aksariyati [son+ot] shaklidagi birliklar bo'lib, asosiy mazmun sondan anglashilgan. Shuni aytish joizki, raqamlar orqali ifodalagan millat tilida xalq ruhi, xalq tarixi, xalq madaniyatini ko'rinish turadi. Ya'ni har bir xalqning o'z nutq uslubi, o'z

badiyati mayjud. Barcha til birliklarida bo'lgani kabi raqam anglatgan ko'chma va ramziy ma'noda ham millat ruhi aks etadi.

**Xulosa.** Numerologik tizimni tashkil etuvchi raqamlarning lingvistik xususiyatlarini tadqiq qilish natijasida, sonlarning lingvokulturologik xususiyatlari, raqamlarning

matnda anglashiladigan yashirin ifodalari-yu badiiy durdonalarimiz hisoblangan asarlar tilidagi raqamlarning ramziy ma'nolarini qisman ochib berishga harakat qildik. Ammo, raqamlarning qardosh tillar doirasidagi ifoda semalarini qiyoslash, ularni to'liq lingvistik aspektda tahlil qilish oldimizda turgan muhim vazifadir.

### ADABIYOTLAR

#### Izoh:

- \* Avesto -zardushtiylik dinining muqaddas kitobi. Mil.av.3-ming yillik.
- \* Yetti raqamining ma'no xususiyatlarining ildizi Qur'oni Karimga borib taqaladi. Yetti samo(Baqara,29); yetti dengiz(Luqmon,267); yetti boshoq(Baqara,261/ Yusuf,46); yetti kun(Baqara,196); yetti darvoza(Xijr,44); yetti kecha(Al-Hoqqa,7); yetti yo'l(Mu'minun,17); yetti ozg'in sigir, yetti semiz sigir(Yusuf,46); yetti yil(Yusuf,47) kabi oyatlardagi yetti raqamiga bog'lanadi. Zero, Qur'oni Karimda yetti raqami 24 marta zikr qilingan
- 1. Numerologiya- raqamlar haqidagi qadimiy va ezoterik fan. Numerologiyaga ko'ra, har bir raqam o'zining vibratsiyasiga ega va koinotga signal beradi.
